

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

A.A. Usmanova

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

O'quv qo'llanma

TOSHKENT – 2014

Usmanova A.A. Pedagogika va psixologiya. O‘quv qo‘llanma. –T.: JIDU.
304 bet.

JIDUning O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan
(2014 - yil 18 fevral 13- sonli bayonnoma).

Tayyorladi: **A.A. Usmanova**, p.f.n., “IGF” kafedrası dotsenti.

Taqrizchilar: **F.N. Xalilov**, p.f.d., izomiy nomidagi TDPU professori;
E.S.Sultanova, s.f.d., “IGF” kafedrası professori

O‘quv qo‘llanma pedagogika va psixologiya fani bo‘yicha yaratilgan o‘quv-uslubiy majmua asosida tayyorlangan. Yoritilgan mavzular fanning o‘quv-ishchi dasturida belgilanib o‘tilgan asosiy masalalarni o‘zida aks etadi. Har bir mavzu ma’ruza rejasi hamda matni, kalit so‘zlar, tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan to‘ldirilgan. Qo‘llanma ta’lim oluvchilarga pedagogika va psixologiya fanidan nazariy bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

MUNDARIJA

KIRISH	8
1-MAVZU	
PEDAGOGIKA FANI, UNING PREDMETI, VAZIFALARI, ILMIY-TADQIQOT USULLARI. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH	9
1.1. Pedagogika fanining metodologiyasi, predmeti, asosiy vazifalari.....	9
1.2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.....	13
1.3. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.	16
1.4. Ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari faoliyati.	20
2 – MAVZU	
TARBIYA JARAYONI VA SHAXS TARBIYASI	26
2.1. Tarbiya jarayoni, uning mohiyati.Tarbiya qonuniyatlari.....	26
2.2. Tarbiya jarayonida pedagogik talab.....	30
2.3. Tarbiya metodlari.....	34
2.4.Tarbiya jarayonida o'qituvchi faoliyatining xususiyatlari.....	39
3-MAVZU	
GURUH SHAROITIDA ZAMONAVIY O'QITISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI	44
3.1. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari.....	44
3.2. Faol o'qitish usullari va ularni tashkil etish.....	45
3.3. Darsda munozara, breyn storming va treninglar o'tkazish texnologiyasi.	47
3.4. Bahs turlari. Yozma bahs o'tkazish usullari.....	49
4-MAVZU	
O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI	53
4.1. O'quv faoliyatini tashkil etish shakllari.....	53
4.2 Ta'limda o'qitish va o'qish tizimining vujudga kelishi.....	54
4.3. O'quv ishlarini tashkil qilish shakllari.....	55
5 - MAVZU	
PEDAGOGIK NAZORAT	59
5.1. Pedagogikada reyting tizimi nazorati.....	59
5.2. Nazorat turlari.....	61
5.3. Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar.....	63
5.4. Bilimlarni baholashga qo'yiladigan talablar.....	65
5.5. O'qituvchining nazorat olib borishdagi xatolari.....	67
O'zini-o'zi baholash tartibi.....	67

6-MAVZU

TA'LIM JARAYONI: DARSNING STRUKTURASI, ELEMENTLARI VA TURLARI

6.1. Ta'lim jarayonining mohiyati, vazifalari, rivojlantirish funksiyalari.	71
6.1. Ta'lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari). Darsning strukturasi.....	73
6.3. Darsning turlari.	77

7-MAVZU

MUSTAHKAM OILA - TA'LIM-TARBIYANING TARKIBIY

QISMI SIFATIDA	82
7.1. Mustahkam oila – jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida.....	82
7.2. Oila va oilaviy munosabatlar ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida.....	84
7.3. Zamonaviy oilaning asosiy funksiyalari.	87
7.4. Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda oila va oilaviy munosabatlarning o'ri.	90 90

8-MAVZU

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, FANLAR TIZIMIDAGI O'RNI.....

8.1. Yangi davr va psixologiya. Psixologiya fan sifatida.....	95
8.2. Psixologiyaning predmeti. Psixika va uning namoyon bo'lish shakllari.....	97
8.3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'ri.	98
8.4. Psixologiyaning tarmoqlari.	102

9-MAVZU

PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY USULLARI. AMALIY

PSIXOLOGIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI.....

9.1. Psixologiyaning asosiy usullari, tatbiqiy va amaliy sohalari.	104
9.2. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi.	108 108

10-MAVZU

SHAXS STRUKTURASI. SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI..

10.1. Shaxs strukturasi.	113
10.2. Individual-tipologik xususiyatlar tasnifi.	116
10.3. Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi.	118
10.4. Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi.....	122
10.5. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari.....	122
10.6. Xarakter va shaxs.	124

11-MAVZU

PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI.....

11.1. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida	128
---	-----

11.2. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs.....	131
Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi.....	131
11.3. «Men» obrazi va o'z-o'zini baholash. "Men-konsepsiyasi".....	134
11.4. O'spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi.....	140
11.5. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar.....	143
11.6. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli.....	145
12 - MAVZU	
XULQ-ATVOR VA USTANOVKALAR. IJTIMOIIY MULOHAZALAR.....	148
12.1. Ustanovka –shaxsning obyektga nisbatan psixologik.....	148
tayyorgarligi.	148
12.2. "Eshik orasidagi oyoq" fenomeni va "tuzoqqa ilintirish" texnikasi. Ijtimoiy mulohazalar va atributsiya nazariyasi.	149
13-MAVZU	
XUROFOTLAR VA IJTIMOIIY STEREOTIPLAR. AGRESSIYA VA ZO'RAVONLIK.....	153
13.1. Atrofdagilarni idrok etish jarayonidagi xatolar.....	153
Xurofot va ijtimoiy stereotiplar.....	153
13.2. Agressiyaning ijtimoiy-psixologik nazariyalari. Agressiyani harakatga keltiruvchi omillar.	156
14-MAVZU	
NIZO VA YARASHISH JARAYONI.....	159
14.1. Nizolarning ijtimoiy-psixologik asoslari.	159
14.2. Ijtimoiy dilemmalar.....	160
14.3. Hamkorlikka erishish sharoitlari.....	163
15-MAVZU	
IJTIMOIIY GURUHLAR FAOLIYATI.....	167
15.1. Ijtimoiy guruhlarning tarixiy rivojlanganligi.....	167
15.2. Shaxs va guruh. Guruh turlari.....	169
15.3. Jamolarda psixologik o'zaro moslik.....	173
15.4. Konformizm hodisasi.....	176
16-MAVZU	
SHAXS FAOLLI GI.....	181
16.1. Shaxs va uning faolligi.....	181
16.2. Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar.....	182
16.3. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.....	185
16.4. Motivlarning turlari.....	187
17-MAVZU	
SHAXSNING IJTIMOIIY BORLIQNI BILISHI.....	192
17.1. Bilish jarayonlari va kasbiy faoliyat.....	192

17.2. Idrok va uning xususiyatlari.....	194
17.3. Xotira va shaxs tajribasining boyligi.....	198
18-MAVZU	
TAFAKKUR	205
18.1. Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati.....	205
18.2. Tafakkur turlari va shakllari.....	208
18.3. Tafakkur operatsiyalari. Tafakkurni rivojlantirish usullari.....	210
19-MAVZU	
SHAXS TARAQQIYOTINING YOSHGA BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI	213
19.1. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar.....	213
19.2. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo‘lish.....	214
19.3. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida shaxs.....	216
ijtimoiylashuvining o‘ziga xosligi.....	216
19.4. Yoshlardagi attraktsiya va emotsional munosabatlar.....	220
20 - MAVZU	
SHAXS INSONIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA	225
20.1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi.....	225
20.2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni.....	226
20.3. Muloqotni o‘rnatish muammolari.	229
21-MAVZU	
MEHNAT FAOLIYATI PSIXOLOGIYASI	234
21.1. Mehnat psixologiyasi tushunchasi. Mehnat, kasb, mutaxassislik.....	234
21.2. Mehnatning psixologik mazmuni va o‘rganish usullari.....	236
21.3. Mehnat egasining shakllanishi. Kasbgramma usuli.....	237
21.4. Shaxsning mehnat faoliyati, mehnat turlari.	240
22-MAVZU	
IQTISODIY PSIXOLOGIYA VA IQTISODIY XULQ-ATVOR	244
22.1. Iqtisodiy psixologiya fanining tarixiy rivojlanganligi.	244
22.2. Iqtisodiy xulq-atvor.	245
22.3. Pulni ijtimoiy-psixologik idrok qilish.	246
23 - MAVZU	
TADBIRKORLIK PSIXOLOGIYASI. REKLAMA PSIXOLOGIYASI	249
23.1. Tadbirkorlik hodisasi.....	249
23.2. Tadbirkorlik hodisasi nazariyalari.....	255
23.3. Reklama – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida.	259
24-mAVZU	
TASHKILOTCHILIK VA BOSHQARUV FAOLIYATIDA	
QOBILIYATLARNING O‘RNI	262

24.1. Tashkilotchilik va boshqaruv psixologiyasining asosiy tushunchalari.....	262
24.2. Psixologiyada qobiliyatlar tushunchasi.....	265
24.3. Tashkillashtirish qobiliyatlarining psixologik xususiyatlari.....	266
24.4. Boshqaruv qobiliyatlarining psixologik xususiyatlari.	268
25-MAVZU	
YETAKCHILIK VA RAHBARLIK FENOMENLARI.....	273
25.1. Yetakchilik va rahbarlik faoliyatiga ijtimoiy-psixologik tavsif.....	273
25.2. Yetakchilik nazariyalari.	276
25.3. Rahbar obro‘si va hokimiyatning zarurligi.	278
26 – MAVZU	
RAHBAR IMIDJI	281
26.1. Imidj tushunchasiga umumiy tavsiv.....	281
26.2. Rahbarning ijtimoiy-psixologik qiyofasi.	283
27 - MAVZU	
SIYOSIY MADANIYAT SHAXSNING IJTIMOIIY YO‘NALGANLIGI	
VA QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA	286
27.1. Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning tarkibiy	286
qismi sifatida.	286
27.2. Siyosiy madaniyat yoshlarning qadriyatlarini belgilab.....	287
beruvchi omil sifatida.....	287
27.3. Yoshlarning siyosiy faolligi.	290
28 – MAVZU	
YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGI.....	294
28.2. Yoshlar tashabbuskorligining o‘ziga xosligi.....	295
28.3. Yoshlar orzularining psixologik xususiyatlari.	297

KIRISH

Ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta'lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog'liq. Kelajagi buyuk jamiyatning rivojlanish talablaridan kelib chiqib, maorifning o'рни va rolga yangi avlodni tarbiyalash nuqtayi nazaridan qarab, Oliy Majlis materiallarida, Prezidentimiz ma'ruzalarida, maxsus qarorlarida rahbarlikni yuqori ilmiy darajada amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika va psixologiya uchun asosiy yo'nalishdir. Barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika va psixologiya nazariyasining asosiy masalalarini ta'lim amaliyotiga va fan yutuqlarini nazarda tutgan holda I. A. Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogika va psixologiyaning burchidir.

Pedagogika va psixologiyadan tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

Qo'llanmaning mazmun-mohiyati ishchi-o'quv dasturida belgilangan mavzular, ularning rejasi, ma'ruzalar matni, tayanch iboralar, mavzularni takrorlash bo'yicha savollar, tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ma'ruzalarda aks etgan mavzular to'rtta qismdan iborat bo'lib, bunda pedagogika asoslari, umumiy va ijtimoiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi, iqtisodiy psixologiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarga atroflicha to'xtalib o'tilgan. Pedagogika va psixologiyaning predmet, maqsad va vazifalari, ta'lim nazariyalari, bilimlarni amaliyotga tatbiq etilishida muhim e'tibor qaratilgan. Qo'llanmada pedagogika fanini o'rganish zaruriyatini, tarbiya jarayoni hamda komil insonni shakllantirish muommalari, psixologiyada inson omili va uning ahamiyati, shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil va tanqidiy fikr egasi bo'lish, zamonaviy imidj sohibiga aylanish, raqobatbardosh mutaxassis bo'lib yetishish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalarga batafsil to'xtalib o'tilgan.

Bundan tashqari, qo'llanmada ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish tartibi, zamonaviy o'qitish texnologiyalarining mazmun - mohiyati taqdim etilgan.

Muhokamaga qo'yilgan mavzular tizimli va mantiqiy uzviy bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda ketma-ketlik tomoyili asosida bayon etilgan.

Pedagogika va psixologiya fani bo'yicha tayyorlangan mazkur qo'llanma talabalar tomonidan fan yutuqlari asosida qo'lga kiritilgan nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni boyitishga yordam beradi.

1-MAVZU

PEDAGOGIKA FANI, UNING PREDMETI, VAZIFALARI, ILMIY-TADQIQOT USULLARI. TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

1. 1. Pedagogika fanining metodologiyasi, predmeti, asosiy vazifalari.

1.2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

1.3. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

1. 4. Ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari faoliyati.

1.1. Pedagogika fanining metodologiyasi, predmeti, asosiy vazifalari.

Mamlakatimizda milliy istiqlol go'yasi tufayli yosh avlodni bilim darajasiga ko'ra jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'ladigan, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadil qadamlar bilan kirisha oladigan, tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatlariga ega boladigan, ma'naviy etuk etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu esa, avvalo, pedagogika fanini, ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida (1997-y.) ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha deb e'lon qilinishi pedagogika fani zimmasiga mas'uliyatli ulug'vor vazifalarni yukladi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning bilim darajasi, qanday kasb-hunar egallashlariga qarab, mamlakatimiz kelajagini tasavvur qilish mumkin. Yoshlar farovon hayotimiz mezonidir. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish har bir ota-onaning, o'qituvchi-tarbiyachining Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Bu vazifani amalga oshirish uchun qanday yo'l tutish va nimalarga e'tibor bermoq lozim? Bu savollarga ma'lum darajada pedagogika fani javob beradi. Pedagogika fani nima va u qachon paydo bo'lgan? Mazkur savolga javob berishdan oldin tarixiy manbalarga murojaat etaylik. Qo'lyo'zmalarda yozilishicha, kishilik jamiyati paydo bo'lgach, ijtimoiy hayotda orttirilgan tajribalarni yoshlarga o'rgatish ehtiyoji tug'ildi. Tajribalarning to'planishi natijasida ta'lim-tarbiyaning dastlabki omillari vujudga keldi. Tabiat, ijtimoiy hayot haqidagi tajribalar asosida bilimlar boyib bordi.

Ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilar kasb-hunar homiylari sifatida ajralib chiqa boshladi. Ularning ta'lim-tarbiya borasidagi faoliyatlari va to'plangan tajribalaridan o'rinli foydalanishlari pedagogika fanining vujudga kelishiga olib keldi. Shu asnoda dastlabki maktab ko'rinishidagi muassasalar paydo bo'ldi va taraqqiy etib bordi. Shunday qilib,

pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, metodlari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fanga aylandi.

Demak, pedagogika fani o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash uchun ta'lim-tarbiyaning mazmunini, umumiy qonuniyatlari va amalga oshirish yo'llarini o'rgatuvchi fandır.

Ba'zan, pedagogika fanining nima keragi bor? Pedagogikadan bexabar bo'la turib, lekin bolalarga yaxshi tarbiya bergan ota-onalar ko'p-ku? Yoki, aksincha, pedagogika fanini bilgan holda, hatto, o'z farzandlarini ham risoladagidek tarbiyalay olmaganlar ozmunchami? - degan savol tug'iladi.

Agar pedagogika fanidan xabarsiz bo'lgan kishilar pedagogika fanini o'z vaqtida o'rganib, yutuqlaridan samarali foydalanganlarida edi, yoshlarni yana ham yaxshiroq tarbiyalagan bo'lur edilar. Pedagogikadan yaxshi xabardor bo'lgan kishilar esa o'z bilimlarini tajribada qo'llay olmaganliklari uchun ham tarbiya jarayonida muvaffaqiyatga erisha olmaganlar.

Pedagogika fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan puxta o'rganish lozim. Ta'lim-tarbiyadan ko'zlangan maqsadni anglash va ular tizimida yangi bilimlar berish bolalarni to'g'ri tarbiyalashning shartidir. Bunda tarbiyachining beg'araz mehnati, bolalarni sevishi tarbiya samaradorligini ta'minlaydi.

Biroq, ijtimoiy jarayonda to'plangan tajribalar tarbiya mazmunini tashkil etsa-da, ularning hammasini yosh avlodga o'rgatishning imkoniyati yo'q edi. Faqat xalq ta'limi tizimiga kiruvchi bo'g'inlar orqali orttirilgan tajribaning muayyan qismini qamrab olish mumkin edi.

Bu yerda ham muammo yuzaga keldi. Hozirgi kunda barcha turdagi tajriba shakllari tarbiya mazmunini tashkil eta oladimi? Yosh avlod tarbiyasiga aloqador tajribalarni qanday ajratish mumkin? Kim bunday ish bilan shug'ullanadi?

Tabiiyki, barcha xildagi tajriba shakllari ham tarbiya mazmunini tashkil etavermaydi. Chunki,

- birinchidan, pedagogika, xususan, o'zbek xalq pedagogikasi taraqqiyotida juda murakkab jihatlar (hatto, bu murakkablikning noma'lum qismlari) mavjudki, ularni yoshlar daf'atan o'zlashtira olmaydilar. Masalan, sharq falsafasi yoki mutafakkirlarimizning ma'naviy merosini falsafa, tabiiy va gumanitar fanlar, diniy manbalardan yaxshi xabardor bo'la olmaganligimiz sababli o'rganishimiz qiyin kechadi;

- ikkinchidan, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra va ham metodik, ham moddiy asosning yetishmasligi sababli to'plangan tajribalarni mukammal egallash imkoniyati mavjud emas. Eng muhimi, jamiyat

taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga va kelajakda kutiladigan o'zgarishlarni hisobga olib tarbiya mazmunini shakllantirish darkor.

O'zbek pedagogikasining vazifasi respublikamizda yashovchi turli millat-elatlarning orzu-istaklariga monand ta'lim-tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy muammolarini milliy qadriyatlar asosida to'g'ri hal etib berishdir. Bunda islom dunyosida qalam tebratgan allomalardan tortib, zamondosh olim-u fuzalolarning ta'limotlaridan ta'lim-tarbiyaga oid qirralarini izlab topish taqozo etiladi. Yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda istiqloldan avval qoralangan tasavvuf ilmidan ham foydalanish joiz. Negaki, bir mafkura yakka hokimligiga endilikda yo'l qo'yib bo'lmaydi. Erkin fikrlash tizimi yosh avlod ruhini tarbiyalashdagi bosh omillardan biridir.

«Pedagogika» atamasi «Peyne» – «bola» va «aygogeyn» – «yetaklamoq» degan ma'noni bildiruvchi lotincha «paydagogos» so'zlaridan iborat bo'lib, quyidagicha izohlanadi: eramizdan oldingi I asrlarda Gretsiyada, quldorlarning bolalarini o'z vaqtida ovqatlantirishga oboradigan, sayr qildiradigan tarbiyachi-qullarni «pedagog» deb atashgan. Ular bolalarning kamolga yetishiga mas'ul bo'lgan. Quldorning bolasini maktabga olib borgan va olib kelgan. Maktabda ish olib bo'ruvchii o'qituvchilarni «didaskallar» («didayko – men o'qitaman») dey atashgan. Feodalizm jamiyatiga kelib esa har ikki kasbdagi kishilar hamkorligi natijasida ta'lim-tarbiya bilan maxsus shug'ullanuvchilar vujudga kelgan. Ularni chex pedagogi Y.A.Kamenskiy ta'kidlaganidek, «pedagog» deb nomlaganlar.

Pedagogika fanining metodologiyasi. Pedagogika fani mustaqil O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o'ziga xos yo'nalishlari ta'lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rgatuvchi fandir. Pedagogika fani O'zbekiston Respublikasida ilmning ustuvor sohasi sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun ham, pedagogika fanining metodologiyasi sifatida jahon va sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini mujassamlashtirgan manbalar, tasavvuf ta'limoti namoyandalarning badiiy va ilmiy asarlari, sharqona ta'lim-tarbiya vositalari hamda metodlarini o'z ichiga olgan manbalar, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi va tabiiy ilmiy majmuyi e'tirof etiladi.

Yuqorida keltirilgan pedagogika fanining metodologiyasini pedagogik amaliyotga tatbiq etishda jahon pedagogik tajribasida tan olingan va samarali natijalar berayotgan nazariy qarashlar, ilg'or pedagogik

texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Ular shaxsning ta'lim faoliyatini liberallashtirish yo'llari, ta'lim mazmunini tanlash va ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish prinsiplari, politexnik va kasb ta'limi nazariyasi, ta'limni ijtimoiy foydali mehnat bilan uyg'unlashtirish konsepsiyasi, ta'lim-tarbiya jarayonining fiziologik qonuniyatlariga asoslanib tashkil etilishida namoyon bo'ladi.

Pedagogika fanining obyekti asosan maktab o'quvchilaridir, predmeti esa o'quvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir. Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'rganib borishni taqozo etadi, tarbiyaning tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi bog'liqliklarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollarini, yo'llarini ko'rsatib beradi.

Pedagogika faniga tavsif berilganda «ta'lim», «tarbiya» hamda «ma'lumot» degan so'zlarni ishlatdik. Bu so'zlar o'zaro bog'langan tarzda, bir-birini to'ldiradi. Ularni pedagogikaning asosiy kategoriya – tushunchalari deb nomlaymiz. Bulardan tashqari «o'quvchi», «o'qituvchi», «metod», «intizom», «jamoat», «irsiyat», «muhit», «direktor» kabi tushuncha-nomlar mavjudki, bu haqida mavzular yuzasidan fikr yuritilganda alohida to'xtab o'tamiz.

Tarbiya tarixini o'rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayon ekanligiga, insoniyat butun hayoti davomida tarbiya bilan shug'ullanganligiga ishonch hosil qilamiz. Tarbiya jarayonida ajdodlarimiz tarbiyaviy ta'sirning samarali yo'l, metodlari va manbalarini qidirib hayotga tatbiq qila boshlaganlar, buning natijasida tarbiya haqidagi g'oyalar, nazariya va tavsiyalar paydo bo'lgan. Bular, o'z navbatida, pedagogika fanining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jahon mutafakkirlari o'zlarining pedagogik g'oyalari bilan fanning rivojlanishiga hissa qo'shdilar. Bu jarayonda o'zbek mutafakkirlarining xizmatlari beqiyosdir. Tarbiya haqidagi g'oyalar eramizdan avvalgi VI asrda shakllanganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Pedagogik g'oyalarning shakllanishida zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas kitobi «Avesto»da qimmatli fikrlar talqin etilgan. Tarbiya haqidagi g'oyalarning shakllanishida islom ta'limotining ahamiyatini alohida ta'kidlash joiz. Qur'oni Karim va hadisi-shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodini har tomonlama shakllantirish yo'llari bayon qilingan.

Tarbiya haqidagi g'oyalarning rivojlanishida Imom Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Behbudiy, Abdulla Avloniy va boshqalarning xizmatlari beqiyosdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas, balki bunyodkori va tashkilotchisidir». Bunday yangicha yondashishlar pedagogika fanining obyekti va predmetini kengaytirdi. Endilikda pedagogika fanining obyekti faqat ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik amaliy ta'minlovchisigina emas, balki u komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlaydigan keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturida»gi milliy modelda shaxsga kadrlar tayyorlash tizimining bosh obyekti va subyekti sifatida qaraladi. Bundan tashqari, pedagogika fani oldiga yangicha fikrlaydigan, yangicha tafakkur, milliy mafkuraga ega komil insonni shakllantirish vazifalari qo'yildi.

Pedagogika fanining metodologiyasida, mazmunida, tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkiliy shakllarida, komillik darajasi, sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar amalga oshdi. Bu o'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalarda o'z aksini topishi lozim.

1.2. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, mukammal inson tarbiyasining tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi aloqa hamda bog'liqliklarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, yo'llarini ko'rsatib o'tadi.

Pedagogika maktab, kollej va akademik litseylar hamda maktabdan tashqari muassasa xodimlarini ham nazariy, ilg'or tajribalar bilan qurollantiradi. Ota-onalarga yoshlarni to'g'ri tarbiyalash, o'qituvchilarga esa o'qitishdagi mahoratini yanada takomillashtirish yo'lida amaliy tavsiyalar beradi.

Tarbiya – o'sib kelayotgan avlodlarda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot va dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya inson tug'ilganidan boshlab umrining oxirigacha davom etadigan jarayondir. Shu sababli, tarbiya so'zi ko'p vaqtlarda ta'lim, ma'lumot jarayonlariga kiradigan ishlarning mazmunini ham anglatadi. Ta'lim, tarbiya va ma'lumot natijalarini o'zida aks ettiradi.

Ta'lim – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilish qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan

jarayondir. Agar tarbiya bola tug'ilganidan boshlab, oilada, maktabda va jamoatchilik ta'sirida shakllansa, ta'lim chegaralangan (masalan, sinf xonasi, laboratoriya xonalari) joylarda tashkil etiladi va o'qituvchi-tarbiyachi rahbarligida muayyan belgilangan vaqtda olib boriladi.

Ma'lumot – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuyidir.

Ta'lim, tarbiya va ma'lumot uyg'unlashgan yagona jarayon bo'lib, o'qituvchi tarbiyachi ularning shakllanishida yetakchilik qiladi. O'qituvchi maktabda dars berar ekan, o'quvchilarni fan olami yangiliklaridan xabardor qiladi, ayni paytda, ularda insoniy sifatlarni shakllantiradi, tarbiyalaydi.

Pedagog o'quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning kundalik xatti-harakat va fe'l-atvorlariga doimo ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayot tajribasining ko'rsatishicha, agar inson o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab o'qisa, o'rgansa, o'z ustida tinmay qunt bilan shug'ullansa, u oliy ma'lumot olishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo'lishi uchun u, ta'lim va ma'lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo'lmog'i lozim. Ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan kishigina tarbiya ko'rgan inson hisoblanadi.

Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U ham boshqa fanlar kabi ijtimoiy fan yutuqlaridan foydalanadi va mazmunan boyib boradi. Hozirgi kunimizda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida ma'lumot beruvchi nazariyalar ma'lum darajada pedagogika fani uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Boshqa fanlar kabi, pedagogika ham, har bir insonning ijtimoiy kamolotga erishishiga xizmat qiladi. Tabiat va jamiyatning rivojlanishi qonuniyatlariga asoslanadi va o'zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi. Shu sababli u falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan uzviy bog'langandir.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi-tarbiyachi, o'quvchi o'z ona yurti tarixini yaxshi bilmog'i lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilish mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun uning o'tmishdagi taraqqiyot yo'lini bilish kerak.

O'qituvchi-tarbiyachi o'quvchilarga bilim berish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda u psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ma'lum ma'noda psixologiya turkumidagi fanlarni ham pedagogik fanlar tizimiga kiritish mumkin.

Etika va estetika fanlari pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi. Bu fan o'quvchining xulqi, odobi me'yorlarini aniqlaydi, belgilaydi hamda go'zallikni chin ma'noda tushuntiradi, o'quvchi ongida hayotning jozibali, nafis qirralariga mehr uyg'otadi. Fanlarni o'qitish yo'llari ham pedagogika fanining didaktika bo'limiga aloqador. Chunki har qanday fanni o'qitish metodi shu fanning mazmuni, tizimini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirib olinishiga xizmat qiladi. Chunonchi, pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, bolalar gigiyenasi va bolalar kasalliklari kabi fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Pedagogika fani obykti yil sayin kengayib borib uning tarmoqlari ham bir necha guruhlarga ajralmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimini tashkil etadi.

Ma'lumki, turli sohada bilim oluvchi o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning nazariy hamda amaliy tomonlarini pedagogika fanining o'zi mufassal yoritib bera olmaydi. Pedagogika fani tarmoqlari mazkur muammolarni ijobiy hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda pedagogika bir nechta tarmoqlarga bo'lingan. Jumladan, umumiy pedagogika (maktab yoshidagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida bahs yuritadi), maktabgacha tarbiya pedagogikasi (maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi), madaniy-oqartuv pedagogikasi (madaniy-ma'rifiy ishlarni boshqarish muammolarini o'rganadi), harbiy pedagogika (armiya sardorlari va o'quvchilarini vatanimizning shon-sharafi va or-nomusi himoyachisi, yetuk kurashchi, harbiy qurol-yarog'lardan samarali foydalana oladigan posbonlarni tarbiyalashni nazarda tutadi) kabi tizim-tarmoqlari mavjuddir.

Pedagogika faqat sog'lom o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasi bilangina emas, balki nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan ham shug'ullanadi. Bunday maxsus pedagogika tizimiga oligofrenopedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish), tiflopedagogika (ko'zi ojiz bolalarni tarbiyalash), surdopedagogika (kar-soqov bolalarni tarbiyalash) kabi fanlar kiradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng o'z tarixini, jumladan, pedagogika tarixini o'rganish uchun keng yo'l ochildi.

O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarining shuhratini tiklash, ularning g'oyalarini hayotga tatbiq etishdek ulug'vor ishlar amalga oshirilmoqda. Darhaqiqat, ota-bobolarimiz yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Yurtboshimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek: «Islom dini – bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik, Alloh qalbimizda, yuragimizda».

1.3. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Har qanday fan o'zining ilmiy-tadqiqot metodlariga ega. Bu metodlari orqali u o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayotda va obyektiv dunyoni bilish nazariyasida nimani o'rgatish va qanday o'rgatish kerak, kimni qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo'lib, ular o'zaro bog'liqdir. Nima qilish kerak va qanday amalga oshirish lozim degan muammolar o'rtasida dialektik birlik mavjuddir.

Pedagogika o'z mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud pedagogik hodisa hamda jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o'rganadi. Shu ma'noda pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganimizda yosh avlodni tarbiyalash, bilim berish va o'qitishning real jarayonlariga xos bo'lgan ichki aloqa va munosabatlarni tekshirish, bilish metodlari, uslublari hamda vositalari majmuyini tushunamiz.

Pedagogika o'qitish, bilim berish, tarbiyalash jarayonlarini va ularning mohiyatini quyidagicha o'rganishni nazarda tutadi:

1) ularning umumiy aloqasi, bir-birini taqozo etishi hamda o'zaro ta'sir jarayonida bolalarni o'qitish, tarbiyalash, fan, madaniyat, axloq va san'at, ta'lim-tarbiyaning qayerda amalga oshirilishidan qat'iy nazar uzviy aloqada bo'lishi;

2) ularning to'xtovsiz harakati, o'zgarishi va taraqqiy etish jarayonida vujudga keladigan o'qitish hamda tarbiyalash vazifalari, metodlarining o'zgarishi, hamma bolalarni bir xil andozada o'qitish va tarbiyalash mumkin emasligi;

3) bolalarning o'sishida ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, aqliy va xulqiy faoliyat, so'z va ish birligi mezonlariga tayanish;

4) bolalar kamolotiga ta'sir etuvchi an'ana, urf-odatlar, ular o'rtasidagi tafovutlarni bilish, aniqlash asosida yaxshi bilan yomon, eskilik bilan yangilik, o'rtasida yuz beradigan nizolarni hisobga olish, o'zaro tanqid va hokazo. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa, ta'lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanib, pedagogika fani ham boyib boradi. Bugungi kunga qadar mavjud bo'lgan va ishlab chiqilgan quyidagi ilmiy tadqiqot metodlariga tayanib fikr yuritish mumkin: 1) kuzatish metodi; 2) suhbat metodi; 3) bolalar ijodini o'rganish metodi; 4) test, so'rovnomalar metodi; 5) maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi; 6) eksperiment – tajriba-sinov metodi; 7) statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi; 8) matematika-kibernetika metodi.

Kuzatish metodi. Pedagogikaning kuzatish metodi ta'lim-tarbiya jarayonlarining amaldagi holati bilan tanishtiradi, ularning oqibat natijalarini

bilishga yordam beradi va shu asnoda yaratilgan yangi kashfiyotlar uchun dalillar, omillar yig'ish imkonini tug'diradi. Bu metodni qo'llanish jarayoni ancha murakkab bo'lib, undan nazarda tutilgan maqsad qanday amalga oshayotganligini aniqlash, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, individual farqlarini qiyoslash uchun ham qo'llaniladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, maqsad asosidagi kuzatuv ma'lum reja asosida yig'ilgan dalillarni haqiqiy tahlil qilish, qiyoslash asosida tashkil etilsagina samarali bo'ladi.

Kuzatishlar faqat oddiy hodisalarni kuzatish, ayrim dalillarni yig'ish, hisobga olish, aniqlash uchungina emas, balki ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash va mukammallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Odatda, pedagogik kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari belgilanadi.

Ilmiy kuzatishlar esa nafaqat o'quvchilarning tabiiy faoliyatini, balki ularning ilmiy dunyoqarashlarining shakllanishi, fikrlash va xulosalar chiqarishdagi faolliklarini aniqlaydi, ularni tahlil qiladi hamda tegishli xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi. Bunday kuzatishlar pedagogika fani mazmunining boyishiga sabab bo'ladi.

Suhbat metodi. Ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qay darajada to'g'ri ekanligini aniqlash maqsadida suhbat metodidan foydalaniladi. Odatda, suhbat metodi maktab o'qituvchilari va o'quvchilar jamoasi bilan, ota-ona va keng jamoatchilik bilan yakka va guruhli tartibda ish olib borilganda qo'llaniladi. Bunda suhbat metodini tatbiq etishdan oldin maqsadli reja tuziladi, amalga oshirish yo'llari belgilanadi, natijalar tahlil qilinadi va tegishli xulosa chiqariladi. Shuningdek, tadqiqotchining suhbat olib borish va uni kerakli tomonga yo'naltira olishni bilishi, suhbatdoshining ruhiy holatiga qarab suhbat ohangini moslashtira bilishi g'oyat muhimdir. Bunda:

- 1) suhbat uchun oldindan savol tuzish;
- 2) vaqti va o'tkazish joyini belgilash;
- 3) ishtirokchilarining soni va ularning kasb-korlaridan xabardor bo'lish;
- 4) suhbat uchun qulay sharoit va erkin suhbatlashish imkonini yaratish;
- 5) mahmadona va bachkana bo'lmaslik;
- 6) suhbatdoshning xarakterini e'tiborga olish;
- 7) suhbat natijalarini darhol tahlil qilish, qiyoslash, tegishli xulosa chiqarish, kerak bo'lsa, qo'shimchalar kiritish va uni maktab hayotiga tatbiq etish pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga egadir.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi. Pedagogik tadqiqot metodlari ichida bolalar ijodini tabiiy holatda o‘rganish va ilmiy xulosalar chiqarish metodi mavjud. Bunda maktab o‘quvchilarining o‘ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir ma’lumotlar tahlil qilinadi, xulosalar chiqariladi. Shu sababli yoshlarning turli yozma ishlari, tutgan kundaliklari, yozgan xatlari, she’r va hikoyalari, hayotiy rejaları, insholari, turli yozma hisobotlari bolalar ijodini o‘rganish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.

Oqibatda, maktab o‘quvchilari orasidan yetishib chiqayotgan qobiliyatli, iste’dodli yoshlar ertaroq aniqlanadi, ularning iste’dodlarini namoyon etish uchun sharoitlar yaratiladi. Odatda, bolalar ijodini o‘rganish manbayi ko‘p bo‘lib, ular: fan olimpiadalari, mavzular bo‘yicha tanlovlar, maktablar bo‘yicha ko‘rgazmalar, musobaqalar, ekskursiyalar, sayllar va hokazo.

Test, so‘rovnoma va test savollaridan foydalanish. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari ichida yetakchi metod so‘rovnoma va test savollaridan foydalanishdir. So‘rovnoma-anketa (fransuzcha «tekshirish» ma’nosini bildiradi) metodi yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o‘quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasbga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladi.

O‘zbekiston, ta’bir joiz bo‘lsa, Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib test metodini maktab, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga tatbiq etdi.

Test sinovlaridan ko‘zlangan maqsad oz vaqt ichida o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash hamda baholashdir.

Bunda test savollarini aniq va ravshan tarzda tuzish muhim ahamiyatga ega. Test savollarining o‘rni va ularni mazmunan rang-barang qilib tuzilishi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stiradi, kelajakni real baholash imkonini beradi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi. Respublikamiz rahbariyatining xalq ta’limi yuzasidan qabul qilingan qaror va yo‘l-yo‘riqlari asosida maktabda amalga oshirilgan va ayni paytda bajarilayotgan ta’lim-tarbiya ishlarini hujjatlar orqali aniqlash metodi ham mavjuddir.

Maktab hujjatlarini tekshirish orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasi, ularning pedagogik faoliyati haqida aniq ma’lumotlar olinadi. Umuman, maktab hujjatlari deyilganda; o‘qituvchi va o‘quvchilarning soni va sifati; o‘quvchilarning shaxsiy hujjatlari, sinf jurnallari, kundalik daftarlari, buyruq daftarlari, pedagoglar kengashining qarorlari daftari, maktabning rejadagi pul hisobi va uning sarflanishiga doir hujjatlar, turli inventarlar daftari va boshqalar tushuniladi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilishda o‘quvchilarning umumiy miqdori, uning o‘sishi yoki kamayish sabablarining tavsifi, o‘quvchilarning fanlar

bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfda qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralari, turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

Ularni tahlil qilish, hisobotlarni ko'zdan kechirish, to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash, o'quvchilar faolliklarining o'sishi bilan taqqoslash, ilg'or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi hamda joriy etilishi va nihoyat, o'qituvchi-tarbiyachilarning ilmiy-pedagogik faoliyatlarini tekshirish, tegishli chora-tadbirlar belgilash maqsadida o'tkaziladi.

Eksperiment – tajriba-sinov metodi. «Eksperiment» so'zi lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish» degan ma'noni anglatadi.

Odatda, eksperimental-tajriba ishlari ta'lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tatbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunda ham ilmiy farazlarning didaktik yoki amaliy ahamiyatiga e'tibor beriladi.

O'tkaziladigan tajriba ishlari ta'lim va tarbiya o'rtasidagi qonuniy aloqalarni aniqlash, natijalarni hisobga olish asosida yangi metodlarni tatbiq etishga, ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratiladi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining borishini, tuzilishi va natijalarini oldindan ko'ra bilish imkoniyatini beradi.

Eksperiment metodi sharoitga qarab 3 xil ko'rinishda o'tkaziladi:

- 1) tabiiy eksperiment;
- 2) laboratoriya eksperimenti;
- 3) amaliy tajriba.

Pedagogik eksperiment o'z mazmuniga ko'ra didaktik, tarbiyaviy, maktabshunoslik muammolari yuzasidan o'tkaziladi.

Pedagogik eksperiment – tajriba ishlarini o'tkazishga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) ishning aniq, ilmiy jihatdan asoslangan farazini aniqlash va kutilishi lozim bo'lgan natija uchun reja belgilash;
- 2) ilmiy ish yoki pedagogik faoliyat uchun aniq obyekt belgilash, amalga oshirish borasida qo'shimcha metodlarni aniqlash;
- 3) tajriba ishi o'tkazish vaqtini va muddatini belgilash;
- 4) tajriba uchun lozim bo'lgan asbob-uskuna, jihoz va h.k.larning tayyor turishi;
- 5) eksperiment natijalarini zudlik bilan tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish hamda tavsiyalar berish.

Statistika ma'lumotlarini tahlil qilish metodi. Mazkur metod natijalariga qarab pedagogik tadqiqot to'g'risida aniq ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Chunki nafaqat ilmiy izlanishlar borasidagi, balki xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning oshirilishi, xalq ta'limi muassasalarining doimo o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari,

xo'jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag'lar statistika metodi orqali aniqlanadi.

Respublikamizning deyarli barcha ta'lim-tarbiya muassasalari statistika ma'lumotlari bilan qurollangan kelajak rivojlanish rejalariga ega.

Respublikamiz mustaqil bo'lguniga qadar statistika sohasidagi chalkashliklar, atayin orttirib, qo'shib yozishlar xalq ta'limi tizimida ham mavjud edi. Ularning nazorati bo'shligi va obyektiv emasligi xalq ta'limi sohasida chuqur islohot o'tkazilishiga olib keldi. Demak, statistik ma'lumot aniq, hayotiy bo'lsa bajarilayotgan ta'lim- tarbiya yoki ilmiy tadqiqotning qimmatini ham yuqori bo'ladi

1.4. Ta'lim tizimini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari faoliyati.

Xalq maorifini boshqarish davlatimiz siyosatining bevosita ifodasidir. Umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limining rivojlanishi ularning maqsad hamda vazifalarini tobora yaqinlashtirib, birlashtirmoqda.

Boshqaruv organlari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish yuritish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirilishini ta'minlashlari kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishdan bosh maqsad va pirovard natija har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash, XXI asrning erkin fikrli, o'z vatani va xalqining manfaatlariga sadoqatli yorqin shaxslarni voyaga yetkazishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga erishish umumiy demokratik yangilanishlar jarayoni, jamiyatni erkinlashtirish, mamlakatda yangi ijtimoiy-siyosiy muhitni shakllantirish bilan bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, hayotga tatbiq qilish, hech bir mubolag'asiz, strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim.

Bu barcha davlat va jamoat tashkilotlari, tabiiyki, eng avvalo, uzluksiz ta'lim tizimi muassasalari faoliyati mazmunini tubdan qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etadigan murakkab jarayondir. Ijtimoiy amaliyot, jamoatchilik tarbiyasi, ta'lim va tarbiyaning aniq maqsadga qaratilganligi – erkin shaxsni shakllantirishning asosini tashkil etadi.

Erkinlashtirish, jamiyatni ma'naviy yangilash, birinchi navbatda, yosh avlodga milliy an'analarni, insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi.

Jamiyatni ma'naviy yangilash jarayonida Vatan madaniyati va milliy san'atini rivojlantirish, ularning yutug'ini xorijiy mamlakatlarda targ'ib va tatbiq etish, yoyish, milliy va xalqaro tanlovlar, ko'riklar o'tkazish kabi chora-

tadbirlarni faollik bilan amalga oshirish, ayniqsa, yoshlar badiiy ijodiyotini yanada rivojlantirish alohida ahamiyatga egadir. O‘zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi, O‘zbekiston xalqlarining badiiy, falsafiy va pedagogik tafakkuri shakllanishi va rivojlanishi tarixi, etnografiya, etnogenez, adabiyotshunoslik, ijtimoiy-gumanitar fanlarning barcha yo‘nalishlarini yangi saviyaga ko‘tarish talab qilinadi. Mazkur muammolar doirasida ilmiy izlanishlar olib borishning konseptual asoslari O‘zbekiston Prezidentining "Tarixiy xotirasiz - kelajak yo‘q" risolasida chuqur tahlil etilgan va baholangan.

Ma‘naviy yangilanish jarayoni milliy bayramlar, urf-odatlar, o‘yinlar shaklida mavjud bo‘lgan taraqqiyparvar milliy qadriyat va an‘analarni qayta tiklash, ularni rivojlantirish va zamonaviy hayotga joriy etish bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Ta‘lim-tarbiya tizimni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari o‘z faoliyatini quyidagi tamoyillarga asoslangan holda olib borishi lozim.

Ta‘lim-tarbiya tizimiga rahbarlik qilish tamoyillari. Ta‘lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta‘lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog‘liq. Kelajagi buyuk jamiyatning rivojlanish talablaridan kelib chiqib, maorifning o‘rni va rolga yangi avlodni tarbiyalash nuqtayi nazaridan qarab, Oliy Majlis materiallarida, Prezidentimiz ma‘ruzalarida, maxsus qarorlarida rahbarlikni yuqori ilmiy darajada amalga oshirish zarurligiga alohida e‘tibor berib kelinmoqda.

Ta‘lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo‘nalishdir. Barkamol avlodni o‘qitish va tarbiyalash tajribalarini o‘rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika nazariyasining asosiy masalalarini ta‘lim amaliyotiga tatbiq qilish va, fan yutuqlarini nazarda tutgan holda, I. A. Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogikaning burchidir.

I. A. Karimov o‘z asarlarida kelajagi buyuk O‘zbekiston Respublikasining organlarini tashkil etish, boshqarish va ularning rahbarlik faoliyatiga doir muhim tamoyillarni har taraflama mufassal ishlab chiqdi.

Ilmiylik va pedagogikaning amaliyot bilan bog‘lanishi tamoyili. Bu tamoyil xalq ta‘limi organlari va o‘quv muassasalarning hamma ishini O‘zbekiston Respublikasi davlatining ko‘rsatmasi, fan va texnika yutuqlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlari asosida amalga oshirishni talab etadi. Chunki idora qilish uchun ishni bilish kerak. Hamma narsadan xabardor bo‘lmasdan turib, to‘la-to‘kis bilimga ega bo‘lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib, boshqarish mumkin emas. Xalq ta‘limi ishlarini, maktab ishini, kasb-hunar kollejlari ishini amalga oshirishda va unga rahbarlik qilishda ko‘zlangan maqsadlarga erishish uchun milliy mafkura, milliy g‘oya, pedagogika, pedagogika tarixi, psixologiya, xususiy metodika, mantiq, etika va estetika kabi

fanlar erishgan yutuqlarni muntazam o'rganib borish, tahlil qilish hamda bu muvaffaqiyatlarni keng qo'llash zarur.

Boshqaruv muassasalari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini qo'llab-quvvatlashlari, dolzarb deb qayd etilgan masalalarni o'z vaqtida va ijodiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasi hozirgi zamon talablariga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlashlari kerak.

Demokratik markazlashgan tamoyil. Ta'lim tizimini boshqarishda markazlashgan rahbarlikni keng demokratiya, mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish, o'ziga xos xususiyatlarni va shart-sharoitlarni hisobga olish imkonini beradi.

Yuqoridan turib, bir xil andoza bichib berish demokratiya va markazlashgan rahbarlikka butunlay yot narsadir. Barcha tadbirlarda, ishga qanday munosabatda bo'lish usullarida nazoratni mahalliy o'ziga xoslikdan kelib chiqib amalga oshirish, ularda har xil yo'llarni qo'llash asosiy, muhim hisoblangan birliklarni buzmaydi, aksincha, bu birliklarni ta'minlaydi.

Ilmiy rejalashtirishda ta'limning insonparvarlik tamoyili, ta'limda yoshlarning shaxsiy o'quv qobiliyatini ro'yobga chiqarish va ularni rivojlantirish, shuningdek, boshqa tamoyillari ham o'rin olgan.

Ishlab chiqarish va ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'quv ishlab chiqarish majmuasini (markazlarini) tashkil etish va ularni rivojlantirish, zamonaviy uskunalari, apparatlar va asboblari bilan jihozlash rag'batlantiriladi, deyiladi. Kadrlar tayyorlash va birgalikda ilmiy-texnologik yechimlar yaratishda korxonalarining ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalaniladi. Ishlab chiqarishda kadrlar tayyorlash qo'llab-quvvatlanadi.

Ta'lim tizimining hayot bilan va mustaqil O'zbekiston davlatining siyosati bilan bog'langanlik tamoyili. Ta'lim tizimini hayot bilan, davlatimiz siyosati bilan bog'lash tamoyili O'zbekiston maktablari, kasb-hunar kollejlari oldida turgan barcha nazariy va amaliy vazifalarni hal etishda asosiy tamoyil bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi.

Ta'lim tizimini boshqarishga siyosiy yondashish ta'lim-tarbiya ishlaridagi hodisa, fakt va jarayonlarga mustaqil O'zbekiston Respublikasi manfaatlari nuqtayi nazaridan turib munosabatda bo'lish demakdir.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida O'zbekiston xalqining irodasi va manfaatlarini ifodalab, kelajagi buyuk davlat qurishga va dadil qadamlar bilan bu vazifani amalga oshirishga qodir bo'lgan barkamol avlodga ta'lim-tarbiya berish – ta'limning asosiy vazifasi hisoblanadi. Yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash, milliy ongini shakllantirish, Prezidentimizning hayoti va faoliyati timsolida, tajribasi negizida tarbiyalash zarur.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida Xalq ta'limining keng yoyilishi, miqdor va sifati jihatidan jadal o'sishi, turli xildagi ta'lim tizimi va ta'lim muassasalaridan

tashqari, o'quv-tarbiya maskanlarining ishlab turishi, ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarishning juda zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy boshqarish masalalari ilmiy bilimning maxsus sohasi qilib ajratiladi. Pedagogik jarayonlarni, hodisalarni va obyektlarni boshqarishda pedagogika qonuniyatlarini hisobga olish zarur. Bunda pedagogik boshqarish tushunchasi qo'llaniladi.

Barcha tipdagi o'quv yurtlari, maktabdan tashqari muassasalar, xalq ta'limi bo'limlari va boshqalar asosiy boshqarish obyektlariga kiradi. Ta'lim-tarbiyani tashkil qilish va boshqarishga doir ishlarning hammasi, pirovard natijada, yagona asosiy maqsadga erishishga, ma'lum darajada umumiy ma'lumot darajasi va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan va imon-e'tiqodli qilib tarbiyalangan kishini yetishtirishga qaratilgandir. Xalq ta'limi tizimi tarkibiga vazirliklar, tuman xalq ta'limi bo'limlari, maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari kiradi.

Boshqarish va rahbarlikni hayot bilan bog'lash tamoyili. O'zbekiston Respublikasi maktab va boshqa o'quv-tarbiya muassasalari ishlab chiqarishning barcha tamoyillari asosida boshqariladi.

Demokratlashtirish, rejalilik va ilmiylik bu tamoyillarning asosiylaridir. Demokratlashtirish tamoyili markazlashtirilgan rahbarlik demokratiya, joylarda aniq sharoitlarni (milliy xususiyatlar, u yoki bu ishlab chiqarish sohasining ustunligi shahar yoki qishloq, tuman va boshqalar) hisobga oluvchi tashabbuskorlikning rivojlanishi bilan birga qo'shib olib borishni nazarda tutadi.

Rejalilik tamoyili. Ta'lim va tarbiyaga oid ishlarning hammasi yuqoridan pastgacha rejalashtirishni bildiradi. Xalq ta'limining barcha sohaslarini rivojlantirish rejalari tuziladi, barcha o'quv-tarbiya muassasalarining ish mazmuni belgilanadi. Har bir maktabda istiqbol reja (reja kamida uch yillik), yillik ish rejasi tuziladi. Yillik reja maktabning o'tgan yili ichidagi ishning tahlilini, umumiy ta'limni ta'minlash (maxsus maktablarda esa bolalarni tanlab olish) tadbirlarini, o'quv-tarbiya ishlarining vazifalari va mazmunini, tashkiliy pedagogik tadbirlar va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Direktorning, uning muovinlarining ish rejalari alohida tuziladi.

Ilmiylik tamoyili. Ishning shunday tashkil etilishini nazarda tutadiki, bunda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari hamda iqtisodiyot, pedagogika, psixologiya, gigiena va boshqa sohalarda hozirgi zamon fani yutuqlarini hisobga oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ta'lim tizimini boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- ta'limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ta'lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;

- ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

- boshqa davlatlarning ta'lim muassasalariga O'zbekiston Respublikasining hududida ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish;

- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olish va bu hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;

- davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash;

- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;

- davlat grantlari miqdorini va ta'lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;

- davlat oliy ta'lim rektorlarini tayinlash;

- ta'lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta'lim muassasadan boshqasiga o'tkazish tartibini belgilash.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqiy doirasi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;

- ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda rahbarlik qilish;

- davlat ta'lim standartlari, mutaxassislarining bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablar bajarilishini ta'minlash;

- davlat ta'lim muassasalarini moliyalash. Respublika va mahalliy byudjetlar mablag'lari, shuningdek, byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amalga oshirilishini ta'minlash.

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan, chet ellik yuridik shaxslar va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasida maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar, bog'chalarga rahbarlik qiladi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi barcha universitetlarga, kasb-hunar kollejlari, litseylariga, bilim yurtlariga rahbarlik qiladi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv rejalari va dasturlar ishlab chiqadi va tasdiqlaydi. Xalq ta'limi vazirligi "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning bajarilishi, maktablarda o'quv-tarbiya jarayonining yo'lga qo'yilishi, uning moddiy bazasini yaratishi, o'qituvchilarning malakasi va

katta yoshdagilarning ta'limini tashkil etilishiga javob beradi. Xalq ta'limi vazirligida turli xil o'quv-metodika bo'limlari tashkil etiladi, ular pedagogika sohasi jamoatchiligini xalq ta'limi bo'limlari va maktablariga yordam ko'rsatishga jalb etadilar.

Tuman xalq ta'limi bo'limlari o'zlariga qarashli maktablar faoliyatini, ularning mahalliy va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda nazorat qiladilar.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Bilimlar, pedagogika, pedagogik jarayon, pedagogik boshqaruv, pedagogik kategoriya, ta'lim, tarbiya, tamoyil, usul, vosita, ta'lim yo'nalishlari, tarbiya yo'nalishlari, kasbiy tayyorgarlik, harakatga keltiruvchi kuch, shakllanish, tarixiy rivojlanish, olamni idrok etish, falsafiy va diniy e'tiqod, dunyoqarash, pedagogik layoqat.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Pedagogika fanini o'rganish zaruriyati.
2. Ijtimoiy gumanitar fanlarning inson tabiyatini o'rganishdagi o'rni.
3. Pedagogika ta'lim va tarbiya haqidagi fan.
4. Pedagogika fanining tarixiy rivojlanganligi.
5. Pedagogika fanining ilmiy- tadqiqot metodlari.
6. Fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
7. Pedagogika fanining tizimi.
8. Ta'lim tizimini boshqarish.
9. Ta'lim-tarbiyani boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - T.: O'zbekiston, 1997.
2. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun. -T.: O'zbekiston, 1997.
3. G'aybullaev N.R. va boshq. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 1999.
4. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. Darslik. -T.: O'qituvchi, 2001.
5. Радугин А.А. Педагогика и психология. -М.: Центр, 2003.
6. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik // Prof.M.X.Toxtaxodjayevevaning umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
7. Hasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: Fan va texnologiya, 2009.

2 – MAVZU

TARBIYA JARAYONI VA SHAXS TARBIYASI

- 2.1. Tarbiya jarayoni, uning mohiyati. Tarbiya qonuniyatlari.**
- 2.2. Tarbiya jarayonida pedagogik talab.**
- 2.3. Tarbiya metodlari.**
- 2.4. Tarbiya jarayonida o‘qituvchi faoliyatining xususiyatlari.**

2.1. Tarbiya jarayoni, uning mohiyati. Tarbiya qonuniyatlari.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo‘lib, u tarbiyaviy jarayonning mazmuni, metodi va tashkil etilishi masalalarini o‘rganadi. Jamiyatimizning yangilanishi, taraqqiyoti o‘sib kelayotgan barkamol avlod tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonni ham qaytadan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining tarbiya haqidagi fikrlariga va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o‘z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlari ma‘lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo‘limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta‘lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog‘langandir.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchi shaxsiga oddiy ta‘sir ko‘rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishi ekanligi alohida ta‘kidlanadi.

Tarbiya aqlli, odobli, mehnatsevar, bilimli, sog‘lom, e‘tiqodli, dili pok, har tomonlama ma‘naviy rivojlangan, vatanparvar, baynalmilal, insonparvar barkamol shaxsni shakllantirishni ko‘zda tutadi. Tarbiya mahalliy, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, milliy an‘analar va mintaqalararo xususiyatlarni hisobga olgan holda olib boriladi.

Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, xarakteri, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Bola kattalarning tajribalarini sust holda emas, balki faol ravishda o‘zlashtiradi. Bu o‘zlashtirishda uning ongli harakati, tirishqoqligi ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko‘rsatmasalar tajriba va bilimni o‘zlashtira olmaydilar.

Bolaning yoshi ulg'ayib borgan sari bu faollik tobora ko'proq mustaqil xususiyatlarga ega bo'lib boradi, ya'ni, tarbiyalanuvchilar o'zlarida dunyoqarashni tarkib toptirishga, o'z-o'zini takomillashtirishga, tabiat, jamiyat va turmushda uchraydigan hodisalarni tushunishga hamda idrok etilgan narsalarga tanqidiy munosabatda bo'lishga ko'nika boradi.

Barcha davrlarning mashhur mutafakkirlari tarbiyaga katta ahamiyat qaratgan. Xalq donishmandlari va mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O'tar, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy inson kamolotini ilm-fan va tarbiyada deb bildilar.

Tarbiya jarayonida kattalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilar jamoasi o'zaro munosabatda bo'ladi. Bu munosabat o'zaro tushunish, ishonch, hamkorlik asosida qurilishi lozim.

Maktab butun tarbiya ishini hayot bilan hamohang tarzda, o'quvchilarga o'tmish, tarix, san'at haqidagi ma'lumotlarni chuqur o'rgatishi, xalq pedagogikasi asosida ish yuritishi, buyuk allomalarning farzand tarbiyasi borasidagi pedagogik qarashlarini va, shuningdek, inson ruhini chuqur o'rganib, sharqona urf-odatlar, an'analar asosida mehnat malakasini singdirishi lozim.

Tarbiya qonuniyatlari. Tarbiyaning maqsadini pedagoglar ham, otalar ham yaxshi bilishlari lozim.

Umumta'lim maktablarida tarbiyaning asosiy maqsadi sifatida shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi asos qilib olinadi.

Shaxsning har tomonlama kamolotga erishuvi, bu uning ayrim qirralari yoki xislatlarining to'laqonliligi, jismoniy, axloqiy, siyosiy, estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi.

Tarbiya moddiy boyliklarni ishlab chiqarish usuliga, jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga, siyosiy tizimga, mafkuraga bog'liqdir.

Tarbiyaning shaxs rivojlanishi bilan birligi va o'zaro bog'liqligi uning muhim qonuniyati hisoblanadi.

Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liq. Ayni chog'da, tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari shaxsning rivojlanish darajasiga ham bog'liq. Tarbiya jarayoni murakkabdir. Shuning uchun ham u tarbiyachidan bolaning ruhiy holati, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olib, mehribonlik bilan yondashishni talab qiladi. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi shaxsini diqqat bilan o'rganishi, ularni tushunishi, hurmat qilishi lozim.

Tarbiyalanuvchilarning hayotiy faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq va ularning munosabatlari oqilona tashkil qilinar ekan, tarbiya jarayoni shunchalik samarali amalga oshiriladi.

Insonni uning atrofini qurshab turgan vositalar: oila, ota-onasi, maktab, do'stlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar tarbiyalaydi. Shaxsning rivojlanish va shakllanish jarayonini boshqarib borish kerak.

Shunga ahamiyat berish lozimki, amalda tarbiyaviy jarayon umumxalq ishi va uzluksiz bo'lsin, barcha yoshdagi bolalarni qamrab olsin. Turli ijtimoiy, jamoat va davlat institutlari va muassasalarining shaxs kamolotini shakllantirish borasidagi harakatlari mujassamlangan bo'lsa, ayni maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligi e'tiborda tutilishi zarur.

Tarbiya muayyan maqsad bilan rejali ravishda amalga oshiriladigan davomli ishdir.

Yosh avlodga har bir tarixiy davrdagi jamiyatning o'ziga xos ishlab chiqarish metodi va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq tarbiya beriladi. Bu tarbiyaning asosiy qonuniyatidir.

Tarbiya jamiyat hayoti bilan bog'liq, jamiyat o'zgarib rivojlanishi bilan tarbiya ham o'zgarib, rivojlanib boradi.

Tarbiya jarayoni hayotiy, amaliy xususiyat kasb etmog'i lozim. Tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari: pedagoglar, ota-onalar, jamoatchilik, yoshlar tashkilotlari va mehnat jamoalari hamma kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishlari lozim.

Tarbiya nazariyasida ham pedagogika fanida bo'lgani kabi, yangi vujudga kelayotgan qarashlar bilan eskirib borayotgan qarashlar o'rtasida kurash ketgan. Tarbiya nazariyasidagi va amaliyotidagi muhim yo'nalishlarni tanqidiy o'rganmay turib, tarbiya nazariyasining asosiy masalalarini tushuna olish qiyin. Keng tarqalgan nazariyalardan biri avtoritar (boshqalarga ko'rkona bo'ysinish) tarbiya nazariyasi edi. Avtoritar tarbiya XVI asrda paydo bo'lib, hozirda Ispaniyada, Lotin Amerikasining ba'zi mamlakatlarida yaqqol ifodasini topgan. Avtoritar tarbiyani ilmiy ravishda asoslab berishga uringan nemis pedagogi Fridrix Gerbart (1771-1841) bola tug'ilganda «yovvoyi sho'xlikka» xos bo'lish fikrini olg'a suradi.

Shu bilan u tartibni buzgan o'quvchilar uchun jarima jurnalini tashkil etishni taklif etadi. U tartibni buzgan o'quvchilarni ovqatsiz qoldirish, burchakka turg'izib qo'yish, karserga qamash, jarimaga tortish kabi jazolash turlarini joriy etadi.

Avtoritar tarbiyani birinchi bo'lib J.J. Russo tanqid qildi va o'zining erkin tarbiya nazariyasini ilgari surdi.

O'zbek maktablarida ta'lim-tarbiya bir-biridan ajralmas deb hisoblanadi. Sinfdagi har qanday ish doimo tarbiyaviy ishdir, biroq tarbiyaviy ishlarni ta'lim berish bilan cheklash mumkin emas. Tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama o'stirish, uning ongi va xulq-atvorini shakllantirish jarayonidir.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya – tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga ma'lum bir maqsadga qarata va muntazam ta'sir qilishidir.

Bu xildagi ta'rif tarbiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani, chunonchi: muayyan dunyoqarash, axloq, ijtimoiy xulq-atvor qoidalarini singdirish, muayyan xarakter va iroda, odat va axloq yaratishni o'z ichiga oladi.

Tarbiya – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlari hosil bo'ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir.

Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoji va xohishlarini ifodalaydi.

Psixologlar va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh ijobiy, xoh salbiy) ta'siri bolaning ularga munosabatiga bog'liqligini ko'rsatadi. Bolaning shaxsiy tajribasi ehtiyojlari tashqi ta'sirga munosabatini belgilab beradi va uning xulqida aks etadi. Shuning uchun bola faoliyatini uyushtirishning o'zigina kifoya qilmaydi. To'g'ri tarbiyalash uchun tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qalbida paydo bo'layotgan munosabatni, turli xil kechinmalarni qanday anglashini, baholashini, his qilishini hamda ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganini bilish zarur.

Yana shuni hisobga olish kerakki, bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoadagi munosabatlar asosida ro'y beradi. Bola ulg'aya borishi bilan bu xil aloqa va munosabatlar murakkablashib boradi va bola

shaxsining kamolga yetishida yo ijobiy yoki salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun tarbiya maqsadga muvofiq muntazam ta'sir etishni ko'zda tutadi. Zero, shu yo'l bilan jamiyatning shaxsga qo'yadigan talablari tarbiyalanuvchining xulqini idora qilib turuvchi ichki ehtiyojga aylanadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchining ongining emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarni hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayoni asosida), hissiyotiga (darsda va sinfdan tashqari ishlarda) va irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) muntazam ta'sir etib boriladi. Agar o'quvchini tarbiyalashda bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun tarbiya jarayoni ko'p qirrali va murakkabdir. Maktabdagi tarbiya jarayoni to'xtovsiz davom etadigan jarayon bo'lib, unga o'qituvchi tarbiyachi rahbarlik qiladi va u tarbiyaning ayni vaqt uchun zarur bo'lgan maqsadini, shu maqsadni hal qilishga xizmat etadigan faoliyatini belgilaydi. O'quvchilarning shu faoliyatida ishtirok etishini ta'minlab, ular o'rtasida ijtimoiy, jamoa va o'rtoqlik aloqalari va munosabati uchun sharoit yaratadi.

O'quvchilarni faoliyatda qatnashishlari orqali ularning mustaqilligi, ijodiy tashabbuskorligi o'sib borishiga erishiladi. Ana shu jarayonda bolaning qarashlari, e'tiqodlari va voqea hodisalarga nisbatan o'z nuqtayi nazari vujudga keladi hamda mustahkamlanib boradi. Bular bolaning atrof-muhitning ta'siriga qanday munosabatda bo'lishini belgilaydi.

Shunday qilib, maktabdagi tarbiya inson shaxsini shakllantirish va kamolga yetkazish jarayonidan iborat bo'lib, uning mazmuni ta'limdagidek alohida predmetlarda emas, balki o'quvchilarning hayot faoliyati va o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Mana shulardan tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari kelib chiqadi.

2.2. Tarbiya jarayonida pedagogik talab.

Pedagogik talab tarbiya jarayonida boshlang'ich usul bo'lib, tarbiyalanuvchining muayyan faoliyatini rag'batlantirishni yoki to'xtatishni va aniq amaliy hamda insoniy sifatlarni namoyon qilishni ta'minlaydi.

Talab qilish usuli o'quvchilarning ko'pgina axloqiy sifatlarini shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga tarbiyalanuvchilarda o'ziga nisbatan mas'uliyat va talabchanlikni rivojlantirishda alohida vazifani bajaradi.

Yagona pedagogik talablarni qarab chiqar ekanmiz, faqat bizning

jamiyatimizdagina xalqning ma'naviy-siyosiy birligini mustahkamlashda pedagogik talab tarbiya jarayonining ta'sirchan usuliga aylanishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar bilan ishlar ekan, ularning faoliyatini tashkil etar ekan, o'z ko'rsatmalari bilan o'quvchilarning ayrim harakatlarini rag'batlantiradi. O'quv va tarbiyaviy ishlar jarayonida ularga muayyan mulohazalar bildiradi, tanbeh beradi yoki rag'batlantiradi, yakun yasaydi. Uning ayrim buyruqlari qisqa va lo'nda bo'lib, sezilar-sezilmas majbur qilishga o'xshab ketsa-da boshqalari ancha keng tushuntirish yo'l-yo'riqlar shakliga ega bo'ladi. Ba'zilar o'quvchilarni faqat ishga jalb qilish zaruriyatlari tufayli, boshqalari bolalarning ayrim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishlariga tuzatish kiritish ehtiyoji bilan vujudga kelgan; ayrimlari o'quvchilarning keraksiz va noto'g'ri harakatlarini to'xtatsa, boshqalari muvaffaqiyatli harakatlarni mustahkamlaydi va qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogning talabisiz o'quvchilarning o'quv va ijtimoiy foydali faoliyatini tashkil etishni tasavvur etib bo'lmaydi.

Tajribali pedagog bolalar huzuriga keng harakatlar dasturi bilan birga boradi, o'z tarbiyalanuvchilaridan har biri qachon nima qilishini muayyan tarzda biladi. Zero, talablar ana shu dasturni ularning ishlari va xatti-harakatlarida amalga oshirish vositasidir, xolos. Tarbiya jarayonida pedagogik talablarning asosiy turlari va shakllarini qarab chiqamiz.

Pedagogning talablari vositasiz talablar bo'lishi mumkin, bunda tarbiyachi ulardan muayyan harakatlarga erishishni kutadi.

Pedagogning talablari vositali talablar bo'ladi, bunda o'qituvchi o'z talablari bilan bolalarda o'z do'stlariga nisbatan navbatdagi talablarni keltirib chiqaradi. Talablarning asosiy shakllari, ikki omilda vujudga keladi.

Birinchi omil – kimdan talab qilinsa, o'shaning talab qiluvchiga munosabatidir.

Ikkinchi omil – tarbiyalanuvchining pedagog rag'batlantiradigan faoliyatiga munosabatidir. Umuman olganda, bu munosabatlarni biz ijobiy, betaraf va salbiy munosabatlar deb ta'riflaymiz, holbuki amalda bu munosabatlarning turli xil ko'rinishlari ham bo'lishi mumkin.

Endi talab shakllariga to'xtalib o'tamiz.

Talab to'g'ridan-to'g'ri bo'lishi mumkin, bunda o'qituvchining murojaati qat'iy, dadil ohangda ifodalangan aniq ko'rsatmaga ega bo'lishi mumkin.

To'g'ridan-to'g'ri talab o'quvchilar bilan ishlashning dastlabki kunlarida, ayniqsa, ta'sirchan bo'ladi. Samimiy, oshkora, ishonarli, qizg'in va qat'iy talab bo'lmasa, tarbiyaviy jarayonni boshlab bo'lmaydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, bu talab, ko'pincha, o'quvchining pedagogga yoki uning faoliyatiga betaraf munosabatda bo'lgan sharoitda ishlatiladi. Bunday

vaziyatda vositasiz talabning quyidagi qoidalariga amal qilish ayniqsa muhimdir.

Birinchi qoida: odatda talab ijobiy bo'lishi, ya'ni mutlaqo muayyan xatti-harakatni keltirib chiqarishi, bolalarning u yoki bu harakalarini shunchaki taqiqlamasligi, to'xtatmasligi lozim. Albatta, o'qituvchining taqiqlashlaridan o'quvchilar belgilangan xulq-atvor qoidalarini har xil tarzda buzgan hollarda foydalaniladi. Biroq pedagoglar talablarining asosiy mazmunini taqiqlashlar tashkil etmaydi.

Ikkinchi qoida: to'g'ridan-to'g'ri talab yo'l-yo'riq tarzida, ya'ni bir xil ma'noli, aniq va tushinarli bo'lishi lozim. Dastlabki paytlarda o'quvchilarning yangi harakatlarini rag'batlantirganda talab yo'l-yo'riqberish bilan qo'shib ketganday bo'ladi, ularni aniq ta'riflab beradi.

Uchinchi qoida: pedagogning har qanday oqilona, aniq va tayyorlangan talabi albatta bajarilishi, oxirigacha yetkazilishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, o'xshash pedagogik harakat qonunning namoyon bo'lishi natijasida har bir yangi talabning bajarilishi pedagogni keyingi talablarining kuchli va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchida tarbiyachiga aql-idrok bilan aniq bo'ysunish odatini shakllantiradi. Va, aksincha, har bir bajarilmagan talab shundan keyingi talablarning samaradorligini pasaytiradi.

Talab mazmun jihatdan ham, shakl jihatdan ham rivojlanib boradi. Pedagogik vaziyat o'zgarmas emas. Biror bir usulni tatbiq etib, bolalarfaoliyatida muvaffaqiyatga erishib, pedagog vaziyatni zaruryo'nalishda rivojlanishini boshqaradi. Pedagog bolalarga talablar qo'yar ekan, ular bilanmuayyan munosabatlarga kirishadi va, ayni vaqtda, ulardabajariladigan faoliyatga munosabatni shakllantiradi.

Vositali talablarda tarbiyachining maqsadi to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmaydi, pardalangan shaklda bo'ladi va rag'batlantiruvchi omilsifatida faqat talabning o'zidan emas, balki psixologik omillardan – bolaning turli kechinmalaridan, his-tuyg'ularidan foydalaniladi. Vositalitalablarni uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh – pedagogning tarbiyalanuvchiga bo'lgani jobiymunosabatini ifodalash bilan bog'liq bo'lgan munosabati. Bunday munosabatlar “iltimos”, “ishonch”, “ma'qullashlar” kabi ijobiytushunchalar orqali ifodalanadi.

Ikkinchi guruh – pedagogning bolalarga bo'lgan munosabati yaqqol ifodalanmaydi, lekin rag'batlantiruvchi usullar yordamida harakatlar amalga oshirish shartlidir. Bular “maslahat”, “sha'ma”, “talab” va “o'yin”larda ko'zga tashlanadi.

Vositasiz talablarning **uchinchi guruhi** - tarbiyalanuvchining faoliyatiga, uning ba'zi axloqiy sifatlariga salbiy munosabat bildirish. Bular – “fosh qilish”, “ishonchsizlik bildirish” va “do‘q qilishlar”da ifodalanadi.

Iltimos – u pedagoglar bilan o‘quvchilar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni rivojlantirishga asoslanadi va umumiy ishda ularning hamkorligini amalga oshirish vositasi hisoblanadi. Iltimos qilish muomalaning boshqa turlaridan shu bilan farq qiladiki, ishni bolaning batamom o‘z xohishiga qo‘yib beradi. O‘quvchi har qanday vazifani pedagogning majbur qilishi orqali emas, o‘z ixtiyori bilan bajarayotganini his qilsin.

Ishonch bilan talab qilish - eng kuchli tarbiyaviy vositadir. U inson faoliyatining qudratli omillarini harakatga keltiradi: o‘zining boshqa kishilar uchun foydali ekanligi hissini, o‘rtoqlari ishonchini oqlash istagini paydo qiladi. Ko‘pincha bu ancha murakkab va mas‘uliyatli, ba‘zan esa faxrli topshiriq bo‘ladi.

Ma‘qullash – muayyan holatda bolalar faoliyatining kuchli omiliga aylanadi. Ba‘zan tarbiyalanuvchi alohida murakkab vazifalarni hal qilishda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi, pedagogning ma‘qullashi dastlabki qadamlardayoq uning muvaffaqiyatini ta‘minlaganday tuyuladi, o‘z kuchiga ishonch uyg‘otib, bundan keyingi intilishlar manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Bu shakl ishga ongli munosabatni rivojlantiradi, pedagogni katta yoshdagi o‘rtoq deb bilishga o‘rgatadi. Uning obro‘si keng bilimlarda, katta hayotiy tajribada, mahoratda yashirinib yotganligiga asoslanadi. Shu bilan birga maslahat - bu hamma narsani ipidan ignasigacha tasvirlab beradigan yo‘l-yo‘riq emas, balki yechimlarni mustaqil izlashga undashdan iboratdir.

Vositasiz talabning bu shakli yana shunisi bilan foydaliki, u bolalarni muayyan vaziyatlarda, ayniqsa, qiyinchiliklarda o‘qituvchilar bilan maslahatlashishga o‘rgatadi. O‘z navbatida, pedagoglarga bolalarning maslahat so‘rab murojaat qilishlari, o‘zaro aloqani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Sha‘ma - bolalarni muayyan xatti-harakatlarga rag‘batlantirishning yashirin shaklidir. Sha‘ma ilgari ishlatilgan, yaxshi tanish bo‘lgan talablarni, ma‘nosi ochib berilmaydigan talablarni o‘ziga xos shartli qisqartirishidir. Muayyan sharoitda sha‘ma talabning «yashirin» shakli bo‘lib, u faqat ikki kishiga ayon bo‘ladi, xolos. Boshqalarning diqqatini jalb qilmaydi.

Tarbiya jarayonida maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan asosiy pedagogik talablarning shakli ana shulardan iborat bo‘lib, biror-bir talabni tanlash pedagogning o‘zboshimchalik bilan ish ko‘rishiga bog‘liq bo‘lmay, balki, pedagogik vaziyatning qanday sodir bo‘lishiga bog‘liqdir.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Chunki bular insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi va, o'z navbatida, mushohada qilish aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat, qunt, iroda talab etiladi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Ota-onasi va atrofdagilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular, avval, kattalarga taqlid qiladilar, so'ng sekin-asta qilayotgan ishlarining mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga ega. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday usuldan foydalanishiga bog'liq.

2.3. Tarbiya metodlari.

Bola o'qishni, tarbiya olishni istaydi, katta bo'lib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalashi lozimligini bilishi kerak. Shu bilan birga, bola o'zini o'zgartirishida faol ishtirokchi ekanligini ham unutmaslik lozim.

O'qituvchi - do'st, murabbiy, yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki dunyolarini hamoyon qiladilar.

Yuqorida aytganimizdek, tarbiya tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilim va tarbiyaga ega bo'lgan kishilar, tarbiyalanuvchilar - bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada faol faoliyat ko'rsatmasalar, tajriba va bilimni egallay olmaydilar.

Demak, tarbiya metodi tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati hamda o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir. Shaxsni shakllantirish maqsadida, bolaning ongi, his-tuyg'ulari, irodasi, xulq-atvori va munosabatlari tizimiga ta'sir ko'rsatish uchun tarbiya metodlari ishlatiladi. Ilmiy adabiyotlarda tarbiya metodlari tarbiya usullari, deb ham yuritiladi.

O'qituvchi sinfda birinchi marta sinf xonasini tozalash uchun shanbalik uyushtirmoqda. O'quvchilarga ish bo'lib berishdan oldin u partalar va polni qanday qilib artish haqida gapirib, ko'rsatib beradi.

O'qituvchining so'zi bu yerda uslub bo'lib hisoblanadi. Metod va uslub o'zaro bog'liq va pedagogik jarayon mohiyatiga ko'ra bir-birini uyg'un tarzda to'ldirib turishi mumkin.

O'quvchilarning jamoa va individual faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qilish uchun tarbiya shakllaridan foydalaniladi. Masalan, sinf majlisi, yig'ilishi, ertalabki saflanish, klub ishlari va boshqalar.

Tarbiya vositalari biron-bir tarbiyaviy masalani maqsadga muvofiq tarzda hal qilish uchun qo'llanadi. Yana o'quvchilar jalb qilingan faoliyat turlari ham tarbiya vositasi bo'lishi mumkin.

Kinofilmlar, san'at asarlari, o'qituvchining jonli so'zi, bolalar o'yini, mehnat, sport, badiiy havaskorlik, ijtimoiy va boshqa faoliyat turlari tarbiya vositalari hisoblanadi. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi-tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Masalan, maktab kutubxonasi tarbiya vositasi bo'lishi uchun o'qituvchi va kutubxonachi yozuvchilar bilan uchrashuv, o'qilgan kitoblar muhokamasini uyushtirishlari lozim.

Tarbiya natijasi tarbiyaviy jarayonning usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan mohirona foydalanishga bog'liq.

Tarbiyachilar bola shaxsiyatiga ta'sir etishning maqbul usulini tanlab olishlari, uning shaxsini o'zgartirish uchun sharoit yaratishlari lozim. Tarbiya metodlari har bir bolaga, bolalalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni taqozo etadi.

Shunday qilib, tarbiya jarayonida o'qituvchi bitta o'quvchi yoki sinf jamoasi manfaati yo'lida biron-bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini, tarbiyalanganlik darajalarini, pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan holda ta'sir etishning turli-tuman metod, uslub va shakllari majmuasiga tarbiya usuli deyiladi. Tarbiyaning metodlari, vositalari asrlar davomida shakllanib takomillashib boradi, o'zini oqlagan urf-odatlar an'anaga aylanadi. Binobarin, tarbiyada har bir xalqning o'z udumi, usuli tarixan shakllangan va tajribada sinalgan dunyoqarashi, tarbiya vositalari bo'ladi, shuning uchun tarbiya milliy va tarixiy zamindan uzilmasligi kerak.

Xalq pedagogikasining tarbiya metodlari. Xalq pedagogikasi chinakam o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujassamlashtirgan. Unda turli xil tarbiya metodlari va vositalaridan foydalaniladi, bu metod, vositalar nihoyatda rang-barang bo'lib, ko'p jihatlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki, bu metodlar ilmiy pedagogikaning shakllanishida ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xilma-xil tarbiya metodlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin:

- tushuntirish (o'rganish, odatlantirish, mashq qildirish);
- namuna (maslahat berish, uzr so'rash, yaxshiliklar haqida so'zlash, o'rnak bo'lish);
- nasihat qilish (undash, ko'ndirish, iltimos qilish, tilak-istak bildirish, ma'qullash, tashakkur bildirish, duo qilish, oq yo'l tilash va h.k.);
- qoralash va jazo (taqiqlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish, koyish, ayblash, uyaltirish, qo'rqitish, ont-qasam ichirish, urish, kaltaklash va h.k.).

Agar sinchiklab qaralsa, yuqorida keltirilgan to'rt xil metod umum bir yaxlitlikni ifodalaydi. Dastlab bolaga umumiy manzara tushuntiriladi. Bolalar narsa va hodisalarga tushunmaganlarida tarbiyachi namuna metodidan foydalanadi, yoshlarning mustaqil kuzatuvchanligiga e'tibor beriladi. Unda ham tushunmaganlar kattalarning nasihati, o'giti orqali narsa va hodisalarning mohiyatini anglaydigan bo'lishadi. Bordi-yu unda ham bolalar tushunishmasa, yoki tushunishni istashmasa, unda qoralash va jazolash metodlaridan foydalanishga to'g'ri kelgan. Lekin bu so'nggi chora ekanligini xalq yaxshi tushungan. Hozirgi zamon ilmiy pedagogikasi qoralash va jazoni so'nggi chora, aniqrog'i kam samara beradigan chora ekanligini isbotlagan.

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya metodlari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan.

Mehmon kutish, mehmonga borish, turli mehnat jarayonlari, hasharlar, gurunglar (choyxona, to'y marosimlari), sayllar, nishonlashlar (tug'ilgan kunni nishonlash, yigitlar bazmi, qizlar bazmi), o'quvchilarga dunyoviy bilimlarni egallashda, ongli intizomni, yuksak madaniyatni singdirishda, milliy g'ururli qilib tarbiyalashda yordam beradi.

Pedagogik talab. Pedagogik talab tarbiyaning eng muhim metodlaridan biridir. Talab turli vazifalarni bajarishi, ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini ifodalashi, biror-bir faoliyatda bajarilishi zarur bo'lgan aniq vazifa sifatida yoki turli ko'rsatma sifatida namoyon bo'lishi, muayyan harakatlarga undovchi bo'lishi mumkin.

O'zini-o'zi tarbiyalash metodlari

O'quvchida o'zini-o'zi tarbiyalashga ehtiyoj, ya'ni o'z ustida ongli, batartib ishlashga ehtiyoj paydo bo'lgandagina tarbiya jarayonini samarali deb hisoblash mumkin. O'quvchilarni, ayniqsa, o'rta va katta yoshdagilarni o'z bilim va malakalarini mustaqil oshirishlariga yo'llash kerak.

O'quvchilarning o'zini-o'zi idora qilish organlari faoliyatida qatnashishlari, ularning ijtimoiy-faollik mavqeyini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. O'quvchilar o'qishda, tarbiyada, dam olishda o'zini-o'zi

tarbiyalash metodlaridan foydalanadilar, o'zini-o'zi tarbiyalash tashabbuskorlik va mustaqillikka undaydi.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, pedagogik jamoa bu ishga tayyor bo'lsagina o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrixohlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil topishi mumkin. Barcha o'zini-o'zi idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so'z bilan ish uyg'unligiga, ijtimoiy rag'batlantirishga e'tibor berish lozim.

O'zini-o'zi tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mustaqillik ko'rsata boshlagan vaqtda paydo bo'ladi. O'zini-o'zi tarbiyalashda (axloqiy, jismoniy, hissiy-irodaviy va intellektual) maslahat va ko'rsatmalar berilishi lozim. Bunda o'quvchilarning o'z xatti-harakatlariga tanqidiy munosabatda bo'lishga o'rgatish juda muhimdir.

O'quvchilar o'zlari muayyan vaqtda belgilangan vazifalarni baholash uchun majburiyat oladilar va ularni kun tartibiga yozib qo'yadilar.

Shundan keyin vaqti-vaqti bilan o'zlari va ota-onalari oldida olgan majburiyatlarining bajarilishi haqida hisobot beradilar. Bu esa ularning o'z xatti-harakatlari uchun javob berishga, mas'uliyatni his etishga yordam beradi.

O'zini-o'zi tahlil qilish. O'z shaxsini tahlil qilishga, xatti-harakatlari haqida o'ylashga o'rgatadi.

O'zini-o'zi nazorat qilish uchun o'quvchi o'zining yurish-turishi, intizomi, ijobiy xislatlarining ortib borishi va, aksincha, salbiy odatlarning kamayib borishi haqida muntazam ravishda kundaligiga yozib boradi.

O'zini-o'zi baholash. O'quvchining qobiliyatini o'z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlash zarur. O'zini-o'zi baholash qiyin, lekin o'quvchini bunga yetarli darajada tayyorlash mumkin.

Buning uchun irodali bo'lishi, o'zining o'quvchilik ijtimoiy burchini tushunishi, o'qish va tarbiya olish uchun sabablar, motivlar asos bo'lishi, ya'ni tahsil va tarbiyalanishni xohlashi, o'zini o'rtoqlarining, yaqin kishilarining ko'zi bilan ko'rish va o'zini-o'zi takomillashtirishga intilishi lozim.

O'zini-o'zi baholash o'quvchi uchun o'zining imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, baholash, o'ziga chetdan turib xolisona baho berish, o'zidan qoniqish hosil qilishda yordam beradi.

Rag'batlantirish va jazolash metodlari. O'qituvchi bolalarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo'layotganini sezishi kerak. Faqat shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi. O'ziga-o'zi, o'z kuchiga ishonchi ortib boradi. Jamoa va o'qituvchilar

e'tiborini qozonadi. Bunga erishish uchun rag'batlantirish usulidan foydalanish lozim. Chunki rag'batlantirish bolaga ishonishga, unda bo'lgan qobiliyat va fazilatlarining kuchini e'tirof etishga asoslangan.

Rag'batlantirish o'quvchining ko'nglini ko'taradi, quvonch keltiradi, yanada yaxshiroq bo'lishga intilishga yordam beradi. Maktablar tajribasida rag'batlantirishning quyidagi turlari qo'llanadi:

- 1). o'quvchining kuchi yetadigan, mas'uliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish: bunda o'quvchi o'z qadr-qimmatini bilan faxrlanadi;
- 2). maqtash (ota-onalar, bolalar jamoasi oldida);
- 3). esdalik sovg'asi (kitob, ruchka, o'quv asbobi va boshqalar);
- 4). maqto'v yorlig'i berish;
- 5). stipendiya bilan taqdirlash;
- 6). hurmat taxtasiga fotosuratini qo'yish;
- 7). mas'uliyat va jamoaning minnatdorchiligi;
- 8). safda birinchi o'rinda turish;
- 9). musobaqalarda bayroq ko'tarish;
- 10) gazeta-jurnal va radio-televideniya e'lon berish.

Har qanday rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Ya'ni rag'batlantirish haqiqiy xizmatga muvofiq bo'lishi, ketma-ket bo'lmasligi lozim. Haddan oshirib maqtash, boshqa o'quvchilarga taqqoslab, ularni kamsitishga yo'l qo'ymaslik, rag'batlantirishga bo'lgan talabchanlikni bo'shashtirmaslik kerak va h.k.

Jazolash — bu tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir.

Jazo ham o'quvchi, ham butun sinf manfaati uchun qo'llanadigan oxirgi tarbiya metodi. Jazo choralarini qo'llashda jismoniy jazo: urish, kaltaklash mumkin emas. Bolani qo'rqitish, g'azablantirish ham yaxshi natija bermaydi, o'quvchi qo'rqanidan yolg'on gapirishga o'rganadi, ikkiyuzlamachi bo'lib qoladi.

Maktablarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo choralariga quyidagilar kiradi:

- tanbeh berish eng yengil jazo chorasidir. O'qituvchi bolagayuzmayuz turib tanbeh beradi, buni kundaligiga yozib qo'yish mumkin;

- ogohlantirish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish uchun qo'llaniladi;

- hayfsan berish. Agar tanbeh va ogohlantirish kutilgan natijani bermasa, o'quvchi belgilangan intizomni buzaversa, o'quvchining aybi qay darajada va uning intizomni qanday sharoitda buzganini e'tiborga olib, unga hayfsan e'lon qilish mumkin.

Uyaltirish-qizartirish. Odamning eng nozik sezgilaridan biri uyat, or-nomus, sharm-hayodir. Odatda, o'zini hurmat qilgan insonda or-nomus, uyat kuchli bo'ladi. Bolalarni tarbiyalashda shu hislarni ehtiyotkorlik bilan singdirib borish lozim, lekin hadeb uyaltiraverish va qizartiraverish ham yaramaydi. Bundan oqilona va o'z o'rnida foydalanish kerak, shundagina ijobiy natijaga erishish mumkin.

Jazo o'z o'rnida o'ylab qo'llanishi lozim. Tinimsiz jazolash ham mumkin emas. Jazolar yakka xarakterli, o'quvchilarning aybiga mos bo'lishi, tez-tez qo'llanilmasligi, jazolanuvchi jazoni haqqoniy ekanligini his qilishi va ular o'z ayblarini tan olishlari lozim. Jamoada muhokama qilish va jamoa tomonidan qo'llab-quvvatlangan jazo berilsa, uning ta'sir kuchi yanada oshadi. Barcha hollarda jazo tarbiyalanuvchini jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarga solmasligi, uni tahqirlamasligi, sha'nini toptamasligi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida ta'riflab berilgan tarbiyaning umumiy metodlari o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarining barchasini qamrab olmaydi.

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib boradi, shuning uchun tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

2.4. Tarbiya jarayonida o'qituvchi faoliyatining xususiyatlari.

Agar bola siz ogohlantirmasingizdan yoki tushuntirmasingizdan oldin o'z xatosini tushungan bo'lsa-yu, sizga qilgan xatosini aytolmay izza chekib turgan bo'lsa, uni jazolashga zarurat yo'q. Endi bu xatoni qaytarmayman, degan ma'noda sizga qarayapti. Siz unga yana bir marta imkoniyat bering. Ammo keyingi gal ham xato qilsa va uni tan olmasa, unday hollarda quyidagi jazo turlari qo'llaniladi.

1. Tushuntirish.
2. Tanbeh berish.
3. Ogohlantirish.
4. Qattiq ogohlantirish.
5. Uyaltirish.

Yuqoridagi jazo turlarini o'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz hech kimning guvohligisiz qo'llaydi. Ammo guruhdosh o'rtoqlari yoki sinfdoshlari oldida izza qilay deb bolani uyaltirsa, yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Uyat – bu insonning eng nozik sezgisi bo'lib, o'quvchini o'rtoqlari yoki kollektiv orasida izza qilish (uyaltirish) eng yuqori jazo hisoblanadi.

O'quvchini jamoa orasida izza qilish eng oxirgi chora bo'lib, uni boshqa usul qolmaganda qo'llash mumkin. Eng ma'quli o'quvchi bilan yuzma-yuz mehrlilik ohangda, unga ishonch bildirib, qaltis yo'ldan qaytarishdir.

Tarbiya – har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayoni.

Tarbiyalanganlik – milliy urf-odatimiz mezoniga kirmagan o‘zgalarning nafratini qo‘zg‘atadigan xatti-harakatlardan o‘zini tiya bilish.

Bolaning xarakterini, oiladagi tarbiyasini, uning or-nomusini, sharmu-hayosi kabi nozik tuyg‘ularini, tarbiyalanganlik darajasini bilmay turib, birdaniga jamoa orasida uyaltirish, yaxshi o‘ylab ko‘rmasdan, yoki jahl ustida uni tinimsiz (tan jarohati yetkazish) kaltaklash mumkin emas. Sizning tanlagan jazo usulingiz o‘quvchini yoki farzandingizni qilgan xatosini tushunishga, boshqa qilmasligiga tarbiyaviy saboq bo‘lishi kerak. Jazo adolat mezoniga tayanib qo‘llanilmog‘i lozim. Zero, bu qo‘llagan jazo usulingiz o‘quvchining sha’niga, g‘ururiga tegmasin va uni ruhiy azob-uqubatlarga solmasin. Agar bu jazo usullari o‘zining samarasini bermasa, u holatda, ehtiyotkorlik bilan maktab ma’muriyati va jamoa hamkorligida boshqa choralarni ishlab chiqish kerak.

Bugungi kunda pedagogika fani ham, amaliyoti ham takomillashib bormoqda. Shuningdek, tarbiya jarayoni ham zamon talablariga monand takomillashib boradi.

Mustaqil jamiyatimizning qisqa tarixiy davri saboqlarini, g‘oyalarini, tamoyillarini talabalar ongiga singdirish, ularni aqlan barkamol va ma’naviy boy qilib tarbiyalash biz tarbiyachilar va ota-onalarning burchimizdir. Prezidentimiz I.A.Karimovning "O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz" mavzusidagi "Turkiston" gazetasi muxbirlarining savollariga javoblari (1999 - yil 3-fevral) biz uchun dasturulamal bo‘ladi. Ularga bir nazar solaylik:

“Turkiston” gazetasi muxbirining savoli:

“Yaxshi bilamizki, mustaqil taraqqiyot yo‘li oq poyonoz to‘shalgan ravon yo‘l emas. Bu yo‘lda o‘ziga xos past-balandliklar, to‘siq va qiyinchiliklar, murakkabliklar bo‘lishi tabiiy. Sizningcha, O‘zbekistonning yetti yillik istiqloq tarixidan kelib chiqadigan asosiy saboq va xulosalar nimalardan iborat?”

Prezidentimiz I.A. Karimovning javoblari:

"Birinchi saboq shundan iboratki, yangi tizimga o‘tish ko‘pchilik o‘ylagandan ham ko‘ra murakkab jarayon ekan.

Vatan, millat taqdiri hal bo‘ladigan qaltis vaziyatda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olish uchun, avvalo, tarixni yaxshi bilish, hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak.

Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo‘lmog‘i darkor.

Endi, eski jamiyatni inkor qilish yoki ma’qullash kayfiyatidan voz kechib, bunyodkorlik kayfiyatiga o‘tish payti keldi.

Millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo‘layotgan pallada o‘zligimizni anglash, ma’naviy ildizlarimizni unutmashlik katta ahamiyatga ega.

Biz insonlar dunyoqarashini boshqarish fikridan yiroqmiz, balki biz insonlarning tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish tarafdorimiz.

Tarix inson ko'zini ochar ekan. Uni o'rganish ko'p xatolarning oldini oladi. Chunki insoniyat tarixida davrlar, jarayonlar charxpalak kabi aylanib, qaytarilib turadi. Faqat bu xatolar yangi tarixiy bosqichda, yangicha shaklda ro'y beradi. Bizning tariximizda ham o'sish, yuksalish va tanazzul tomonlari bo'lgan. Xalqimiz boshidan ko'p voqealarni o'tkazgan. Zafarni ham, mag'lubiyatni ham, parokandalikni ham ko'rgan. Buyuk Amir Temur hukmronlik qilgan davr va undan keyin kechgan jarayonlar yorqin misol bo'la oladi.

Buyuk ajdodimiz yuksak taraqqiy topgan davlat barpo etgani va bu mamlakatda "Kuch – adolstdadir" degan bosh shior davlat siyosatining, jamiyatning asosi bo'lganini yaxshi bilamiz. Bu g'oya odamlarga kuch bergan, ularda insof-diyonatga, ezgulikka ishonch uyg'otgan. Chunki jamiyatda adolat barqaror bo'lsa, millat, xalq hech qachon yo'ldan adashmaydi, ertami-kechmi farovon turmushga erishadi.

Mening rahbarlik lavozimimda mehnat qilgan tajribamdan chiqadigan eng muhim hayotiy xulosam shuki, adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo'lmog'i darkor.

Nafaqat mamlakatimiz miqyosida, o'ylaymanki, har qanday jamoa, mahalla, boringki oila misolida ham omadimiz, fayzimizni saqlamoq garovi sharti bo'lmish tinchlik va totuvligimizni saqlamoqchi bo'lsak, buning yagona zamini – adolat va insofni eng ustuvor maqsadimiz va siyosatimizga aylantirmog'imiz kerak. Faqat shu asosdagina, fuqarolar roziligi, millatlararo totuvlik yurtimizda qaror topgan osoyishtalikni asrash mumkin".

Prezidentimizning bu o'rinli saboqlari tarbiyachi pedagoglar uchun yo'llanmadir.

Adolat o'zi nima? U qanday tushuncha? Nima uchun Prezidentimiz adolat biz qurayotgan jamiyatimizning mezoni bo'lishi kerak dedilar? Bu tushunchani pedagogika sohasida qanday talqin etish mumkin?

Adolat – hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalarga rioya etgan holda hal etishdir.

Adolat tushunchasi bilan bog'liq jihatlar juda keng qamrovli bo'lib, adolatli inson, adolatli jamiyat kabi tushunchalar shunday jihatlar jumlasiga kiradi. Adolatparvarlik tushunchasi esa adolat tamoyiliga amal qilgan holda ish olib borish, yo'l tutish, faoliyat yuritish demakdir. Bu tushunchaning mohiyatini oilada farzand tarbiyasi jarayonida uchraydigan quyidagi hayotiy masalalarning yechimi asnosida qaraylik.

Masalan. Aka dars qilayotganida ukasi oyoq tagida "g'ing-g'inglab" mashinasini o'ynayverdi. Akasi bir-ikki bor ukasiga boshqa uyga chiqib

o'ynashini iltimos qildi. Ammo ukasi quloq solmaydi. Jahli chiqqan aka ukasining mashinasini olib, eshikdan uloqtirdi. Bundan xafa bo'lgan uka: "Akam urdi",- deb onasiga yig'lab bordi. Ona kichik o'g'lining gapiga kirib: "Kap- katta yigit, kichik bolani urdingmi?" – deb koyidi va bir shapaloq urdi. Bu holatni ko'rgan kichik o'g'li xursand. Ona ham kichik o'g'lining yuzidagi tabassumdan boshi osmonga yetgan holda uydan chiqib ketdi.

Masala ona tomonidan adolatli hal qilindimi?

Adolat ta'rifiga murojaat qilib, bu hayotiy masalani tahlil qiladigan bo'lsak, akaning ham axloqiy, ham huquqiy normalari paymol qilinganligini ko'ramiz. Masala ona tomonidan adolatli hal qilinmadi. Aka-uka o'rtasida mehrsizlik munosabatlarining paydo bo'lishiga birinchi zamin yaratildi.

Ukaning esa bundan buyon yo'lg'on gapirishiga yo'l ochib berildi. Bunday holatlar bir necha bor takrorlansa, aka: "Ota-onam mendan ko'ra ko'proq ukamni yaxshi ko'rar ekan", degan xulosaga keladi. Adolatsizlik zamirida aka ichimdagini top deydigan, oiladagilarga va aka-ukalarga bemehr bo'lib tarbiyalana boshlaydi. Agar ona: "Qani yur-chi, o'g'lim", - deb aka va ukani yuzlashtirib, haqiqatni, ya'ni akaning urmaganligini aniqlaganida, ukaning tuxmat qilayotganini bilib, o'z vaqtida chora ko'rganida edi, aka-ukalar orasida mehr, ishonch, bir-birini hurmat qilish, aldamaslik, qilgan aybini tan olib ish ko'rish kabi ko'nikmalarni yanada shakllantirgan bo'lar edi.

Ota-ona va farzandlar orasidaga adolatning axloqiy va huquqiy buzulishlari salbiy sifatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Oilalarimizda bolalarning yoshligidan boshlab yaxshi sifatlarini shakllantirib borishga jiddiy e'tibor bermog'imiz lozim. Hayotiy masalalarni hal qilishda ota-onaning bilimi, ma'naviyati, o'zini tutishi, yurish-turishi katta ahamiyatga egadir.

Farzandlar, talabalar, qolaversa, odamlar orasida adolatparvarlik xislatlarini kamol toptirishda o'rnak ko'rsatish, tushuntirish va uqtirish, rag'batlantirish, ogohlantirish, tanbeh berish, uyaltirish (izza qilish), suhbat, munozara va bahs kabi usullardan foydalanish mumkin.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Tarbiya jarayoni, metod, so'z orqali, ko'rgazmali, amaliy namuna, rag'batlantirish, uyat, tarbiya, tarbiyalanganlik, shaxs rivojlanishi, ma'naviy-ma'rifiy qiyofa, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Tarbiya jarayonining mohiyati.
2. Tarbiya jarayonining vazifalari.
3. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli.
4. "Metod" tushunchasining kelib chiqishi.

5. Tarbiya jarayonida o'qituvchi faoliyatining xususiyatlari.
6. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati:

1. G'aybullaev N.R. va boshq. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. -T.: Universitet, 1999.
2. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. Darslik. -T.: O'qituvchi, 2001.
3. Ibragimov X., Ibragimova Sh. Pedagogika. - T., 2008.
4. Радугин А.А. Психология и педагогика. - М.: Центр, 2003.
5. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
6. Hasanboyev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: Fan va texnologiya, 2009.

3-MAVZU

GURUH SHAROITIDA ZAMONAVIY O‘QITISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

- 3.1. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari.
- 3.2. Faol o‘qitish usullari va ularni tashkil etish.
- 3.3. Darsda munozara, breyn storming va treninglarni o‘tkazish.
- 3.4. Bahs turlari. Yozma bahsni o‘tkazish qoidalari.

3.1. Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari.

Ma'lumki, har qanday pedagogik jarayonning asosiy maqsadi — ta'lim oluvchida bilim, malaka va ko'nikmalar hosil qilishdir. Bu narsa ma'lumotlar almashinuvi orqali ro'y beradi. Pedagogik muloqot jarayonidagi ma'lumotlar almashinuvi asosan uch shaklda amalga oshiriladi:

- monolog;
- dialog;
- polilog.

Monolog - ma'ruzachi yoki o'qituvchining tinglovchilar yoki o'quvchitalabalar qarshisiga chiqib nutq so'zlashi, darsni bayon etishidir. Ayni shu usul ta'lim-tarbiya jarayonidagi asosiy vosita ekanligi to'g'risida ongimizga o'rnashib qolgan tasavvur mavjud. Bu holatda gapiruvchi ma'lumotlarning asosiy tayanch manbai hisoblanadi va faqat undagina faollik talab qilinadi. Monolog egasi o'zi mustaqil tarzda ma'lumot mazmunini tinglovchilarga yetkazish va o'z mavqeini ta'kidlash imkoniga ega bo'ladi. Lekin auditoriya, ya'ni tinglovchilar unga nisbatan ancha passiv mavqeda bo'ladilar va bu narsa ma'lumotning faqat kichik bir qisminigina idrok qilish va eslab qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi bu kamchilikning oldini olish uchun auditoriyani faollashtirishning boshqa yo'llarini qidirishga majbur bo'ladi.

Dialog – o'quv mavzusi yoki muammoni guruh sharoitida o'qituvchi bilan birgalikda va hamkorlikda muhokama qilish yo'lidir. Shuning uchun bu usul tinglovchilarni nafaqat faollashtiradi, balki auditoriyada ijodiy muhitning bo'lishi va fikrlar almashinuvidan har bir ishtirokchining manfaatdorligini ta'minlaydi. Ya'ni, tinglovchilar o'quv jarayonining obyektidan uning subyektiga aylanadilar. Dialog jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasida fikrlar almashinuvi, bilimlarni o'zaro muhokama qila olish uchun real sharoit yaratiladi. Lekin dialogni tashkil etishdan avval o'qituvchi auditoriyaning u yoki bu xususida bilimlar va tasavvurlarga ega bo'lishini inobatga olishi zarur, aks holda o'zaro muloqot samarasiz va mazmunsiz tortishuvga aylanib ketishi mumkin. Dialog jarayonida uni tashkil etgan shaxs auditoriyaning u yoki bu

muammo yuzasidan bilimlarini diagnostika qilish va shunga mos tarzda o'zishini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Aynan shu holat dialogning eng muhim psixologik ahamiyatidir.

Polilog – guruh ichidagi munozaradir. U tinglovchilar yoki o'quvchilarning faolligini yanada oshirish, ulardagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida ishlatiladi. Polilog jarayonida guruh a'zolarining har biri muhokama qilinayotgan masala yuzasidan o'z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladi, o'qituvchi esa ushbu jarayonning tashkilotchisi sifatida o'quvchilar yoki talabalar faoliyatiga bevosita aralashmaydi. Bu usul dars mavzusi ko'proq nazariy xarakterli bo'lib, yangi g'oyalardan ularning amaliy jihatlari keltirib chiqarilishi zarurati bo'lganda qo'l keladi. Lekin bu usul mashg'ulotlar yoki muloqot darslari endi boshlangan paytda o'tkazilishi maqsadga muvofiq emas, chunki polilog uchun o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlash tajribasidan tashqari, yoshlarga o'sha soha yuzasidan ma'lum bilimlar majmui hamda hamkorlikda ishlash tajribasi zarur. Dialog va polilog texnikasini yaxshi egallagan muallim munozara yoki bahsni samarali tashkil etishga layoqatli bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, munozarani samarali tashkil etish qobiliyati o'z-o'zidan shakllanmaydi, buning uchun o'qituvchi umuman munozara metodikalarining mohiyati va uni tashkil etish yo'llarini ilmiy-amaliy jihatdan bilishi kerak.

3.2. Faol o'qitish usullari va ularni tashkil etish.

Bahsning samarali bo'lishi, eng avvalo, bahslashuvchilarning bir-birlariga nisbatan fazoviy joylashuvlariga bog'liq. Tinglovchi va muzokarada qatnashuvchilarning fazoviy joylashuvlari va ularning psixologik mavqelarining mohiyati muhim bo'lganligi bois biz ushbu holatlarni keltiramiz:

- Sinf sharoiti. Bu – an'anaviy dars o'tkazish shakli. Tinglovchilarning bir-birlarini yuzlarini ko'rish imkoniyati cheklangan va doska oldidagi o'qituvchiga hamda u bayon etayotgan mazmunga nisbatan tinglovchilarning mavqelari, mas'uliyati turlicha. Bu sharoitda bahs o'tkazish mumkin emas. Chunki sinfda oxirgi qatorda o'tirgan bola bilan birinchi qatorda o'tirganning darsga munosabati keskin farq qiladi. Tinglovchining psixologik mavqei – **«Men»** – **o'yindan tashqarida**.

- **«Men» – o'yinda»** deb ataluvchi holat: tinglovchilar doira shaklidagi stol atrofida joylashadilar va o'rtaga tashlangan mavzu yuzasidan erkin fikr almashish, hattoki, ayrim ijtimoiy rollarga ham kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Hatto boshlovchi ham «qatorda» o'tiradi. «Ishchanlik o'yinlari» va boshqa rolli o'yinlar ana shunday sharoitda o'tkazilishi mumkin.

- **«Men» – munozarada»** deb ataluvchi bu holat ayni bahs-munozaralar o'tkazish uchun qulay, chunki unda shaxs o'z fikrini dadil aytish uchun

imkoniyatni his qiladi. Odatda bunday bahslar to'rtburchak stol atrofida uyushtiriladi.

- **«Men» – hamkorlikdaman»** degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a'zolari to'rt-besh kishidan bo'lib alohida stollar atrofida o'tirib, har bir guruh o'z qarorini chiqaradi. «Munozara» klublari faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.

Bu keltirilgan har bir holat bahs qatnashuvchilarida o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat hissini keltirib chiqaradi.

Demak, dars mobaynida o'qituvchi mavzuning xarakteri, u shakllantirishi lozim bo'lgan bilim, malaka va fazilatlariga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi, shundan keyingina, mashg'ulotni boshlashi kerak. Ko'rinib turibdiki, an'anaviy sinfda tashkil etiladigan mashg'ulotlarning samaradorligi deyarli yo'q, chunki ular oldingi qatorlarda o'tirgan tinglovchilarning faolligigagina yo'naltirilgan, qolganlar «o'yindan tashqari» holatda, bu narsa ularning dars mazmuniga munosabatlarida bevosita aks etadi.

Kichik, tor doiralardagi kompakt guruhlarda uyushtirilgan munozaralarning **erkin mavzuli, yo'naltirilgan va aniq ssenariyli disput** turlari mavjud bo'lib, bu tanlangan mavzuga va munozara guruhlarining muloqot tajribasiga bog'liqdir («disput» so'zining lug'aviy ma'nosi - «fikrlayapman», «tortishayapman», degan ma'noni bildiradi). Kichik guruhlardagi munozaralardagi asosiy narsa - guruh a'zolarining tanlangan mavzu xususiyatiga qarab, har birining o'z fikr-mulohazalarini oxirigacha bayon etish imkoniyatlarining borligidir. Bunday guruhda boshlovchi ham qatorda o'tirib, mavzuning yechimi batamom hal bo'lmaguncha faol muloqotlarning ishtirokchisi bo'lishi mumkin. Lekin asosiy rol guruhning a'zolariga yuklanganligini va bevosita ajralib chiqqan norasmiy lider asosiy bahs yurituvchi bo'lishi mumkinligini unutmasligi zarur. Bunday guruhlar turli sharoitda, ko'pincha, bahs ishtirokchilari uchun tabiiy sharoitlarda (masalan, sinfda, talabalar auditoriyalarida, ish xonalarida va b.q.) o'tkazilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar bahslashuvchilar guruhi odatdagidan kattaroq hajmda (masalan, 30 kishigacha) bo'lsa, unda munozarani uyushtirishning o'ziga xos tomoni bor. Bu holda bahs guruhi shartli ravishda uchga bo'linadi. Birinchi guruh – **«fikrlarni jamlovchilar» - generatorlar** guruhi deyiladi; ikkinchisi – **«tanqidchilar»** va uchinchi guruh - **«fikrlarni tezlatuvchilar» - katalizatorlar»** deb ataladi. Har bir ajralgan guruhning o'ziga xos funksiyalari bor: «generatorlar» o'rta tashlagan muammo yoki bahs mavzusi bo'yicha o'zlaridagi barcha fikrlarni o'rta xolis tashlaydilar. Guruh a'zolaridan biri - lider - ularni jamlab, fikrlar ikkiga bo'lingan taqdirda ham ularni umumlashtirib bayon etadi. So'ngra o'yinga «tanqidchilar» kirishadi. Ularning vazifasi – eshitgan fikrlariga tanqidiy munosabat bildirish, ya'ni tanqidiy nuqtayi nazardan ular ichidagi «mag'zini» va

«puchak» fikrlarni saralash. Shundan keyin, vaziyatga qarab, yana soʻz «generatorlar»ga yoki «katalizatorlar»ga berilishi mumkin. Bildirilgan fikr va takliflarda mabodo hisobga olinmay qolgan jihatlar yoki nooʻrin fikr boʻlsa, yoki mohiyatan shu mavzuga aloqador boʻlgan, lekin ikkala tomon hisobga olmagan biror jihat aniqlansa, tomonlar diqqatini aynan shunga qaratishi kerak. Soʻngra «tezlatuvchilar» bahsni davom ettirishga ruxsat berib, agar uni yakun qilish taqozo qilinsa, ikkala guruhning oʻyiniga xolis baho bergan holda munozarani toʻxtatishi mumkin. Ular, koʻpincha, ikkala guruh uchun xolis arbitrlar - «hakamlar» rolini oʻynaydilar. Maktabda bir sinf doirasida yoki talabalar guruhida axloqiy-maʼnaviy mavzuda bahs uyushtirilganda, yuqoridagi usulni qoʻllash imkoniyati boʻlsa, suhbatdoshlar *uchburchak shakldagi berk stol* atrofiga oʻtirishlari mumkin. Demak, bahslashuvchilarning joylashishlari ham bu oʻrinda maʼlum ahamiyat kasb etadi.

Katta guruhlarda bahs yoki munozara uyushtirilganda, boshlovchining roli, ayniqsa, kattadir. Chunki u har bir guruhdagi tortishuvlar va fikr almashinuvlarning boshida turmogʻi, kerak boʻlsa, ular faoliyatini maqsadga muvofiq tarzda yoʻnaltirib bermogʻi lozim. Kichik guruhdagidan farqli oʻlaroq, katta guruhlarda boshlovchi u yoki bu ichki guruhga yon bosmasligi yoki ularni oʻzining shaxsiy fikriga majburan ergashtirmasligi kerak. Aks holda, u oʻzining faoliyati bilan boshqalar tashabbusiga salbiy taʼsir koʻrsatishi va bahsning yoʻnalishini buzib qoʻyishi mumkin. Shuning uchun katta guruhlar uyushtiradigan munozaraning mavzusi oldindan tanlangan va unga boshlovchi maʼlum maʼnoda tayyor boʻlishi shart.

3.3. Darsda munozara, breyn storming va treninglar oʻtkazish texnologiyasi.

Munozaralar yuritishning yana bir shakli borki, rus tilida «mozgovaya ataka», inglizchasiga «brain storming» deb ataladi. Bizning tilimizda bu tushunchaning aniq analogik tarjimai yoʻq, lekin uni «miyaga hujum» yoki «fikrlar toʻqnashuvi», «fikrlar yangi maydoni» deb atash mumkin. Usulning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar koʻproq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda esa bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, «tilga nima kelsa», lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa koʻproq muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq boʻlgan sharoitlarda qoʻl keladi. Yaʼni, bunda «erkin assotsiatsiyalar»ga imkon beriladi va, oxir oqibat, guruhning oʻzi maʼlum ratsional (toʻgʻri, maʼqul) «magʻizni» ajratib oladi.

Bu usulni birinchi marta amerikalik olim **A.Osborn** 30-yillardayoq taklif etgan va bu usul yordamida yirik loyihalarni rejalashtirish va oldindan uning

natijalarini bashorat qilishda ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritgan edi. Lekin keyinchalik mutaxassislar uni faqat nostandart, o'ziga xos yechimi bo'lgan vazifalarni muhokama qilgandagina qo'llash mumkin, degan fikrni bildira boshladilar. Biroq to'g'ri tashkil etilgan breyn stormingning amaliy afzalliklari ko'p. Faqat bunda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak:

1. Jumlar juda qisqa bo'lishi kerak, ularning asoslanishi shart emas.
2. Har qanday jumla yoki fikr tanqid qilinishi mumkin emas, ya'ni fikrlar tanqiddan xolidir.
3. Mantiqiy fikrlardan ko'ra, fantastik yoki qo'qqisdan, tasodifan miyada paydo bo'lgan fikr muhimroq.
4. Fikr yoki bildirilgan qisqa mulohaza qayd etiladi.
5. Bildirilgan fikr yoki g'oyalar u yoki bu ishtirokchiliki, deb ajratilmaydi, ya'ni ular - muallifsizdir.
6. Fikr yoki yaxshi g'oyalarni tanlash alohida «tanqidchilar» yoki guruhning norasmiy liderlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ta'kidlangan guruh katta bo'lgan sharoitda bahs uyushtirishda ham generator, ya'ni fikrlarni birlamchi jamlovchilarga ushbu usulda ishlashga imkon berish tajribada yaxshi natija beradi. Chunki o'tkazilgan tekshiruvlar va ko'plab sinov mashg'ulotlarining ko'rsatishicha, aynan shu guruhda breyn storming usulining qo'llanilishi turli-tuman va qarama-qarshi fikrlarning bayon etilishiga sharoit yaratadi. Aks holda muhim muammolar bo'yicha munozarani boshlash va unda fikrlar rang-barangligiga erishish juda qiyin bo'ladi. Bu usul, ayniqsa, kattalar auditoriyasida juda yaxshi samara beradi.

Bahsda ishtirok etish va undan manfaatdorlik hissi har bir ishtirokchida shakllanishi shart va bunda boshlovchi-o'qituvchining roli katta. Amaliy mashg'ulotlar bahs-munozara shaklida o'tkazilishida bolalarga oldindan aytilishi va ularning tayyorgarlik ko'rishlari uchun savollar berilib qo'yilishi maqsadga muvofiqdir. Bahs ishtirokchilari hayajonlanmasliklari uchun, mashg'ulot boshlanishidan avval, ular o'zlarini erkin tutishlari uchun ayrim **yengillashtiruvchi mashqlar**, boshqacha qilib aytganda, **psixogimnastik mashqlar** o'tkazish tavsiya etiladi. Masalan, ana shu maqsadda o'tkaziladigan psixogimnastik mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1). o'qituvchi guruhga doira shaklida tizilib turishini murojat etadi va a'zolari navbatma-navbat o'rtaga chiqib, guruh bilan xohlagan tarzda, lekin samimiy salomlashishini iltimos qiladi. Keyin guruhdan kimning salomi ko'proq yoqqanini so'raydi;

2). guruh a'zolari o'qituvchi atrofida yarim doira shaklida turishadi. Navbat bilan guruh a'zolari o'rtaga chiqib, xohlagan a'zo bilan so'zsiz, lekin ochiq yuz bilan mimika vositasida salomlashishi va biror fikrni bildirishi so'raladi;

3). hamma doira shaklida o‘tiradi va o‘qituvchi olib kelgan koptok navbat bilan muloqot qatnashchilariga otiladi, faqat kimga otilsa, o‘sha odamning kuchli, yaxshi bir sifati aytilib, so‘ngra yana otiladi. O‘qituvchi koptokning albatta har bir kishiga tegishini nazorat qiladi.

Bu kabi mashqlar munozara qatnashchilari o‘rtasida o‘zaro tanglikning bo‘lmasligi va o‘z fikrini bayon etayotganda o‘qituvchidan tortinmasligi uchun o‘ziga xos trening hisoblanadi.

O‘qituvchi munozarani boshlar ekan, ishtirokchilar ongiga quyidagilarni yetkaza olishi kerak:

a) mashg‘ulot har bir ishtirokchiga albatta foydali bo‘ladi va ular bir-birlariga yordam berish uchun kelganlar;

b) munozara o‘zaro muloqotning bir shakli bo‘lib, har bir ishtirokchi bir-biriga ochiq va samimiy munosabatda bo‘lsin;

d) munozara ishtirokchilari o‘zaro tajribalarini almashishlari uchun qulay sharoitdir;

e) fikr bayon etishda, kerak bo‘lsa, tavakkal qilaylik, lekin indamaslik shiorimiz bo‘lmasin;

f) munozara paytida ko‘p yozish shart emas;

g) agar biror narsa tushunarli bo‘lmasa, uni so‘rashdan tortinmang;

h) bilgan bilimlarimizni bir-birimizdan ayamaymiz, chunki boshqalar ham bundan manfaatdor bo‘lsinlar, «yashiringan bilim - bilim emas»ligini unutmaylik!

3.4. Bahs turlari. Yozma bahs o‘tkazish usullari.

Agar mashg‘ulotlar bir-birlarini yaxshi tanimaydigan boshlang‘ich guruhlarda boshlangan bo‘lsa, «tanishish» mashqlarini o‘tkazishni, albatta, kichik guruhlardan boshlash lozim. Bunda **erkin yo‘naltirilmagan bahs** shaklini qo‘llash o‘rinli bo‘lib o‘qituvchi ishtirokchilarga bir-birlarini yaxshi tanib olsalar, birgalikda harakat qilsalar, umumiy ish uchun manfaatli bo‘lgan natijalarga erishish mumkinligini tushuntirishi lozim .

Agar ishtirokchilar biror **yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lish**, murakkabroq masala yuzasidan umumiy nuqtayi nazarga ega qilish va mantiqiy xulosalarga erishishni maqsad qilgan bo‘lsalar, unda dars avvalida o‘qituvchi yoki oldindan tayyorgarlik ko‘rgan guruh a‘zosi ma‘ruza qilishi, ma‘ruza yuzasidan keyin bahs uyushtirilishi, dars oxirida imkon bo‘lsa, o‘qituvchi o‘zi tayyorlagan tarqatma materiallarini har bir a‘zoga berishi kerak. Faollashtiruvchi usullar materiallar qo‘lga berilgach, ishga solinadi.

Agar darsning yoki amaliy mashg‘ulotning maqsadi tinglovchilardagi **aniq qobiliyatlarni rivojlantirish**, malakalarni oshirish va yangi tajribadan foydalanish bo‘lsa, unda bahsning predmeti, avvalo, tajriba almashinuvga

qaratilishi, bunda ayrim mashqlar ham bajarilishi, ularning natijalari tahlil qilinishi, rolli o'yinlarni bajarishgacha olib borilishi kerak. Bunda o'qituvchining roli ancha mas'uliyatli bo'lib, u mashg'ulotgacha konkret yo'riqnomalarni o'quvchilarga berishi va guruh ishini muntazam kuzatib, nazorat qilib turishi lozim.

Agar munozara darslarining maqsadi - ishtirokchilarning **yangi, mustaqil fikrlarga kelishi**, ularni shaxsiy tajriba va vaziyatlarga bog'lab aytib berishlariga olib kelish bo'lsa, unda o'qituvchi «Men» – munozaradaman» holatida guruhli bahsni kichik guruhlarda tashkil etishi, ularda alohida holatlar va vaziyatlarning tahliliga barchaning diqqatini qaratishi, ishtirokchilarni turli rollarni tasavvur qilishga majbur qila olishi va oldindan tayyorlab qo'yilgan savolnomalarni dars oxirida tarqatib, shakllangan yangi g'oyani ajratib olishi kerak. Demak, bu shakldagi ish har bir ishtirokchidan puxta tayyorgarlikni va aniq ko'nikmalarni talab qiladi.

Bahs shaklida mashg'ulot o'tkazganda, qabul qilinadigan qarorlarning ahamiyati katta. Qarorlarning samarali bo'lishi uchun quyidagilarni yodda tutish kerak:

- mashg'ulot boshlanishidan oldin o'qituvchi tahlil qilinishi lozim bo'lgan muammoni belgilaydi va unga qay tarzda munosabat bildirilishi lozimligini tushuntiradi;

- qisqa bo'lsa-da, bu muammoning oldingi darslarga bog'liqligi, uyga berilgan vazifa, muhokama qilinadigan masalaga oid muhim faktlar esga tushiriladi;

- bahs qatnashchilari kichik guruhchalarga (4-5 kishi) bo'linib, mashg'ulot oxirida fikrlar umumlashtirilishi uchun qog'ozlar taxt qilib qo'yiladi;

- guruhda ishlash mobaynida bildirilgan fikrlarning afzal va kamchilik tomonlari haqidagi o'z mulohazalarini og'zaki yoki yozma tarzda qarorlar shaklida bayon etadilar;

- ish yakunida guruhning vakillari o'z guruhining ishi to'g'risida gapirib, ularni boshqalarniki bilan qiyoslaydi. Zarurat bo'lsa, o'qituvchi har bir guruhning qarorlarini o'zaro qiyoslab, savollarga javob beradi, noaniqroq qarorlarga o'z munosabatini bildiradi.

Pedagogik amaliyotda bahsning mohiyati, ko'pincha, faqat og'zaki dialoglar va tortishuvlar tarzida tasavvur qilinadi. Lekin og'zaki bahslarning yanada samarali va ta'sirchan bo'lishi uchun yozma bahs shakli ham qo'llaniladi. Bu usul o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini yanada chuqurlashtirish, munozara madaniyatini oshirish va har bir fikrni asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. O'qituvchi esa o'quvchi yoki talabalarning bilimlarini asosli baholash va bilimdonlikni to'la ma'noda tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu usul,ayniqsa, milliy g'oya va milliy mafkurani

shakllantiruvchi fanlar - ijtimoiy-gumanitar fanlar yuzasidan o'tkazilsa yanada samarali bo'ladi.

O'quvchilar oldindan mavzu bilan tanishtiriladilar, uyga berilgan topshiriqlar orasida qay biri yozma o'tkazilishi ma'lum qilinadi. Yozma bahs o'tkaziladigan kuni o'qituvchi uni quyidagi tarzda amalga oshiradi:

1). o'qituvchi guruhni ikkiga bo'ladi va ularni alohida qatorlarga o'tkazadi. Har bir guruh mavzu bo'yicha qaysi nuqtayi nazarni himoya qilishini ma'lum qiladi. Masalan, birinchi guruh bolalarning aqliy darajalarini muntazam o'lchab turish va shu orqali ta'lim muassasalariga jalb etishni himoya qilsa, ikkinchi guruh - bu fikrni asosli tarzda inkor qiladi;

2). shundan so'ng o'qituvchi qarama-qarshi guruh a'zolarini juftlaydi va ularga nomeri yozilgan varaqlarni tarqatadi. Har bir ishtirokchiga biror fikrni yozma asoslashga 5 daqiqadan beriladi. Yozma dalillar ravon tushunarli tilda, asosli tarzda yozilishi kerak;

3). yozilgan varaqchalar qarama-qarshi sheriklarga beriladi. Ular o'z «raqiblari» fikriga qarshi fikrni 8-10 daqiqa mobaynida o'ylab, yozishlari kerak bo'ladi va keyin narigi tomondagi sherigiga beradi;

4). yozma dalillar almashinuvining bunday tartibi 2-3 marta takrorlanadi, har safar har bir o'quvchi sherigining dalil-isbotini diqqat bilan o'rganib chiqib, javob qaytaradi. Oxirgi raundda o'quvchilarning o'zlariga yakunlash imkoni beriladi va yozma ishlar yig'ib olinadi;

5). o'qituvchi yozma bahslarni yakunlashda tomonlardan «Qarshi tomonning eng yaxshi dalil-isboti qaysilar bo'ldi?» deb so'raydi va o'quvchilar bilan oldindan kelishgan holda ular bilimlarini yakka-yakka yoki guruhliy baholaydi.

Yuqorida keltirilgan yozma bahslarni o'tkazish tamoyillari Fred Nyumen materiallari asosida tayyorlandi. O'ylaymizki, bizning sharoitimizda ham bu usullar ancha samara beradi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Ijtimoiy-psixologik sharoitlar, o'qitish usullari, yangi pedagogik texnologiyalar, didaktik texnologiyalar, faol o'qitish, bahs-munozara, yozma bahs, breyn storming, trening, polilog, dialog, monolog, bozor munosabatlari, kasbiy mahorat, amaliy ko'rsatmalar.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

- Auditoriya bilan ishlashning ijtimoiy-psixologik shartlari.
- Faol o'qitish usullari va ularni qo'llash yo'llari.
- Darsda munozara, breyn storming va treninglarni o'tkazish shart-sharoitlari.

- Bahs turlari. Yozma bahs qoidalari.
- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mazmun-mohiyati.
- Didaktik texnologiyalar tushunchasi.
- Zamonaviy pedagogik va didaktik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish.
- Hamkorlik asosidagi o‘quv faoliyati: turlari va shart-sharoitlari.
- Mualliflik, innovatsion va boshqa texnologiyalar mazmun-mohiyati.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun. - T.: O‘zbekiston, 1997.
2. G‘aybullayev N.R. va boshq. Pedagogika mavzular matni. –T.: Universitet, 1999.
3. Радугин А.А. Психология и педагогика. -М.: Изд-во Центр, 2003.
4. Стефановская И.В. Педагогика: наука и искусство. - М., 2004.
5. Usmanova A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat fani bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. - T.: JIDU, 2009.
6. Omonov X., Xo‘jayev N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod-moliya, 2009.
7. Yakubov Sh., Ayupov R. Interfaol ta’lim usullari. -T., 2012.

4-MAVZU

O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL QILISH SHAKLLARI

4.1. O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari.

4.2. Ta’limda o‘qitish va o‘qish tizimining vujudga kelishi.

4.3. O‘quv ishlarini tashkil qilish shakllari.

4.1. O‘quv faoliyatini tashkil etish shakllari.

Ta’lim ijtimoiy hodisa bo‘lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta’lim insoniyat jamiyati rivojining dastlabki paytlaridayoq katta rol o‘ynagan. U to‘plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta’minlagan, insoniyat faqat ijtimoiy rivojlanishga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga yordam bergan. Uzluksiz rivojlangan jamiyatda ta’limning mukammal jamoa shakli, ya’ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan. Ya.A.Komenskiy “Buyuk didaktika” asarida jamoaviy tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashtirdi, sinfning dars tizimida ta’limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O‘sha zamondan buyon 350 yil o‘tdi. Shu vaqt mobaynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta’limning metodlari ham uzluksiz takomillashib ketdi.

Xalq maktablari tashkil topgandan boshlab o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi hamda o‘zaro munosabati muammolari ham vujudga kelgan. Ma’lumki, o‘qituvchining bilimi uning darsdagi va uydagi faoliyatining xarakteriga bevosita bog‘liqdir, faoliyatsiz bilimlar ham bo‘lmaydi. O‘qituvchi ajoyib yo‘sinda dars o‘tishi va lekin bu darsning natijasi muayan o‘quvchi uchun hech narsaga arziyasligi mumkin.

Shularga ko‘ra o‘qituvchi o‘zini ana shunday o‘quvchining o‘rniga qo‘ya bilishi, uning darsdagi faoliyati va unga maktabda butun o‘qish davridagi munosabatini tasavvur qilishi g‘oyat muhimdir. Zotan tarbiya va ta’lim asta-sekin amalga oshadi hamda o‘quvchiga barcha darslar majmui qanday ta’sir etishiga, o‘quvchi o‘qituvchi rahbarligida ongli va faol bajaradigan ishlarning hajmi hamda muntazamligiga bog‘liqdir.

O‘qituvchining vazifasi – darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini to‘g‘ri uyg‘unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg‘unlik dars samaradorligini oshirishning muhim omilidir.

O‘qituvchi dars muammolariga to‘g‘ri yondashishi uchun ta’lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’sirini tushunishi lozim. Obyektiv mavjudlikning mohiyatini bilishi – ta’limning maqsadlaridan biridir.

Ta’limda bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga quyidagi komponentlar kiradi:

1. Hodisalarni, narsalarni kuzatish, axborotlarni idrok etish.
2. Olingan axborotlarni tahlil qilish (bilimlarning xarakterli belgilarini aniqlash, taqqoslash, ko'chirish, birinchi jarayonda olingan axborotlarni o'zgartirish va unda olingan axborotlar doirasidan chiqish).
3. Eslab qolish.
4. Ishlar, umulashtirishning to'g'riligini tekshirish hamda baholash.

Umuman aytganda, ta'limni boshqarish o'qituvchining o'qish jarayonining asosiy strukturasi elementlari, xususan, o'quv materiallarining mazmuni, ta'lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalari to'g'ri amalga oshirishi hamda o'zaro ta'sirini ta'minlashdan iboratdir.

4.2 Ta'limda o'qitish va o'qish tizimining vujudga kelishi.

Ta'limni boshqarishning asosiy tashkiliy shakli quyidagi ma'lum belgilarga ega bo'lgan mashg'ulotlarni guruhiy yo'sinda o'tkazish orqali amalga oshiriladi:

1. mashg'ulotlarning har yili va har bir o'qish kuni bir paytda boshlanishi;
2. mashg'ulotlar va ular o'rtasidagi tanaffuslarning ma'lum vaqt davom etishi;
3. guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;
4. material o'rganish sur'atining bir xilligi;
5. o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqalgan, mustahkamlangan va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir. Maktab rivojlanishi tarixida 20-yillarda ta'limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada – laboratoriya metodi kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan materialni mustaqil holda o'rganganlar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergan. Bunday ta'lim bolalarning o'quv faoliyati uchun mas'uliyatni pasaytirgan. Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida ta'limning "loyihalar metodi" deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir obyektning loyihasini tayorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarining aytishicha, o'quvchilar loyihani tuzishda o'quv rejasi bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan.

So'nggi yigirma yil mobaynida pedagogika nazariyasi kombinatsiyalangan darsni o'rganishdan darsni elementlari bo'yicha bosqichma-bosqich o'zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat muammoli o'rganishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashish to'g'risida juda ko'p ilmiy

adabiyotlar mavjud. Masalan, N.M. Mahmutov, G.D. Kirilova, F.F. Korolyov va E.G.Yudinlarning hozirgi zamon darsi, uni tashkil etish, rivojlantiruvchi ta'lim sharoitidagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va hokazolarga doir kitoblarda darsga tizim sifatida qaralsagina uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70-yillardagina darsni o'rganish va tushuntirishga tizimli yondashish zarurligini to'la angladilar. Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak?

Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari mavjud emas. Ko'plab ta'riflarda xuddi ilgarigidek dars ma'lum vaqt mobaynida tarkibiga k o'ra o'zgaraydigan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlashgandir.

Tabiiyki, dars yaxlit ta'lim jarayonini o'quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari – uy vazifalarini bajarish, predmet to'garaklarining mashg'ulotlari, sayrlar va hokozolar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. “Darsni ikki jihatdan: umuman ta'lim jarayoni va ta'limni tashkil etish shakli sifatida ta'riflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor” (M.I. Mahmutov. “Zamonaviy dars”). Ta'limning umumiy jarayoni sifatida qaralsa, dars o'qitish harakatining ta'lim mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilanadigan, ma'lum makonzamon chegaralarida o'qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birgalikdagi obyekt o'qituvchi va o'qituvchilar amalga oshiradigan asosiy shakldir.

Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtayi nazardan quyidagicha ta'riflanadi: dars ma'lum tarkibdagi o'qituvchilar (muallimlar) bilan oquvchilarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri (faoliyatlari va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta'lim mazmuni, shakllari, usullari, vositalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo'llaniladigan boy va o'zgaruvchan shakldir”.

4.3. O'quv ishlarini tashkil qilish shakllari.

Hozirgi paytda o'quv ishlarini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llanadi: dars, ekskursiya, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'lim shakllari, uy ishlari, sinfdan tashqari o'quv ishlarining shakllari (predmet to'garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlar).

Pedagogik adabiyotlarda va maktab amaliyotida darsdagi ishlarni tashkil etishning asosan uchta: yakka tartibdagi, umumiy va guruhiy shakllari qabul qilingan.

Biz darslardagi va uydagi yakka tartibdagi ishlar deganda o'quvchilarning o'zlari uchun maxsus tanlangan va har birining imkoniyatlariga mos topshiriqni bajarishlarini tushunamiz. Shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini aniqlab, unga faqat tayyor namuna bo'yicha emas, balki mustaqil holda ishlashni ham talab qiladigan topshiriqlar tizimini tanlaydi. Bunday ish tasodifiy emas, balki muntazam, puxta o'ylangan bo'lishi va bunda o'quvchining xususiyatlari hamda imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. O'quvchi imkoniyatlarining ikki tomoni nazarda tutilishi zarur.

O'quvchi imkoniyatlarining ichki tomoniga quyidagilar kiradi: fikrlash va eslab qolishdan iborat o'qish qobiliyati; o'quvchi ilgarigi ta'limda olgan maxsus bilimlar, shuningdek, o'quv mehnatiga doir ko'nikma va malakalarning, ma'lum darajada ish qobiliyati va mas'uliyatining, o'qishga intilish ehtiyojlarining birligi tashkil etadi.

O'quvchi imkoniyatlarining tashqi tomoni unga maktabda xilma-xil ta'sir ko'rsatishdan va uning oilada hamda muhitda oladigan taassurotlardan iboratdir.

Yakka tartibdagi ta'lim har bir o'quvchiga yetarli darajada chuqur va puxta bilimlar berish uchun, har bir o'quvchi maqsadga muvofiq kamol topishini, zaruratga qarab, o'zining bilimlarini mustaqil holda to'ldirib borish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlashi kerak.

Yakka tartibdagi ishlarni darsning hamma bosqichlarida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday ishlardan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va turli mashqlarni uyushtirishda foydalanish ma'quldir. Ular yangi materialni o'rganishda ham g'oyat samaralidir.

O'quvchilar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar rejasini quyidagi yo'sinda tuzish mumkin:

6. dastlab mustaqil ishlarni o'tkazish hamda o'quvchi yashaydigan va o'qiydigan sharoitlarni tahlil qilish orqali uning imkoniyatlarini o'rganish;

7. o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashning didaktik vositalarini yaratish;

8. har bir o'quvchi uchun eng maqbul topshiriqlarni hamda ularning bilim olishi va kamol topishini nazorat qilish tizimini belgilash, o'quvchini o'z vaqtida murakkabroq masalalarni hal qilishga o'tkazish, amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tuzatish va xulosalar chiqarish.

Dars, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining shunday turidirki, unda o'quvchilar hammalari uchun umumiy bitta ishni baravar bajaradilar. Olingan natijalar sinf bo'yicha muhokama qilinadi, taqqoslanadi va umumlashtiriladi. Ommaviy ta'lim sharoitida o'quv ishlarini tashkil etishning umumiy shakli g'oyat muhimdir. U bolalarda jamoatchilik hissini tarbiyalashga, ularni mulohaza yuritishga, o'quvchilarning mulohazalaridagi xatolarni topishga o'rgatish imkonini beradi. To'g'ri rahbarlik qilish, bolalarning o'quv

imkoniyatlari aniqlash, sinfda turli muammolarni muhokama etish juda samarali tadbir hisoblanadi. Bu tadbir o'qituvchidan hamma o'quvchilarning istaklarini tinglay olishni talab qiladi. Darsning umumiy shaklida ko'zlangan maqsadlar bo'yicha va, ayniqsa, o'quvchilarda dalillar bilan muhokama yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishda ajoyib natijalarga erishish mumkin. Agar bolaning o'quv imkoniyatlari to'g'ri baholansa, darsni tashkil qilishning umumiy shakli o'qituvchilarga yakka tartibda yondashishdan keng foydalanish imkonini ham beradi. O'qituvchi ulardan o'z imkoniyatlariga bog'liq holda turli darajadagi umumlashmalarni so'raydi. Shu tariqa o'quvchilarning darsni tinglashlari, o'z bilimlari va fikrlarini o'rtoqlariniki bilan taqqoslashi, to'ldirishi, undagi xatolarni topish ko'nikmalarini shakllantirishi juda muhimdir.

Umuman olganda, sinfga ham reproduktiv ham ijodiy topshiriqlar berish mumkin. Darsda ishning yakka tartibdagi va umumiy shakllari birlashtirilsa, har ikkalasining afzalliklaridan kengroq foydalanish imkoniyati tug'iladi. Yangi materialni o'rganish va uni mustahkamlashda darsni tashkil qilishning umumiy shakli eng samarali hisoblanadi. Olingan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni esa yakka tartibdagi ishlardan kengroq foydalanib tashkil etish yaxshidir.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Ma'rifiy jarayonlar, ta'lim jarayoni, o'qitish va o'qish, ta'lim shakllari, ta'lim xususiyatlari, ta'lim vazifalari, o'qish ko'nikmasi, matnlar bilan ish yuritish uslubi, o'quvchi faolligi, aqliy yuklamalar, kompyuter imkoniyatlari va aqliy mehnat.

Ijtimoiy-psixologik sharoitlar, o'qitish usullari, yangi pedagogik texnologiyalar, didaktik texnologiyalar, faol o'qitish, bahs-munozara, yozma bahs, breyn storming, trening, polilog, dialog, monolog, bozor munosabatlari, kasbiy mahorat, amaliy ko'rsatmalar.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. O'qitish va o'qish jarayonlari.
2. Ma'rifiy jarayonlarning mazmun-mohiyati.
3. Ta'lim shakllari, ularning xususiyatlari.
4. Ta'lim oluvchilarning yozma ishlari turlari.
5. Ta'lim oluvchilar faolligiga aqliy yuklamalarning ta'siri.
6. Aqliy mehnat xususiyatlari; kompyuter texnologiyalarning aqliy mehnatga bo'lgan ta'siri.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash Va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik Prof. M.X.To'xtaxodjayevaning Umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
2. Pedagogika. O'quv qo'llanma // A. Mo'navvarovning Umumiy taxriri ostida. – T.: O'qituvchi, 1996.
3. Ziyomuxammedov B. Ma'rifat asoslari. -T.: Chinor ENQ, 1998.
4. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. -T.: O'qituvchi, 2001.
5. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov Q., Ochil.S. -T.: O'qituvchi, 1995.; 2-jild. Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov Q., Ochil.S. - T.: O'qituvchi, 1999.
6. Hasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2009.

5 - MAVZU

PEDAGOGIK NAZORAT

5.1. Pedagogikada reyting tizimi nazorati.

5.2. Nazorat turlari.

5.3. Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar.

5.4. Bilimlarni baholashga qo'yiladigan talablar.

5.5. O'qituvchining nazorat olib borishdagi xatolari. O'zini - o'zi baholash tartibi.

5.1. Pedagogikada reyting tizimi nazorati.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" va "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kabi asarlarida mustaqil O'zbekistonning ma'naviy hayotining kelajagi haqida asosli yo'nalishlar belgilab berilgan. Jumladan, mutaxassislarni tayyorlashda ularni intellektual rivojlantirish, ularda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish zarurligi alohida qayd qilingan.

Yuqorida ko'rsatilgan asosiy yo'nalishlarni amalga tatbiq qilishda birmuncha qarama-qarshiliklar mavjud bo'ladi. Birinchidan, qo'yilayotgan yuqori talab bilan har tomonlama intellektual rivojlantirishning pedagogik sharoitlarining mufassal emasligi orada tafovut yaratadi. Ikkinchidan, mutaxassis tayyorlashda maktabdan boshlab, to oliy o'quv yurtlarini bitirib chiqqunlaricha nazorat shaklining to'liq bo'lmaganligi ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy muammolarini tashkil etadi. Mazkur bo'limda ana shu muammolarni yechishning bir qator yo'llari ko'rib chiqiladi.

Pedagogika kursi universitet talabalarini pedagogik kasbiga tayyorlashda asosiy yo'nalish beruvchi predmetlardan hisoblanadi.

Pedagogika kursining vazifasi bo'lg'usi oliy maktab, o'rta va maxsus o'quv yurtlarining o'qituvchilarini umumiy pedagogika nazariyasi, kasbiy - pedagogik va predmetlar bo'yicha uslubiy bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Mutaxassis tayyorlashda ularning turli fanlardan, shu jumladan, pedagogik va kasbiy uslubiyatlar bo'yicha bilim, mahorat va ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi.

To'g'ri tashkil qilingan nazorat talabalarning olayotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish va, eng asosiysi, ularning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun turli vositalarni tanlash imkonini beradi. Talabaga, o'quv faoliyatiga ta'sir etishning ikki turi bor. Birinchisi, o'qituvchi qo'llayotgan uslub va usullar

bo'lsa, ikkinchisi, o'qituvchining faqat shaxsiy xislatlariga bog'liq bo'lgan ta'sir etish vositalaridan foydalanishdir.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, oliy ta'limni uzluksiz takomillashtirishda ta'lim - tarbiya uslub va usullarini yanada rivojlantirish bilan birga, talabalar o'quv faoliyatini boshqarish masalasi hali ochilmagan muammolar qatoriga kiradi.

Mazkur bo'limda talabalar bilan bo'ladigan muloqot, ularda bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllantirishni boshqarishning turli uslublari yoritildi.

Ta'lim sifatini nazorat qilishdagi asosiy vazifalar. O'quv-tarbiya jarayonida ta'lim sifatini hamda bilim, mahorat va ko'nikmalarni shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, o'tkazilgan tajribalarga va adabiyotda izohlangan ilg'or uslublarga asoslanib, nazoratning mezonini va bajaradigan vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasida bilim, mahorat va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2. Nazoratning talabalarda bilim olishga ishtiyoqni o'stirish funksiyasi. Nazorat natijasida talabalarda o'z bilim, mahorat va ko'nikmalarni yanada takomillashtirish ehtiyoji uyg'onadi.

3. Nazorat jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlari shakllantiriladi va eng asosiysi rivojlantiriladi. Rivojlanish faol o'quv jarayoni orqali, shu jumladan, nutq faoliyati orqali amalga oshiriladi.

4. Tahsil funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlaydilar. O'quv materialini yanada chuqur o'zlashtiriladi, hodisalar o'rtasida yangi bog'lanishlar o'rnatiladi, shu bilan aqliy faoliyat yanada takomillashadi.

5. Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi. Nazorat jarayonida talabalarning psixologik ijobiy xislatlari shakllanib bormog'i lozim.

6. Nazoratni xususan baholash funksiyasi. Nazorat natijasida sifat o'zgarishlarining me'yori aniqlanadi.

7. Nazorat – ko'p qirrali murakkab jarayon hisoblanadi va talabalarda doimiy jonli qiziqish, kuyinish, ayanch, xursandchilik xislatlarini uyg'otib, aqliy faoliyatni faollashtiradi. Yuqorida ko'rsatilgan funksiyalar, albatta, bir-biriga uzviy bog'langan holda yuz beradi.

Oliy ta'lim tizimi amaliyotida quyidagi nazorat turlari ko'proq qo'llaniladi: dastlabki, joriy, tematik, oraliq natijaviy va bitiruvchi. Bu nazoratlar tashqi nazorat hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonining munosibliigi ichki o'z-o'zini nazoratning qanday qo'yilganligiga ham ko'p jihatdan bog'liq.

Yaxshi tashkil etilgan o'z-o'zini nazorat o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy va, ayniqsa, tanqidiy yondashish imkoniyatini beradi. Bu narsa yangi predmet o'rganilayotganda bundan oldingi o'quv predmetlarida o'zlashtirilgan bilimlarning darkorligida ko'riladi. Odatda, o'qituvchi talabalar nimani bilish

kerak bo'lsa, o'shani biladilar, deb yangi mavzu boshlab ketadi. Talaba o'z ustida mustaqil ishlab yetishmagan bilimlarini to'ldirib borsa bir navi, lakin o'z-o'zini nazorat qilmaydigan talabalarning yangi mavzuni o'zlashtirishi ancha murakkab bo'ladi. Shuning uchun ham o'qituvchi yangi predmetni, yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning, xususan, yangi dasturni o'zlashtirishga qanchalik tayyorligini aniqlash maqsadida dastlabki nazoratni amalga oshiradi.

5.2. Nazorat turlari.

Joriy nazorat o'quv jarayonining hamma jabhalarida judayam chuqur bo'lmasa-da tez-tez o'tkazilib turilishi darkor. Joriy nazorat talabalarning uzluksiz o'quv faolligini rag'batlantirishi, o'quv materialini ustida sistemali ishlab borishini ta'minlamog'i lozim. Ming afsuslar bo'lsinki, oliy ta'lim sistemasida mana shu nazoratga kam ahamiyat beriladi.

O'qituvchilar, ko'pincha, guruhdagi talabalar soni ko'pligidan, guruhiy o'qitish shaklining qiyinchiliklaridan nolib, o'quv faoliyatining og'irligini bahona qilib va talabalarning o'z oriyatiga ishonib bunday nazoratga ahamiyat berishmaydi.

Talaba yoshidagi yosh avlodning o'ziga xos psixo-fiziologik xususiyatlarining o'rganilmagan tomoni ham shundaki, maktab sharoitida kundalik nazoratga ko'nikkan o'quvchilar institut, universitetga o'qishga kiradiyu kundalik nazorat bo'lmaganligi uchun o'zini bo'shashtirib yuboradi.

Tematik nazorat. Odatda o'qituvchi, lektor tomonidan nazorat ishi kichik va katta kollokvium, maxsus seminar shaklida bir mavzu yoki bo'lim tugagandan so'ng amalga oshiriladi. Bunday nazorat o'quv semestrda 3-5 marta o'tkaziladi.

Bo'sag'ali (oraliq) nazorat predmetning nufuzli bo'limi o'tganidan keyin laboratoriya mashg'uloti shaklida yoki maxsus testlar orqali amalga oshiriladi.

Natijaviy nazorat. O'quv predmetining bir qismi yoki predmet butunlay tugatilganidan keyin, agarda dastlabki, joriy tematik va bo'sag'ali nazorat natijasida talaba semestrda semestrga yoki kursdan kursga o'tkazish uchun yetarli ball yig'magan bo'lsa, imtihon tariqasida biletlar yoki butun kursga mo'ljallab tayyorlangan testlar bo'yicha o'tkaziladi.

An'anaviy nazorat talaba bilan o'qituvchining suhbat, muloqoti shaklida o'tadi. Bunday muloqot talabaning shaxsiy xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Sababi talaba hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan, o'qituvchi shaxsining butun boyligi bilan yaqinlashadi. Bunda talabalarning og'zaki nutqi rivoj topadi, ularda qisqa vaqt ichida mantiqiy asoslangan teran fikr bildirish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Albatta, shaxsiy muloqotning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy xislatlariga bog'liq. Bu jihatdan tarbiyachi yuqori darajada

tarbiyalangan, ziyorilik, sertakalluflik, sidqidillik, oliyhimmatlik, odamshanavandalik, o'z shaxsini hurmat qiladigan sifatlarga ega bo'lmog'i lozim.

Masalaning boshqa tomoni shuki, mutaxassislar ommaviy tusda tayyorlanayotganida tarbiyachining har bir talaba bilan yetarli darajada yakkama-yakka muloqot qilishga vaqti yetmaydi. Muloqot tezkor savol-javob tarzida o'tsa, tabiatan bunday muloqot talabani ham, tarbiyachini ham qanoatlantirmaydi. Oxiriga yetmagan, qanoat hosil qilmaydigan, qisqa-qisqa muloqotga talabalar tomonidan salbiy munosabat paydo bo'lishi mumkin.

Nazoratning ishlab chiqilmagan qirralaridan biri uning qanday tezlikda qaytarilishi masalasidir. Odatda nazorat o'quv-tarbiya jarayonining ehtiyoji, talab bo'yicha o'tkazilmay, balki tarbiyachining vaqtiga yoki bo'lmasa fakultet, institut, universitetda qabul qilingan an'anaga qarab o'tkaziladi.

Oliy maktab o'qituvchilari an'anaviy sinov va imtihon sessiyalarini ertadan kechgacha davom ettirib, o'rganib qolishgan. Ko'pchilik o'qituvchilarga kundalik oraliq nazoratni o'tkazish yoqmaydi, malol keladi, ular hamma beriladigan savollarni semester oxiriga yig'ib yurishadi. Masalaning boshqa tomoni: birinchidan, tezkor o'tkaziladigan nazorat shakllarining yetarli darajada amaliy ishlab chiqilmaganligi; ikkinchidan, oily maktab o'qituvchilarining tezkor o'tkaziladigan nazorat malakalariga ega emasligi; uchinchidan, o'quv-tarbiya jarayonida nazoratga ajratilgan vaqtning kamligi yoki umuman yo'qligidir. Yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra, nazorat jarayonini faollashtirish, kam vaqt ichida ko'p sonli talabalarni nazorat qilish maqsadida bir necha ratsional uslublardan, jumladan, texnik vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'tkazilgan ko'p sonli tajribalar natijalarini, shuningdek, yaqin va uzoq chet ellarda tasdiqlangan turli nazorat shakllarini o'z ichiga oluvchi mezon – reyting uslubi hisoblanadi.

Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash, birorta hodisani oldindan belgilangan shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting yordamida sotsial-psixologik obyektlarni ular uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarining yorqinlik darajasiga qarab ekspert baholash - dastlabki tasniflash amalga oshiriladi.

Shkalalash – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, o'lchov birligini aniqlash – real jarayonlarni raqamlar sistemasi yordamida modellashtirish ma'nosini anglatadi. Shkalalashning sifat xarakteristikalarini miqdoriy o'zgaruvchilarga turlicha aylantirish uslublari bor.

Reyting bo'yicha nazoratni amalga oshirishda ko'p sonli usullar bilan bir qatorda test usuli ham qo'l keladi.

Test deganda biron aniq funksiyaning takomillashganlik darajasini aniqlashda sifat va miqdor o'lchamlarida belgilash imkonini beradigan,

faollikning biron shaklini qiziqtiruvchi, biron aniq topshiriq shaklidagi sinov quroli tushuniladi.

Predmetlar bo'yicha, xususan, pedagogika kursi bo'yicha test savollari standart savollar shaklida va boshqacha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bilim, mahorat va ko'nikmalarning shakllanganlik darajasini maxsus tayyorlangan turli shakldagi testlar orqali aniqlash quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- talabalar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonini beradi;

- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli talabalar bilimini nazorat qilish mumkin;

- hamma talabalarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib hammasiga bir xil sharoit yaratiladi;

- test natijalari o'qituvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi mumkin;

- turli guruh talabalari bilimini solishtirish, qo'llanilayotgan uslubning samaradorligini aniqlash mumkin;

- ta'lim jarayonining kamchiliklarini tuzatishni, o'zlashtiruvchi talabalar bilan ishlashni tezlashtiradi.

5.3. Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar.

Ta'lim usullarini klassifikatsiyalash (turlash) o'quvchilar bilimini va ular faoliyatining xususiyatlarini tekshirish bu faoliyatni to'g'ri yo'lga qo'yishni ko'zda tutadi. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholashdan maqsad o'quvchilar bilimining sifatini, rivojlantirish darajasini ta'minlash va rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bilim olishga qiziqishni kuchaytirishdir.

Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar:

- uning vazifalarini (funksiyalarini) noto'g'ri tushunish;

- ta'lim jarayonida uning rolini asossiz ko'tarib yuborish;

- tekshirish va baholashning darsda asosiy maqsadga aylanib qolishi;

- bilimlarni tekshirish va baholashda bir xil texnologiyadan foydalanish;

- baholarni qo'yishda subyektivizimga yo'l qo'yish va aniq me'zonlarning yo'qligi;

- o'quvchilar bilimini tekshirish, baholashda nazorat qiluvchi, ta'lim-tarbiya beruvchi muhim funksiyani bajarishini unutmaslik kerak.

Bu nazorat qiluvchi uchun asosiy funktsiya bo'lib, ta'lim beruvchi va tarbiyachi yordamchi funksiyasidir. Biroq, tekshirish maqsadi va ko'rinishi turlicha bo'lganda, bu uch funktsiya turlicha nomoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tekshirishning yakuniy imtihon shaklini oladigan bo'lsak (uni o'tkazish usullari turlicha bo'ladi), bunda nazorat qilish funksiyasi ustunlik qiladi (ta'limga vaqt qolmaydi).

O'rganilayotgan materialni o'zlashtirish bo'yicha joriy tekshirish olib borilsa, bu holatda ta'lim beruvchi funksiyasi ustun bo'lishi kerak. Tarbiya berish funksiyasi ham ustun bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchi ba'zi oquvchilarni sistemali ishlashga o'rgatishga intiladi, baho bilan rag'batlantirib, ularning ruhiy xususiyatlariga (irodasini rivojlantirish, xotirasini mustahkamlash va. k) ta'sir etishga harkat qiladi, me'yorlardan ortiqcha o'ziga bino qo'yish holatlarida bahoga qat'iy yondashib ish ko'radi. Umuman olganda, baho xolis (obyektiv) bo'lishi lozim. Biroq, o'z tabiatiga ko'ra, hamisha noxolis (subyektiv) dir.

Ushbu funksiyalarga muvofiq o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashning aniq usullari tanlanadi.

Tekshirishning ko'p qo'llanadigan ikki turi mavjud: ular joriy va yakuniydir. Joriy tekshirishning hammaga ma'lum turlari quyidagilar: og'zaki so'rashning har xil shakllari, yozma va uy vazifalarini tekshirish, yozma (mustaqil) nazorat topshiriqlari. Biroq, bunday an'anaviy shakllar bilan bir qatorda, turli perfokatorlar, kompyuter yordamidagi topshiriqlarni bajarib borish bilan bog'liq bo'lgan tekshirish ishlari ham qo'llaniladi.

Tekshirishning o'ziga xos shakli o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan kundalik muntazam kuzatib turishdir. Tekshirishning turli-tuman o'ziga xos dars bosqichi kabi faqat an'anaviy so'rash jarayonidagina emas, balki butun dars mobaynida qo'llaniladi. O'qituvchi darsga tayyorlanishda tekshirishning zarur shakllarini izlash va uni qo'llash uning eng muhim vazifasi ekanligini unutmasligi kerak. Kimni, qachon, qancha o'quvchini tekshirish, qanday savollar berish, qanday vositalar orqali so'rash va baholash bularnig barchasini o'qituvchi darsga tayyorlanish paytida o'ylab chiqmog'i lozim.

Shu bilan bir qatorda, boshqalarning bilimi tekshirilayotganda qolgan o'quvchilar nimalar bilan shug'ullanishi zarurligi haqida ham o'ylashi kerak bo'ladi. Har bir o'qituvchining o'z nazorat tizimi bo'lishi lozim. Bu tizim ishning turli-tuman vositalar va usullar bilan ta'minlash, o'quvchilarning bilim darajasi va sifatini hamisha tekshirib turish tushuniladi. Nazorat (tekshirish)ning shakllarini tanlashda o'quvchilarning individual xususiyatlarini e'tiborga olish muhimdir.

Yakuniy yozma ishlarga alohida talab bilan qarash zarur. Ularni o'qituvchi o'quv materiallarini ko'pchilik o'quvchilar o'zlashtirib olganiga ishonch hosil qilgandan so'ng o'tkazishi mumkin. Bunday ishlar o'quvchilar uchun asosli bo'lib, ularda o'z kuchiga ishonch xususiyatini shakllantirishga yordam beradi, aks holda esa, o'qitish jarayoniga qiziqish pasayadi.

Bilimlarni tekshirishning yozma va og'zaki shakllari to'g'risida gapirilganda, ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega ekani va o'z vazifasi borligini aytib o'tish lozim. Og'zaki shakli – savolni tez idrok etish (reaksiya)

ko'nikmasini hosil qilishga, o'quvchilar xotirasini rivojlantirishga yordam beradi. Yozma tekshirish esa mantiqiy mushohada (fikr)ni samarali kengaytiradi, javoblarda aniqlik ko'proq bo'lishiga o'rgatadi. So'nggi yillarda o'quvchilar bilimini va rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida turli test shakllaridan keng foydalanilmoqda.

5.4. Bilimlarni baholashga qo'yiladigan talablar.

O'quvchilar bilimini baholashda qancha xolis munosabatda bo'linsa, u o'quvchilarni shuncha rag'batlantiradi. Qoidaga ko'ra baho o'quvchining darsdagi xulq-atvoriga mukofot yoki, jazo sifatida emas, balki bilim darajasi va xususiyatiga qo'yilishi kerak. Bahoga qo'yilgan talablar optimal (oshirib yuborilmagan va pasaytirilmagan) bo'lishi lozim. Bahoni "oshirish" o'quvchilar rivojlanish darajasini, bilimlarini pasaytiradi. Shu bilan birga katta talab qo'yish ham zararli bo'lib, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini susaytiradi. O'qituvchining ba'zi o'quvchilarga baho qo'yishda salbiy munosabatiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero, o'quv predmetiga muvofiq keladigan dastur baholashning eng xolis mezoni bo'lishi zarur.

Maktablarimizda bilimlarni baholash o'zgarishsiz qolmadi. 1935-yilgacha uch ballik baho qo'yilgan bo'lib, u "juda qoniqarli", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" baholar edi.

O'sha paytda bugungachga mavjud bo'lgan besh ballik tizim joriy etildi. Bu tizimda:

- "a'lo" (besh) – dastur talablariga to'liq hajmdagi bilimlarni egallagan o'quvchilarga qo'yiladi;

- "yaxshi" (to'rt) – dastur talablarini to'la arzimas kamchiliklar bilan (masalan, materialni bayon etish mazmuni buzilgani va b.) o'zlashtirgan o'quvchiga qo'yiladi;

- "qoniqarli" (uch) – o'quvchining bilim darajasi juda past bo'lib, unga keyingi materialni o'rganishda ilgarilashga yordam beradigan bilim hajmiga qo'yiladi;

- "qoniqarsiz" (ikki) - o'quvchi o'zidagi juda past bilimi bilan ilgarilashga qodir bo'lmasa qo'yiladi;

- "yomon" (bir) – baho o'quvchi hech narsani bilmaganda qo'yiladi. Bu so'nggi baho juda kam qo'llanilib, uning mazmuni deyarli "ikki" bahoga tengdir.

Bilimlarni baholashda xolislikni (obyektivlikni) saqlagan holda ba'zi holatlarni ham nazarda tutish lozim: masalan, joriy yoki yakuniy bilimlar baholanadi (yozma ish, chorak bahosi va b.), o'quvchining intilishi uning o'quv ishlaridagi barqarorligi va boshq.

O'quv fanining xususiyatlarini, ba'zi bo'limlar, ularning aloqadorligini o'zlashtirish holatini nazardan qochirmaslik zarur.

O'quvchilar bilimni tekshirish va baholashning an'anaviy tizimi jiddiy nuqsonlarga ega, negaki u ta'limiy, tarbiyaviy, diagnostik va rag'barlantirish funksiyalarini zarur darajada amalga oshirmaydi. Modomiki, shunday ekan, undan voz kechish yoki, uni yanada takomillashgan shaklga almashtirish maqsadga muvofiq emasmikan?

Ehtimol, bahoning jazolash vazifasidan xalos bo'lgan o'quvchilar yaxshiroq o'qib, ta'limiy burchlariga ancha vijdonan munosabatda bo'lar edi.

Bugungi kunda o'quvchilarning o'zi bahoga qanday munosabatda bo'layaptilar? Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarning 98 foizi baho saqlanishi zarurligini aytadi. Bahoni bekor qilish o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirishga, o'qitishni ichki shakllantirishga yordam beradi, degan fikr ham o'zini oqlamaydi. O'rta va yuqori sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini baholash zarurligini qayd etganlar soni boshlang'ich maktabdagidek bo'lishiga ishonamiz, albatta.

Baholarni bekor qilish maqsadaga muvofiq emasligi bir qiziq psixologik tadqiqotdan ham ma'lum. Amerikalik psixologlar o'quvchilar o'quv faoliyati natijalariga baho ta'sirini aniqlashga qaror qildilar. Eksperiment maqsadiga ko'ra, bir sinfdagi o'quvchilar muayyan vaqt davomida javoblar aniqligi va to'g'riligiga e'tibor qilmay, faqat maqtaladi. Boshqa sinfdagi faqat tanqid qilinadi, uchinchisida esa biron-bir baho berilmadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilish faoliyati maqtalgan sinflarda eng yuqori yutuqlarga erishilgan, eng yomon natija o'quv faoliyati tanqid qilingan sinfdagi emas, balki bilish faoliyati sira baholanmagan sinfdagi vujudga keladi. O'quvchining o'qishga bo'lgan havasi qancha ko'p bo'lmasin, bilish faoliyatining ichki motivlari qanchalik shakllangan bo'lmasin, u hamisha motivlashtirishga, tashqaridan maqtash va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladi. Bola ko'z o'ngida o'qituvchi qanchalik ahamiyatli, obro'li bo'lsa, uning maktabda, asosan, baholash va baholarda aks etuvchi maqtovlari shunchalik qadrli va ahamiyatli bo'ladi.

Pedagogik baholash bilimni dastur talablari va ta'lim andozalariga qiyoslab aniqlabgina qolmay, balki o'quvchilar bilim faoliyatini motivlashtiradi va rag'batlantiradi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, bahoni bekor qilish pedagogik jihatdan ham, psixologik jihatdan ham o'zini oqlamaydi. Bunda qator kamchiliklar bo'lsada, besh ballik baho tizimiga muqobil xili topilganicha yo'q. Shuning uchun, gap uni takomillashtirish, o'quvchilar bilimni baholashda xatoga yo'l qo'ymaslik haqida borishi kerak.

5.5. O'qituvchining nazorat olib borishdagi xatolari. O'zini-o'zi baholash tartibi.

O'quvchilar bilimni baholashda eng jiddiy xatolardan yana biri – turli guruhlariga subyektiv yondashishdir. Bu o'qituvchi tomonidan ayni bir javob uchun, ayni bir ish uchun turli o'quvchilarni baholashdagi tafovutlarda aks etadi. Tafovutlar ba'zan ikki ballgacha tushadi. Yillar o'tishi bilan o'qituvchida o'quvchilar turli guruhlariga nisbatan muayyan tasavvur va unga muvofiq holda munosabat shakllanib boradi. Bu narsa o'zlashtirgan va o'zlashtirmagan o'quvchilarga munosabatda yorqin namoyon bo'ladi. O'qituvchilar ba'zi o'quvchilarni (o'zlashtirayotgan) doim maqtaydilar, boshqalarni (o'zlashtira olmayotgan) doim koyiydilar. Buning ustiga o'zlashtirmayotganlarga, odatda, o'zlashtirgan sinfdoshlariga nisbatan tez-tez va qattiq tanbeh beradilar.

Bunday munosabat yana shunda namoyon bo'ladiki, o'qituvchilar yaxshi o'zlashtiruvchilarga qaraganda yomon o'zlashtiruvchi o'quvchilarni javob berishiga kam taklif etadilar. Javobni o'ylashga ularga juda oz vaqt beradilar. Mana bunday vaziyatga e'tibor qiling. Doska yonida past o'zlashtiradigan o'quvchi javob bermoqda. Ishonchsiz, o'rinsiz gapirmoqda. Bunday holatda o'qituvchining munosabati qanday bo'ladi? U o'quvchi gapini shartta bo'lib, unga "ikki" qo'yadi va joyiga o'tqazadi: "Sen yana dars tayyorlamabsan", "Sen hech odam bo'lmaysan", "Senga o'rgatsa ham, o'rgatmasa ham befoyda ekan" deb uni izza qiladi.

Endi boshqa vaziyatni ko'raylik. Doska oldida yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchi bugungi darsga tayyorlanmay kelib ishonchsiz holda javob beryapti. O'qituvchi bunday vaziyatda o'zini qanday tutadi? U o'quvchiga yordam berib kamchiligini to'ldiradi yoki unga javobini o'ylash uchun imkon beradi. Ko'rinib turibdiki, bu ikki vaziyatda o'qituvchi qarshisida yaxshi va yomon o'zlashtiruvchi bola turganiga qarab, o'zini turlicha tutyapti. Bolalarga nisbatan bunday har hil munosabat oldindan vujudga kelgan tasavvurning namoyon bo'lishi hisoblanadi. Keltirilgan misolda subyektiv munosabat namoyon bo'ladi. O'qituvchining bunday munosabati esa maktab bahosining ta'limiy, tarbiyaviy va rag'batlantiruvchi funksiyasini pasaytiradi.

Amerikalik pedagog Blumning fikricha, hatto, o'quvchilar nutqi sur'ati ham o'qituvchi bahosiga ta'sir etar ekan. Bu narsani maxsus o'tkazilgan quydagi tadqiqotdan ham bilish mumkin. Tabiatshunoslik fanidan o'quvchi qiz bir xil materialni ikki marta gapirib bergan. Avval 16 daqiqada, keyin esa 24 daqiqa davomida. Javoblar video tasmasiga yozib olindi. So'ngra 81 nafar o'qituvchi sekin aytilgan va tez aytilgan materialni baholashdi. Tez aytib berilgan materialning o'rtacha bahosi 3.38 ball bilan, sekin so'zlab berilgan materialning o'rtacha bahosi 2.5 ball bilan baholandi. Tadqiqot mualliflarining xulosasi shuki,

o'qituvchilar uchun nutqning tez sur'ati chuqur bilim va katta qobilyatdan darak berar ekan.

O'qituvchi o'quvchining tez yoki sekin nutq sur'ati materialni bilish yoki bilmaslik belgisi emasligini fahimlaydi. Vazmin, bir ish turidan ikkinchisiga sekin o'tuvchi sovuqqon mijozdagi o'quvchiga savolni tushunib olish va unga javob tayyorlashi uchun ko'proq vaqt talab etiladi. Bunday o'quvchiga javob uchun qiziqqon mijozga nisbatan ko'proq vaqt kerak bo'ladi. O'qituvchi esa sovuqqon o'quvchining vazminligini mutlaqo boshqacha tushunadi. Turli mijozga mansub bo'lgan o'quvchilarga nisbatan xato qilish umumiy baholash tizimining kamchiligi emas, balki o'qituvchining shaxsiy (subyektiv) xatosi, aniqrog'i, o'quvchilar tipologik xususiyatlarini bilmasligi natijasidir.

Maktab amaliyotida, ko'pincha, o'quvchilarni bir-biriga qiyoslashda, birining yutug'ini ikkinchisiga o'rnak qilishadi. O'qituvchi yaxshi o'qiy olmaydigan o'quvchiga qarab: "Qaragin, Tohir qanday yaxshi o'qiydi!" – degan kinoyali so'zlar bilan uni izza qiladi. Bu o'quvchiga ruhiy jihatdan yomon ta'sir ko'rsatadi, oqibat u o'qishdan bezadi.

Bolalarni bir-biri bilan shunday va umuman taqqoslash maqsadga muvofiqmi? Bunday taqqoslash past o'zlashtiruvchi o'quvchilarning o'qishga qiziqishini kuchaytirishga yordam beradimi? Aynan shu sohada psixologik tajriba o'tkazildi. O'quv yili davomida sinfda har bir o'quvchini o'zi bilan qiyoslab, o'qituvchi o'zlashtirish darajasi haqida uning o'zigagina aytdi. Boshqa sinfda esa, bir o'quvchining yutuqlari, imkoniyatlari bir xil, lekin shaxsiy sifatleri bilan boshqa natijalarga erishgan, boshqa o'quvchining muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi bilan qiyoslandi. Uchinchi sinfda bolalar umuman qiyoslanmadi. O'quv yili oxirida o'quvchilar bir xil qobilyatli, lekin o'qishga turli munosabati tufayli o'quv faoliyatida turli natijalarga erishgan bolalar sinfi eng yaxshi hisoblangan. Bu yerdagi taqqoslash bolaning o'sishini pasaytirmagan, aksincha, yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini ko'rsatgan.

O'quvchi o'zini-o'zi bilan qiyoslagan sinfda ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. O'zlashtirayotgan va o'zlashtirmayotgan o'quvchilar taqqoslanganda sinfda mutlaqo boshqacha manzarani ko'rish mumkin edi.

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosaga kelishga yordam berdi. Bolalar bilimni shunday taqqoslash kerakki, unda bironi yuqori ko'tarib, boshqalarni yerga urmay, bolalardagi eng yaxshi natijalarga erishish va o'z shaxsini takomillashtirish ehtiyojini qo'llab-quvvatlash zarur.

Umuman olganda, bolalarni bir-biri bilan taqqoslash, birini ikkinchisiga ibrat qilib ko'rsatish – pedagogik tomonidan ham, axloq-odob tomonidan ham mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Darhaqiqat, tarbiyaning insoniy yo'nalishini bolani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishni va ularni o'zini rivojlantirish va kamolotga yetkazish uchun shart-sharoit yaratishni ko'zda tutadi.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilimini baholashda yo'l qo'yilgan xatolar faqat baho komponentlarining o'zgarishiga emas, balki butun o'quv-bilish faoliyatining o'zgarishiga olib keladi, ular bu tizimga xos bo'lgan kamchiliklarni kuchaytirib, uni kamsuqum va yoqimsiz qilib qo'yadi.

O'quvchi o'zini-o'zi baholash tartibi. O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash masalasi to'g'risidagi munozaralar ularni takomillashtirishning yangi shakllarini izlash, aksariyat hollarda noto'g'ri yo'nalishda olib borilayapti. Albatta, 10 ballik baho tizimini joriy etish yoki bahodan umuman voz kechib, tekshirishning turli shakllaridan foydalanish, chunonchi sinov, test, imtihonlarni qo'llash mumkin. Lekin o'quvchi va uning bilish qobiliyati o'qituvchi bahosining obyekti bo'lib qolaveradi. Maktab bahosini takomillashtirishning eng samarali yo'li, uni o'quvchi bilimini baholash komponentining faol subyektiga aylantirishdadir. Zero, pedagogning bahosi o'quvchini o'z-o'zini baholashga o'rgatishi lozim, yana yaxshisi, baholashning bu ikki ko'rinishini uyg'unlashtirish muhimdir.

O'z-o'zini baholashni ta'minlovchi yo'llar qaysi? O'quvchilarni o'zini-o'zi baholash ko'nikmasini hosil qilish uchun, birinchi navbatda, ularni o'z bilish faoliyatini baholashga jalb etish lozim.

O'zini-o'zi baholash quyidagi usullar bilan vujudga keladi:

1. Boshqalar bajargan ishni o'quvchi tomonidan, ya'ni o'quvchilarning o'zaro baholashi. Sinf doshning ishi to'g'risida axborotning mavjudligi o'zini-o'zi baholash faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi.

2. Ishni bajargan o'quvchi o'zi-o'ziga baho qo'yadi. So'ng uning ishi o'qituvchi tomonidan baholanadi, ikkala baho qiyoslanib, birinchi bahoning obyektivlik darajasi aniqlanadi. Yana boshqa usulni ham taklif etish mumkin. Og'zaki javobdan so'ng o'qituvchi javob berayotgan o'quvchidan o'ziga qanday baho qo'yish mumkinligini so'raydi. Keyin sinfga murojaat qilib, o'rtoqlari javobini ballar bo'yicha baholashni iltimos qiladi. Biroq, o'zini-o'zi baholashni shakllantirish uchun o'quvchilarni baholash faoliyatiga jalb qilish kifoya qilmaydi. Ya'ni, o'quvchilarni shunday mezonlar bilan qurollantirish kerakki, o'quvchilar ular bilan baholash va o'zini-o'zi baholashni amalga oshirsinlar.

O'quvchi o'zining (o'rtog'ining) bilimlarini baholash uchun namuna - etalon nisbatini (o'lchashni) bilishi zarur. O'z harakatini yoki ish natijalarini etalon bo'yicha taqqoslab, u o'z faoliyatini baholashga o'rganadi.

O'qituvchi bahosidan so'ng o'zini-o'zi baholashga o'tish o'quvchini o'qitishning faol subyekti qilishda juda muhimdir. O'qitishda o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri, bu - o'quvchilar bilish faoliyatini boshqarsih hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, u oquv-bilish faoliyatini rejalashtiradi, maqsad qo'yadi, uni motivlashtiradi, nazoratni boshqarish va baholashni amalga oshiradi. O'quvchi muayyan mezonlar asosida o'zining bilish faoliyatini

baholshi zarur va o'quvchi qanchalik tez-tez o'zini baholash bilan shug'ullansa, u shunchalik ishonch bilan o'qitish subyektini bo'lib boradi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Ta'lim tizimi, ma'rifiy jarayonlar, ta'lim sifati, nazorat turlari, pedagogik nazorat, reyting nazorati, baholash mezonlari, boshqaruv tizimi.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

- Pedagogikada reyting tizimi nazorati.
- Ta'lim sifati nazorat qilish vazifalari.
- Nazorat turlari.
- Bilimlarni tekshirish va baholashdagi asosiy kamchiliklar.
- Bilimlarni baholashga qo'yiladigan talablar.
- O'qituvchining nazorat olib borishdagi xatolari.
- O'quvchining o'zini-o'zi baholash tartibi.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: O'zbekiston, 2008.

3. Karimov I.A. Bilimli va intellektual rivojlangan yoshlarni tayyorlash – mamlakatni mustahkam rivojlanishi va modernizatsiyalashning muhim sharti sifatida //Xalq so'zi, 18-fevral 2012. 1-2- betlar.

4. Ziyomuxammedov B. Ma'rifat asoslari. - T.: Chinor ENQ, 1998.

5. Ibragimov X., Ibragimova Sh. Pedagogika. -T., 2008.

6. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2001.

7. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild //Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov Q., Ochil.S. - T.: O'qituvchi, 1995; 2- jild // Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov Q., Ochil.S. - T.: O'qituvchi, 1999.

8. Hasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Hasanboeva M., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. - T.: Fan va texnologiya, 2009.

6-MAVZU

TA'LIM JARAYONI: DARSNING STRUKTURASI, ELEMENTLARI VA TURLARI

6.1. Ta'lim jarayonining mohiyati, vazifalari, rivojlantirish funksiyalari.

6.2. Ta'lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari). Darsning strukturasi.

6.3. Darsning turlari.

*“O‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan, o‘z kuchiga ,
o‘zi tanlagan yo‘lining to‘g‘riligiga ishongan
inson doimo kelajakka ishonch bilan qaraydi.
U jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligidan cho‘chimaydi,
balki zamonaviy bilim va falsafiy qarashlarga,
hayot haqiqatiga suyangan holda har qanday
g‘arazli niyat, tahdid va intilishlarni fosh
qilishga qodir bo‘ladi ”.*

I.A.Karimov

6.1. Ta'lim jarayonining mohiyati, vazifalari, rivojlantirish funksiyalari.

Ta'lim - inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo‘lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o‘zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O‘qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o‘quvchi, talabaga ta'sir ko‘rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o‘quvchi ta'lim jarayonining faol ixtirokchisiga aylanadi. Ta'limdagi yutuqlar, avvalo, o‘qituvchiga bog‘liq. Mutaxassis sifatida o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo‘lishi, psixologik-pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo‘lishi, har xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o‘rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko‘rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlab olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Ta'limning asosiy vazifasi shaxsni ilmiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi. Ya'ni: ta'lim oluvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatini o‘stirish.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi natijasida to‘plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko‘nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon – o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish – murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabilar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi.

Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, yangi haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan ijodiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Ta'lim – o'quvchi-talabalarning o'zlashtirish, o'zida bilish qobiliyatlarini hamda fikrlash operatsiyalari va harakatlarini hosil qilish jarayonidir. Bu passiv jarayon emas, balki o'quvchiga noma'lum faol, ijodiy faoliyat, mehnat jarayonidir. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi bilmaslikdan bilishgacha, noto'g'ri va noaniq bilishdan tobora to'liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tadi.

O'qituvchi o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olishi zarur.

O'quvchi va talabalarning erkin fikrlash qobiliyatini o'quv va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan o'stirish lozim. O'quvchi, talaba tafakkur jarayonida voqelikni tahlil qilishni va taqqoslashni, bilimlar bo'yicha o'zlari uchun tushunarli sohalaridagi sabab-xulosalar chiqarishni o'rganadilar, ya'ni oddiy, so'ngra ancha murakkab tushuncha hamda fikr-mulohazalar hosil qilishni bilib oladilar.

Ta'limda o'qituvchi ta'lim berish bilan cheklanib qolmaydi, o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda o'zlashtirib olinishiga erishiladi. Materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga uni puxta esda saqlab qolishlari to'g'risida ham o'ylaydi, buni o'z zimmasiga oladi.

O'qitish jarayonining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish funksiyalari. O'qituvchi o'quvchi-talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo, ta'lim jarayoni orqali uch maqsadni hal qilishi lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi:

1. Ta'limiy maqsad – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotni tatbiq qila olishdir;

2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o‘zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g‘oyalari, dunyoqarashlar ta‘sirida o‘zining shaxsiy sifatlarini, imon-e‘toqodlarini shakllantirishdir;

3. Rivojlantiruvchi maqsad – ta‘lim jarayoni ta‘sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o‘qishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o‘quvchi-talabada mustaqil ishlash iste‘dodi paydo bo‘ladi. Uni o‘ylashga o‘rgatadi, ta‘lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi. Ta‘lim turli bosqichlarda amalga oshadi.

Birinchi bosqich - o‘quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o‘quvchi-talaba ta‘limning mazmuni bilan tanishib, o‘zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

Ikkinchi bosqich – o‘quvchi-talabalar o‘quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo‘ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

Uchinchi bosqich - yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o‘qituvchining qo‘shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

To‘rtinchi bosqich - ular o‘zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatga qarab amaliyotga tatbiq qiladilar.

6.2. Ta‘lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari). Darsning strukturasi.

Bularni bilish orqali o‘qituvchi ta‘lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o‘quv jarayonining hamma bosqichlarida o‘qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o‘ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo‘lsak, o‘qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog‘i sifatida qator vazifalarni bajaradi. Jumladan:

- 1). o‘quvchi va talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi;
- 2). ularda dunyoqarashni, ishonch va e‘tiqodlarini o‘stiradi;
- 3). yoshlar muayyan darajada o‘qimishli, madaniyatli, tarbiyali kishilar bo‘lib yetishishlariga, qobiliyat va iste‘dodlarini o‘stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o‘qituvchida o‘z kasbiga layoqat bo‘lishi lozim. Layoqatlilik – pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo‘lishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko‘rinadi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchiga o‘z faoliyatining obyekti sifatida qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim.

O'qituvchi ta'lim jarayonida har bir o'quvchi-talabanning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olish, ta'lim natijalarini dastlabki va keying ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, tahlil qilsih va xulosalash kabilar. Xullas, o'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari darajasida ta'lim jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Darsning strukturasi. Ta'limning strukturasi va tizimi haqida tushuncha. Avvalo, strukturaning nimaligini ko'rib o'tamiz. Har bir fandagi «struktura» tushunchasi o'ziga xos mazmunga ega. Chunki har qanday obyekt, jarayon, hodisaning ichki tuzilishi bo'lib, unda turli aloqa va munosabatlar mavjud. O'quv jarayoni ham o'zining tuzilishiga ega va u «zveno»lar deb ataladigan o'zaro bog'liq ma'lum qismlardan tashkil topadi. Butun ichidagi ana shu zvenolarning o'zaro bog'lanishi mazkur jarayonning strukturasi vujudga keltiradi. Lekin, ma'lumki, strukturasisiz tizim bo'lmaganidek, tizimsiz struktura ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra strukturani tizimdagi o'zaro bog'liq elementlarning tartiblari deb ta'riflash mumkin. Biz tizim tushunchasiga nimalarni kiritamiz?

Tizim – o'zining xossalari va bog'lanishlari bo'yicha u yoki bu tartibdagi o'zaro bog'liq ko'p elementlardir.

O'quv jarayonining strukturasi va tizimini yaqqol tasavvur etish uchun bu jarayon qanday zvenolardan tashkil topganini, ular orasidagi o'zaro bog'lanish qandayligini va har bir zveno qanday elementlardan iboratligini aniq bilish zarur. Avval o'quv jarayoni qanday zvenolardan tashkil topishini va ular orasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz.

1. O'qituvchining o'quvchilar diqqati va tafakkurini jalb qilishi, shu orqali ularni o'quv materialini faol idrok etishga olib borish maqsadida bilish vazifasini o'rta qo'yishi.

2. O'qituvchi tomonidan bilimlarning berilishi jarayoni va o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirishi.

3. Ilmiy tushunchalarning umumlashtirilishi va shakllantirilishi jarayoni, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakarini mustahkamlash va takomillashtirish.

4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tegishli vaziyatlarda qo'llash.

5. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirayotganini tekshirish.

Har kuni o'quv jarayonining tarkibiy qismi umumiy vazifalarni ham, o'ziga xos funksiyalarni ham bajaradi. O'quvchilar ularning birida bilish vazifasini anglyadilar, ikkinchisida o'rganilayotgan materialni idrok etadilar va tushunadilar, uchinchisida ko'nikma va malakalarini takomillashtiradilar. Har bir zvenoda yangilikning qandaydir qismi idrok etiladi, mehnat madaniyatining qandaydir elementlari o'zlashtiriladi. Ularning har birida ta'limning umumiy va o'ziga xos funksiyalari ma'lum yo'sinda birlashadi. O'quv jarayonining mazkur barcha zvenolari o'zaro chambarchas bog'langan. Masalan, o'quvchilar bilish jarayoniga loqayd munosabatda bo'lsa, o'quv materialini chuqur va ongli o'zlashtirishi mumkin emas. Bunday holda zveno ikkinchi vazifaga faol tayyorgarlik rolini bajaradi. Agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'z mushohadalari kuchi bilan ilmiy tushunchalarni, qonunlarni umumlashtirmasa, yangi materialni idrok etish jarayoni yuzaki bo'lib qoladi. Shu maqsadda o'qituvchi yangi materialni o'tishda: a) induktiv; b) analitik-sintetik, ya'ni tushunchalarni muayyan hodisalarni analiz va sintez qilish asosida asta-sekin shakllantirish; d) deduktiv yo'llardan foydalanadi. Yangi materialni o'zlashtirishning har bir yo'lida muayyan va mavhumlikning, tasavvur va tushunchalarning o'zaro bog'lanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur predmetning asosan tashqi ko'rinishini, ya'ni insonning sezgi organlari bevosita idrok etishi uchun qulay belgilarini aks ettiradi.

Tushuncha esa narsalarning mohiyatini anglash imkonini beradi va mazkur sinfga mansub barcha predmetlar uchun umumiy muhim xususiyatlar, belgilar va bog'lanishlarni aks ettiradi. Har bir fan o'zaro bog'liq tushunchalar tizimini tashkil qiladi. Demak, qandaydir fanning asoslarini o'zlashtirish, avvalo, mana shu fandagi tushunchalar tizimini o'rganishga chambarchas bog'liqdir.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini dastlabki vaziyatlarda, ya'ni namuna bo'yicha, shuningdek, hayotiy sharoitlarga yaqin yangi vaziyatlarda qo'llash ta'lim jarayonining muhim zvenosi hisoblanadi. Chunki insonning amaliy faoliyati bilimlar haqiqatligining mezoni sifatida xizmat qiladi. Ana shunday faoliyatsiz ta'limni hayot bilan, amaliyot bilan bog'lashdan iborat muhim vazifani hal qila olmaymiz.

Shu tariqa barcha zvenolar o'zaro chambarchas bog'lanishda o'quv jarayonini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki ta'lim jarayonida mana shu hamma zvenolar belgilangan tartibda yoki to'laligicha amalga oshuvining ahamiyati yo'q. Bunda o'quv jarayonining ma'lum qismida bir zvenoning ikkinchi zvenoga qo'shilishi, o'zaro singishi qandaydir zvenoning yetakchilik rolini bajarishi kuzatiladi. O'quv jarayoni amalda ancha o'zgaruvchandir. Aytaylik, o'quv jarayonining ma'lum bir qismida o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Lekin bundan boshqa zvenolar jarayonida daxlsiz bo'ladi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bunda barcha zvenolarning

umumiy vazifalari namoyon bo'laveradi. Negaki, bilimlarni tekshirish va baholash to'g'ri yo'lga qo'yilsa, hamma o'quvchilar faollashadi, ularning har biri tegishli bilimlarni ongli ravishda eslaydi, o'rtoqlarining javoblarini tanqidiy eshitadi, masalalarning yechilishini diqqat-e'tibor bilan kuzatadi, tajribalarning bajarilishiga qiziqadi va o'zi ham har onda ishga qo'shilish uchun tayyor bo'ladi.

Ammo har bir zveno ta'limning umumiy vazifasi bilan bir qatorda o'ziga xos masalalar doirasini ham qamraydiki, ular birgalikda zvenolardan har birining mazmunini tashkil etadi. Bu masalalar strukturadagi har qaysi zvenoning tarkibiy qismi sanaladi. Shuning uchun o'quv jarayonini biz faqat strukturaviy zvenolarini emas, balki shu zvenolardan har birining tarkibiy qismlarini ham bilishimiz zarur jarayon deb tushunish kerak. Misol uchun o'quvchilar oldiga bilish vazifasi qo'yiladigan birinchi strukturaviy zvenoni ko'rib chiqamiz.

Bilish vazifasini qo'yish bir necha yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- 1). Muammoli vaziyatni yaratish yoki muammoli savollar berish orqali.
- 2). O'rganilayotgan mavzuning amaliy ahamiyatini yoritish va ko'rsatish orqali.
- 3). Hayajonli muhitni vujudga keltirish orqali.
- 4). Mavzuni e'lon qilish va undagi asosiy ilmiy g'oyalarni ifodalash orqali.

Ana shu yo'llarning har biri, ayni paytda, mazkur strukturaviy zvenolarning tarkibiy qismi ham hisoblanadi va o'zining muayyan mazmuniga ega bo'ladi. Buning dalillarini keltiramiz. Yangi materialni bayon etishning safarbarlik bilan boshlanishi qanday bo'lishi mumkin? Mana shulardan biri. O'qituvchi sinfga kiradi, dars mavzusini e'lon qiladi va uni doskaga yozib qo'yadi. Shundan keyin materialning o'zini bayon qiladi. Darsning bu xilda boshlanishini pedagogika amaliyotida, xususan, yuqori sinflarda ko'p uchratish mumkin. U keng tarqalgan va ma'qul topilgan, lekin uni samarali boshlanish, deb bo'lmaydi.

Bu misolda o'quvchilarning diqqat-e'tibori muammoning o'ziga yo'naltirish uchun muammoli vaziyat o'qituvchi tomonidan atayin vujudga keltiriladi. Bunday hollarda, ko'pincha, muammoni o'qituvchining o'zi shakllantiradi va ko'rib chiqadi. O'quvchilar uning mulohaza yuritishiga ergashib muammoli fikrlash mantiqini o'rganadilar. Bu esa muammoli bayon etishning dastlabki bosqichi uchun xosdir. Lekin darsning turli bosqichlarida muammolikning darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Yangi materialni bayon etishda o'qituvchi muammoli vaziyatni vujudga keltirishi va o'quvchilarni mustaqil holda yoki birgalikda muammoni hal qilish yo'llarini topishga jalb etishi mumkin.

Masalan, tabiatshunoslik darslarini olaylik. O'qituvchi qor yog'ayotgan paytda o'quvchilar bilan birgalikda maktab hovlisiga chiqadi va bolalarga qor uchqunlarini kaftlari bilan tutishni aytadi. Keyin ulardan kaftlariga nima ilinganini so'raydi. Har bir o'quvchining kaftida suv tomchisi ko'ringan va bir lahzadan keyin yo'qolgan – bug'langan edi. Suv tomchisi o'rni muzdek bo'lib qoladi. Bolalar bu g'ayrioddiy hodisaga qiziqdilar, albatta.

O'qituvchi o'quvchilardan: «Nima uchun kaftning qor uchquni tushgan joyi muzdek bo'lib qoldi?» – deb so'ramoqchi edi. Bu esa «suvning aylanishi» mavzusining nazorat savollaridan biridir. Yangi materialni o'rganishning odatdagidan boshqacha boshlanishi darsda muammoli vaziyatni yaratishda va o'quvchilarning muammoning yechimini birgalashib izlashga jalb etishda yordam beradi.

Darsning strukturasi qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan materialning mazmuniga, ta'limning darsda qo'llanadigan metodlari va usullariga, o'quvchilarning tayyorgarlik va kamolot darajasiga, darsning o'quv jarayonidagi o'rniga bog'liqdir.

6.3. Darsning turlari.

Dars strukturasi o'quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bo'yicha tasniflanadigan darslarning tipiga bog'liq bo'ladi. Ularni o'tkazish usullari, ta'lim metodlari esa o'quvchilar mustaqil ishining darajasi bo'yicha tasniflanadi.

Darsning quyidagi turlari mavjud: o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtiradigan, faktli materiallar to'planadigan, kuzatishlar o'tkaziladigan, jarayonlar va hodisalar o'rganiladigan, ular anglanadigan, tushunchalari shakllantiriladigan, ko'nikma va malakalar tarkib toptiriladigan darslar, bilimlar umumlashtiriladigan va tizimlashtiriladigan darslar, bilimlar, ko'nikma va malakalarni takrorlash, mustahkamlash, boshqacha aytganda, kompleks qo'llash darslari, bilim, ko'nikma va malakalar og'zaki hamda yozma ravishda sinaladigan nazorat- tekshirish darslari; bir necha didaktik masalalar baravar hal qilinadigan kombinatsiyalashgan darslar.

Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo'llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. Masalan, kombinatsiyalashgan darslar quyidagi sxema bo'yicha tashkil qilingan: tashkiliy jihat, o'quvchilar uy vazifasini qanday bajarganini tekshirish, o'quvchilardan o'tilgan mavzu bo'yicha so'rash, o'qituvchining yangi materialni bayon etishi, o'rganilayotgan materialni mustahkamlash, uyga vazifa berish.

O'qituvchilarning ilg'or tajribasini tahlil qilish, didaktlar (I. T. Ogorodnikov, M. I. Maxmutov, V. A. Onishchuk, R. A. Mavlonova va boshqalar)ning tanqidi darsning strukturasi tushuntirish ta'limning hozirgi talablariga javob bermaydi, degan xulosaga olib keladi.

Darsning strukturasi faqat o'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi hamkorlik faoliyati tashkil topishining tashqi ko'rinishini aks ettirib qolmasligi, balki o'quvchilar bilish faoliyati bilan bog'liq ichki jarayonning mohiyatini ham ifodalashi lozim.

Kamol toptiruvchi ta'lim sharoitida «darsning strukturasi» tushunchasini aniqlashda darsning strukturasi uchta: didaktik, mantiqiy-psixologik va metodik shartlar asosida ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

Bunda doimiy komponentlar: oldin o'zlashtirilgan bilimlar va harakatlar usullarini faollashtirish va qo'llashdan, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat didaktik struktura asos bo'ladi (M. I. Maxmutov).

Hozirgi zamon darsining eng muhim xususiyatlari yangi o'quv materialini va uni amalda qo'llashni o'zlashtirish bilan birga ilgari o'rganilgan narsalarni o'zlashtirish, sintez qilish, takrorlash va mustahkamlash, nazorat qilish kabi elementlarning o'zaro bog'lanishidir.

T. A. Ilina darsning o'z strukturasi barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya'ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

Darsning birinchi bosqichi – tashkiliy qism. Odatda bu qismga salomlashish, o'quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorligini tekshirish, darsda yo'q o'quvchilarni aniqlash, ishning rejasini e'lon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi – darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

Ikkinchi bosqich – yozma uy vazifasini qo'yilgan maqsaddan qat'iy nazar turli metodlar bilan tekshirish.

Darsning uchinchi bosqichi - o'quvchilarning bilimlarini og'zaki tekshirish (yoki ulardan so'rash).

Darsning to'rtinchi bosqichi - o'qituvchining bayon etishi asosida yoki o'quvchilarning mustaqil tahlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

Beshinchi bosqich – uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim bo'lsa uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni o'qituvchining o'zi doskaga yozishi, o'quvchilarning daftarga yoki kundalikka ko'chirishi kiradi.

Darsning oltinchi bosqichi – yangi materialni mustahkamlash, ya'ni dastlabki yoki yo'l-yo'lakay – mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

Darsning yettinchi bosqichi – uni tugallashdan iborat bo'lib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki, dars faqat o'qituvchining ko'rsatmasi bo'yicha mustahkamlanadi. Muallif darsning ana shu yettita elementini nazarda tutib, uning strukturasi quyidagicha ifodalaydi:

- 1). Tashkiliy qism.
- 2). Yozma topshiriqni (bor bo'lsa) tekshirish.
- 3). So'rash – mustahkamlash.

4). Uyga vazifa berish.

5). Darsni tugallash.

Bunday darsni bilimlarni mustahkamlash darsi deb atash mumkin.

II. Yangi murakkab materialni tahlil qilishda uy vazifasi tekshirilmaydi.

1). Tashkiliy qism.

2). Yangi materialni tushuntirish.

3). Yo‘l-yo‘lakay mustahkamlash.

4). Uyga vazifa berish: darsni tugallash.

III. Muammoli darslar:

1). O‘quvchilarni uyushtirish.

2). Muammoni ifodalash, taxminni bayon qilish (natija qanday bo‘lishi mumkinligini aytish) va yechimning variantlarini bildirish: muammoni amaliy hal qilishni izlash.

3). Natijalarni muhokama qilish.

4). O‘qituvchining sharhi va umumlashtirishi.

5). Uyga vazifa berish.

6). Darsni tugallash.

Umuman aytganda, hozirgi zamon darsi o‘zining an’anaviy maqsadlari, mazmuni, tashkiliy-metodik jihatlari, o‘quvchilar ishlarini faollashtirish darajasi, strukturasi, sur’ati, ta’limning texnik vositalariga boyligi bilan farqlanadi. O‘tgan davr tajribalariga tayanib va o‘quvchilarning mustaqil bilish faoliyatini rivojlantirish g‘oyalarini nazarda tutib, hozirgi zamon darslarini muammolilik prinsipi asosida: a) muammoli va b) muammosiz darslarga tasniflash mumkin. Bunday darslar bir-biridan nimalari bilan farqlanadi? Ulardagi ta’limning metodlari va vositalaridagi tafovutlarni ko‘rish mumkinmi? Lekin asosiy farq ularning strukturasiadir. Bunda muammoli darsning mantiqiy-psixologik (ichki) va didaktik (tashqi) strukturasi haqida gapirish mumkin.

Ichki struktura nuqtayi nazaridan o‘qituvchi atayin muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradigan va o‘quvchilarning o‘quv muammolarini mustaqil holda hal qilishga doir faoliyatni tashkil etadigan yoki muammoni o‘zi qo‘yib, ularni o‘zi hal qiladigan, o‘quvchilarga izlanish vaziyatidagi fikrlash mantiqini ko‘rsatadigan darslar muammoli darslar deyiladi.

Muammosiz dars o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘quv materialini bayon qilish va tushuntirishda muammoli vaziyatlarni (garchi ular tasodifan paydo bo‘lsa ham) vujudga keltirmasligi bilan muammoli darsdan farq qiladi.

Muammosiz dars didaktik jihatdan muammoli darsdan shu bilan farqlanadiki, unda o‘quv jarayoni bosqichlarga aniq bo‘linadi, darsning asosiy elementlari bo‘lmaydi, o‘qituvchi o‘quv materialini bayon qilishi, bilimlarni mustahkamlashga, takrorlashga doir mashqlarni bajarishi darsning mustaqil

bosqichlarini tashkil qiladi. Xususan, o'qituvchining axborot tarzidagi bayoni yoki o'quvchilarning mustaqil ishlari reproduktiv xarakter kasb etmaydi.

Muammoli darslar o'rganiladigan mavzuning va boshqa omillarning mazmuniga bog'liq holda muammosiz darslar bilan almashinishi mumkin. Ularning birlashuvi ta'limning faollashuvi darajasini belgilaydi. Agar darslar tizimida muammoli darslar ko'p o'rin olsa, bunday ta'lim muammoli, kamol toptiruvchi ta'lim deb hisoblanadi. U o'quvchilarning aqli va hissiyoti yuqori darajada rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin hozir maktablarda o'tilayotgan muammoli darslar o'tilish amaliyotiga xos bo'lgan va oltmishinchi yillar didaktikasida ifodalangan mazkur darslardan boshqachadir.

Darslarning muammoli va muammosiz darslarga bo'linishi M. I. Maxmutov o'z asarlarida ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonini faollashtirish nuqtayi nazaridan katta amaliy ahamiyatga ega. Biroq muammoli va muammosiz darslarning o'xshashligi hamda farqi ma'lum jihatdan nazorat darslariga ham daxldor bo'lib, ularda ham muammolilik darajasi o'quvchilar mustaqil ishining xarakteriga bog'liq.

Pedagogik adabiyotlarda darslarning turlari har xil asoslar bo'yicha ifodalanadi. Darslarni «o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatining xarakteri bo'yicha turlarga ajratish» amaliy maqsadga muvofiq emas – bunday ajratishni ta'lim metodlarini amalga oshirish usullari bo'yicha bajarish lozim.

Darslarning turlari quyidagilardan iborat:

1. a) dars – ma'ruza, b) dars – suhbat, d) kino darsi, e) nazariy yoki amaliy mustaqil (tadqiqot tipidagi) ishlar darsi, f) aralash dars (bitta darsda darsning har xil turlari birikmasi).

2. a) mustaqil (og'zaki yoki yozma mashqlardan iborat reproduktiv tipdagi) ishlar darsi, b) dars – laboratoriya ishi, d) amaliy ishlar darsi, e) dars – ekskursiya.

3. a) og'zaki (umumiy, yakka tartibda, guruhiy) so'rash, b) yozma (yakka tartibda) so'rash, d) sinov, e) sinov amaliy (laboratoriya) ishi, f) kontrol (mustaqil, nazorat) ishi, g) aralash dars. Oldingi uchta turning birikmasi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Ta'lim jarayoni, o'qitish jarayoni, ta'lim funksiyalari, tarbiya funksiyalari, rivojlantirish funksiyalari, ta'limning tuzilishi, dars strukturasi, dars turlari, darslikning turlari.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Ta'lim jarayoni, uning mohiyati va vazifalari.
2. O'qitish jarayoni. Ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish funksiyalari.
3. Ta'lim jarayonining tuzilishi (bosqichlari).

4.Darsning strukturasi.

5.Darsning turlari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash Va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik Prof. M.X.To'xtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.

2. Pedagogika. O'quv qo'llanma // A. Mo'navvarovning Umumiy taxriri ostida. - T.: O'qituvchi, 1996.

3. Ziyomuxammedov B. Ma'rifat asoslari. -T.: Chinor ENQ, 1998.

4. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. -T.: O'qituvch, 2001.

5.O'zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov Q., Ochil.S. -T.: O'qituvchi, 1995; 2-jild. Tuzuvchi-mualliflar: Hoshimov Q., Ochil.S. -T.: O'qituvchi, 1999.

6. Hasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M., Xasanboeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. -T.: Fan va texnologiya, 2009.

7-MAVZU

MUSTAHKAM OILA - TA'LIM-TARBIYANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

7.1. Mustahkam oila – jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida.

7.2. Oila va oilaviy munosabatlar ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida.

7.3. Zamonaviy oilaning asosiy funksiyalari.

7.4. Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda oila va oilaviy munosabatlarning o'рни.

7.1. Mustahkam oila = jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida.

Jamiyat institutlari tizimida o'zining tarixiy-madaniy o'рни, demografik xususiyatlari va ijtimoiy pedagogik funksiyalari nuqtayi nazaridan oila alohida o'rin tutadi. Qadimdan nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, siyosiy, huquqiy va iqtisodiy omillar oilaning alohida mikroinstitut sifatida shakllanishiga, o'z navbatida, oila ham jamiyat hayotiga, etnomadaniy va tarixiy rivojlanishining uzviyligini ta'minlashga ta'sir etib keladi. "Xalqimizning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharm-hayo, mehr-oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan". Respublikamiz Prezidenti yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning murakkab va dolzarb masala ekanligini ta'kidlab: "... oila qurish degani faqat ikki inson o'rtasidagi shaxsiy munosabat emas, balki jamiyatning asosini, aytish mumkinki, eng muhim bo'g'inini belgilaydigan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi", – deydi.

Mavzuning dolzarbligini quyidagi jihatlar bilan asoslash mumkin:

- birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor";

- ikkinchidan, respublikamiz hukumati oilalarni mustahkamlash va ular farovonligini oshirishga qaratilgan muhim qarorlar qabul qilayotgan, ijtimoiy-amaliy chora-tadbirlar ko'rayotgan bo'lsa-da, oilalarning buzilib ketishi darajasi hamon yuqoriligicha qolmoqda. Maxsus tadqiqotlar oilalarning buzilishi, ko'proq, yoshlarning hali oilaviy hayotga tayyor emasligini ko'rsatadi. Oilalarning buzilishiga olib kelgan omillar ichida ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar ham yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligidan keyingi o'rinda turadi;

- uchinchidan, jamiyatimizda kechayotgan demokratik o'zgarishlar oilaga va oilaviy munosabatlarga ta'sir etmasligi mumkin emas. Bugun yoshlar kasbkor, yashash joyi va o'ziga juft tanlashda avvalgi avlodga nisbatan ancha erkindirlar. Ya'ni ular bu masalaga keksa avlodga nisbatan mas'uliyatsiz yondashadilar. Shu bilan birga, keyingi yillarda yoshlar o'rtasida yuqumli teritanosil kasalliklarining tarqalayotgani, spirtli ichimliklar va narkotik moddalar qabul qilish hollari uchrayotgani davlatimiz va jamiyatimizni tashvishga solmoqda. Turli jismoniy va ruhiy kasalliklar bilan tug'ilyotgan chaqaloqlarning soni esa tobora ko'payib bormoqda;

- to'rtinchidan, kelishmovchilik, o'zaro nizolar, ajralishlar uzog'i bilan 6-7 yillik oilalarda ko'proq sodir bo'layotgani an'ana tusini olmoqda. Ushbu salbiy hollarni bartaraf etish jamiyatda ilmiy asoslangan konsepsiya yaratilishini taqozo etmoqda;

- beshinchidan, hozirgi zamonda jadal sur'atlar bilan o'sayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot, urbanizastiya, akselerastiya ta'sirida yoshlarning oilaviy hayotga fiziologik tayyorgarligi hamda ularning ruhiy va rasmiy-huquqiy jihatdan nikohga o'tishi o'rtasidagi muddat ortib boradi. Fiziologik jihatdan 12-14 yoshlarda yetilgan yoshlar 17-18 yoshdagina nikoh munosabatlariga kirishish huquqiga ega bo'lishlari, biron ixtisosni egallashlari 20-25, kasbiy mahorat egallash va yetuk mutaxassis bo'lish 28-30 yoshni tashkil etishi, iqtisodiy mustaqillikka kechroq ega bo'lishi hollari oilaviy munosabatlarni nafaqat murakkablashtiradi, balki yoshlarni o'zlarining kelajaklariga alohida mas'uliyat bilan qarashlarini talab etadi. Shuning uchun "...oila qurish masalasi har bir inson hayotida – u yigit bo'ladimi, qiz bo'ladimi – ulkan hodisa ekanini, bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishini keng jamoatchilikka tushuntirib borishimiz lozim. Yangi qadriyatlarni qabul qilayotgan turmush tarzini o'zgartirayotgan va taraqqiyot mezonlariga o'tayotgan jamiyatimiz uchun o'z taqdiri, oilasi va farzandlarining hayoti, qolaversa, butun xalq, jamiyat kelajagi qarshisida mas'uliyat tuyg'usini his qiladigan yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Oila, oilaviy munosabatlar va yoshlarni turmushga, ya'ni oilaviy hayotga tayyorlash kabi masalalar ijtimoiy borliqning azaliy muammolari sifatida inson aqlu idroki, tafakkurini qadim-qadimdan o'ziga jalb etib keladi.

Kishilar ibtidoiy falsafa, mifologiya, ilk diniy qarashlardayoq guruh, urug', qabila bo'lib yashashda ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurligini anglab yetganlar. Bu o'rinda urug'chilik davrida shakllangan inistiastiya (bag'ishlov), "kelin o'g'irlash" urf-odatlarini eslash joiz. O'lkamiz xalqlari hayotiga oid ilk manba "Avesto"da ham oila qurish, naslni davom ettirish uchun yaxshi farzand zarurligi, "ayol va farzandlari sarson-sargardonlikda qolgan yurt eng yomon yurt", deb ta'kidlanadi. Kaykovus yozadi: "Xotin talab qilsang,

xotinning molini talab qilmagil... Xotin pok nixod (toza tabiat) va pokdil bo'lsin: kadbonu (uy bekasi, ishchan xotin) eriga do'st bo'lg'ay. Qallig' taqvodor, tili qisqa, molni yaxshi saqlag'uvchi bo'lsin. Deb durlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo'lur". Oila, oilaviy hayot va yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash haqida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yassaviy, Naqshband, Kubro, Imom Buxoriy, Hakim at-Termiziy, Alisher Navoiy, Bobur, Munis Xorazmiy, Bedil, Bexbudiy, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Fitrat kabi allomalarimiz qimmatli fikrlar bildirganlar. Ular yoshlarning komil inson bo'lib yetishishlarida oila va oilaviy tarbiyaning o'rnini yuqori qo'yganlar, turmush qurish, ro'zg'or tebratishda er-xotinning burch-vazifalari haqida Sharq xalqlarining tarixiy, madaniy, ma'naviy tajribalariga mos axloqiy va huquqiy me'yorlarini ishlab chiqqanlar. Mazkur me'yorlardagi ijobiy jihatlarni hozirgi milliy tiklanish jarayonlariga tatbiq etish barkamol oila paydo bo'lishiga zamin bo'la oladi. Sohibqiron Amir Temur ham axloqiy va islomiy-madaniy me'yorlarga qattiq rioya etib oila qurish-baquvvat nasl qoldirishga hamda millat ravnaqiga asos bo'lishini bilgan. Bu borada u: "O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lik va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'yu tomosha berib, kelin tushurdim", – degan. Islom dinida oila va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga alohida e'tibor berilgan.

7.2. Oila va oilaviy munosabatlar ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida.

XX asrga kelib oila va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy tarbiyani ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi institutga aylantirish masalalarini ilmiy ratsional o'rganish keng yo'lga qo'yildi. So'nggi o'n yillar ichida yaqin va uzoq xorij tadqiqotchilari tomonidan oilaning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik muammolari bo'yicha 800 dan ziyod monografiya, ilmiy maqolalar to'plamlari va o'quv qo'llanmalari chop etildi. Shu bilan birga, ularda muammoga xalqlarning etnomadaniy xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish hollari e'tibordan chetda qolgani yoki ulardan yetarli foydalanilmagani ko'zga tashlanadi. Respublikamizda oila va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy, iqtisodiy, tibbiy, ruhiy, jinsiy va ma'naviy-axloqiy jihatlari yaxlit ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tadqiq etilmoqda. Xuddi shuningdek, muammoning tarixiy-milliy ildizlarini, uning hozirgi zamon ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rnini, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning mazmun-mohiyati, obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari, sotsial-pedagogik jarayonlar samaradorligi hamda

ta'sirchanligini oshirish yo'llarini belgilab berish zamonaviy ilm-fan oldida turgan muhim vazifalardandir. Oila va oilaviy munosabatlar qadimdan insoniyatni qiziqtirib kelayotgan ijtimoiy-tarixiy hodisalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham ular bilan falsafa, sotsiologiya, iqtisod, huquqshunoslik, etnografiya, psixologiya, demografiya, pedagogika, tibbiyot kabi fanlar shug'ullanib keladi.

Ushbu fanlarning har biri o'z sohasi nuqtayi nazaridan oilani tadqiq etadi. Ijtimoiy falsafa esa oila va oilaviy munosabatlarni bilim va erishilgan tajribalarga asoslanib, yaxlit holda o'rganadi. Ilm-fanda oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat bilan birga paydo bo'lgan degan qarash shakllangan. Ilk tarixiy bosqich ibtidoiy jamiyatda oiladagi munosabatlar urug' va qabiladagi urf-odatlar yordamida boshqarilgan. Axloq, ilk diniy tasavvurlar va keyinchalik davlatning paydo bo'lishi, axloqiy, diniy va huquqiy me'yorlar bilan bu munosabatlar yo'lga qo'yila boshlagan. Inson nafaqat ijtimoiy, shu bilan birga, biologik mavjudot hamdir. Uni goho boshqa biologik mavjudotlar singari, muayyan instinkt, his-tuyg'ular boshqaradi. Bu his-tuyg'ularga, avvalo, odamning jinsiy ehtiyojlari kiradi. Ular asosida esa har bir biologik mavjudotga xos bo'lgan avlod – o'z ketidan nasl qoldirish instinkti yotadi. Oilaviy munosabatlar mana shu ehtiyojlarni qondirish asosida shakllangan. Keyinchalik ular jamiyatda yuz bergan o'zgarishlar va tarixiy shart-sharoitlar ta'sirida murakkablashib borgan. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning rivojlanishi bilan rasmiy nikoh munosabatlari ham yuzaga kelgan. Albatta, rasmiy nikoh munosabatlarining shakllanishi uzoq davom etgan.

Barcha mavjudotlarning juft bo'lib yashashi tabiat qonunidir. Ammo inson oila qurib yashashi, oilaga ongli qarashi bilan boshqa mavjudotlardan tubdan farq qiladi. Farq shundaki, inson jinsiy munosabatlarga ongli yondashib, ularga axloqiy tus bergan, nafosat qonunlariga asoslanib, ularni tabora takomillashtirib borgan. Shu tariqa oilada asta-sekin iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlar yuzaga kela boshlagan. Natijada oila – kishilarning tabiiy-biologik, iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy institut sifatida shakllangan. Oila a'zolari bir oilada yashar ekanlar bir-birlari bilan iqtisodiy - mulkiy, huquqiy, axloqiy, estetik, psixologik va hokazo aloqalarda bo'ladilar. Oila kabi nikoh ham insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan munosabatlar natijasidir.

Nikoh tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solingan erkak va ayol o'zaro munosabatlarining shaklidir. Jamiyat nikoh yordamida jinsiy hayotni, er va xotinlik, ota-onalik huquqlarini, ularning bir-birlari oldidagi burchlarini tartibga soladi. Oila – nikohga nisbatan murakkab munosabatlar tizimi bo'lib, u er va xotindan tashqari, ularning bolalari, yaqin qarindoshlarini

ham birlashtirib turadi. Oila – ijtimoiy munosabatlar bilan birga o‘zgarib turuvchi, murakkab ijtimoiy-psixologik munosabatlar majmuidir.

Baxofenning 1861-yilda Germaniyaning Shtutgard shahrida chop etilgan "Onalik huquqi" degan asarida oilalar tarixi tahlil etilgan. Kishilik jamiyatining ilk bosqichlarida er-xotin munosabatlari hali tartibga solinmagan edi. Bu esa bolaning otasi kimligini aniqlashga imkon bermasdi. Shuning uchun ham nasl-nasab xotin tomonidan belgilanar edi. Monogam oila – bu hozirgi barqaror oilaning dastlabki shakli bo‘lib, u insoniy axloq bilan bog‘lik bo‘ladi. Tug‘ilgan bolaning onasi aniq ekanligi monogam oilaning bosh belgisidir. Bu oila varvarlik-vahshiylikning o‘rta bosqichi bilan yuqori bosqichi orasidagi davrda juft oiladan kelib chiqqan. Shu bois, bolalarning otasi kimligi ham aniq bo‘lgan.

Bolalar ota-onalari mol-mulkinging merosxo‘rlari bo‘lgan. Bu paytda bittadan ortiq ayol yoki erkak bilan nikohda bo‘lish g‘ayriqonuniy hisoblangan. Ko‘p asrlik umr tajribalariga ega bo‘lgan, keng tarqalgan patriarxal va serfarzand, yakka nikohlilikka asoslangan oilalarning hayot uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi hozirda – XXI asrda e‘tirof etilmoqda. Insoniyatning hozirgacha yashab kelayotganligi va uning er yuzida ko‘payishida ham oilaviy hayot katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham oila insoniyat paydo bo‘lganidan to hozirgacha olimlarni fikrlashga, izlanishlarga, oilaviy hayot munosabatlari xususiyatlarini tadqiq etishga chorlab kelmoqda. "Oila - nikohga yoki tug‘ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a‘zolari ro‘zg‘orning birligi, o‘zaro yordami va ma‘naviy mas‘uliyati bilan bir-biriga bog‘langan" birlik sifatida shakllanishida ijtimoiy munosabatlar, jamiyat ma‘naviyati va madaniy taraqqiyoti muhim rol o‘ynagan.

Oilaning funksiyalari ko‘p qirrali bo‘lganligi uchun oilashunos olimlar uning u yoki bu vazifasini bo‘rttirib ko‘rsatishga harakat qiladilar va oilaga turlicha ta‘rif beradilar. Masalan, Prezident I.Karimov "Oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta‘minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘idir", deb ta‘rif beradi. Ushbu ta‘rifda oilaning insoniyat hayotini saqlovchi makon ekanligi, uning demografik, madaniy merosni asrash va avlodlarga yetkazish, yosh avlodni tarbiyalash funksiyalariga ega ekanligi ta‘kidlangan. Asrimiz boshida o‘zining "Oila" nomli kitobini chop ettirgan mashhur tatar olimi Rizouddin ibn Faxruddin oilaga "Oila millat sharafini yuqori martabaga ko‘taradigan madaniyat o‘chog‘idir", deb ta‘rif beradi.

Buyuk millatparvar adib Abdurauf Fitrat esa: "Vaqt o‘tishi bilan odamlar jamoa bo‘lib yashash lozimligini tushundilar. Ularning birinchi jamoalari "oila" ya‘ni "ahli bayt" bo‘lgan... ahli bayt jamoasi, boshqacha aytganda, oila boshqarishga asos solish, bani odam madaniyatining asosidir", deb ko‘rsatadi. U

fikrini davom ettirib yozadi: "Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi".

7.3. Zamonaviy oilaning asosiy funksiyalari.

Respublikamiz olimlari oilaning ijtimoiy mohiyatini ochib berishga intiladilar. Psixolog-oilashunos olim F.Shoumarov: "Nikohga yoki yaqin qarindoshlikka asoslangan maishiy xizmat, o'zaro yordam va axloqiy mas'uliyat umumiyliги bilan bog'langan kichik guruh oilani tashkil etadi", – deydi. Bizningcha, zamonaviy oilaning funksiyasi quyidagilardan iborat: jinsiy hayotni boshqarish va aholining uzluksizligini ta'minlash. Oila – eng muhim ijtimoiy institut. U orqali jamiyat insonlarning jinsiy hayotini tartibga soladi va boshqarib turadi. Har bir jamiyat o'ziga yarasha jinsiy ehtiyojlarni qondirib turish yo'llariga ega. Oilaviy vafodorlikning muayyan me'yorlari bo'lishiga qaramay, ayrim jamoalarda bunday me'yorlar buzilgan. Jinsiy munosabatlardagi ayrim me'yorlar turli jamiyatlarda har xil. Ayrim xalqlarda qizlarning turmushga chiqqunlaricha jinsiy munosabatda bo'lishlari odatiy hol -norma sifatida qabul qilinsa, ayrim xalqlarda bu katta gunoh hisoblanadi.

Dunyoning turli yerlarida o'ziga yarasha mana shunday axloqiy me'yorlar mavjud. Oila doimo jamiyatni yangi avlodlar bilan to'ldirib turadi. Keksa hamda dunyodan ko'z yumgan insonlar o'rniga yangi va yangi avlodlar jamiyatga kirib keladi. Jamiyat esa mana shu yoshlar hisobiga yashaydi va yangi mehnat zaxiralariga, yangi ishlab chiqaruvchi kuchlariga ega bo'lib boradi. Demak, oila - jamiyatni yangi a'zolar bilan to'ldirib turuvchi institutdir.

Tarbiya va ijtimoyilashtirish. Oila – tarbiya maktabi, tarbiyaning ilk bosqichidir. Oilada bola uchun eng birinchi o'rnak, muallim – ota-onadir. Ota-onaning farzandlariga beradigan bilimlari, hayotiy tajribalari ularning o'z ota-onalaridan o'zlashtirgan bilimlari va hayotiy tajribalarining davomi hisoblanadi. Ota-ona bilan farzandlar o'rtasidagi munosabatlar, yoshlarga beriladigan bilimlar va tajribalar ularning ijtimoyilashuvi uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Oiladagi har bir munosabat bola tarbiyasiga ta'sir qiladi, noto'g'ri tarbiya noqobil farzandlar ulg'ayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham oilaning o'zi alohida tarbiya instituti sifatida o'rganiladi.

Oil – jamiyatning xo'jalik-maishiy munosabatlaridagi alohida bo'lagi hisoblanadi. Har bir oilada o'ziga xos iqtisodiy-maishiy munosabatlar tartibi mavjuddir. Ushbu munosabatlarga tashqaridan ta'sir etib bo'lmaydi. Oila budjeti, oila daromadi xo'jalik-maishiy ishlarining asosini tashkil etadi. Oila o'z daromadidan kelib chiqib, o'z ehtiyojlarini qondirib boradi. Bozor

munosabatlariga o'tish tufayli ushbu funksiyalar roli va ahamiyati keskin oshdi. Endilikda har bir oila a'zosi kelajagini yaratishga, oilasini iqtisodiy ta'minlashga harakat qilmoqda. Bu esa, shaxsning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, oilaning xo'jalik- maishiy funksiyasini maxsus tadqiq etish zarur.

Bo'sh vaqtni tashkil etish. Oilada bo'sh vaqtni tashkil qilish juda ko'p omillar bilan bog'liq. Oila, avvalo, o'z ehtiyojlaridan, qiziqishlaridan, imkoniyatlaridan, manfaatlaridan kelib chiqib, bo'sh vaqtini tashkil etadi. Bu oila a'zolarining tarbiyasi, oila budjeti kabi jihatlarga ham bog'liqdir. Oila tabiat, jamiyat qonun-qoidalari asosida barpo etilsa va yashasa-da, er-xotin, otana va farzandlar, qarindoshlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, o'ziga xos an'analari va qadriyatlari nuqtayi nazaridan "kichik jamiyat" bo'lib qolaveradi. Lekin u yoki bu tuzum, davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy sohasidagi ustuvor g'oyalari mazkur oilaviy munosabatlarga bilvosita yoki bevosita ijobiy va salbiy ta'sir etadi. Oila jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy takomillashib boradi. Oila-jamiyat, jamiyat-oila tizimidagi ana shu aloqadorlik doimiy bo'lib qolaveradi. Oilaning jamiyat tomonidan iqtisodiy-axloqiy va huquqiy vositalar bilan boshqarilishi, avvalo, uning ijtimoiy muassasalik mohiyatidan kelib chiqadi. Unda iqtisodiy muassasa vazifasi (moddiy boyliklarni taqsimlash), axloqiy muassasa vazifasi (oila a'zolarini yuksak ma'naviyat va axloq-odob ruhida tarbiyalash) va huquqiy vazifasi (oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy huquqiy munosabatlar)ni o'z ichiga oladi. Oila jamiyat mahsuli sifatida tashkil topib, rivojlanib borar ekan, uning jamiyat oldidagi mas'uliyatlari ham tobora ortib boradi. Bu mas'uliyat oila zimmasiga, yuqorida aytilganidek, inson naslini davom ettiruvchi avlod yaratish, ularni tarbiyalash, kamolga yetkazish vazifalarini yuklaydi. Oila ushbu vazifalarni bajarar ekan, o'zi ham, ma'lum ma'noda taraqqiy etib boradi. Oilaning taraqqiy etishini u bajarayotgan vazifalar mohiyatiga ko'ra uch yo'nalishga ajratish mumkin:

- 1) oilaning ijtimoiy taraqqiyoti;
- 2) oilaning iqtisodiy taraqqiyoti;
- 3) oilaning demografik taraqqiyoti.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti – oila a'zolarining ma'lumotlilik - bilim darajasi, ijtimoiy mavqei, salomatligi, ta'lim-tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarining takomillashib borishi bilan izohlanadi. Oilaning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlanishi darajasining o'zgarib borishi uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi. Oilaning demografik taraqqiyoti deganda esa, uning tashkil topishi, miqdori va demografik tarkibi (oilada

yashayotgan kishilarning soniga qarab guruhlarga bo‘linishi), faoliyati (oilada farzandlar tug‘ilishining ma’lum davrlarda o‘zgarib borishi) tushuniladi.

Keyingi yillarda o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar oila funksiyalarining kengayayotganligini ko‘rsatadi, chunki jamiyatda sodir bo‘layotgan demokratik o‘zgarishlar oilaga ham ta’sir etmay qolmaydi. Shu nuqtayi nazardan, bizningcha, oilaning quyidagi vazifalarini ko‘rsatish mumkin:

1. Oilada farzandlarning tug‘ilishi, aholining yangilanib turilishini ta’minlash;

2. Oilada yosh avlodni jismoniy sog‘lom, ma’naviy barkamol, axloqiy pok etib tarbiyalash orqali yoshlarni ijtimoiylashtiruv, jamiyatni madaniy jihatdan uzluksizligini ta’minlash;

3. Oilada xo‘jalik ishlarini yuritish, oila a‘zolari uchun yashash joyini tayyorlash, ularning moddiy sharoitini yaxshilash;

4. Oila a‘zolarini zarur bo‘lgan anjom va texnika vositalari bilan ta’minlash, ularni kiyim-kechak, oziq-ovqat, bilim olishi va biron ixtisosga ega bo‘lishi, o‘z iste’dod va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun iqtisodiy shart-sharoit yaratish, mehnatga yaroqsiz oila a‘zolarini (voyaga etmagan bolalar, qariyalar) moddiy jihatdan ta’minlash;

5. Oilaning ijtimoiy nazorat qilish vazifasi, ya’ni oila a‘zolarining xulq-atvori, axloqini nazorat qilish, er-xotinning oila va jamiyat oldidagi, farzandlarning ota-onalari, ota-onalarning farzandlari oldidagi mas’uliyatini oshirish;

6. Oila a‘zolarining ma’naviyatini yuksaltirish;

7. Oila a‘zolarining oiladagi mavqelarini egallashlari uchun imkoniyat yaratish;

8. Oila a‘zolarining dam olishlarini to‘g‘ri tashkil etish;

9. Oilaning emotsional vazifasi, ya’ni oila a‘zolarida bir-birlariga mehr-muhabbat, hurmat his-tuyg‘ularini tarbiyalash;

10. Er-xotinni bir-birlarining jinsiy ehtiyojlarini qondirish hamda o‘g‘il va qizlarga o‘z jinsiga oid tarbiya berish, ularni oilaviy hayotga tayyorlab borish.

Oilalar mana shu vazifalarni to‘laqonli bajaradigan va barqaror takomillashib boradi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi. Bu hol barcha oila a‘zolarining oilada va jamiyatda o‘z mavqeini egallashlariga, iste’dod va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishiga imkoniyat tug‘diradi. Agar oila mana shu vazifalarni bajarishga qodir bo‘lmasa, oila a‘zolari oila va jamiyatda o‘z mavqelarini egallashlari murakkab kechadi, bunday oilada tarbiyalangan farzandlar tarbiyasida ham qusurli jihatlar mavjud bo‘ladi. Oilaning mavjudligi, yashash jarayoni uning o‘z vazifasini bajarishi bilan bog‘liqdir. Agar oila o‘zining demografik vazifasini bajarmas ekan, ya’ni oilada farzandlar tug‘ilmasa, yangi oilalar paydo bo‘lmaydi, oila qaytadan barpo etilmaydi.

Oilada shajaralar davom etishi, yangi oilalar paydo bo'lishi uchun esa, oilada tug'ilgan farzandlarni parvarish qilish, boqish, tarbiyalash, kamolga yetkazish, inson qilib o'stirish lozim. Demak, oila o'z mavjudligini saqlab qolishi uchun zimmasidagi barcha vazifalarini bajarishi shart.

7.4. Yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda oila va oilaviy munosabatlarning o'rni.

Oila vazifalarining bajarilishi bir-biri bilan bog'liq holda ro'y beradi. Ular o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Rivojlanish jarayonida oila vazifalari o'zaro bog'liq holda bir-biriga ta'sir etadi. Masalan, oilada farzandlar tug'ilishini olaylik. Oilada farzandlarning sog'-salomat tug'ilishi ona salomatligiga, ona salomatligi va tug'ilgan farzandning sog'-salomat o'sishi esa oilaning iqtisodiy vazifasining bajarilishi darajasiga, ya'ni moddiy ta'minlanish darajasiga uzviy bog'liqdir. Oilada tug'ilgan farzandning yetuk inson bo'lib shakllanishi oilaning ta'lim-tarbiyasiga, bola dunyoqarashining shakllanishiga, ya'ni oilaning ijtimoiy vazifalarining bajarilishiga chambarchas bog'liq. Yoki oilaning ijtimoiy vazifasini olib ko'raylik. Oilada berilgan ta'lim-tarbiya farzand dunyoqarashining shakllanishiga, uning jamiyatga, kishilarga, o'zgarishlarga bo'lgan munosabatlariga ta'sir etmay qolmaydi.

Farzand oila muhitida katta bo'lar ekan, uning bari xulq-atvori, atrof-muhitga, oilaga bo'lgan munosabati, kelajakda o'zining oila qurishi, farzandlar ko'rishi haqidagi fikrlari shakllanib boradi. Agar oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya'ni bolada oilaga, ota-onaga, keksalarga hurmat, o'zaro yordam kabi xislatlar shakllansa, u kelajakda oila qurgach, o'zi ham farzandlarini xuddi shu tarzda tarbiyalashga intiladi. Yoshlar oila xo'jaligini yuritish, oilani iqtisodiy jihatdan ta'minlash va boshqa tajribalarni ham ota-onasidan o'rganadilar. Demak, yangi avlodning oila qurishida, oilaviy munosabatlarni shakllantirishida, oilani mustahkamlab borishida undagi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarning bajarilishi asosiy omil hisoblanadi. Eng avvalo, yigit va qizni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladan ularga yoshligidanoq qunt va vazminlik bilan yaxshi tarbiya berishni talab etadi. Agar ota-ona o'z farzandlarining fe'l-atvorini, ruhiyati va mayllarini yaxshi bilsa, shulardan kelib chiqib, ularga ta'sir etadigan yo'llar bilan tarbiya bersa, bunday ro'zg'or egalari kelajakda quriladigan barqaror oilalarga zamin hozirlagan bo'ladi. O'zbekistonda qadimdan aralash oilalar ko'p bo'lgan. Masalan, o'zbek-tojik, o'zbek-qozoq va h.k.lar. Rossiya Turkistonni bosib olganidan keyin, bu mintaqaga boshqa din vakillari ham kirib kelganlar. Ularning mahalliy aholi bilan oila-nikoh munosabatlari shakllangan. Aralash oilalar, ayniqsa, sobiq Ittifoq davrida juda ko'paygan.

Aralash oilalarning paydo bo'lishida, avvalo, sevgi-muhabbat katta o'rin tutadi. Muhabbat shunday qudratli kuchki, u na millatni, na chegarani, na

insonning biror tabaqaga tegishli ekanligini tan oladi. Er-xotin o'rtasidagi munosabatlar jamiyat qabul qilgan oila va nikoh haqidagi qonunlarga asoslanishi lozim. Oilaning tashkil topishi va miqdoriy o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillardan yana biri, uning jamiyatdagi o'rnini, kishilarning oilaga bo'lgan munosabati hisoblanadi. Tadqiqotlar insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hamma davlatlarda ham insonlarning oilaga, turmush qurib, farzand ko'rib yashashiga bo'lgan munosabatlari bir xil emasligini ko'rsatadi. Bu munosabatlar har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga, diniga, urf-odatlariga va qadriyatlariga bog'liq.

Ma'lumki, qadimdan musulmon xalqlarida oila muqaddas hisoblangan. Islomda nikohsiz er-xotin bo'lib yashash man etilgan. Millat ko'payishining birdan-bir yo'li erkak va ayolning nikoh va oila munosabatida bo'lishidir. Jumladan, "O'zbekistonda nikohdan o'tish darajasi yuqori va eng muhimi, oilalarning buzilishi dunyo bo'yicha eng past darajada". Sharqda oilaviy munosabatlar odob-axloq, milliy, umuminsoniy qadriyatlar, diniy mezonlarga asoslanadi. Buning natijasida, oilalar mustahkam, oilaviy munosabatlar madaniyati yuqori, yosh avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazish asosiy maqsad hisoblanadi. Xalqimiz qadimdan o'z farzandlariga "yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib, savodini chiqarish, ilmi, kasb-hunarli qilish"ni hayotiy faoliyatining asosi deb bilgan. Albatta, tarbiyada ota-ona ibratini, ota-ona mas'uliyatini barcha xalqlar, barcha zamonlar uchun mushtarak ahamiyatga ega bo'lgan katta ijtimoiy muammodir. Ammo bu mushtarak, umumiy, hal etilishi zarur muammo turli zamonlarda har xil xalqlarda o'ziga xos qimmatga ega bo'lgan va turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib kelgan. O'zbek xalqi uchun tarixda bu muammo yechimi milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan va turmush tarzimizning muhim bir tarkibiy qismiga aylangan. Bu murakkab jarayonning sodir bo'lishida, avvalo, davlatning ta'lim-tarbiyadan manfaatdorligi, sog'lom muhitning yuzaga kelishi, oilaning iqtisodiy va ma'naviy negizi takomillashuvi bilan bog'liq masalalar turmush tarziga ijobiy ta'sir qiladi. Oiladagi hayot tarzi – sog'lom hayot kechirish asosi. Shunga qaramasdan, oila ko'pdan buyon tanqid obyekti bo'lib kelmoqda. XIX asrda ko'pgina G'arb olimlari oilaviy turmushni hayotning boshqa ijtimoiy shakllari bilan almashtirish haqida fikr bildirganlar. Ba'zi g'oyalarni amalda qo'llashga ham erishganlar.

XIX asr o'rtalarida AQShning Yangi Angliyasida mavjud bo'lgan Oneyda jamoasi bunga misol bo'la oladi. Jamoa Jon Xemfrining diniy qarashlariga asoslanib, har bir erkak jamoadagi xohlagan ayolga uylanaveradi va ulardan tug'ilgan bolalar kommuna bolalari bo'lib, katta yoshdagi erkak va ayollar bu bolalarning ota-onalari hisoblanadi. Bu kommuna 30 yil yashab, a'zolari soni uch yuz kishiga yetganda tarqab ketgan. Bundan so'ng Britaniyada va boshqa G'arb mamlakatlarida shunga o'xshash jamoalar paydo bo'lgan. Erkin jinsiy

munosabatlarga asoslangan, bola tarbiyasi uchun guruh mas'ullik qilgan bunday jamoaviy hayot o'zini oqlamadi.

Hozirgi kunda g'arb mamlakatlarida nikohsiz jinsiy munosabatga kirishgan kishilarning birga yashashi keng tarqalgan. Shuningdek, g'arb ayollari xizmat vazifasiga hayotni asosiy harakatlantiruvchi unsur sifatida qaraydilar. Oilaviy turmush tarzining buzilishi esa er-xotin, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga, oilaviy munosabatlarga, uning ma'naviy-axloqiy asoslariga ham salbiy ta'sir qilmoqda. Bu salbiy hodisadan tashvishlangan G'arb olimlari g'arbda "muhabbat – seks, do'stlik – hisob-kitob, yaqinlariga muruvvat ko'rsatish – sadaqa berish bilan teng" deb baholashadi. Hozir Yevropada odatga aylangan nikohsiz erkin yashashning keng tarqalishi, ajralishlarning ko'payishi tug'ilishning kamayishiga olib keldi. Bunday salbiy holatlarning sababini tadqiqotchilar:

- 1) jamiyatning haddan tashqari urbanizastiyalashuvi;
- 2) xotin-qizlarning ishlab chiqarishda keng ishtirok etishi;
- 3) informatsion texnologiyalarining cheksiz ta'siri (internetdagi hayosiz saytlar);
- 4) "yulduzlar" hayotining "ideallashuvi"ning yoshlarga salbiy ta'sirlari;
- 5) o'ziga juft tanlashning o'ta erkinligi;
- 6) birgalikda yashashning nikohdan boshqa shakllaridan foydalanishning ochiq va bemalolligida, deb ta'kidlamog'dalar.

Aynan mana shunday oilaviy parokandalik tufayli oilada er-xotin, ota-ona va farzandlarning o'zaro munosabatlari omonat, beqaror bo'ladi. Oiladan tashqarida jinsiy munosabatlarning keng tarqalishi tufayli jamiyatda axloqsizlik, ota-onasiz farzandlarning ko'payishi, eng dahshatlisi, turli jinsiy kasalliklarning keng tarqalishi, teri-tanosil, OITS (orttirilgan immun taqchilligi sindromi) kasalliklarining ko'payishi inson hayotini xavf ostida qoldirmoqda. Ularning ayrim belgilari respublikamizda ham kuzatiladi. Oilaga tegishli tartib-qoidalar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida alohida o'rin olgan. Asosiy Qonunning o'n to'rtinchi bobi "Oila" deb nomlangan. Oilaga nisbatan davlat munosabatini shakllantirish milliy xususiyatlarimizga asoslanadi, chunki Sharqda ota-ona va farzand munosabatlarga alohida ahamiyat beriladi. Bu oilaning eng bebaho fazilati sanalanadi. Ota-onalarning farzandlar taqdiri uchun mas'ulligi, farzandlarning ota-ona oldidagi burchlari hech bir xalqda o'zbeklardagidek teran va adolatli tartib kasb etmagan.

Konstitustiyada azaliy urf-odatlar qat'iy tartibga solingan: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar". Yoxud "Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar". Bolaning eng yaxshi manfaatlari ota-onalarning asosiy g'amxo'rliklari natijasi hisoblanadi. Oilada an'anaviy tusga

kirgan ota-onaning farzandlar taqdiri uchun mas'uliyati, farzandlarning ota-onalar oldidagi burchlari, o'zaro hurmat, qadr-qimmatini o'rniga qo'yish, mehr-muhabbat, bir-birlariga nisbatan oqibatlilik, birgalikda qiyinchiliklarni yengib o'tish kabi xislatlar bugungi kunda jamiyat hayotida ham yaqqol ko'rinmoqda. Oilada oila a'zolarining jismoniy salomatligi va ma'naviy kamoloti uchun doimiy ravishda g'amxo'rlik qilib boriladi. Shuningdek, oila mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlar, avvalo, oila muhitida seziladi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri bilan amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit – sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Tarbiya mazmuni, asosiy yo'nalishlari, o'quv-tarbiyaviy vaziyat, oila, pedagogik munosabatlar, shaxs tarbiyasi, shaxs kamoli, oilaviy hayot, oiladagi tarbiya, o'zini-o'zi tarbiyalash, oila taraqqiyoti, mustahkam oila, farzand burchi, tartib-intizom, oiladagi an'analar.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Tarbiyaning mazmuni.
2. O'quv-tarbiyaviy vazifalarning turlari.
3. Oila – shaxs kamolotining subyekti sifatida.
4. Oiladagi tarbiyaviy vazifalar.
5. O'zini-o'zi tarbiyalash va kamol toptirish masalalari.
6. Mustahkam oila – yurt tayanchi.
7. Zamonaviy oilaning tarbiyaviy funksiyalari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: O'zbekiston, 2008.
2. G'aybullaev N.R. va boshq. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. - T.: Universitet, 1999.
3. Mavlonova R. va boshq. Pedagogika. Darslik. - T.: O'qituvchi, 2001.
4. Радугин А.А. Психология и педагогика. - М.: Центр, 2003.
5. Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi): O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani ta'lim sohasi bakalavriat yo'nalishi uchun darslik. Prof. M.X. Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.

6. Saydalieva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari. Falsafa fan.nom. diss... avtoreferati. -T., 2005.

7. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Xaydarov M., Hasanboyeva O., Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. - T.: Fan va texnologiya, 2009.

8. Abdusamedov A., Xo‘jayev M. va boshq. Mustahkam oila ma‘naviyati. - T.: Sano-standart, 2012.

8-MAVZU

PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI, FANLAR TIZIMIDAGI O‘RNI

- 8.1. Yangi davr va psixologiya. Psixologiya fan sifatida.
- 8.2. Psixologiyaning predmeti. Psixika va uning namoyon bo‘lish shakllari.
- 8.3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni.
- 8.4. Psixologiyaning tarmoqlari.

8.1. Yangi davr va psixologiya. Psixologiya fan sifatida.

Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan davrga deyarli 160 yil bo‘ldi. Shu davr ichida juda ko‘plab ilmiy tadqiqot natijalarini o‘z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo‘llanmalar yaratildi. Lekin, bu bilan fanning jamiyat hayotida tutgan o‘rni juda oshib ketdi, deb bo‘lmaydi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko‘rsatgan barcha olimlar diqqatlarini ko‘proq mavhum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta‘siri masalasi hozirgi davrga kelib, o‘ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi.

XX asrda insoniyat texnika, elektronika va boshqa shunga o‘xshash murakkab texnologiyalarni yaratgani bilan xarakterlansa-da, vaqti kelganda, shunday holatga duch kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o‘ta aqlli inson o‘zi va o‘z atrofida gilarining ruhiy kechinmalarini to‘g‘ri baholay olmasligi sababli, o‘zini nochor va kuchsiz sezadi. Buni hayot ham isbotladi. XXI asrda juda ko‘plab davlatlarda bo‘lgani kabi dunyo xaritasida munosib o‘rin olgan mustaqil O‘zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi **inson omilini** har qachongidan ham yuqori saviyaga ko‘tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma‘naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog‘ladi. Bunda inson va uning mukammalligi, o‘z ustida ishlashi, o‘z mukammalligi xususida qayg‘urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to‘qqizinchi sessiyasidagi “O‘zbekistondagi demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari” mavzusidagi ma‘ruzasida **yettinchi ustuvor yo‘nalish** deb, barcha islohotlarning pirovard natijasini belgilab beradigan **inson omili** va mezonini ekanligi besabab ko‘rsatib berilmagandir. (Karimov I. A. O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati

asoslarini shakllantirishning asosiy yoʻnalishlari. “Turkiston”, 2002-yil 31-avgust).

Inson psixologiyasini bilish, oʻz taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli oʻzgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni taʼminlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, roʻy berayotgan jarayonlarni obyektiv va toʻgʻri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan oʻz ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot oʻz davrida «Oʻz-oʻzingni bil!» degan shiorni oʻrtaga tashlagan boʻlsa, yangi davr «oʻz yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qoʻydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

Anʼanaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u oʻrganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shugʻullanadigan kimsalar oʻrganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish boʻlishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning oʻzgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Psixologiya fan sifatida. Psixologiyaning fan sifatida dunyoga kelishi va rivojlanishi koʻplab olimlarning ilmiy adabiyot va darsliklarida bayon etilgan. Frantsiyalik olim J.Godfruaning “Psixologiya nima?” nomli 2-jilddan iborat kitobida antik dunyodan boshlab inson psixikasi, uning qalbi, hislari, xulqi masalalari diqqat markazda boʻlgan ekanligi, psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida faylasuflarning qarashlari, tabiiy fanlar rivoji, 17-asrdan boshlab falsafa fanidan turli fanlarning ajralib chiqishi, 18 va 19-asrlarda Kondilyak, Lokk, Yum yondashuvlari asoslab berilgan. Psixologiyaning fan sifatida rivojlanishida nemis psixologi va fiziologi Vilgelm Vundt (1832-1920)ning xizmati, uning tomonidan maxsus tajribaviy sinov laboratoriyalarining tashkil etilishi va mohiyati ochib berilgandir. Psixologiyaning paydo boʻlishi va fan sifatida eʼtirof etilishida biologik, ijtimoiy, bixevior (xulqga koʻra), kognitiv, psixoanalitik, gumanistik, sotsial-psixologik yoʻnalishlar va ularning asoschilari bayon etilgan. (Годфруа Ж. Что такое психология?: В 2-х т. Т.1. Пер. с фран. -М.: Мир, 1992. 57-80 betlar).

Rossiyalik psixolog olim R.S.Nemov uch jilddan iborat “Psixologiya” kitobida psixologiya atamasi 16-asrda birinchi marta qoʻllanilganligini, ong va oʻzini kuzatish tufayli inson oʻzidagi psixik xolatlarni oʻrgana borganligini, keyinchalik insonning faoliyati sohasida shu psixik jarayonlarni oʻrganish

zarurati hosil bo'lganligini izohlab bergan. (Немов Р.С. Психология. Учебник для студентов вузов. Кн.1. -М., 2003. - С. 8-12 betlar).

O'zbek psixolog olimlari E.G'oziev, M.Xolmuxamedov, X.Ibrohimovlarning "Psixologiya metodologiyasi" o'quv qo'llanmasida psixologiya fanining falsafa va tabiatshunoslik fanlari negizida paydo bo'lganligi yetarlicha dalillar vositasida ko'rsatib berilgan.

Demak, psixologiya 1879-yilda Leyptsig Universitetida nemis fiziologi va psixologi Vilgelm Vundt tomonidan birinchi psixologik laboratoriya tashkil etilib, unda ilmiy asosda turli tajribalar o'tkazish boshlangandan keyin mustaqil fan sifatida tan olingan.

8.2. Psixologiyaning predmeti. Psixika va uning namoyon bo'lish shakllari.

«Psixologiya» so'zi ikkita grek so'zlaridan - «*psyche*» - jon, ruh va «*logos*»- ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmetini har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar, hodisalar, holatlar va shakllangan xislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetiga qisqacha qilib, **psixikadir**, deb ta'rif berishadi. Psixika – bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Lekin bu qisqa ta'riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba'zan o'z-o'zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan obyektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo'lishni, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usullarini bilish va ulardan o'z o'rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixikaga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamiz, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o'rtoqlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu xatti-harakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib,

idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalar va jarayonlarning o'ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ular boshqa turli hodisalardan farq qiladi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan, oson ham. Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarga bo'ysunadi. Demak, *psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir*, deb ta'riflash mumkin.

Psixikaning turli shakllardagi ko'rinishlari: psixik jarayonlar, psixologik holatlar, xususiyatlardan tashkil topgan bo'lib bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi, ya'ni shaxs individualligi orqali namoyon bo'ladi, shaxsning faoliyati jarayonida yuzaga keladi, atrofdagi voqelikni to'g'ri aks ettirish imkoniyatini yaratadi.

Psixologiya fanining predmeti masalasida psixika va uning namoyon bo'lish shakllari zamonaviy psixologiyaning umumiy psixologiya sohasiga aloqador bo'lib, ko'plab olimlar o'z ilmiy adabiyotlarida bunga muhim jihat sifatida qaraydilar (Karimova B.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. –M., 2000).

8.3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular, birinchi navbatda, ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va yetakchidir.

Psixologiya va falsafa. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va, shu bilan birga, o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan – falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik, avvalo, yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish

muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

Psixologiya va sotsiologiya. Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'lami kengayishiga baholi qudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlash ishiga xizmat qiladilar. Qolaversa, huquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tatbiqiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun joylarda tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik xizmat markazlari ayni shu vazifani bajarishga qaratilgandir. Respublikamiz miqyosida esa "Ijtimoiy fikr" markazining turli mavzular bo'yicha olib boradigan ijtimoiy so'rovlari aholining kayfiyati, qiziqishi, xohishi, ehtiyoji, niyatini ifodalash bilan birga, hukumat va davlat tomonidan qanday istiqbolli rejalar tuzish lozimligini ham ko'rsatadi. Ijtimoiy-psixologik so'rovlarning oliygohlarda o'tkazilishi ustoz-shogird, talaba-o'qituvchi munosabatlarini, ish joylarida o'tkazish xodim-rahbar, xodim-xodim munosabatlarini bilib olish imkonini yaratadi. Bu orqali nafaqat sotsiologik so'rov, balki inson shaxsiga aloqador psixologik xususiyatlarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Psixologiya va pedagogika. Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» hamda «Kadrlar tayyorlashning Milliy Dasturi»ni amalga oshirish ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi **shaxsni** kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib etishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart-sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tatbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendentsiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu

asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Shaxsga ta'lim va tarbiya berishning alohida emas, birgalikda qaralishida pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro uzviyligi muhimdir. Hozirgi kunlarda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta'lim oluvchining psixologik xususiyatlarini bilgan holda, unga pedagogik ta'sir etish va uni yangi bilimlarga yo'naltirish texnologiyasi joriy etilganligi ham bu ikki fan bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Psixologiya va tabiiy fanlar. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, kimyo, fizika va b.q. psixik hodisalar va jarayonlarning tabiiy fiziologik mexanizmlarini tushunish va shu orqali ularning kechishi qonuniyatlarini obyektiv o'rganish uchun material beradi. Ayniqsa, bosh miyaning hamda markaziy asab sistemasining psixik faoliyatlarini boshqarishda va ularni muvofiqlashtirishdagi rolini e'tirof etgan holda psixologiya fani tabiiy fanlar erishgan yutuqlar va ulardagi tadqiqot uslublaridan omilkorona foydalanadi. Masalan, shaxs qobiliyatlarini diagnostika qilish uning tug'ma layoqatlari hamda orttirilgan sifatlarini bir vaqtda bilishni taqozo etgani sababli, o'sha tabiiy layoqatning xususiyatlarini aniqlashda psixofiziologiyaning qator usullaridan (miya assimetriyasi qonunlari, miya bioritmlarini yozib olish, neyrodinamik hodisalarni aniqlash, qon aylanish va tana haroratini o'lchash metodlari) o'z o'rnida foydalanadi va, shuningdek, biologiya, anatomiya, fiziologiya, neyrofiziologiya kabi fanlarning shu kungacha erishgan yutuqlarini ham qo'llaydi. Shuning uchun tabiiy fanlar sohasida erishilgan barcha yutuqlar psixologiyaning predmetini mukammalroq yoritishga o'z hissasini qo'shgan holda uni boyitadi.

Psixologiya va kibernetika. Kibernetika fani sohasidagi erishilgan yutuqlar psixologiya uchun ham ahamiyatli va zarur bo'lib, u inson shaxsining o'z-o'zini boshqarish va psixik jarayonlarni takomillashtirish borasida axborotlar texnologiyasi va kibernetika tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar va tadqiqot metodlari, maxsus dasturdan o'z o'rnida foydalanadi. Ayniqsa, ma'lumotlar asri bo'lgan XXI asrda informatsion texnologiyalar va modellashtirish borasida psixologiya hamda kibernetika hamkorligining salohiyati yanada ortadi. Masalan, oddiy muloqot jarayonini yanada takomillashtirish, har bir so'zning shaxslararo munosabatlardagi ta'sirchanligini oshirish maqsadida hamda ana shunday ijtimoiy faoliyat jarayonida shaxs tizimini takomillashtirishda turli kibernetik modellaridan o'rinli foydalanish zamonaviy psixologiyaning jamiyatdagi o'rni va rolini oshiradi, maxsus

kompyuter dasturlarining keng qo'llanilishi inson miyasi va ruhiy olami sirlarini tez va aniq o'rganishni kafolatlaydi.

Psixologiya va texnika fanlari. Texnika fanlari bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi yaqqol sezilmoqda. Bir tomondan, murakkab texnikani boshqaruvchi inson ongi muammosini yechishda, ikkinchi tomondan, psixik hayotning murakkab qirralarini ochishda maxsus texnik vositalardan foydalanish zarurati bu ikki yo'nalishning erishgan yutuqlarini birlashtirishni nazarda tutadi. Masalaning yana bir alohida tomoni borki, u ham bo'lsa, texnika taraqqiyotga intilayotgan bir vaqtda, murakkab texnika va mashinalar bilan «muloqot» qilayotgan shaxs faoliyatini yanada mukammallashtirish, uning imkoniyatlariga moslash ana shu hamkorlikda hal qilinishi lozim bo'lgan masaladir. Ayniqsa, mustaqil O'zbekiston uchun murakkab zamonaviy texnika sir-asrorlarini biladigan, uning jamiyat va fan ravnaqiga xizmatini ta'minlash qanchalik dolzarb bo'lsa, ana shu texnikaga har bir oddiy fuqaro ongi, tafakkuri va qobiliyatlarini moslashtirish va «odam - mashina» dialogining eng samarali yo'llarini izlab topishi juda muhim. Texnika bilan bema'lol «tillashadigan» malakali mutaxassislar tayyorlash borasida ham texnika fanlari pedagogika va psixologiya fanlari metodlaridan foydalana olsagina, muvaffaqiyatga erishadi.

Psixologiya va iqtisodiyot. Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratgan edi. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatga moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot, o'z navbatida, iqtisodiy islohotlarning obyekti hamda subyekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

Shuning uchun bugungi kunda psixologiya fanidan alohida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

8.4. Psixologiyaning tarmoqlari.

Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differentsiatsiya qilish, eng avvalo, ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsining esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassislari psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Psixologiyaning 300dan ortiq tarmoqlari fan sifatida rivojlanayotganligi hozirgi kunda psixologiyaning fanlar tizimida yanada mustahkamlanayotganligidan dalolat beradi:

- **umumiy psixologiya** – psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;

- **pedagogik psixologiya** – kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;

- **yosh davr psixologiyasi** – turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi;

- **ijtimoiy psixologiya** – odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;

- **mehnat psixologiyasi** – kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi;

- **muhandislik psixologiyasi** – avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyatini, odam-texnika o'rtasida funktsiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

- **yuridik psixologiya** – huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;

- **harbiy psixologiya** – kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

- **savdo psixologiyasi** – jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko'rib chiqadi;

- **tibbiyot psixologiyasi** – shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o‘rganadi.

Shuningdek, psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, iqtisodiy psixologiya, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, pedagogik psixologiya, intellekt psixologiyasi, psixodiagnostika va boshqa ko‘plab sohalar mavjud.

Biz mazkur mavzuga doir ma’ruza matnini tuzishda internet tarmog‘ida keltirilgan ma’lumotlarga ham e’tiborimizni qaratdik. Bu ma’lumotlar, asosan, psixika va uning namoyon bo‘lish shakllari, psixologiya fanining alohida fan sifatida ajralib chiqqan sohaları va ulardagi fenomenlarni chuqurroq ko‘rib chiqishga imkon beradi (qarang: www.psychology.net.ru).

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Psixologiya, psixik jarayonlar, psixologik holatlar, psixologik fikr, psixologiya fanining maxsus tarmoqlari, psixologiya va falsafa, psixologiya va sotsiologiya, psixologiya va pedagogika, psixologiya va tabiiy fanlar, psixologiya va kibernetika. psixologiya va texnika fanlari, psixologiya va iqtisodiyot.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Psixologiya faniga umumiy tavsif.
2. Psixologiya fanining tarixiy rivojlanishi.
3. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari ta’rifi.
4. Psixologiyaning zamonaviy tarmoqlari.
5. Psixologik bilimlarning fanlartizimidagi o‘rni.
6. Psixik jarayonlarga tavsif.
7. Psixik holatlarga tavsif.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar

1. Дружинин В. Психология. Учебник. -С-Пб.: Питер, 2003.
2. Zufarova M.E., Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflari jamoasi, 2008.
3. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. Ma’ruzalar matni.- T., 2002.
4. Майерс Д. Социальная психология. -С-Пб.: Питер, 2000.
5. Немов Р.С. Общая психология. -С-Пб.: Питер, 2007.
6. Радугин А.А. Психология и педагогика. - М., 2003.
7. Рубинштейн С.Л. Общая психология. -М., 2003.
8. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. - T.: JIDU.2013.

9-MAVZU
PSIXOLOGIYANING ZAMONAVIY USULLARI.
AMALIY PSIXOLIGIYANING ASOSIY YO‘NALISHLARI

9.1. Psixologiyaning asosiy usullari, tatbiiy va amaliy sohalari.

9.2. Amaliy psixologiya yo‘nalishlari.

9.1. Psixologiyaning asosiy usullari, tatbiiy va amaliy sohalari.

Aniq izlanish predmetiga ega bo‘lgan har qanday fan o‘sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to‘plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular **fanning usullari (metodlari)** deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro‘si ham, birinchi navbatda, o‘sha metodlar yordamida to‘plangan ma‘lumotlarning **ishonchliligi va validliligiga** bog‘liq bo‘ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo‘lib, usullar masalasiga fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida qaraladi. Chunki yuqorida ta‘kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ilg‘ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko‘plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog‘i o‘z vazifalarini yechish va ma‘lumotlarga ega bo‘lish uchun ko‘plab metodlarni sinovlardan o‘tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan

Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo‘llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar, avvalo, har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to‘plangan ma‘lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi.

Psixologiya fanida inson psixikasini tadqiq qilish metodlarining turlicha tasnifi mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Kuzatish usuli tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. Tashqi kuzatuv – mohiyatan kuzatiluvchi xulq-atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma‘lumotlar to‘plash usulidir. O‘z-o‘zini kuzatish esa odam o‘zida kechayotgan biror o‘zgarish yoki hodisani o‘zi o‘rganish maqsadida ma‘lumotlar to‘plash va qayd etish usulidir.

Erkin kuzatuv, ko‘pincha, biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o‘rganish maqsad qilib qo‘yilganda qo‘llaniladi. Masalan, bayram arafasida aholining kayfiyatini bilish maqsadida kuzatuv tashkil qilinsa, oldindan maxsus reja yoki dastur bo‘lmaydi, kuzatuv obyekti ham qat‘iy bo‘lishi shart emas. Yoki dars jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba‘zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. Standartlashtirilgan kuzatuv esa, buning aksi bo‘lib, nimani, qachon, kim va

kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan, kuzatuv olib boriladi.

Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhiy jarayonlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Bu bir qarashda kontrrazvedkachilarning faoliyatini ham eslatadi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar, bir tomondan, tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm xislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni subyektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi mumkin. Guruhiy fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksi – ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi.

Umuman, kuzatish usulining ijtimoiy hayot, professional ko'rsatkichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga, kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr-qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlar, ya'ni to'plangan ma'lumotlarni subyektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun biroz noqulayliklari ham bor. Shu sababli u boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi.

So'rov usuli ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'roq yoki ba'zan u oddiygina qilib suhbat metodi deb ataladi, o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach, so'roq o'tkazadi. Agar, mabodo, uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so'rovchi ushbu usul yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida, bir vaqtning o'zida, ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda, javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubhasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, hattoki, kompyuterda dastur ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta-qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, hattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan holda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir.

Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreaktivlilikni aniqlash uchun, ko'pincha, bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreaktivligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatkich aniqlanadi. Bu usullarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi – ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikatsiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida **proyektiv testlar** deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning «siyoh dog'lari» testi, yoki TAT (tematik appertsepsion test), tugallanmagan hikoyalar kabi testlarda bir narsaning proektsiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. O'sha 1921- yilda kashf etilgan «siyoh dog'lari» va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotsional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo'llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

Psixologik eksperimentning mohiyati shundaki, unda ataylab shunday sun'iy bir vaziyat shakllantiriladi va tashkil etiladiki, aynan shu vaziyatda qiziqtirayotgan psixik jarayon yoki hodisa ajratiladi, o'rganiladi, ta'sir ko'rsatiladi va baholanadi. Agar tabiiy eksperiment o'sha qiziqtirayotgan

fenomen tekshiriluvchi uchun tabiiy hisoblangan sharoitlarda (masalan, mehnat jarayonida, ta'tilda yozgi lagerda, litsey auditoriyasida va shunga o'xshash) maqsadli tashkil etilib, o'rganilsa, laboratoriya eksperimenti maxsus joylarda, maxsus asbob-uskunalar vositasida ataylab o'rganiladi. Masalan, diqqatingizning xususiyatlarini bilish kerak bo'lsa, psixologiya laboratoriyasida maxsus taxistoskop deb atalgan moslama yordamida yoki «Landolt halqachalari» deb nomlangan jadvallar yordamida o'rganish mumkin bo'ladi. Hattoki, ijtimoiy munosabatlar borasida ham o'zaro hamjihatlik, liderlik va konformlilik hodisalarini tekshirish uchun *gruppaviy (guruhiy) integratorlar va gomeostat* deb nomlanuvchi moslamalar yaratilgan va ular yordamida guruhdagi turli xil hodisalar o'lchangan.

Modellashtirish usuli kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo'lishi mumkin. Matematik model asosida o'rganilgan hodisaga mashhur tadqiqotchilar Veber – Fexnerlarning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan matematik formulasi va shu asosda to'plangan ma'lumotlar tahlilini misol qilish mumkin. Mantiqiy modellar yordamida, ko'pincha, inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish prinsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi. Kibernetik modellashtirishda esa g'oyalar psixologiyasini EHMdagi matematik programmashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. Hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosida qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtayi nazaridan hisoblab natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko'pincha matematik o'yinlar g'oyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasini o'rganishda ham qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, odamning fikrlash operatsiyalari bilan EHMLarning ishlash prinsiplari o'rtasida ma'lum uyg'unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aql-u zakovati chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

Umuman psixologiyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o'ziga xos usullari bor. Ular ijtimoiy xulq va alohida individ ichki dunyosini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Gap shundaki, ularni o'z vaqtida va professional tarzda qo'llay bilish va olingan natijalardan to'g'ri xulosalar chiqara olish lozim.

Psixologiyaning tatbiqiy va amaliy sohalari. Hozirgi zamon ilm-fanining qadri va ahamiyati uning nechog'li amaliyotga kirib borib, tatbiqiy salohiyati

ortib borishi bilan baholanadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy hamda tatbiqiy psixologiya sohalarining o'ziga xos jihatlari avvalo shundan iboratki, ular jamiyatning bevosita bugungi kundagi talablari va buyurtmalariga ko'ra ish yuritadi. Jamiyatimizda esa psixologik bilimlarni bevosita amaliyotga tatbiq etishga ehtiyoj katta. Birgina O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturini oladigan bo'lsak, uning bajarilishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun psixologiyaning aralashuvi zarur. Joylarda tashkil etilgan Tashxis markazlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar o'quvchilardagi rivojlanish ko'rsatkichlari, aqliy o'sish omillari va iqtidoriga qarab ta'lim-tarbiyani tashkil etishlari uchun qator diagnostik tadbirlarni o'tkazishlari zarurki, bu tadbirlar oxir-oqibat aniq samara berishi lozim. Ta'kidlash joizki, tatbiqiy psixologiyadagi «samara»ni o'lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi samara tushunchalari biroz farq qiladi. Ya'ni, bu yerda bevosita buyurtmaning bajarilishi sifatiga buyurtmachining o'zi baho beradi. Shuning uchun ham amaliy psixologiyaning alohida tarmog'i bo'lmish ijtimoiy psixologiya bilimlarga amaldagi ehtiyojni uch asosiy sabab bilan tushuntirishi mumkin: a) kichik korxonalar yoki yirik firmalardan tortib toki hukumat darajasidagi idoralar ham o'z faoliyati samaradorligini oshirish uchun tobora insonlar faoliyati va ulardagi rezervlardan omilkorona foydalanishning psixologik manbalarini qidirish lozimligini tushunib yetmoqdalar; b) professional psixologlarning o'zi ham o'z ishlaridan keladigan obro'-e'tiborning amaliy sohalarida ishlay olish qobiliyatlariga bog'liq ekanligini tushunib yetmoqdalar; d) amaliyotda ishlayotgan boshqa soha vakillari ham agar psixologik tayyorgarlikdan o'tgan bo'lsalar, ishni tashkil qilishga o'quvlari yaxshiroq va ishlari unumliroq bo'lishini tushunib yetmoqdalar. Shuning uchun ham ko'plab yangi turdagi markaz va firmalar, qo'shma korxonalarda amaliyotchi psixologlar ishlamoqdalar.

9.2. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi.

Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tatbiqiy ishlar, birinchi navbatda, konkret tashkilotda kadrlar zaxirasini to'g'ri va oqilona tashkillashdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir. Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ushbu yo'nalishdagi tatbiqiy ishlarning ikki sohasini ajratish mumkin:

1. marketing xizmatlari;
2. xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchisi eng zamonaviy va muhim ish bo'lib, bu yerda psixologning vazifasi «Nimani?» va «Kim?» xarid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashishdir. Chunki, talab bilan ehtiyoj bevosita shaxsga va uning psixologik munosabatlari tizimiga aloqador kategoriyalar bo'lib, bozor va raqobat sharoitida korxonalar yoki tashkilotlarning samarali ishlab ketishi, eng avvalo, xaridorgir tovar mahsulotlarni ajratib, ularning odamlar talab-ehtiyojiga kanchalik mosligini aniq tahlil qilishdan boshlanadi. Marketing munosabatlari aslida odamlar o'rtasidagi sof psixologik munosabatlar bo'lib, uning negizida odamlar o'rtasidagi jonli muloqot, ta'b va did tarbiyasi yotadi. Shuning uchun biz bugun odamlarda to'g'ri marketing tafakkurini shakllantirish vositalarini qidirishimiz va talab-taklif munosabatlarini real ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishda inson psixologiyasi xususiyatlarini inobatga olib ishlashga o'rganishimiz kerak. Masalan, shunday «Case Study»ni olaylik: Psixologiyani qanday qilib sotish mumkin? (ya'ni, Psixologik ma'lumotlar va bilimlarni) Biz aniq va to'g'ri javoblar olishimiz kerak bo'lgan savollar quyidagilar bo'ladi:

Nima sotiladi? - Test natijalari

Nima uchun? - nima qilib bo'lsa ham, pul ishlash, o'z imkoniyatlarini tekshirish, shaxsiy ish ochish;

Kim ? - firma yoki konkret kishilar;

Nima ? - xilma-xil testlar batareyasi;

Kimga ? - turli kasb egalari, o'quvchilarga, xodimlarga;

Qayerda? Qachon? - zarurat bo'lgan har qanday joyda;

Qanday qilib? - minimal vaqt sarflab, tez va soz;

Qancha? - test o'tkazuvchilarning soni va imkoniyatiga qarab;

Kim bilan? - shu firma xodimlari bilan

Demak, marketing xizmatida javob berilishi zarur bo'lgan savollardan ko'rinib turibdiki, har bir savolga beriladigan javobning orqasida konkret odamlar, ularning qobiliyatlari, manfaatlari va ish unumi yotadi. Shuning uchun bu sohada psixologik xizmat zarur.

Ikkinchi soha – kadrlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi. Bu kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlardan tortib, ularni to'g'ri yo'naltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarini shakllantirish, xodimlarga ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish bilan bog'liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o'rinda, asosan, maslahatchi - konsultant va ekspert sifatida rol o'ynaydi.

Siyosat sohasidagi psixologiya.

Har bir davr o'z kishilari ongida beixtiyor siyosiy ongni shakllantiradi va odamlar uning tamoyillariga bo'ysunadilar. Siyosat borasidagi psixologik masalalarga psixolog aralashuvining zarurati har doim bo'lmasa-da, ayrim

paytlarda - yirik islohotlar boshlanishi arafasida, saylovoldi kompaniyalarda, yangi siyosiy liderlarning xalq tomonidan qabul qilinishi jarayonlari, ko'pchilik auditoriyaga zarur ma'lumotlarni yetkazish, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirish, siyosiy arboblarning imidjini omma ongiga singdirish paytlarida psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etish kerak bo'lganda kerak bo'ladi.

Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o'ziga xos jihatlari bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

a) siyosatda psixolog aralashuvi ko'pchilik ommaga bevosita aloqador bo'lmaydi;

b) zarurat tug'ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o'lchaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o'sha buyurtmachi - siyosatchining talabiga ko'ra izlanishlar olib boriladi;

d) psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo'lishi lozimki, undan odamlarning kayfiyatlari, reaksiyalari (ma'lum hodisalarga munosabati), his-kechinmalari xususida aniq ma'lumotlar so'raladi;

g) o'ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog qiyofasida, ko'pincha, liderning bevosita «odamini» ko'rishga moyil bo'lib, liderning o'zi ham ba'zan o'ta professional psixologdan hadiksirab qolishi mumkin.

Shuning uchun yuqorida ta'kidlaganimizdek, zarur paytlarda siyosiy arboblarning psixolog xizmatiga murojaat qilishlari va undan asosan biror jiddiy ijtimoiy loyihalarni qabul qilish jarayonida yordam berishini so'rash mumkin. Buning uchun psixologdan jamoatchilik fikrini psixologik tahlil qilib berish va shu asosda fuqarolarning ustanovkalari va kayfiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birgalikda ajratish vazifasini hal qilishlari mumkin. Saylovoldi kompaniyalarda esa, psixologning asosiy vazifasi odamlarning kayfiyatini o'rgangan holda da'vogar imidjini shakllantirishga, odamlarga yoqtirishga sabab bo'ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlash, raqiblarning bahslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo'l-yo'riq va usullar borasida ma'lumotlar almashinish kerak bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida siyosiy psixologiyaning o'zi juda zaif rivojlangan tarmoq bo'lgani sababli ham uni rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda rivojlantirish muhimdir.

Oila va nikoh borasidagi tatbiqiy ishlar.

O'zbekistonda endi shakllanayotgan, lekin nazariy nuqtayi nazardan ma'lum an'analarga ega bo'lgan sohadir. 1998-yilning Prezidentimiz tomonidan «Oila yili» deb e'lon qilinishi joylarda psixologik xizmat o'choqlarining paydo bo'lishiga va u yerlarda psixologik xizmatidan

foydalanishni anglashga turtki bo'ldi. Shuning uchun Respublikamizda oila muammolarini maxsus tadqiq etadigan ilmiy-amaliy "Oila" markazi ham tashkil etilganki, bu markazda turli sohaga aloqador mutaxassislar oilani shaxs ijtimoiylashuvining asosiy maskanlaridan biri sifatida o'rganib kelmoqdalar. Psixolog bu yerlarda yoshlardagi oila va nikoh borasidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishidan tortib, toki muammoli, hattoki, ajrim bo'lgan oila a'zolariga psixologik maslahatlar berish, «ishonch telefonlari» orqali maslahatlar uyushtirishni o'z zimmasiga oladi.

Maorif sohasidagi amaliy ishlar.

Boshqa sohalarga nisbatan anchagina yaxshi tajribaga ega. Ayniqsa, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi qabul qilingandan so'ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta'lim muassasalari – akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariga bir nechtadan psixologlar shtati kiritilgan va ular aynan tatbiqiy muammolar – bolaning o'quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo'lgan barcha muammolarni hal qilishga «aralashadi».

Huquqbuzarlikni oldini olish psixologiyasi.

Bu soha va unga aloqador muammolar har doim ham psixolog aralashuvini talab qilib kelgan. Chunki jinoyatchi yoki huquqbuzar shaxsi o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantiruvchi omillar, motivlar va bolani qayta tarbiyalash va rehabilitatsiya masalalari ijtimoiy psixologik jarayonlar mohiyatini bilish va ularga faol ta'sir ko'rsatishni talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar o'rtasida huquqiy ma'rifat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga juda katta e'tibor qaratilgan va bu ishda amaliyotchi xodim – psixologning o'rnini va roli katta bo'ladi.

Yuqorida e'tirof etilgan psixologiyaning tatbiqiy sohalari uchun umumiy narsa shuki, bu sohalarda ishlaganlar, avvalo, yaxshi psixodiagnost, ya'ni psixologiya metodlarini o'z o'rnida samarali ishlatishni bilishi va yaxshigina psixoterapevt va psixokorrektor – ya'ni, aniqlangan muammo yoki «kasallikni» tuzatuvchi mohir professional bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Psixologik usullar, kuzatish, so'rovlar o'tkazish, psixologik tajriba, modellashtirish, amaliy psixologiya, sanoat sohasidagi psixologik bilimlar, siyosat sohasidagi psixologik bilimlar, oila psixologiyasi, maorif sohasidagi psixologik bilimlar.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

- Kuzatish usulining mazmun-mohiyati.
- So'rov usuli.

- Test usuli.
- Psixologik tajriba usuli.
- Psixologiyaning tatbiqiy va amaliy sohalari.
- Amaliy psixologiyaning yo‘nalishlari.
- Amaliy psixologiyada talablar va buyurtmalarni inobatga olish shartlari.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar:

1. Дружинин В. Психология. Учебник. - С-Пб.: Питер, 2003.
2. Zufarova M.E., Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. -T.: O‘zbekiston faylasuflari jamoasi, 2008.
3. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. Ma’ruzalar matni. - T., 2002.
4. Майерс Д. Социальная психология. – С-Пб.: Питер, 2000.
5. Немов Р.С. Общая психология.-С-Пб.: Питер, 2007.
6. Рубинштейн С.Л. Общая психология. -М., 2003.
7. Yaqubova Z.Y. Psixologiya va pedagogika. -F.: Fergana-Trans, 2005.
8. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda -T.: JIDU.2013.

10-MAVZU

SHAXS STRUKTURASI. SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

10.1. Shaxs strukturasi.

10. 2. Individual - tipologik xususiyatlar tasnifi.

10. 3. Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi.

10. 4. Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi.

10. 5. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari.

10. 6. Xarakter va shaxs.

*O'zining shaxsiy fikrlari oqimini tadqiq
qilmaydigan odam baxtli bo'la olmaydi.
Mark Avreliy*

10.1. Shaxs strukturasi.

Inson, individ, shaxs va individuallik tushunchalari, ko'pincha, bir xil ma'noda qo'llaniladi. Ammo psixologik nuqtayi nazardan bu tushunchalarning har biri o'ziga xos ma'noga ega.

Inson - sut emizuvchilar sinfining "Homo sapiens" turiga mansub biologik mavjudot. **Individ** - bu turning bir vakili.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar subyekti bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy rolni bajaruvchi ongli individdir. **Individuallik** - shaxsning betakrorligi, originalligi.

Inson bevosita individ sifatida mavjud bo'lsa, shaxs insonning jamiyatdagi faoliyati va muloqoti jarayonida shakllanadi .

"**Shaxs bo'lish**" - insonga xos kuchli ehtiyoj hisoblanib, bu ehtiyojning qondirilishi insonning ijtimoiylashuviga sabab bo'ladi. Aksincha, mazkur ehtiyojning qondirilmasligi esa kuchli deprivatsion jarayonlarga olib kelishi mumkin.

Shaxs tushunchasiga mutaxassislarning turlicha yondashuvlari natijasida psixologiya fanida bir qator shaxs nazariyalari ishlab chiqilgan. Ularning asosiylariga to'xtalib o'tamiz.

Zigmund Freyd (Freyd, 1856-1939) nazariyasi XX asrda ishlab chiqilgan eng ilg'or ilmiy nazariyalardan hisoblanib, mazkur nazariya bugungi kunda butun dunyoda samarali qo'llanilayotgan psixoanaliz usulining yaratilishiga asos bo'ldi. Freyd nazariyasiga ko'ra, shaxs shakllanishida uning anglanmagan istak va xohishlari asosiy o'rinni egallaydi. Ular inson hayoti va ruhiy salomatligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Inson bu istak va xohishlarni anglab yetmas ekan, ularni nazorat qila olmaydi. Ularni anglash esa psixoanaliz usulini qo'llash orqali amalga oshirilishi mumkin. Psixoanaliz ham nazariya, ham terapevtik (davolash) usul hisoblanadi. Mazkur usul, Freyd fikriga ko'ra, erkin assotsiatsiyalar hamda

tushlarning tahlili tamoyillariga tayanadi. O'z davrida psixoanaliz nazariyasi kuchli tanqidga uchragan bo'lsa-da, hozirgi kunda u terapevtik usul sifatida AQSh va Evropada samarali tatbiq etib kelinmoqda.

Alfred Adler (Adler, 1870-1937) nazariyasi shaxs rivojlanishida anglanmagan istak va xohishlarning yetakchilik rolini rad etib, uning o'rniga shaxsning hukmronlikka intilish ehtiyojiga urg'u beradi. Adler tomonidan ishlab chiqilgan hamda har bir individ uchun betakror hisoblangan «hayot uslubi» tushunchasi mutaxassislar tomonidan hozirgacha katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Adlarning fikriga ko'ra, shaxsning xulq-atvorini o'tmishda sodir etgan ishlari emas, balki uning kelajakda nimaga erishishga umid qilayotganligi belgilaydi.

Abraham Xarold Maslow (Maslow, 1908-1970) nazariyasi shaxs rivojlanishini quyi va yuqori ehtiyojlarning qondirilishi bilan izohlaydi. Maslow inson ehtiyojlarining tug'ma ierarxiasini (fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlik ehtiyoji, ijtimoiy ehtiyojlar, ma'qullash va baholashga bo'lgan ehtiyoj, o'zligini namoyon qilish ehtiyoji) ishlab chiqdi va uni nazariy jihatdan asoslab berdi (1954). Maslowning "ehtiyolar piramidasi" nazariyasiga ko'ra, ko'p hollarda quyi ehtiyojlarning qondirilishi yuqori ehtiyojlarni anglashga turtki bo'lib xizmat qiladi hamda aynan ijtimoiy ehtiyojlar insonni boshqa barcha tirik mavjudotlardan ajratib turuvchi va uni shaxs sifatida to'la qoniqishga olib keluvchi asos hisoblanadi. Mazkur nazariya insonning shaxsga aylanish jarayonida ijtimoiy muhit (sotsium) qanchalik muhimligini, ya'ni ijtimoiy muhit ijtimoiylashuv jarayonining asosiy sharti ekanligini isbotlaydi.

Gordon Ollport (Allport, 1897-1967) nazariyasiga ko'ra shaxs - odatlar, ustanovkalar va shaxsiy xususiyatlarning rivojlanuvchi murakkab tizimi bo'lib, mazkur tizim shaxsga mos xulq-atvor hamda tafakkurni belgilab beradi. Ollport shaxs psixologiyasiga «shaxsiy xususiyatlar» va «individual dispozitsiyada, tushunchalarini kiritib, aynan bir xil shaxslar hayotda nima sababdan» uchramasligini nazariy jihatdan asoslab berdi. Ollport o'z tadqiqotlarida «umuman olingan mavhum shaxsni» emas, balki «alohida olingan aniq shaxsni» o'rganishga katta ahamiyat berdi.

Jorj Kelli (Kelli, 1905-1967) tomonidan ishlab chiqilgan «shaxsiy konstruktlar» konsepsiyasiga asosan shaxs o'z-o'zini programmalashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan yagona tirik mavjudot hisoblanadi. Shaxsning o'z-o'zini programmalashtirishi ikki xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin: konstruktiv programmalashtirish va destruktiv programmalashtirish. Kellining ushbu konsepsiyasi ijtimoiy psixologiyaning yetakchi qonuniyatini - **inson barcha tashqi ta'sirlarni o'zining ichki dunyosi (ya'ni ruhiyati) orqali qabul qilishini** yana bir bor isbotlaydi.

Umuman, psixologiyada ishlab chiqilgan shaxs nazariyalarini mohiyatiga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

1. shaxsning psixodinamik nazariyasi (Z.Freyd)
2. shaxsning tahliliy nazariyasi (K.Yung)
3. shaxsning gumanistik nazariyasi (A.Maslou, K.Rojers)
4. shaxsning kognitiv nazariyasi (J.Kelli)
5. shaxsning xulq-atvor nazariyasi (J.Uotson, B.Skinner, A.Bandura, J.Rotter)
6. shaxsning faoliyat nazariyasi (S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, K.A.Abulxanova-Slavskaya, A.V.Brushlinskiy)
7. shaxsning dispozitsional nazariyasi (E.Krechmer, G.Ayzenk, G.Ollport, B.M.Teplov, V.D.Nebilitsin).

Shaxsning ijtimoiy-psixologik tavsifnomasini uning strukturasi, ya’ni **ijtimoiy faolligi, ijtimoiy yo‘nalishi, o‘z-o‘zini anglashi va qobilyatlari** tashkil etadi.

Shaxs strukturasi tarkibiy qismi hisoblangan ijtimoiy faollik 4 xil ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin:

- shaxsning o‘ziga nisbatan faolligi;
- atrofdagi kishilarga nisbatan faollik;
- shaxsiy faoliyatga nisbatan faollik;
- ijtimoiy hodisalarga nisbatan faollik.

Shaxs shakllanishida uning ijtimoiy yo‘nalishi ham muhim ahamiyatga ega. Insonlarni ijtimoiy yo‘nalishi jihatidan shartli ravishda uchta katta guruhga ajratish mumkin:

- egoist (xudbin)lar – har qanday sharoitda o‘zining shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo‘yuvchi kishilar;
- altruistlar - vaziyat talab qilganda, ijtimoiy muhim kishilar manfaatlarini uchun o‘z shaxsiy manfaatlaridan voz kecha oluvchi kishilar;
- kollektivistlar – nafaqat ijtimoiy muhim kishilar guruhi manfaatlarini, balki umumjamoaga (masalan, Vatan yoki insoniyat) manfaatlarini o‘z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘ya oluvchi kishilar.

Shaxs strukturasi asosiy belgilovchi o‘rinni o‘z-o‘zini anglash egallaydi. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi bosqichma-bosqich kechadigan murakkab jarayon bo‘lib, bu jarayon o‘z-o‘zini idrok etish, o‘z-o‘zini baholash hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi asosiy bosqichlardan iborat. Shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoni uning ijtimoiylashuvi bilan chambarchas bog‘liq, chunki ijtimoiy muhitning mavjudligi o‘z-o‘zini anglash jarayoni amalga oshishi uchun eng muhim shart hisoblanadi. Masalan, shaxs shakllanishida o‘z-o‘zini anglash jarayonining ikkinchi bosqichi bo‘lgan o‘z-o‘zini baholashni olaylik.

Ma'lumki, har bir inson shaxs bo'lib shakllanish jarayonida bolalik davrini boshidan kechiradi. Sir emaski, bola ulg'ayguniga qadar uning atrofidagi kattalar (ota-onasi, tarbiyachisi, o'qituvchisi va boshqalar) uni ma'lum bir ko'rsatkichlar bo'yicha boshqa bolalar bilan taqqoslab, baholab boradilar. Agar bu taqqoslash, aksariyat hollarda, bola foydasiga hal bo'lsa, mazkur bolada ulg'aygan sari o'z-o'zini baholashning adekvatdan yuqori darajasi shakllanib boradi. Mabodo bu taqqoslashda aksariyat hollarda bola «mag'lubiyatga uchrasa», bolada ulg'aygan sari o'z-o'zini baholashning adekvatdan past darajasi shakllanadi. Shaxs o'z-o'zini baholashining adekvatdan yuqori darajasi ham, adekvatdan past darajasi ham insonning kelajakda shaxs sifatida shakllanish jarayoniga hamda shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, shaxs o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini atrofidagi kishilarning baholashi asosida egallab boradi, bu esa ijtimoiylashuv jarayonining natijalaridan biri hisoblanadi.

Va, nihoyat, insonning shaxs sifatida shakllanishi jarayonini aqliy imkoniyatlar, ya'ni qobiliyatlarning rivojlanishisiz tasavvur qilish qiyin. Inson qobiliyatlarining fiziologik asosini tug'ma layoqatlar tashkil etadi. Layoqatlarning rivojlanishi umumiy yoki maxsus qobiliyatlarni namoyon qiladi (umumiy qobiliyatlar, ko'pincha, iqtidor deb ataladi).

Layoqatlarning rivojlanib, qobiliyat shaklida namoyon bo'lishi uchun esa asosiy shart-sharoit faoliyat jarayonida yaratiladi. Masalan, agar bolada aniq fanlarga layoqat bo'lsa, uni qobiliyat darajasiga ko'tarish uchun tegishli sharoit yaratilishi, ya'ni bola ko'proq matematika va fizika bilan shug'ullanishi lozim. Mazkur faoliyat jarayonida bolaning aniq fanlarga qanchalik qobiliyatligi quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi: birinchidan, bir xil shart-sharoitda matematika va fizika bilan shug'ullanayotgan boshqa bolalarga nisbatan bu bola qisqa vaqt davomida yuqori natijalarga erishadi; ikkinchidan, aniq fanlar bilan shug'ullanish jarayonida bu bolada fiziologik toliqish (charchash) boshqa bolalarga nisbatan sezilarli darajada sekin kechadi. Uchinchidan, qobiliyat bolada mavjud bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisi emasligini unutmash kerak. Bu ko'rsatkichlar qanchalik yorqin namoyon bo'lsa, qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Qobiliyatlarning rivojlanish darajasi esa shaxsga talant va geniallik xususiyatlarini beradi.

10.2. Individual-tipologik xususiyatlar tasnifi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir shaxs o'ziga xos qaytarilmas dunyo. Dunyoda bir-biriga aynan o'xshash bo'lgan ikki kishini topish juda mushkul. Odam tashqi qiyofasi, bo'y-basti bilan boshqa biror kimsaga o'xshashi mumkin, lekin fe'li, mijoz va shaxs sifatidagi xususiyatlari nuqtayi nazaridan aynan bir

xil insonlar bo'lmaydi. Hattoki, olimlar bitta tuxumda rivojlangan egizaklarda ham juda ko'p jihatdan aynan o'xshashlikni qayd qilishgan, shaxsiy sifatlaridagi korrelyatsiyada esa ba'zi tafovutlar aniqlangan.

«**Shaxs**» – qaytarilmas, u o'z sifatleri va borligi bilan noyobdir. Ana shu qaytarilmaslik va noyoblikning asosida uning individual-psixologik xususiyatlari majmui yotadi. Biz yuqorida ta'rif bergan shaxs tushunchasi bilan yonma-yon ishlatiladigan yana ikki tushunchaga izoh berishni o'rinli deb hisoblaymiz. Bu –«individ» va «individuallik» tushunchalaridir. «**Individ**» tushunchasi umuman «odam» degan tushunchani to'ldirib, uning ijtimoiy va biologik mavjudot sifatida mavjudligini tasdiqlaydi va uni bir tomondan, boshqa odamlardan farqlovchi belgi va xususiyatlarini o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, o'ziga va o'ziga o'xshashlarga xos bo'lgan umumiy va xarakterli xususiyatlarni qamrab oladi. Demak, individ – insonga aloqadorlik faktini tasdiqlovchi ilmiy kategoriyadir.

«**Individuallik**» – yuqoridagi ikkala tushunchaga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u konkret odamni boshqa bir konkret odamdan farqlovchi barcha o'ziga xos xususiyatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan shaxs tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, shaxsning individualligiga uning qobiliyatlari, temperamenti, xarakteri, irodaviy sifatleri, emotsiyalari, xulqiga xos motivatsiya va ijtimoiy ustanovkalari kiradi. Aynan shu qayd etib o'tilgan kategoriyalar shaxsdagi individuallilikni ta'minlovchi kategoriyalardir. Uning ma'nosi shundaki, bo'yi, eni, yoshi, sochining rangi, ko'z qarashlari, barmoq harakatlari va shunga o'xshash sifatleri bir xil bo'lgan insonlarni topish mumkin, lekin xarakteri, qobiliyatlari, temperamenti, faoliyat motivatsiyasi va boshqalarga aloqador sifatleri majmui bir xil bo'lgan odamni topib bo'lmaydi. Ular – individualdir.

Qobiliyatlar – shaxsdagi shunday individual, turg'un sifatlarki, ular odamning turli xil faoliyatdagi ko'rsatkichlari, yutuqlari va qiyinchiliklari sabablarini tushuntirib beradi.

Temperament – insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, holatlar va insonlarning xatti-harakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir.

Xarakter – shaxsning alohida insonlar va insonlar guruhi, o'z-o'ziga, vaziyatlar, narsalar va hodisalarga nisbatan munosabatlaridan orttiradigan sifatlarini o'z ichiga oladi.

Irodaviy sifatlar – har birimizning o'z oldimizga maqsad qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishimizni ta'minlovchi ma'lum sifatlarimiz majmuini o'z ichiga oladi.

Emotsiyalar va motivatsiya esa atrofimizda sodir bo'layotgan hodisalar, bizni o'rab turgan odamlar va ularning xatti-harakatlarini ruhan qanday qabul

qilib, ularga bildiradigan hissiy munosabatlarimizni bildiruvchi sifatlarimiz bo'lib, ular ayni vaziyatlardagi real holatlarimizdan va ularning ongimizda aks etishidan kelib chiqadi.

Ijtimoiy ustanovka – yuqoridagi barcha xususiyatlar kompleksiga ega insonning turli ijtimoiy vaziyatlardagi faoliyat va harakatlarga ruhan hozirligi va munosabat bildirish uslubidan kelib chiqadigan chuqur ichki holatidir.

Biz yuqorida sanab o'tgan individual-psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta. Ular bizning jamiyatdagi o'rnimiz, obro'-e'tiborimiz, ishdagi va o'qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi **qiyofamizni, kim ekanligimizni**, kerak bo'lsa, **o'zligimizni** belgilaydi. Kim bilan qayerda uchrashmaylik, o'sha insonning bugungi holati, kayfiyati, bizga va biz bildirayotgan fikrlarga munosabati, hamkorlikda ishlash tilak-istaklariga doimo e'tibor beramiz va bu masala biz uchun muhim bo'ladi. Xuddi shunday suhbatdosh ham suhbatning boshidanoq, bizni o'rgana boshlaydi. Chunki agar suhbatdoshlar bir-birlarini bilsalar birgalikdagi faoliyatni samarali tashkil etish va undan foyda olish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Shuning uchun ishda ham, dam olishga otlangan chog'da ham, qayerda bo'lsa ham o'zimizga «qo'shni» tanlaganda uning inson sifatida qanday ekanligiga qiziqamiz.

Agar suhbatdosh yoki sherik bizga tanish bo'lmasa, uni taniganlardan oldindan so'rab ham olamiz va bunda aynan uning nimaga qobilligi, fe'li, ishga, odamlarga munosabatini so'raymiz va u to'g'risida «Juda xushfe'l, odamgir...» kabi tasniflarni eshitishni xohlaymiz. Biror yerga ishga kirayotgan paytda ham rahbar o'ziga yaqin odamlardan yangi xodimning xarakterini, qobiliyatini va muhim narsalarga munosabatini, albatta, so'raydi va shu asosda suhbatga tayyorlanadi.

Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan **muhim predmet** ekan. Chunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda chaqqon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. Shuning uchun ham individuallikning faoliyat va muloqotdagi samarasini inobatga olib, eng muhim individual-psixologik xususiyatlarni alohida o'rganamiz.

10.3. Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi.

Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani, birinchi navbatda, qobiliyatlar va iqtidor masalasiga

murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan, avvalo, jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi, eng avvalo, inson aql-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql-zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam aqlli bo'lishni istaydi, «Men aqlliman» demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. «Aqlsiz, nodon» degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham xafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan «o'ta aqlli» yoki «o'ta nodon» iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: «Falonchining o'g'li anchagina aqlli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota-onasini kuydirayotgan emish» deymiz. Ushbu iboralar aslida «aqllilik» kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatkichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatkichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Ch. Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki, ularning fikricha, intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual salohiyatga esa, bir tomondan, hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomondan - shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan. Uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarni oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Shu o'rinda «intellekt» so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt - lotincha so'z - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga

ega ekanligidan darak beradi. Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz.

Yangi avlod vakillari - kelajagini XXI asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota-bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlarini juda tez o'zlashtirib olmoqda, jahon tillaridan bir nechtasini bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlar o'zlashtirishda qiynalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xohlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi. Hattoki, bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham o'ta tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni yechishni xohlaydi.

Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar. Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan. Psixologiyada tug'malik alomatlarini bor individual sifatlar *layoqatlar* deb yuritiladi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi, odamdagi tug'ma xususiyatlardan – oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fizilogik sifatlarini, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari – ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat – bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o'sha individga aloqador bo'lib, u ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xohlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini istashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda.

Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham, qisman layoqat va, asosan, tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. Shuni ham unutmash kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni *iqtidorli* deymiz. Iqtidor – insonning o'z xatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo'lib, o'zi shug'ullanayotgan ishni bajonidil, vijdonan bajaradi. Ana shunday odamlar o'z harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamharakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero *iste'dod* – har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi. Qobiliyatlar, avvalambor, *umumiy* va *maxsus* turlarga bo'linadi hamda har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumiy qobiliyatlari undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o'quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi. Bunda unga umumiy bilimdonlik, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko'rsatkichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi.

Har bir qobiliyat o'zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy

qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy xayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa - pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o'zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalar kiradi. Xuddi shunga o'xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

10.4. Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi.

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishini ochib berishdir. Shuning uchun ham hozirda ko'plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo'llanmoqda.

Qobiliyatlarni o'lchash muammosi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiy mohiyati shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashhur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu yerda vaqt mezonini muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar "sekin ishlashni" – qobiliyatsizlik belgisi emas deb hisoblashadi. Rus olimi E.A.Klimov qobiliyatlarni o'lchovchi ishonchli mezon katego'riyasini yaratadi va unga «Professional - diagnostik so'rovnomasi» deb nom beradi.

Mazkur so'rovnomasi shaxsning u yoki bu mashg'ulotlar turiga qiziqishini aniqlash orqali unda rivojlantirilishi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni hosil bo'lishiga yordam beradi.

10.5. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari.

Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug'ma, biologik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Chunki aslida, bir tomondan, shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan - biologik yaxlitlik, tug'ma sifatlarini o'z ichiga olgan substrat - individ hamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik - o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarini o'z ichiga oladi. Bu sifatning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Odam temperamentiga aloqador sifatning o'ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsional holatdan boshqasiga o'tgan, bir malakalarni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini

ta'minlaydi va shu nuqtayi nazardan qaraganda **temperament** – *shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emotsional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir.*

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning namoyon bo'lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o'zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o'zini turlicha tutadi: oliy o'quv yurtida talabalar safiga qabul qilganligi to'g'risidagi axborotni eshitgan bolaning o'zini tutishi, yoki hayotning og'ir sinovlari (yaqin kishining o'limi, ishdan haydalanish, do'stning xoinligi kabi) paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ikkala vaziyatni kimdir og'ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo'qotgudek darajada his-hayajon bilan boshidan kechiradi. Temperamentning shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitda o'ziga xos mavqeni egallashidagi ahamiyati juda katta. O'zini bosib olgan, hayot qiyinchiliklarini sabr-bardosh bilan ko'taradigan insonning odamlar orasidagi obro'si ham baland bo'ladi. Bu uning o'z-o'ziga nisbatan hurmatini ham oshiradi, ishga, odamlarga va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishiga imkon beradi. Temperamentning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u hayotiy voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni «yaxshi-yomon», «ahamiyatli-ahamiyatsiz» mezonlari asosida ajratishga imkon beradi. Ya'ni, temperament odamning ijtimoiy obyektlarga nisbatan «sezgirligini» tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining oshib borishiga yordam beradi.

Temperamental xususiyatlar aslida tug'ma hisoblansada, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun ma'lum ma'noda o'zgarib boradi. Shuning uchun ham tug'ilgan chog'ida sangvinikka o'xshash harakatlar namoyon qilgan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo'lmaydi. Demak, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs tizimga aloqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak.

Akademik I. Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliy nerv tizimi xossalari ajratgan edi:

kuch, ya'ni nerv tizimining kuchli qo'zg'atuvchilar ta'siriga bardoshi, shunga ko'ra odamlardagi mehnatga yaroqlilik, chidam kabi sifatlarning namoyon bo'lishi;

muvozanatlashganlik, ya'ni asabdagi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining o'zaro mutanosibliigi, shunga ko'ra, o'zini tuta olish, bosiqlik kabi sifatlarning va ularga teskari sifatlarning namoyon bo'lishi;

harakatchanlik, ya'ni qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlaridagi o'zaro almashish jarayonining tezligi va harakatchanligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, asab tizimi bilan bog'liq individual sifatlarni bilish shart, chunki ular bevosita mehnat va o'qish jarayonlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Asabga bog'liq bo'lgan tabiiy

xususiyatlarimizni umuman o'zgarmas deb aytolmaymiz, chunki tabiatda o'zgaraydigan narsaning o'zi yo'q. Shuning uchun oxirgi yillarda o'tkazilayotgan tadqiqotlarda shaxs tizimida shunday ma'qul, «hayotiy ko'rsatkichli» xususiyatlar o'rganilmoqda va unda temperamentga aloqador sifatlar ham nazarda tutilmoqda. Masalan, V.S. Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini boshqarish masalasida ko'p ishlar qilgan. Uning fikricha, insonda mavjud bo'lgan faollik, bosiqlik, emotsional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo'lishi va o'zgaruvchanligi, kayfiyatning turg'unligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo'lishi kabi qator sifatlar asosida shaxsdagi o'sha ekstroversiya va introversiya xossalari yotadi. Ularni o'zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin.

Shulardan kelib chiqqan holda, shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni o'stirishda ayni yuqoridagilarga e'tibor berish kerak. Masalan, ba'zilar xoleriklarga o'xshash qiziqqon, tezkor bo'lishadi. Ularning mehnat jarayonidagi ishini kuzatadigan bo'lsak, faollik, ishni tez bajarishga layoqat ijobiy bo'lsa, ishning sifati, uni chala tashlab ketish xavfi, ba'zi tomonlariga yuzaki qarashi kishini o'ylantiradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, hayotda sof temperament ham bo'lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas. Har bir tipning o'ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va, shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo'ladi.

10.6. Xarakter va shaxs.

Kundalik hayotimizda «xarakter» so'zini juda ko'p ishlatamiz. Uni biz doimo birovlariga baho bermoqchi bo'lsak, qo'llaymiz. Bu so'zning ma'nosini olimlar «bosilgan tamg'a» deb ham izohlashadi. Tamg'alik alomatlari o'zi nimada ifodalanadi?

Xarakter – shaxsdagi shunday psixologik, subyektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borliqqa, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o'z-o'ziga munosabatini ifodalaydi. Demak, «munosabat» kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B.F. Lomovning ta'biricha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi va uni o'rganish katta ahamiyatga ega. Munosabatlarning xarakterdagi o'rni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki komponentni ajaratadi:

a) **emotsional - kognitiv** – borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional his qilishi va o'zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi;

b) **motivatsion - irodaviy** – ma'lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz ma'lum ma'no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo'lib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo'ladi.

Mashhur rus olimi, psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan S.L.Rubinshteyn shaxsning o'ziga xosligi va xarakterologik tizimida uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan edi:

- **munosabatlar va yo'nalish** shaxsdagi asosiy ko'rinishlar sifatida - bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xohlashi;

- **qobiliyatlar** ana shu tilak-istaklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida - bu odamning nimalarga qodir ekanligi;

- **xarakter** imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg'un, barqaror tendensiyalar, ya'ni bu odamning kim ekanligi.

Bu nuqtayi nazardan qaraganda ham, xarakter shaxsning «tanasi», borlig'i, konstitutsiyasidir. Xarakterning boshqa individual-psixologik xususiyatlardan farqi shuki, bu xususiyatlar ancha o'zgaruvchan va dinamik, orttirilgandir. Shuning uchun ham maktabdagi ta'limdan oliy o'quv yurtidagi ta'limga o'tish faktining o'zi o'spirinda ma'lum va muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Umuman, konkret shaxs misolida olib qaraydigan bo'lsak, har bir alohida obyektlar, narsalar, hodisalarga mos tarzda xarakterning turli qirralari namoyon bo'lishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, uyda (katta o'zbek oilasi misolida oladigan bo'lsak) katta yoshli ota-onalar oldida o'ta bosiq, ko'nuvchan, har qanday buyurilgan ishni e'tirozsiz bajaradigan kishi, o'z kasbdoshlari orasida doimo o'z nuqtayi nazariga ega bo'lgan, gapga chechan, kerak bo'lsa, qaysar, dadil bo'lishi, ko'chada jamoatchilik joylarida beg'am, loqayd, birov bilan ishi yo'q kishiday tuyulishi, o'ziga nisbatan esa o'ta talabchan, lekin egoist, o'z-o'ziga bahosi yuqori bo'lishi mumkin. Demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, uni borliqdagi obyektlar va predmetli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham psixologiyada xarakterning quyidagi tizimi e'tirof etiladi:

- *mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan xarakterologik xususiyatlar* – mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, mas'uliyat, dangasalik, qo'nimsizlik va boshqalar;

- *insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan xarakterologik sifatlar* – odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, dilgirlik, muloqotga kirishuvchanlik, altruizm, g'amxo'rlik, rahm-shafqat va boshqalar;

- *o'z-o'ziga munosabatga aloqador xarakterologik sifatlar* – kamtarlik, kamsuqumlilik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish, o'z-o'zini tanqid qilish, ibo, sharm-hayo, manmansirash va boshqalar;

- *narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar* – tartiblilik, oqillik, saronjom-sarishtalik, qo'li ochiqlik, ziqnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlar aslida shaxsning hayotdagi yo'nalishlaridan kelib chiqadi. Chunki yo'nalish – odamning borliqqa nisbatan tanlovchan

munosabatining aks etishidir. Bunday yoʻnalish turli shakllarda namoyon boʻladi: diqqatlilik, qiziquvchanlik, ideallar, maslaklar va hissiyotlarda.

Xarakter – tarixiy kategoriya hamdir. Buning maʼnosi shuki, har bir ijtimoiy-iqtisodiy davr oʻz kishilarini, oʻz avlodini tarbiyalaydi va bu tafovut odamlardagi xarakterologik xususiyatlarda oʻz aksini topadi. Masalan, oʻtgan asr oʻzbeklari, XX asrning 50-yillaridagi oʻzbeklar va mustaqillik yillarida yashayotgan oʻzbeklar psixologiyasidagi farq, avvalo, ularning xarakterologik sifatlarida aks etadi. Aminmizki, XXI asrning yosh avlodlari yanada zukkorq, irodaliroq, maʼrifatli va maʼnaviyatliroq boʻladi. Mamlakatimizda hozirgi kunda amalga oshirilayotgan sayʼi-harakatlar yangi asr avlodining ruhan va jismonan sogʻlom boʻlishiga zamin yaratmoqda.

Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon boʻlishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir.

Avvalo xarakter insonning *xatti-harakatlari va amallarida* namoyon boʻladi – odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari uning **kim** ekanligidan darak beradi.

Nutqining xususiyatlari (baland tovush bilan yoki sekin gapirishi, tez yoki bosiq, emotsional boy yoki jonsiz) ham xarakterning yoʻnalishini belgilaydi.

Tashqi qiyofa – yuzining ochiq yoki tund ekanligi, koʻzlarining samimiy yoki johilligi, qadam bosishlari – tez yoki bosiq, mayda qadam yoki salobatli, turishi - viqorli yoki kamtarona, bularning hammasi xarakterni tashqaridan kuzatib oʻrganish belgilaridir.

Ilm olamida odamning turli tabiiy, tugʻma xususiyatlariga koʻra, uning xarakterini tavsiflashga juda koʻplab urinishlar boʻlgan. Masalan, *fizionomika* odam yuz qirralari va ularning bir-biriga nisbatini orqansa, *xiromantiya* – qoʻl barmoqlari va kaftdagi chiziqlar, koʻz rangi va qarashlar, soch va uning xususiyatlarini oʻrganadi. Juda katta shov-shuvga sabab boʻlgan **Ch.Lombrozo**, **E.Krechmer**, **U.Sheldon**larning *konstitutsion nazariyalari* shaxs xarakterini uning tashqi koʻrinishi, tana tuzilishi bilan bogʻlab tushuntirishga uringan. Ushbu nazariyalar juda qattiq tanqidga ham uchragan, lekin keltirilgan material, korrelyatsion tahlillar maʼlum jihatdan individual xususiyatlardagi tugʻma, mavjud sifatlar bilan xarakterga xos sifatlar oʻrtasidagi bogʻliqlik borligini isbot qilolgan uchun ham bu nazariyalar shu vaqtgacha oʻrganiladi.

Lekin xarakter va uning rivojlanishi, namoyon boʻlishi uchun umumiy qonuniyat shuki, u tashqi muhit taʼsirida, turli xil munosabatlar tizimida shakllanadi va sharoitlar oʻzgarishi bilan oʻzgaradi. Har bir kasb-hunar oʻzining talablar majmuasiga – kasbgrammasiga egaki, u shu kasb bilan shugʻullanayotganlarda oʻziga xos psixologik qirralar va xossalari boʻlishini taqozo etadi (psixometriya). Shuning uchun ham shifokorning, oʻqituvchining, muhandisning, harbiylarning, artistlarning va boshqalarning professional sifatleri haqida alohida gapiriladi. Ana

shu kasb sohiblari, ularning ish mobaynida ko'rsatadigan individualligi ichida esa xarakterologik o'ziga xoslik katta ahamiyatga ega va buni nafaqat shaxsning o'zi, balki uni o'rab turgan boshqalar ham yaxshi bilishlari kerak.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Shaxs strukturasi, individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi, shaxs iqtidori, qobiliyatlar diagnostikasi, tug'ma qobiliyatlar, orttirilgan sifatlar, qobiliyatlar strukturasi, qobiliyatlar diagnostikasi, temperament, faoliyatning individual xususiyatlari, xarakter va shaxs.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Shaxs strukturasi tushunchasi.
2. Shaxsning individual - tipologik xususiyatlari.
3. Shaxs iqtidori.
4. Qobiliyatlar diagnostikasi.
5. Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar.
6. Qobiliyatlarning psixologik strukturasi.
7. Temperamentning namoyon bo'lishi.
8. Xarakterning shakllanishi.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Дружинин В. Психология. Учебник. -С-Пб.: Питер, 2003.
2. G 'aybullayev N.R. va boshq. Pedagogika. Ma'ruzalar matni. -Т.: Universitet, 1999.
3. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. - Т., 2002.
4. Немов Р.С. Психология. - М.: Владос, 2003.
5. Социальная психология/Под ред. А.М.Столяренко. - М.: ЮНИТИ, 2006.
6. <http://www.myword.ru> Крайг Г. Психология развития (пер. с англ.). -С-Пб.: Питер, 2005.
7. <http://www.myword.ru> Первин Л., Джон О. Психология личности. Теория и исследования (пер. с англ.). - М.: Аспект Пресс, 2000.
8. Xaydarov F.I., Halilova N.I. Umumiy psixologiya. -Т.: TDPU, 2010. 400b.

11-MAVZU

PSIXOLOGIYADA SHAXS VA JAMIYAT MUAMMOSI

11.1. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida.

11.2. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi.

11.3. «Men» obrazi va o'z-o'zini baholash va “men-konsepsiyasi”.

11.4. O'spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi.

11.5. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar.

11.6. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli.

11.1. Shaxs ijtimoiy ta'sirlar mahsuli sifatida .

«Shaxs» psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Insonning ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Homo sapiens» – «aqli zot» tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darvin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti, ko'proq, biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy – sotsial, yani ijtimoiy omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham har bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit – bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyandalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi

mezoni ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'zni bilan belgilanishi kerak.

Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelmagan. Bu o'zaro munosabatlar, asosan, ikki polyar nuqtayi nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega deb e'tirof etadilar (Lents, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki «top-toza taxta» (tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo'lib (1632 – 1704), uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalalar bo'lishi mumkin emas, ular xohish-tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. Hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G. Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, hattoki eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida **F. Galton** qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differentsial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yordamida asoslashga harakat qildi. 1-jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan namuna keltirilgan.

1-jadval.

Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar

Ota - onalar, bolalar	musiqaga moyil	musiqaga moyil emas
Musiqaga moyil	85 %	7 %
Musiqaga moyil emas	25 %	58 %

Egizaklardagi musiqaga moyillikning korrelyatsion ko'rsatkichi ham yuqori bo'lib ($p < 0.7$), egizak bo'lmaganlardan ancha farq qiladi ($p < 0.3 - 0.4$).

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq - tonal yoki keskir - tonal bo'lmagan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish, yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi vetnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi

va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs – *ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning subyekti bo'lmish individdir.* Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorligi, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham obyekt, ham subyekt bo'lishidir.

Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (obyekt), so'ngra shu ta'sirlarning subyekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutlaq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib-qoidalarni qabul qiluvchi subyekt bo'lsa, *jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.*

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta'sirlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'siri orqali ko'plab ijtimoiy institutlar (oila, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat jamoalari (kollektivlari), norasmiy tashkilotlar, diniy, madaniyat uyushmalar va boshq.) bilan bog'liqdir. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oila, bog'cha, maktab, boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa va unda yana yangidan-yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi, o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki shifokor, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, el-u yurtiga xizmat qiladi.

o'zida mujassam eta olishi, ayollik xislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uyg'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma-bosqich bozor munosabatlariga o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash

yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi

11.2. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi.

Ijtimoiy norma – shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq-atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi – norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi – norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik – norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi – norma va hokazo. Bu normalarni ayrim – alohida odam ishlab chiqmaydi, ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, hayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyasida muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. *Ijtimoiy sanksiyalar* – normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri obyektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, jamoat transportida katta mo'ysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeh berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, «ko'zini moshday qilib ochib qo'yish» ijtimoiy sanksiyaning hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. *Rol* – shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi huquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida tahsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator huquqlar bilan birgalikda, o'sha oliygoh ichki tartib-intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirishni bajarish,

amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota-ona, yaqin qarindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli» deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va, oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. Qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda – shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechiradi. Masalan, sirdan tahsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshlig'i, talaba, ota-onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa – chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu tabiiy holat va u shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, axloqi, ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati, uning o'ziga ham bog'liqdir. Odanning o'z-o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi, avvalo, uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Yani, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq-atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari, ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqei tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz – «Men» obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

«Men» obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qil olsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni, ko'pincha, konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (Avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni, ko'pincha, turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Men» obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgarlar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgarlarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada **refleksiya** deb ataladi. *Uning mohiyati* - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «mahmadona, laqmaroq» bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun «O'rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgari refleksiyaning natijasidir. Ya'ni, suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko'rinyapman?») – refleksiyaadir.

Shaxsning o'zi haqidagi obrazi va o'z-o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish, ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan «kattalik» hissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat

o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. Qizlardagi «Men» obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan «Men» obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdan go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor-yo'qligiga bog'liq holda «Men» obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar, yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa-da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

11.3. «Men» obrazi va o'z-o'zini baholash. “Men-konsepsiyasi”.

«Men» obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. **O'z-o'ziga nisbatan baho** turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida, aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning o'zi subyektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z-o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u subyektiv xarakterga egadir.

O'z-o'ziga baho nafaqat haqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi, ko'pincha, atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqchiligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Hattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borlig'idan «qochishga» intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'z-o'ziga o'ta yuqori baho ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki u shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtovlar, turli qiyinchiliklarni

chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat «noadekvatlik effekti» deb atalib, uning oqibatida shaxs, hattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, o'quvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, «halaqit berdi-da», «falonchi bo'lmaganida» kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, nimaki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar «oyog'i yerdan uzilgan», «manmansiragan», «dimog'dor» kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar – ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, kerak bo'lsa, o'z vaqtida to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi – **referent** guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning oddiygina tanbehlari, maslahatlari, hattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, xayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z-o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiyki, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z-o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o'z-o'zini baholash o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa quyidagilar kiradi:

1. o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya obyekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifati);
2. o'z-o'zini ishontirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);

3. o‘z-o‘ziga buyruq berish (tig‘iz va ekstremal holatlarda o‘zini qo‘lga olish va maqbul yo‘lga o‘zini chorlay olish sifati);

4. o‘z-o‘ziga ta’sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o‘zida ma’qul ustanovkalarni shakllantirish);

5. ichki intizom o‘z-o‘zini boshqarishning muhim mezoni (har doim har yerda o‘zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korrektsiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat).

Yuqoridagi o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtayi nazardan o‘z-o‘zi bilan amalga oshiriladigan **ichki dialog** alohida o‘rin tutadi. *O‘z-o‘zi bilan dialog* – oddiy til bilan aytganda, o‘zi bilan o‘zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulativ rol o‘ynaydi. E. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko‘rsatib o‘tadi.

2-jadval.

Shaxs autodialogining muhim belgilari

Ichki dialogning shakllanganlik darajasi	Bosqichlari	Ichki dialogning darajaviy belgilari (autokommunikatsiya)
Oliy	<i>6-bosqich</i>	Shaxsiy mazmundagi dialog (o‘zidagi shaxsiy sifatlarni muhokama qilish, shaxsiy mulohaza)
Daraja	<i>5-bosqich</i>	Hodisa va narsalarga bog‘liq bo‘lgan sifatlarning xususidagi ichki dialog
O‘rta	<i>4-bosqich</i>	Shaxsiy sifatlarning muhokamasiga qaratilgan savollar, o‘ziga talablar
Daraja	<i>3-bosqich</i>	Boshqalarning baholari ta’siridagi ichki mulohazalar, shaxsiy ahamiyat kasb etgan o‘zgalar fikrlari asosida ichki dialog
Quyi	<i>2-bosqich</i>	Shaxsiy sifatlarga aloqador bo‘lmagan o‘zgalar fikrlari asosidagi dialog (hodisa va narsalarga aloqador fikrlar)
Daraja	<i>1-bosqich</i>	Kimdir nima haqidadir gapirishi mumkin bo‘lgan holatlar yuzasidan tasavvurlar, lekin aniq fikr yoki munosabat yo‘q. Autokommunikatsiyaga hojat yo‘q.

2-jadvalda shaxs ichki dialogining bosqichlari va har bir bosqichga xos bo‘lgan belgilar keltirilgan.

Demak, qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning obyektivligiga bog‘liq tarzda shaxs o‘z-o‘zi bilan muloqotga kirishib, jadvaldagiga muvofiq o‘zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa-da, o‘ziga xolis

baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi. Shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o'z «ich-etini yeb tashlaydi». Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

Har birimiz murakkab va betakror mavjudotmiz. Fikran o'zimizga "**men kimman?**" deb savol berib ko'rsak, albatta, bu savolga bir iehta javob topamiz. Bizning mazkur savolga bergan har bir javobimiz "**Men-strukturasi**"ni, barcha javoblarimiz birgalikda esa "**Men-konsepsiyasi**"ni tashkil etadi. Biz, ko'pincha, atrofimizdagi boshqa odamlarni ham o'zimizning shaxsiy "**Men-konsepsiya**"mizdan kelib chiqqan holda idrok etamiz. "Men-konsepsiya" tarkibiga struktura sifatida "Men-ehtimollik" ham kirishi mumkin. "Men-ehtimollik" inson orzu-umidlari va qo'rquv-xatarlari bilan bog'liq bo'lib, uning shaxs sifatida shakllanishida katta ahamiyatga ega. Chunki "Men-ehtimollik" insonning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga intilishini motivatsiyalovchi kuch hisoblanadi.

"Men-konsepsiya" keng ma'noda madaniyat bilan chambarchas bog'liq holda shakllanadi. Chunki «Men-konsepsiya»ning shakllanishi shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ajralmas qismidir. Sir emaski, G'arb madaniyati vakillari ko'pincha "mening shaxsiy muvaffaqiyatlarim, mening erkinligim, mening huquqlarim" kabi iboralarni ishlatadilar. Bu "Men-konsepsiya"sining **mustaqil** turi bo'lib, Shimoliy va Markaziy Amerika, G'arbiy Yevropa va Avstraliya mintaqalarida yashovchi kishilarga ko'proq xosdir. Sharq madaniyati vakillarining nutqi esa ko'pincha "mening oilaviy majburiyatlarim, mening boshqalar bilan munosabatlarim, mening jamiyat oldidagi burchim" kabi iboralarni o'z ichiga oladi. Bu "Men-konsepsiya"sining ikkinchi - **o'zaro tobelik** turiga xoslik alomati bo'lib, ko'proq Osiyo, Sharqiy Yevropa, Afrika va Janubiy Amerika mintaqalari aholisi mazkur "Men-konsepsiya"sigamansubdir.

"Men-konsepsiya" o'z-o'zini anglash jarayonining natijasi sifatida shaxs strukturasi tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli shakllangan "Men-konsepsiya"sini o'zgartirish shaxs strukturasi o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Ammo turli sabablarga ko'ra kishi o'zi yashab turgan madaniy muhitini uzoq muddatga o'zgartirsa, quyidagi maslahatlarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

G'arb madaniyati vakili sharq madaniyati muhitiga tushib qolgan taqdirda:

- konfrontatsiya (qarama-qarshilik)dan qochishi;
- davomiy (uzoq muddatli) o'zaro munosabatlarni shakllantirishga harakat qilishi, shaxslararo munosabatlarning qisqa vaqt davomida paydo bo'lishini kutmasligi;
- o'zini tanishtirganda kamtarroq bo'lishi;

– guruhiy ierarxiyada (mavqelar pog‘onasida) odamlarning tutgan o‘rni bilan qiziqishi;

– o‘zining shaxsiy ijtimoiy mavqeini belgilashi lozim.

Sharq madaniyati vakili g‘arb madaniyati muhitiga moslashish jarayonida:

– odatdagidan ko‘ra erkinroq tanqid qilishi;

– salomlashuv jarayonini qisqartirib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsadga o‘tishi;

– o‘zining malaka va yutuqlarini ko‘rsatishi;

– suhbatdoshining ijtimoiy mavqei va qaysi guruhga mansubligidan ko‘ra uning shaxsiy sifatlariga ko‘proq ahamiyat berishi zarur.

Yuqorida qayd etilganidek, inson o‘z-o‘zini programmashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan yagona tirik mavjudot hisoblanadi. **Biror bir faoliyatda insonning o‘z kuchi va bilimiga ishonch hissi «men-natijaviylik» deb ataladi.** Shaxsning o‘z-o‘zini konstruktiv programmashtirishi bevosita «men-natijaviylik» bilan bog‘liq bo‘lib, bu his insonning shaxs sifatida shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlarning isbotlashicha, «men-natijaviylik» darajasi yuqori bo‘lgan odamlar boshqalarga nisbatan ko‘proq maqsadga intiluvchan, depressiyaga kamroq chalinuvchan bo‘lishadi. Masalan, o‘zingizning ijobiy imkoniyatlaringiz haqida o‘ylab ko‘ring, shunda biror bir ishni rejalashtirish va bu rejani amalga oshirish borasidagi harakatlaringiz ham muvaffaqiyatliroq amalga oshayotganini sezasiz. «Men-natijaviylik» darajasi, ko‘pincha, shaxsning o‘z muvaffaqiyatsizliklarini qanday izohlashi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shaxsiy muvaffaqiyatsizlik uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oluvchi shaxslar **ichki nazorat lokusi** egalari, shaxsiy muvaffaqiyatsizliklarini tashqi ta’sirlar va hodisalar bilan izohlovchi odamlar esa, **tashqi nazorat lokusi** egalari hisoblanadi. **Nazorat lokusi odamlarning o‘z hayotini shaxsiy intilishlar vositasida ichidan nazorat qilishi yoki tashqi kuchlar va hodisalar ta’sirida tashqaridan nazorat qilishini idrok etishi darajasidir.**

Inson hayoti davomida shunday davrlar bo‘ladiki, muvaffaqiyatsizliklar va ko‘ngilsiz hodisalar ketma-ket takrorlanadi. Shunda ba’zilar o‘z hayotlarida ro‘y berayotgan ko‘ngilsiz hodisalar uchun shaxsiy javobgarlikdan qochib, ongli ravishda, o‘z hayotlarini nazoratsiz qoldiradilar. Ko‘pincha, bunday kishilar o‘z shaxsiy hayotlariga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishga ko‘nika boradilar. Mazkur ko‘nikmaning paydo bo‘lish hodisasi **orttirilgan ijtimoiy zaiflik** deb ataladi. Bundan xulosa qilib aytish mumkinki, **jamiyatda shaxslarning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini qo‘llab-quvvatlovchi boshqaruv tizimlari jamiyat a’zolarining haqiqatda sog‘lom va baxtli bo‘lishini ta’minlaydi.**

Odamlar o‘zlarining shaxsiy xatolarini osonlik bilan kechirishga, yutuqlari uchun maqtovlarni esa tayyorlik bilan qabul qilishga hamda, ko‘pincha, o‘zlarini o‘rtachadan yuqori baholashga moyil bo‘ladilar. Bu shaxsan o‘zimizga tegishli

bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlash va idrok qilish jarayoniga **shaxsiy «menlik» foydasiga moyillik** fenomenining aralashuvi oqibatidir. Masalan, yo'l harakati qoidalarini buzgan haydovchi yuz bergan vaziyatni o'z foydasidan kelib chiqqan holda tushuntirishga harakat qiladi. Shaxsning o'z-o'zini baholash jarayonida shaxsiy «menlik» foydasiga moyilligi subyektiv parametrlar orqali baholashda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, o'zimizni ma'lum bir tanishimiz bilan emas, balki «umuman odamlar» bilan taqqoslaganimizda yoki o'zimizni aniq bir ko'rsatkich (masalan, maxsus qobiliyatlar) bo'yicha emas, balki umumiy ko'rsatkichlar (masalan, aqllilik) bo'yicha baholaganimizda, bu taqqoslash yoki baholash ko'proq bizning foydamizga hal bo'ladi. Mazkur fenomenning ijtimoiy guruh ichida namoyon bo'lishi, ayniqsa, xavfli bo'lib, yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xususan, bu haqda Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va oqibatlarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tadqiq qilgan olim Gordon U.Ollport shunday deb yozgan edi: "1938-yilda avstriyaliklar Gitler hech qachon Avstriyaga kirmaydi, deb ishonar edilar; chunki ular avstriyaliklar germaniyaliklardek emas, deb umid qilgan edilar". Afsuski, tarix shuni ko'rsatdiki, A.Gitler Avstriyani nisbatan osonlik bilan bosib oldi; demak, avstriyaliklar mazkur vaziyatda o'zlarining germaniyaliklardan farq qilmasliklarini namoyon qildilar.

Ba'zan shaxs oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lida o'ziga-o'zi to'siqlar yaratishi mumkin. Bu hodisa mazkur vaziyatda shaxsning «menatijaviylik» ko'rsatkichi pastligi hamda shaxs iloji boricha o'z-o'zini baholashning o'rtachadan yuqori ko'rsatkichini saqlab qolishga harakat qilayotgani sababli ro'y beradi. Agar bunday vaziyatda shaxs o'z maqsadlariga erisha olmasa, muvaffaqiyatsizlik sababini mazkur to'siqlar bilan izohlab, o'zini adekvatdan yuqori baholash darajasini «saqlab qoladi»; mabodo, muvaffaqiyatga erishsa, shaxsning o'z-o'zini adekvatdan yuqori baholash darajasi yanada mustahkamlanadi.

Ko'pincha, muvaffaqiyatsizlikka uchrasak, «kim ham xato qilmaydi?» deb, o'zimizga taskin beramiz. Yoki davlat soliqlarini o'z vaqtida to'lmasak, «hamma ham shunday qilyapti-ku» deymiz. Bu hollarda shaxsiy kamchilik va xatolarni «soxta umumlashtirish (konsensus)» effekti namoyon bo'ladi. Agar muvaffaqiyatga erishsak yoki ma'lum vaziyatlarda to'g'ri yo'l tutsak (masalan, davlat soliqlarini o'z vaqtida to'lasak) «soxta betakrorlik (yagonalik)» effekti ko'zga tashlanadi. Bu effektlarning namoyon bo'lishi shundan dalolat beradiki, ko'pincha, **odamlar o'zlarining xato va kamchiliklarini tabiiy hol deb, shaxsiy yutuqlarini esa bebaho hodisa deb baholashga moyil bo'ladilar.**

Ba'zan tanishlarimiz atrofdagi odamlarda o'zlari haqida haqiqatdan uzoq, butunlay boshqacha taassurot qoldirganlarining guvohi bo'lamiz. Buning yorqin misoli - soxta kamtarlik. Bu hodisaning mohiyatini o'z-o'zini taqdim qilish

tushunchasi bilan izohlash mumkin. **O‘z-o‘zini taqdim qilish shaxsning atrofidagi odamlarda o‘zi haqida yaxshi yoki kutilgan taassurot paydo qilishga yo‘naltirilgan xatti-harakati** bo‘lib, bu ijtimoiy hodisa shaxsning «Men-konsepsiya»si bilan uzviy bog‘liq. Masalan, yaponlar o‘z-o‘zini taqdim qilish jarayonida amerikaliklarga nisbatan o‘zlarini kamtarroq tutadilar, biroq shaxsiy «menlik» foydasiga moyillik har ikki toifadagi «Men-konsepsiya» vakiliga ham xos.

Biz o‘zimiz haqimizda yaxshi taassurot paydo qilish bilangina cheklanib qolmay, balki ijtimoiy vaziyatlarda o‘z-o‘zini taqdim qilish usullarini ham o‘rganamiz. **Shaxsning ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini boshqalarga taqdim qilish usullarini o‘rganishi hamda istalgan taassurotlarni paydo qilish maqsadida o‘z xatti-harakatlarini tartibga solish hodisasi shaxsiy monitoring deb ataladi.** Shaxsiy monitoring darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar, ko‘pincha, atrofidagi odamlarning o‘zlari haqidagi fikr-mulohazasini hisobga olgan holda ish tutishga moyil bo‘ladilar. Ular yangi vaziyat yoki ijtimoiy rollarning o‘zgarishiga tezroq ko‘nikadilar. Shu sababdan ularni «ijtimoiy xameleonlar» deb atash mumkin. Shaxsiy monitoring darajasi past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shaxslar esa, aksincha, atrofidagi odamlarning ular haqidagi fikr-mulohazalariga deyarli befarq bo‘ladilar.

11.4. O‘spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi.

Shaxs, uning dunyoni bilishi, o‘zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilishi, tushunishi va o‘zaro munosabatlar jarayonida o‘zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog‘liq ayrim jihatlarini tahlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs - jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya’ni, u tug‘ilgan onidan boshlab o‘ziga o‘xshash insonlar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potentsiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o‘ziga o‘xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko‘rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, har birimizning jamiyatdagi o‘rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo‘lgani, jamiyatga qo‘shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada *ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya* deb yuritiladi.

Demak, sotsializatsiya yoki *ijtimoiylashuv* – inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot-faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv – har bir shaxsning jamiyatga qo‘shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta’sirini qabul

qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi, shu ijtimoiy tajribasi bilan, o'z navbatida, o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv, eng avvalo, odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtayi nazaridan turlicha subyektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10-15 ta o'quvchidan iborat akademik litsey o'quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota-onalarining kutishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o'quvchining har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatkichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama-qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart-sharoitlarini *ijtimoiy institutlar* deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog'cha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi.

Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda *oila va mahallaning* roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, *oilaviy munosabatlar* tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «Qush uyasida ko'rganini qiladi» degan maqol bor. Ya'ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda *mahalla* ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqlli, sarishtali bo'lib yetishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha - eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni buzmaydilar. Shunga o'xshash normalar tizimi har bir ko'chamahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo'layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga *maktab va boshqa ta'lim maskanlari* kiradi. Aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda biz ataylab tashkil etilgan, oxirgi yillarda joriy etilgan «Ma'naviyat darslari», «Etika va psixologiya» kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiydek. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim-boshi, mavzuga subyektiv munosabati va, qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtayi nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks holda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va bahslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit, tabiiyki, o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti – bu *mehnat jamoalaridir*. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan, qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha, oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning o'ziga xosligi shundaki, unda individualizatsiya jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta'sirlarni o'zlashtiradi, balki o'zidagi iqtidor, malakalar bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta'sir, shaxsiy o'rnak ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, qarilikning ijtimoiy mohiyati shundaki, ota-

bobolarmiz, onaxonlarimiz, asosan, o'zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va hokazo) uzatish bilan shug'ullanadilar va bu narsa, ayniqsa, Sharq xalqlarida juda qadrlanadi. Shu sababli ham mustaqil yurtimizda qariyalar e'zozlanadi, mahallaning boshqaruv roli kun sayin oshirilmoqda, oila - tarbiyaning bosh o'chog'i sifatida davlat himoyasida bo'lib kelmoqda. Bu mustaqil davlat yoshlarida yangicha tafakkur va ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlikning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

11.5. Shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini o'zgartiruvchi omillar.

Ijtimoiylashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, shaxsning yo'nalganligi masalasiga ham fanda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi.

Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi:

Mas'uliyat. Bu ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatkichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada nazorat lokusi nazariyasi (теория локуса контроля) keng tarqaldiki, unga ko'ra, har bir insonda ikki tipli mas'uliyat kuzatiladi. Birinchi tipli mas'uliyat shundayki, shaxs o'zining hayotida ro'y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas'uli sifatida faqat o'zini tan oladi. («Men o'zim barcha narsalarga mas'ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o'zimga bog'liq, shuning uchun o'zim uchun ham, oilam uchun ham o'zim javob beraman»). Mas'uliyatlikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro'y bergan va beradigan voqea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota-ona, o'qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshq.).

Xorij mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ikkinchi turli mas'uliyat ko'proq o'smirlarga xos bo'lib, ulardan 84% mas'uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma'lum ma'noda yoshlar o'rtasida mas'uliyatsizlikning avj olganligidandir. Shuning uchun ham «nazorat lokusi» tushunchasini fanga kiritgan amerikalik olim Dj. Rotter (J. Rotter)ning fikricha, mas'uliyatni o'z bo'yniga olishga o'rgatilgan bolalarda xavotirlik, neyrotizm, konformizm holatlari kam uchrarkan. Ular hayotga tayyor, faol, mustaqil fikr yurituvchilardir. Ularda o'z-o'zini hurmat qilish hissi yuqori bo'lib, bu boshqalar bilan ham hisoblashishga, yashashga sira xalaqit bermaydi. Shuning

uchun ijtimoiylashuvning muhim bosqichi kechadigan ta'lim muassasalarida yoshlarga ko'proq tashabbus ko'rsatish, mustaqil fikrlash va erkinlikni his qilishga sharoit yaratish kerak va bu hozirgi kunda Prezidentimiz I. Karimov siyosatining asosini tashkil etadi.

Maqsadlar va ideallar. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish, uzoq va yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson – ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnashishida ma'lum ma'noda ideallar ham rol o'ynaydi. Ideallar – shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu-umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo'lishiga sabab bevosita tashqi muhit bo'lib, o'sha ideallar obyekt bilan shaxs imkoniyatlari o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, o'smirning ideali otasi, u otasiday mashhur va el suygan yozuvchi bo'lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo'lmaydi, lekin aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi.

Qiziqishlar va dunyoqarash. Qiziqishlar ham anglangan motivlardan bo'lib, ular shaxsning atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, odamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plashi, ularni o'rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo'lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini shakllantirishga asos bo'ladi. Chunki *e'tiqod* shaxsning shunday ongli yo'nalishiki, unga o'z qarashlari, prinsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Xalq doimo e'tiqodli insonlarni hurmat qiladi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin – Vatanga e'tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go'zallikka va shunga o'xshash.

E'tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. ***Dunyoqarash*** – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bo'lib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'lga - kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddur.

11.6. Milliy va ma'naviy qadriyatlarning roli.

Dunyoqarash – shaxsning shaxsligini (individ emas), uning ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi darajasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir. Shuning uchun ham uning shakllanishi va o'zgarishi masalasi muhim masalalardan bo'lib, hamma vaqt va davrlarda ham o'ta dolzarb bo'lib kelgan. O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, jamiyatda tub islohotlar boshlandi. Ana shu islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri – ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a'zolari dunyoqarashini istiqlol ruhida shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi. Davlatimizning yoshlar borasidagi siyosatining asosini ham ularda yangicha hurfikrlilik bilan yangicha dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu o'rinda psixologiya o'zgarishlar sharoitida e'tiqod, dunyoqarash va ideallar o'zgarishiga sabab bo'luvchi omillar xususida quyidagilarni ajaratadi:

1. Ma'naviyat va ma'rifat. Avvalo ma'rifat xususida. Bu - odamning tabiat, jamiyat va insonlar to'g'risidagi turli bilimlari, tushunchalari, ma'lumotlari majmui bo'lib, uning mazmuni bevosita shaxs dunyoqarashining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Demak, yoshlarga qaratilgan va ular o'qib, o'rganishi uchun yo'naltirilgan barcha turdagi ma'lumotlar (kitoblar, ommaviy axborot vositalari orqali, muloqot jarayonida), ular asosida shakllanadigan yangicha tasavvurlar yangicha dunyoqarash uchun zamindir. Mustaqillik yillarida eski, o'zini tarix oldida oqlamagan mafkuradan voz kechildi, yangi mustaqillik g'oyasi, uning asosiy tamoyillari, yoshlarni ma'rifatli qilish borasidagi vazifalar davlatimiz rahbari I.A. Karimov asarlarida muxtasar, aniq bayon etilgan. Ular asosida mamlakatimizda yangi «Ta'lim to'g'risidagi Qonun» va «Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi» qabul qilindi. Ular yoshlarni eng ilg'or ilm-fan yutuqlaridan boxabar qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o'rganish, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish, ularni ma'rifatli qilishning barcha shart-sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi. Bu say'i-harakatlar ma'naviyat borasidagi islohotlar, o'zbek madaniyati, san'ati, adabiyotini rivojlantirish ishlari, tariximizni tiklash borasida amalga oshirilayotgan olamshumul ishlar, yoshlarimizda yangicha dunyoqarashning shakllanishiga asos bo'ladi.

2. Oila. Yurtimizda oila hamisha davlat himoyasida va oliy qadriyat sifatida e'zozlanadi. Oila ijtimoiylashuvning asosiy va muhim o'chog'i bo'lgani uchun ham uning shu muhitda tarbiyalanayotgan yoshlar e'tiqodi va dunyoqarashidagi roli sezilarlidir. Respublikamizda «Oila» yili deb e'lon qilinishi, «Oila» ilmiy-amaliy markazi o'z faoliyatini boshlashi jamiyatda, yoshlar tarbiyasi borasida oilaning roli va mas'uliyatini oshirishga qaratilgan muhim tadbir bo'ldi va ularda yurtga, Vatanga, yaqinlarga sadoqat, muhabbat

hislarini tarbiyalash orqali dunyoqarashlari mazmuniga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

3. Mafkura. Har bir davrning o'z mafkurasi bo'ladi va u shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida uning ongiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan hisoblanadi. Kommunistik mafkuradan batamom voz kechgan jamiyatimizda yangi mustaqillik mafkurasi shakllanmoqda. Zero, mafkura jamiyat a'zolarining tabiat, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar xususidagi g'oyalari, bilimlari majmui bo'lib, har bir ijtimoiy guruh o'z e'tiqodiga mos mafkurani tanlaydi. Mustaqillikdan ruhlangan, uning moddiy va ma'naviy ne'matlaridan bahramand bo'layotgan o'zbekistonliklar o'tgan qisqa vaqt mobaynida uning qadriyatlarini, har bir shaxsga yaratilayotgan cheksiz imkoniyatlari, ilm va bilim borasidagi shart-sharoitlarni anglab, o'zlari ongli ravishda ana shu tuzumga sadoqat va uni sevishtirish, ardoqlash va himoya qilishga tayyorlik falsafasini shakllantirmoqdalar. Yangi mafkura mustaqillik va milliy qadriyatlar g'oyasi ta'sirida shakllanmoqda va bu, birinchi navbatda, yoshlar dunyoqarashini o'zgartiruvchi muhim shartdir.

4. Ijtimoiy ustanovkalar. Sof psixologik ma'noda yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ijtimoiy psixologik mexanizm - ijtimoiy ustanovkalardir. Bu – shaxsning atrof muhitida sodir bo'layotgan ijtimoiy hodisalarni, obyektlarni, ijtimoiy guruhlarni ma'lum tarzda idrok etish, qabul qilish va ular bilan munosabatlar o'rnatishga ruhiy ichki hozirlik sifatida odamdagi dunyoqarashni ham o'zgartirishga aloqador kategoriyadir.

Rus olimi V.A. Yadov o'zining dispozitsion konsepsiyasini yaratib, unda ustanovkalarni to'rt bosqich va to'rt tizimli sifatida tasavvur qilgan.

A) elementar ustanovkalar (set) – oddiy, elementar ehtiyojlar asosida, ko'pincha, ongsiz tarzda hosil bo'ladigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun moddiy shart-sharoitlarni va odamdagi ehtiyojlar tizimini o'zgartirish kifoya; B) ijtimoiy ustanovkalar (attitud) – ijtimoiy vaziyatlar ta'sirida ijtimoiy obyektlarga nisbatan shakllanadigan ustanovkalar. Ularni o'zgartirish uchun ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning ularga nisbatan baho va munosabatlari tizimini o'zgartirish kerak; D) bazaviy ijtimoiy ustanovkalar - ular shaxsning umumiy yo'nalishini belgilaydi va ularni o'zgartirish e'tiqodlar va dunyoqarashlarni o'zgartirish demakdir; E) qadriyatlar tizimi – ular avlodlararo muloqot jarayonining mahsuli sifatida jamiyatda qadr-qimmat topgan narsalarga nisbatan ustanovka. Masalan, sahih hadislar shunday qadriyatlarki, biz ularni tanqidsiz, muhokamalarsiz qabul qilamiz, chunki ular ham ilohiy, ham eng buyuk insonlar tomondan yaratilgan va avloddan avlodga o'z qadrini yo'qotmay kelmoqda.

Ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning eng sodda va qulay yo'li - bu ayni vaziyatlar va ulardagi ta'sirlarni **qaytarishdir**. Bu qaytarish qayd qilingan obraz sifatida inson ongida uzoq muddatli xotirada saqlanadi va vaziyat paydo bo'lganda, *obyektivlashadi*, ya'ni o'z kuchini va mavjudligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham

agar chet el tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, u yerda biror g'oyani onga singdirish uchun bir odam yoki biror guruh o'z siyosiy, mafkuraviy yoki boshqa qarashlarini bir xil so'zlar va iboralar, harakatlar bilan qaytaraveradi va shu yo'l bilan ko'pchilikning ma'qullashiga erishadi. Ayniqsa, saylovoldi tadbirlarida ana shu usul keng qo'llaniladi. Shunday ekan, demak, ijtimoiy ustanovkalarni o'zgartirishning usullari va psixologik vositalari orqali ham dunyoqarashni o'zgartirishga erishish mumkin.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Shaxs, jamiyat, boshqaruv, qonuniyatlar, "Men" obrazi, "Men-konsepsiyasi", Sharq va G'arb "Men-konsepsiyasi", "Men-taqdimot", "Men-monitoring", madaniyat, qadriyatlar, dunyoqarash, nazorat lokusi, baholash mezon, ijtimoiy norma va sanksiyalar, "shaxs bo'lish" ehtiyoji.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. "Shaxs va jamiyat" o'zaro munosabatlarini o'rganishning dolzarbligi. Shaxsning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy qiyofasi va uning shakllanish shartlari.

2. Jamiyat boshqaruvidagi ijtimoiy - psixologik qonuniyatlarning ahamiyati.

3. Ijtimoiy olamda «Men- konsepsiyasi». O'z-o'zini idrok etish jarayonining ijobiy va salbiy jihatlari.

4. «Mustaqil» (G'arb) «Men – konsepsiyasi» va «O'zaro tobelik» (Sharq) «Men - konsepsiyasi».

5. "Nazorat lokusi" nazariyasi.

6. "Muvaffaqiyatga erishish" va "ijtimoiy zaiflik" tushunchalari.

7. O'z-o'zini baholash darajalari.

8. "Men-monitoring" – ijtimoiy taassurotlar ustidan rahbarlik qilish jarayoni sifatida.

9. Shaxs dunyoqarashi va ma'naviyatini shakllantirish omillari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. - С-Пб.: Питер, 2001.

2. Дружинина В. Психология. Учебник. - СПб.: Питер, 2003.

3. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. -T. 2002.1-2 kitob.

4. G'oziyev E.G. Toshimov R. Menejment psixologiyasi. – T., 2001

5. G'oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. -T., 2001.

6. Майерс Д. Социальная психология. - СПб., 1997.

7. Психология. Уч.Т.2. - М.: Проспект, 2004.

8. Радугин А.А. Психология и педагогика. -М.: Изд-во Центр, 2003.

9. Гамильтон. Я.С. "Что такое психология?". - С-Пб.: Питер, 2002.

10.Хайдаров F.I., Halilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2010. 400b.

12 - MAVZU XULQ-ATVOR VA USTANOVKALAR. IJTIMOIY MULOHAZALAR

12.1. Ustanovka –shaxsning obyektga nisbatan psixologik tayyorgarligi.

12.2. “Eshik orasidagi oyoq” fenomeni va “tuzoqqa ilintirish” texnikasi. Ijtimoiy mulohazalar va atributsiya nazariyasi.

*O‘ylash oson, harakat qilish qiyin, fikrlarnt
amalga oshirish esa dunyodagi eng qiyin ish.*

Gyote

12.1. Ustanovka – shaxsning obyektga nisbatan psixologik tayyorgarligi.

Ijtimoiy psixologiyada ustanovka tushunchasi insonning odamlar, jonli va jonsiz obyektlar, tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar bilan bir tomonlama psixologik aloqalarini belgilash uchun qo‘llaniladi.

Ustanovka - shaxsning obyektga nisbatan oldingi tajribasidan kelib chiqqan holda ma’lum bir munosabat ko‘rsatishga psixologik tayyorlik holati bo‘lib, u fikrlarda, his-tuyg‘ularda va xatti-harakatlarda ifodalanadi. Bu ta’rifdan kelib chiqib, ustanovkalarining uchta o‘zaro bog‘liq komponentini belgilash mumkin: kognitiv (bilish), affektiv (his qilish) va xatti-harakat. Ustanovkaning kognitiv komponenti biror bir obyektga nisbatan fikrlarda, masalan, mazkur obyektning xossalari, nimaga mo‘ljallanganligi, uni qo‘llash usullarini bilishda namoyon bo‘ladi. Ustanovkaning affektiv komponenti obyektga nisbatan paydo bo‘lgan his-tuyg‘ularda, «yoqadi – yoqmaydi» kabi yoki ambivalent (betaraf) munosabatda namoyon bo‘ladi. Xatti-harakat komponenti ustanovka obyektiga bilan aniq bir faoliyatni amalga oshirishga tayyorlikda ifodalanadi.

Ustanovka tevarak-atrofimizdagi olamga baho berishning samarali usulidir. Atrofdagi odamlar yoki voqea-hodisalarga nisbatan qisqa vaqt ichida javob qaytarish yoki his qilayotgan tuyg‘ularimizni tezlikda namoyon etish lozim bo‘lgan vaziyatlarda ustanovkalar xatti-harakatlarimizni belgilab beradi. Ustanovkalarining asosiy funksiyasi ijtimoiy xulq-atvorni muvofiqlashtirishdan iborat. Ammo inson har doim ham o‘ylagan fikrlarini amalga oshiravermaydi, uning fikrlari bilan xatti-harakatlari orasida, ko‘pincha, sezilarli nomutanosiblik kuzatiladi. Bu esa odamning xatti-harakatlari uning ustanovkalari bilan belgilanadi, degan taxminning unchalik to‘g‘ri emasligini tasdiqlaydi. Shuning uchun ham ustanovkalarni o‘zgartirish orqali odamlarning xulq-atvoriga ta’sir etishga yo‘naltirilgan harakatlar, ko‘pincha, muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Masalan, tamaki chekishning xavfli oqibatlari haqidagi ogohlantirishlar kashandalarning chekishga bo'lgan munosabatini o'zgartirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Xo'sh, qanday sharoitlarda ustanovkalar xatti-harakatni belgilab beradi? Buning uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi lozim:

- tashqi ta'sirlar kamaytirilganda;
- ustanovka bilan xatti-harakat mos kelganda;
- ustanovka kuchli bo'lsa.

Ba'zi hollarda xulq-atvor ham ustanovkalarni belgilashi mumkin, masalan, biz o'zimiz sodir etgan xatti-harakatlarning sabablarini keyinroq anglab yetamiz.

Shaxsning jamiyatdagi xatti-harakatlarini u «ijro etayotgan» ijtimoiy rollar ham belgilab beradi.

Ijtimoiy rol- shaxsning ijtimoiy mavqeiga mos keladigan xulq-atvorini belgilab beruvchi me'yorlar to'plami.

Inson hayoti davomida ko'plab ijtimoiy rollarni bajaradi. «Hayot –sahna, har birimiz unda rol o'ynovchi aktyorlarmiz» (V.Shekspir).

Yangi ijtimoiy rolga kirish paytida shaxsning o'z-o'zini anglash darajasi ortadi, chunki u hali o'zi ko'nikmagan yangi vaziyatga mos keluvchi nutq va xatti-harakat xususiyatlariga ko'proq e'tibor bera boshlaydi. Ijtimoiy rolga kirgandan so'ng esa shaxsda yangi rolga nisbatan tegishli ko'nikma hosil bo'ladi va shaxsning o'z-o'zini nazorat qilishi, oqibat natijada, o'z-o'zini anglashi susayadi.

12.2. “Eshik orasidagi oyoq” fenomeni va “tuzoqqa ilintirish” texnikasi. Ijtimoiy mulohazalar va atributsiya nazariyasi.

Ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy rollar haqida fikr yuritganda «**eshik orasidagi oyoq**» **hodisasiga** to'xtalib o'tish lozim. Bu hodisaning mohiyati shundan iboratki, avvaliga arzimagan kichik iltimosni bajarishga rozi bo'lgan kishi keyinroq ancha jiddiy talablarni ham bajarishi mumkin. Mazkur hodisa kishilar orasidagi moliyaviy va jinslararo munosabatlarda, shuningdek, siyosatda, ayniqsa, ko'p kuzatiladi. Uni amalga oshirishda «**tuzoqqa ilintirish**» **texnikasi** qo'llaniladi. Birinchi kichik iltimosni rad etmagan kishi, ko'pincha, bajarilishi murakkab bo'lgan talablarga ham «yo'q» deya olmaydi.

Shuning uchun birinchi iltimos qanchalik jiddiy bo'lsa, uning rad etilish ehtimoli shunchalik yuqori bo'lishini unutmaslik lozim.

Bizning atrofimizdagi odamlarga nisbatan bo'lgan munosabatimiz hamda ijtimoiy mulohazalarimiz ularning xatti-harakatini qanday talqin qilishimiz bilan uzviy bog'liq. Atrofimizdagi odamlarning xulq-atvorini tushunishga harakat qilar ekanmiz, o'zimizga savol beramiz: nega ular o'zlarini boshqacha emas, aynan shunday tutyaptilar? Masalan, agar ishlab chiqarish ko'rsatkichi pasayib

ketsa, buning sababi ishchilarning dangasaligimi yoki dastgohlarning samaradorligi kamayganimi? Yoki bola sinfdoshlari bilan mushtlashsa, buning sababi bolaning shaxsiy xarakter xususiyatlaridami yo bu o'rtloqlarining xatti-harakatiga javob reaksiyasimi?

Ijtimoiy mulohazalar va atributsiya nazariyasi

O'zgaralar xatti-harakatini qanday talqin qilishimiz ularga nisbatan ma'lum bir qaror qabul qilishimizga hamda ular bilan bo'lgan munosabatlarimizga bevosita ta'sir etadi. Shuning uchun ham o'zgaralar xatti-harakatini to'g'ri talqin qila olish shaxslararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy xulq-atvorni talqin qilish va ijtimoiy mulohazalarning shakllanish jarayonini avstriyalik psixolog Frits Gayder (Neider, 1896-1988) tomonidan ishlab chiqilgan «atributsiya nazariyasi» o'rganadi.

Atributsiya nazariyasi odamlarning o'zgaralar xatti-harakatini qanday talqin qilishi, bu xatti-harakatlarning sababini ichki (shaxsiy) dispozitsiyalar yoki tashqi vaziyatlar bilan izohlashi haqidagi nazariyadir.

Atributsiya nazariyasining asosini uchta omil tashkil etadi: doimiylik, aniqlik va umumiylik (konsensus). Ijtimoiy mulohazalarining shakllanish jarayonida bu uch omilni qo'llash o'zgaralar xatti-harakatini obyektiv talqin qilishga yordam beradi. Shu sababdan bu omillar psixologiyada «**sog'lom fikrlash atributsiyalari**» deb ataladi.

«Sog'lom fikrlash atributsiyalari»ni quyidagi sxema asosida qo'llash mumkin:

- **Doimiylik:** o'xshash vaziyatlarda doimo odam o'zini shunday tutadimi?
- **Aniqlik:** turli vaziyatlarda odam o'zini shunday tutadimi?
- **Umumiylik (konsensus):** o'xshash vaziyatlarda boshqalar ham o'zini shunday tutadilarmi?

Agar aniq vaziyatda har uchchala savolga ham ijobiy (ha) javob olinsa, talqin qilinayotgan xulq-atvor **tashqi atributsiya** bilan izohlanadi, ya'ni mazkur xatti-harakatning sababi vujudga kelgan vaziyat hisoblanadi. Agar birinchi savolga ijobiy (ha) javob, qolgan ikki savolga esa salbiy (yo'q) javobi olinsa, mazkur xulq-atvor **ichki atributsiya** bilan izohlanishi mumkin. Bu holda xatti-harakatning sabablarini shaxsiy dispozitsiyalar, ya'ni xarakter xususiyatlari, motivlar va ustanovkalardan qidirish lozim.

O'zgalarning xulq-atvorini talqin qilishda biz, ko'pincha, **atributsiyaning fundamental xatosiga** yo'l qo'yamiz. Ya'ni o'zimizning shaxsiy xatti-harakatimizni vaziyatdan kelib chiqqan holda izohlaymiz, ayni vaqtda, boshqalarning xatti-harakati ularning shaxsiga xos xususiyatlar bilan bog'liq deb hisoblaymiz. Masalan, suhbatdoshimizning qo'pol munosabatiga duch kelganimizda, u o'zining qo'pol xatti-harakatini mavjud vaziyat bilan izohlab berishi mumkin: "Men hozir juda asabiylashyapman, chunki rejalashtirgan ish

amalga oshmadi". Biroq bunday izohlash bo'lmagan taqdirda, biz, ko'pincha, suhbatdoshimiz haqida "u o'zi juda tajang, qo'pol odam" degan fikrga boramiz.

Atributsiyaning fundamental xatosi - kuzatuvchining boshqalar xatti-harakatini talqin qilish jarayonida vaziyatning ta'sirini pasaytirib ko'rsatishga va dispozitsion (shaxsiy xususiyatlar bilan bog'liq) ta'sirlarni oshirib ko'rsatishga moyilligi.

Atributsiyaning fundamental xatosi nima sababdan ro'y beradi? Nima uchun biz boshqalarning xatti-harakatini tahlil qilganimizda, ko'pincha, vaziyatni hisobga olmaymiz? Buning sababi shundaki, biz xatti-harakatni idrok etish jarayoniga kuzatuvchi yoki ishtirokchi sifatida turlicha yondashamiz. Xatti-harakatni shaxsan o'zimiz amalga oshirayotgan bo'lsak, bizning diqqat-e'tiborimiz, ko'proq, vaziyatga qaratilgan bo'ladi. Boshqalarning xatti-harakatini kuzatayotganimizda esa diqqat markazimizda o'sha odamning o'zi bo'ladi, bu xatti-harakat sodir etilayotgan vaziyat esa, ko'pincha, e'tibordan chetda qoladi. Albatta, atributsiyaning fundamental xatosiga madaniy muhit ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, biror kishini amerikalik: "U xushf'el ekan", – deb tariflansa, hindistonlik: "U o'zi yoqtirgan odamlariga nisbatan xushf'el", – deb aytishi mumkin. Birinchi ta'rif kishining xatti-harakatini uning shaxsiy dispozitsiyalari bilan bog'lab tushuntirsa, ikkinchi ta'rif bu xatti-harakatni ko'proq vaziyatdan kelib chiqqan holda izohlaydi. G'arb madaniy muhiti ta'sirida shakllanuvchi «Men-konsepsiyasi»ning mustaqil turi vakillari ijtimoiy mulohazalarda, ko'proq, shaxsning individual xususiyatlariga, sharq madaniy muhiti ta'sirida shakllanuvchi «Men-konsepsiyasi»ning o'zaro tobe turi vakillari esa ko'proq tashqi vaziyatga urg'u beradilar.

«Moy g'ichirlagan gildirakka nasib qiladi» (**amerika maqoli**).

«Chiqib turgan mixni qoqadilar» (**yapon maqoli**).

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Ustanovka, shaxsning psixologik tayyorgarligi, "eshik orasidagi oyoq" fenomeni, "tuzoqqa ilintirish" texnikasi, ijtimoiy mulohazalar, atributsiya nazariyasi, tashqi atributsiya, ichki atributsiya, atributsiyaning fundamental xatosi.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Ustanovka tushunchasi.
2. Shaxsning obyektga nisbatan psixologik tayyorgarligi.
3. "Eshik orasidagi oyoq" fenomeni.
4. "Tuzoqqa ilintirish" texnikasi.
5. Ijtimoiy mulohazalar.
6. Atributsiya nazariyasi.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Дружинин И. Психология. Учебник нового поколения. – С-Пб., 2004.
2. Майерс Д. Социальная психология. – С-Пб.: Питер, 2000.
3. Немов Р.С. Общая психология. – С-Пб.: Питер, 2007.
4. Радугин А.А. Психология и педагогика. – М.: Изд-во Центр, 2003.
5. Yakubova Z.Yu. Psixologiya va pedagogika. – F.: Fergana-Trans Fergana-Trans, 2005.
6. Xaydarov F.I., Halilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2010. 400b.
7. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. –T.: JIDU. 2013.

13-MAVZU XUROFOTLAR VA IJTIMOY STEREOTIPLAR. AGRESSIYA VA ZO‘RAVONLIK

13.1. Atrofdagilarni idrok etish jarayonidagi xatolar. Xurofot va ijtimoiy stereotiplar.

13.2. Agressiyaning ijtimoiy-psixologik nazariyalari. Agressiyani harakatga keltiruvchi omillar.

13.1. Atrofdagilarni idrok etish jarayonidagi xatolar. Xurofot va ijtimoiy stereotiplar.

Odatda yangi odam bilan tanishar ekanmiz, uni ijtimoiy-psixologik jihatdan darhol biror bir toifaga kiritishga harakat qilamiz hamda unga nisbatan munosabatimizni qurishda ma’lum bir ijtimoiy stereotipga amal qila boshlaymiz. Masalan, semiz kishilar ko’ngilchan, oriqlar esa jahldor bo’ladilar yoki peshonaning kengligi aqllilik, iyakning kattaligi esa irodalilik alomati deb talqin qilinadi.

Atrofdagilarni idrok etish **3 xil ustanovkaga** asoslangan bo’lishi mumkin: **pozitiv**, **negativ** va **adekvat**. Idrok etishning pozitiv ustanovkasida biz shaxsning ijobiy sifatlarini oshirib, oldindan unga asossiz ishonch bildiramiz. Negativ ustanovkada esa buning aksi sodir bo’ladi. Albatta, eng yaxshisi adekvat ustanovkaga asoslangan holda har bir kishida ham ijobiy, ham salbiy sifatlar mavjudligini idrok etishdir. Mazkur ustanovkalar atrofdagilarni idrok etish jarayonida quyidagi xatolarga yo’l qo’yilishiga sabab bo’ladi:

- **"Oreol effekti"** biror bir kishi haqidagi umumiy taassurotning xususiy sifatlarini idrok etish va baholash jarayoniga ta’sir ko’rsatishida namoyon bo’ladi. Masalan, agar kishi haqida umuman pozitiv (ijobiy) taassurot shakllangan bo’lsa, uning alohida olingan salbiy xatti-harakati tasodifiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Mabodo umumiy taassurot negativ (salbiy) bo’lsa, kishining ijobiy xatti-harakati tasodifiy hodisa sifatida izohlanadi.

1. **"Ketma-ketlik effekti"**. Boshqalar haqidagi mulohazalarimizga ular haqida olingan ilk ma’lumotlar katta ta’sir ko’rsatadi. Shunisi qiziqki, birinchi navbatda, olingan salbiy ma’lumotning ta’siri ijobiy ma’lumot ta’siriga nisbatan kuchliroq bo’ladi.

2. **"Proeksiyalash effekti"**. Boshqalardan bizning shaxsiy andozalarimizga (modellarimizga) mos keladigan xatti-harakatlarni kutish. Masalan, o’xshash vaziyatlarda "men bunday qilmagan bo’lardim", deya fikr yuritish.

Xurofot va ijtimoiy stereotiplar, ularning mazmun- mohiyati.

Guruh yoki uning alohida vakillariga nisbatan asossiz salbiy ustanovka xurofot deb ataladi.

Stereotip - *bir guruh odamlarning shaxsiy sifatlari haqidagi fikr.* Stereotiplar aniq, noaniq, haddan tashqari umumlashtirilgan bo'lishi mumkin.

Guruh yoki uning alohida vakillariga nisbatan asossiz salbiy xatti-harakat diskriminatsiya deb ataladi.

Diskriminatsiya jamiyatda, ko'pincha, 3 ko'rinishda uchraydi: rasizm (irqchilik), natsizm (millatchilik) va seksizm.

Rasizm (irqchilik) – biror bir irqqa (tana rangiga) mansub kishilarga nisbatan individual xurofotlar va diskriminatsiya.

Natsizm (millatchilik) – biror bir millatga mansub kishilarga nisbatan individual xurofotlar va diskriminatsiya.

Seksizm – u yoki bu jins vakillariga nisbatan individual xurofotlar va diskriminatsiya.

Xurofot – ustanovka, xatti-harakatga aylangan xurofot - diskriminatsiya, stereotipga amal qilish esa umumlashtirish demakdir.

Yevropaliklarning fikricha, Janubiy Yevropa aholisi (masalan, italiyaliklar) Shimoliy Yevropa aholisi (masalan, skandinaviyaliklar)ga qaraganda ancha emotsional, ammo ishga nisbatan sovuqqonroq bo'lishadi. Bu fikr haddan tashqari umumlashtirilgan stereotip hisoblanadi.

Maktab yoshiga yetgan, lekin ta'lim olmayotgan dunyo bolalarining uchdan ikki qismini qizlar tashkil etadi. BMTning 1991-yilgi ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha savodsiz ayollar soni (600 mln. kishi) savodsiz erkaklar sonidan (350 mln. kishi) 70% ortiq. Bu esa diskriminatsiyaga yaqqol misol bo'lishi mumkin. Biroq mazkur diskriminatsiyaning asosini dunyoning ko'p mamlakatlarida ayollarga nisbatan munosabatda namoyon bo'luvchi xurofotlar tashkil etadi. Shu sababli bu hodisani seksizm deb atash mumkin.

Ijtimoiy munosabatlarda ko'plab irqiy, milliy va jinsiy xurofotlar uchraydi. Oxirgi 200 yil ichida migratsiya jarayoni hamda aholining faol ko'chishi oqibatida irqlar va millatlarning o'zaro aralashuvi kuzatilayotgan bo'lsada, xurofotlar hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Xurofotlar jamiyatda ular uchun nisbatan xavfsiz vaziyat mavjud bo'lganda yoki kishilar o'rtasidagi munosabatlar juda ham yaqinlashganda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Masalan, AQSh ta'lim tizimidagi irqiy segregatsiya 1954-yilda Oliy sud tomonidan qonuniy ravishda bekor qilingunga qadar saqlanib kelgan. Hindistonda esa mavjud kasta vakillari orasida hozirgacha quyidagi munosabatlar saqlanib qolgan: yuqoriroq kasta vakili o'zidan pastroq kasta vakilini o'z uyiga taklif etishi mumkin, ammo ular o'rtasida nikoh tuzilishi man etiladi.

Jamiyatda uchrovchi **gender (jinsiy)** xurofotlarining aksariyati irqiy va milliy xurofotlarga nisbatan ko'proq asosga ega bo'ladi. Buni hattoki **Platon** ham ta'kidlagan edi: "...o'z tabiatiga ko'ra ayol ham, erkak ham barcha ishlarda ishtirok etishi mumkin, biroq ayol hamma narsada erkakka nisbatan kuchsizroqdir" ("Respublika"). Masalan, sotsiologik so'rovlarda 78% erkaklar va ayollar "ayollarning ko'proq his-tuyg'ularga beriluvchanligini" qayd etadilar. Lekin shuni unutmash kerakki, gender xurofotlarining ma'lum bir xatti-harakatga aylanishi jamiyatda u yoki bu jinsga nisbatan kamsitish – seksizm paydo bo'lish havfini tug'diradi. Masalan, «ayol uchun oila va ro'zgor tashvishlari birinchi darajali» degan xurofot jamiyatda mutaxassis ayollarga nisbatan bo'lgan munosabatga bevosita salbiy ta'sir etadi. Aynan bir xil darajadagi kasbiy tayyorgarlik va tajribaga ega bo'lgan erkak, lavozimlar pog'onasidan ko'tarilishda ayolga nisbatan ko'proq **"ijtimoiy imtiyozlarga"** ega bo'ladi. Qolaversa, mazkur xurofot ayrim jamiyatlarda qizlarning ta'lim olishi va mutaxassis bo'lib yetishishi uchun ham jiddiy to'siqlar yaratishi mumkin.

Jamiyatda gender xurofotlari va seksizmni paydo qiluvchi omillardan biri ijtimoiy mavqelar tengsizligidir. Masalan, oilada bolalarga g'amxo'rlik qilish asosan ayollar zimmasida ekanligi, «ayollar tabiatan mehribon bo'ladilar», degan stereotipni shakllantiradi. Erkaklarning biznes bilan ko'proq shug'ullanishi hamda ovga yoki jangga borishi esa, «erkaklar agressiv, bo'ysunmas va jasur bo'ladilar», degan xurofotni keltirib chiqaradi.

"Agar biz, bolalar xonasi va oshxona – ayol uchun tabiiy muhit, deb o'ylasak, o'zimizni xuddi, qafas - to'tiqush uchun tabiiy yashash muhiti, deb hisoblovchi ingliz bolalari singari tutgan bo'lamiz. Chunki ular to'tiqushni hech qachon yana biror bir joyda ko'rmaganlar"(J.Bernard Shou).

Bizni ijtimoiy jihatdan ta'riflovchi ko'rsatkichlar – irqimiz, dinimiz, jinsimiz, mutaxassisligimiz va boshq. – ayni bir paytda bizning u yoki bu ijtimoiy guruhga mansubligimizni anglatadi Ijtimoiy guruhlarining mavjudligi jamiyatda xurofotlarning shakllanishi uchun yana bir omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki **"biz"ning "ular"dan farqimiz GURUH ichidagi jipslashishga xizmat qilish bilan birga guruhlararo qarama-qarshiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin**. Albatta, bunga madaniy muhit ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Jamiyatda uchrab turuvchi bunday hodisalarni **"aybsiz aybdor" nazariyasi** asosida izohlash mumkin. Masalan, Germaniyani natsistlar atrofiga uyushtirish uchun A.Gitler "yahudiylar havfi"ni o'ylab topgan edi. Yahudiylarga nisbatan oddiy xurofotdan kelib chiqqan keyingi xatti-harakatlar insoniyat boshiga qanchalik katta kulfatlarni solgani tarixda abadiy muhrlanib qoldi.

Xurofotlar va diskriminatsiyani ijtimoiy shart-sharoitlar keltirib chiqaradi. Shunday ekan, ijtimoiy shart-sharoitlarni o'zgartirish orqali xurofotlarning jamiyat a'zolariga ta'sirini susaytirish mumkin. Buning uchun:

1. ijtimoiy mavqelar tengligini ta'minlash va jamiyatda o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatishga intilish;
2. diskriminatsiyani qonuniy ravishda man etish;
3. agar "ular" "biz"ga o'xshamayotgandek tuyulsa, "ular"ni personallashtirishga harakat qilish lozim.

13.2. Agressiyaning ijtimoiy-psixologik nazariyalari. Agressiyani harakatga keltiruvchi omillar.

Agressiya - biror bir kishiga zarar yetkazishga yo'naltirilgan jismoniy yoki verbal xatti-harakat bo'lib, uning ikki xil ko'rinishi mavjud: qaynoq (adovat) va sovuq (instrumental) agressiya. Adovat - g'azabga asoslangan va bevosita kimgadir ziyon yetkazishga yo'naltirilgan agressiv xatti-harakat. Instrumental agressiya esa biror bir ijobiy maqsadni amalga oshirish vositasi sifatida qo'llanilgan agressiv xatti-harakatdir.

Agressiyaning kelib chiqish sabablarini tushuntiruvchi uchta muhim nazariy konsepsiya mavjud.

Birinchi konsepsiyaga muvofiq, agressiv xatti-harakat irsiyat, qonning biokimyoviy tarkibi, markaziy asab sistemasining xususiyatlari kabi biologik omillar vositasida paydo bo'ladi. Agressiv xulq-atvor murakkab jarayon bo'lib, bosh miya yarim sharlarida aniq belgilangan "agressiya markazi" mavjud emas. Biroq temperamentning tez qo'zg'aluvchan - xolerik turi, erkaklar organizmidagi testosteron gormonining miqdori, alkogol va narkotik moddalarning qon biokimyoviy tarkibini o'zgartira olish xususiyati agressiv xatti-harakatlarning paydo bo'lishi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Ikkinchi nazariy konsepsiyaga binoan, **frustratsiya** doimo agressiv xatti-harakatni keltirib chiqaradi. Ammo frustratsiya natijasidagi agressiya hamma vaqt ham o'zining boshlang'ich manbai, ya'ni frustratsiya sababchisiga qarata yo'naltirilmaydi. Bunday hollarda odatda agressiv xatti-harakat frustratsiya manбайдan ijtimoiy jihatdan maqbulroq va xavfsizroq obyektga ko'chiriladi.

Uchinchi konsepsiya tarafdorlarining fikricha, agressiv xulq-atvor **"mukofotlanuvchi"** ijtimoiy muhitda odam o'z agressiyasini **"tashqariga chiqarishga"** (ya'ni namoyon qilishga) odatlanadi. Masalan, atrofidagi o'rtoqlarini o'zining agressiv xatti-harakati bilan qo'rqitib yurgan bolaning xulq-atvori tobora ko'proq agressivlashib boraveradi. Terroristik (qo'poruvchilik) xatti-harakatlarni ham mazkur konsepsiya orqali izohlash mumkin: qo'poruvchilik aktlari vositasida ayrim kishilar ommaning diqqatini o'ziga jalb qilib, qo'rqitish orqali jamiyatda hukmronlik qilishga intiladilar. "Bir kishini o'ldir – o'n ming kishini qo'rqitasan",

deb takidlaydi xitoy maqoli. Bugungi kunda dunyoning u yoki bu chekkasida sodir etilayotgan vahshiyona qo'poruvchilik harakatlari xalqaro kommunikatsiyalar yordamida o'n ming emas, o'n millionlab kishini qo'rqov iskanjasida saqlab turishi mumkin. Agar xalqaro terrorizmni **Margaret Tetcher "oshkorsizlik kislorodi"** deb atagan "ijtimoiy mukofot"dan mahrum qilinsa, balki bu agressiv xatti-harakatlar ma'lum darajada o'z kuchini yo'qotgan bo'lar edi.

Xo'sh, agressiv xatti-harakat qanday ijtimoiy shart-sharoitlarda namoyon bo'ladi?

Quyidagi omillar agressiya mexanizmini harakatga keltiradi:

1. aversiv holatlar;
2. ommaviy axborot vositalari;
3. guruhiy xatti-harakatlar.

Mazkur omillarning har biriga kengroq to'xtalib o'tamiz.

Aversiv holatlar, jismoniy og'riq, issiq havo, fazoviy tanqislik (zichlik), qo'zg'alish bevosita agressiv xatti-harakatlarni paydo qiladi. Bunga bir nechta misol keltiramiz. Tishi yoki boshi qattiq og'rib turgan odamning xatti-harakatlarida ko'proq agressiya namoyon bo'ladi. Iqlimi issiq bo'lgan mamlakatlarda zo'ravonlik jinoyatlarining soni sovuq yoki mo'tadil iqlimli mamlakatlarga nisbatan ancha yuqori bo'lishi tadqiqotlarda qayd etilgan. Og'ir jinoyatlar, asosan, aholi zich yashaydigan katta shaharlarda sodir etiladi, shu bilan birga, asoslanmagan qo'rqov hissi kichik aholi punktlaridan ko'ra katta shahar aholisida ko'proq kuzatiladi. Asab tizimining kuchli qo'zg'alishi oqibatida agressiv xatti-harakatning vujudga kelishini izohlashga hojat yo'q.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye, bizga ko'plab zo'ravonlik namunalarini taqdim etmoqda. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, televideniye orqali agressiv xulq-atvor namunalarini kuzatish odamlarda agressiv his-tuyg'ularning kuchayishiga va zo'ravonlik holatlariga nisbatan befarq munosabat hamda ijtimoiy munosabatlarga nisbatan noto'g'ri qarashlarning shakllanishiga olib keladi. "Har qanday televideniye ta'limiydir. Gap faqat uning nimaga o'rgatishida" (**Nikolas Djonson**).

Odatda ommaviy tartibsizliklar boshlanganda, guruh ichida agressiv harakatlar juda keng miqyosda avj olishi mumkin. Buning sababi shundaki, guruhda sodir etilgan xatti-harakatlar uchun javobgarlik hissi guruh ishtirokchilari orasida bo'linib ketishi natijasida agressiya amplitudasi kengayadi. Yakka holda sodir etilgan har qanday xatti-harakat uchun javobgarlik hissi guruhiy harakatlar uchun javobgarlik hissidan kuchli bo'ladi.

Yevropada xulq-atvor psixologiyasining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri **Frits Perlz** shunday deb yozgan: "Agar kishi jahl tutunidan bo'g'ilayotgan bo'lsa, biz klapani izlab topishimiz shart. Biz unga bu tutunni chiqarib yuborish

uchun imkoniyat berishimiz kerak" (1973). Mashhur olim katarsis hodisasini nazarda tutgan.

Katarsis - emotsiyalardan xalos bo'lish. Katarsis hodisasi salbiy energiyadan qutulish yordamida agressiv xatti-harakatni sodir etishning oldini oladi. Masalan, jahl chiqqanda yo qattiq asabiylashganda bor ovoz bilan unli tovushlarni (a, o, i, u, e) talaffuz qilish yoki ogiz bo'shlig'ini havoga to'ldirib, havoni tovush bilan iloji boricha shoshmasdan chiqarib tashlash samarali katarsis hisoblanadi.

Agressiv energiyani kamaytirishning yana bir psixologik yo'li bunday vaziyatlarda "sen" olmoshi o'rniga "men" olmoshini qo'llashdir. Masalan, shoshilinch vaziyatda kimningdir sekinlik bilan bajarayotgan ishi jahlingizni chiqarsa, "Tezroq qimirlasangchi!" so'zlarining o'rniga "Men shoshib turibman!" degan iborani qo'llash agressiv holatning oldini oladi. Shuningdek, aversiv ta'sirlarni susaytirish ham agressiyaning oldini olishga yordam beradi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Atrofdagilarni idrok etish, xurofot, ijtimoiy stereotiplar, agressiya, ijtimoiy-psixologik nazariyalar, aversiv holatlar, ommaviy axborot vositalari, agressiyani harakatga keltiruvchi omillar, katarsis.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. 1. Atrofdagilarni idrok etish jarayoni.
2. 2. Idrok etish jarayoni, xatolar.
3. 3. Xurofot tushunchasi.
4. 4. Ijtimoiy stereotiplar tushunchasi.
5. 5. Agressiyaning ijtimoiy-psixologik nazariyalari.
6. 6. Agressiyani harakatga keltiruvchi omillar.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Дружинин В. Психология. Учебник нового поколения. - С-Пб: Питер, 2003.
2. G'aybullaev N.R. va boshq. Pedagogika mavzular matni. - T.: Universitet, 1999.
3. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. 1-2 kitob. - T., 2002.
4. МайерсД. Социальная психология. -С-Пб.: Питер, 2000.
5. Радугин А.А. Психология и педагогика. -М.: Изд-во Центр, 2003
6. Социальная психология. Под ред. А.М.Столяренко. -М.: Изд-во ЮНИТИ, 2006.
7. <http://www.myword.ru> Крайг Г. Психология развития (пер с англ.). - С-Пб.: Питер, 2005.
8. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. - T.: JIDU. 2013.

14-MAVZU NIZO VA YARASHISH JARAYONI

14.1. Nizolarning ijtimoiy-psixologik asoslari.

14.2. Ijtimoiy dilemmalar.

14.3. Hamkorlikka erishish sharoitlari.

14.1. Nizolarning ijtimoiy-psixologik asoslari.

Deyarli barcha davlat rahbarlari tomonidan turli tillarda mazmunan bir xil murojaat yangraydi: "Bizning maqsadimiz – tinchlik va osoyishtalik! Biz tinchlik tarafdorimiz!". Biroq ana shu ezgu maqsadni amalga oshirish yo'lida davlatlar bir-biriga ishonmay qurollanish poygasini avj oldiradilar va qurollanishni tinchlik garovi deb talqin etadilar. Buning natijasi sifatida rivojlanayotgan mamlakatlarda, BMT ma'lumotiga ko'ra, har bir shifokorga 8 tadan harbiy to'g'ri kelmoqda; dunyo miqyosida 51 mingta yadro quroli tayyorlab qo'yilgan; har kuni qurollanish uchun 3 mlrd. dollar mablag' sarflanmoqda (1990).

Bunday xatti-harakatlarning ijtimoiy-psixologik sabablari nimada?

Nizo (konflikt) – lotincha "**conflictus**" so'zidan olingan bo'lib, to'qnashuv yoki qarama-qarshilikning namoyon bo'lish shakli ma'nosini anglatadi. Psixologik ma'noda **nizo motivlar va maqsadlar kelishmovchiligini idrok etishdir.**

Jamiyatda uchrovchi turli-tuman nizolarning psixologik asosi aynan bir xil, ya'ni nizoli vaziyatda tomonlar bir-birini qanday idrok etishidan qat'iy nazar, **bir tomonning yutug'i ikkinchi tomonning mag'lubiyatini** anglatadi. Masalan:

1. davlatlararo nizoli vaziyatlarda: "Biz tinchlik va xavfsizlik tarafdorimiz" – "Biz ham shuni xohlaymiz, ammo biz qurollanishni to'xtatsak, Siz bizga tahdid qilishingiz mumkin";

2. guruhlararo nizolarda: "Biz ish haqini oshirishingizni istaymiz" – "Biz Sizning talabingizni bajara olmaymiz";

3. shaxslararo nizolarda: "Men dam olmoqchiman, televizorni o'chirib qo'y" – "Men esa shu ko'rsatuvni tomosha qilmoqchiman".

Biroq ijtimoiy-psixologik jihatdan nizolarning quyidagi muhim ijobiy tomonlari mavjud:

- nizoli vaziyatlar guruh a'zolarida javobgarlik hissini oshirishi, guruh ichida qat'iyatsizlik va befarqlikka barham berishi hamda guruhning jipslashishiga olib kelishi mumkin;

- mavjud muammo va ziddiyatlar aynan nizolar jarayonida yuzaga

chiqadi hamda nizo ishtirokchilari tomonidan anglanadi;

- anglab yetilgan va hal qilingan nizolar munosabatlarning yangilanishi va yaxshilanishiga olib keladi. Tom ma'nodagi tinchlik yuzaki va keskinlik yashiringan osoyishtalik emas, balki ijobiy hal qilingan nizo natijasidir.

- nizoli vaziyatlarni hal qilish jarayonida tomonlar integral kelishuvga kelishi mumkin.

Xo'sh, nizolar kelib chiqishining ijtimoiy-psixologik sabablari nimada?

Yadro qurollari, atrof-muhitning ifloslanishi, issiqxona effekti, atmosferadagi ozon qatlamining yemirilishi, tabiiy boyliklarning kamayishi kabi insoniyatning kelajagiga xavf solayotgan ko'plab muammolarning kelib chiqishiga asosiy sabab turli guruhlarining o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qilgan xatti-harakatlari oqibatida umuminsoniy manfaatlarga zarar yetkazilishidir. Masalan, har bir kishi avtomashinalardan chiqayotgan zaharli gazlar atmosferani ifloslantirayotganini yaxshi tushunadi, lekin o'z shaxsiy avtomashinasi bu jarayonga qanday "hissa qo'shayotganini" hisobga olmaydi. Natijada, jamiyat a'zolarining bir guruhi uchun qulaylik yaratayotgan harakat vositasi butun insoniyat uchun "**issiqxona effekti**" ("**парниковый эффект**") deb ataluvchi ekologik halokatning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Albatta, jamiyatning ayrim a'zolariga foyda keltiruvchi har qanday xatti-harakat ham umuminsoniy halokatga olib kelmaydi. Masalan, XVIII asrning yirik iqtisodchisi Adam Smit ta'kidlaganidek, "qassob, pivo pishiruvchi yoki nonvoy faoliyati bizni to'ydirishga qaratilgan xayrli ishning emas, balki ularning o'z shaxsiy manfaatlari haqida qayg'urishi oqibatidir" (1776). Shunga qaramay, shaxsiy foyda bilan jamiyat manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar aksariyat hollarda nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.


14.2. Ijtimoiy dilemmalar.

Qanday qilib bu ziddiyatlarning oldini olish mumkin yoki individning shaxsiy manfaatlari bilan umumjamiyat manfaatlari o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash mumkinmi, degan savollarning tug'ilishi tabiiy. Bu savollarga javob topish uchun ikkita ijtimoiy-psixologik dilemmani ko'rib chiqamiz.

"Mahbus dilemmasi" (Rapoport, 1960).

Faraz qiling, prokuror jinoyatchilikni sodir etishda gumon qilinayotgan ikki kishini so‘roq qilmoqda. Ularning ikkalasi ham aybdor. Biroq prokuror ularning faqat mayda jinoyatchiligini fosh qiluvchi dalillarga ega. Shuning uchun u mahbuslarning har ikkisiga alohida o‘z aybiga iqrор bo‘lishni taklif qiladi. Buning evaziga prokuror aybiga iqrор bo‘lgan mahbusga immunitet va‘da qilib, mazkur iqrorni uning sherigini og‘ir jinoyatda ayblash uchun qo‘llamoqchi bo‘ladi. Agar mahbuslarning ikkalasi ham aybiga iqrор bo‘lsa, ularga beriladigan qamoq jazosining muddati qisqaradi. Agarda ikkalasi ham iqrор bo‘lmasa, ular yengil jazo bilan qutulib qoladi. Ularning o‘rnida bo‘lsangiz, Siz nima qilgan bo‘lardingiz?

Tekshirishlarning ko‘rsatishicha, bunday vaziyatlarda o‘zi uchun jazoni yengillashtirish maqsadida ko‘pchilik aybiga iqrор bo‘lar ekan. Vaholanki, ikki tomonlama iqrор bo‘lish, ikki tomonlama iqrор bo‘lmaslikka nisbatan qattiqroq jazolanadi. Mazkur vaziyatda har ikki tomon uchun ham, sherigining qanday qarorga kelishidan qat‘iy nazar, aybiga iqrор bo‘lish maqsadga muvofiq. Chunki, birinchidan, bu holda jazo har ikkala mahbus uchun ham yengillashadi. Ikkinchidan, mabodo bir tomon iqrор bo‘lsayu, ikkinchi tomon iqrор bo‘lmasa, bunda iqrор bo‘lgan mahbus ozodlikka chiqariladi. Tabiiyki, har ikki tomon bir xilda fikr yuritadi. Va, natijada, har ikkisi ham ijtimoiy tuzoqqa tushadi.



Hamma gap shundaki, bunday vaziyatlarda **O‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan xatti-harakatlar har ikki tomon uchun ham manfaatli bo‘lishi hamda ko‘proq foyda keltirishi mumkin.**

"Mahbus dilemmasi"ga o‘xshash vaziyatlar jamiyatda tez-tez uchrab turadi. Masalan, fuqarolari o‘zining shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash maqsadida qurol olib yurish huquqiga ega bo‘lgan mamlakatlarda jamiyatdagi umumiy xavfsizlik darajasi past bo‘lishi qayd etilgan. Bir tomonning qurolsizlanishi ikkinchi tomonning tahdidini kuchaytirishi mumkinligi esa bu dilemmani yanada murakkablashtiradi.

Agar "mahbus dilemmasi" nizoli vaziyatda ikkita tomon ishtirokini nazarda tutsa, quyidagi ijtimoiy dilemmada ishtirok etuvchilarining soni ikkitadan oshadi. Ishtirokchilari ikkitadan ortiq bo‘lgan dilemmalar jamiyatda ko‘proq uchraydi.

"Umumiy o‘tloqlar fojiasi dilemmasi"(Garret Xardin, 1968).

100 bosh sigirni boqish uchun mo'ljallangan umumiy o'tloq atrofida 100ta fermer yashaydi, deb faraz qiling. Mantiqiy nuqtayi nazardan, agar har bir fermer bu o'tloqda bittadan sigirini boqsa, umumiy o'tloqdan unumli tarzda foydalanilgan bo'ladi. Biroq fermerlardan biri o'zining *shaxsiy daromadini* oshirish maqsadida bu *umumiy o'tloqqa* qo'shimcha yana bitta sigirini chiqaradi. Endi 100 bosh sigir uchun mo'ljallangan o'tloqda 101 ta sigir oziqlanyapti. Bu hol, mazkur fermerning hisob-kitobi bo'yicha, uning daromadini 2 baravar oshirsa, umumiy o'tloqning foydalilik koeffitsientini esa atigi 1% ga kamaytiradi. Fojia shundaki, umumiy o'tloqdan foydalanuvchi fermerlarning har biri shaxsiy daromadini oshirish uchun shu tarzda fikr yuritadi va, natijada, 100 ta sigir uchun mo'ljallangan o'tloqda 200 ta sigir paydo bo'ladi. Tabiiy zaxira sifatida o'tloq har yili bahorda qaytadan yangilanish xususiyatiga ega. Lekin buning uchun undan unumli foydalanish lozim, toki o'tloq keyingi yilga ham kutilgan hosilni berishga yaroqli holda bo'lsin. Agar bu shart bajarilmasa, o'tloqning unumdorligi yildan-yilga pasayib boraveradi, bu esa fermerlarning daromadiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Jamiyatdagi ko'plab hodisalarni "*umumiy o'tloqlar fojiasi*"dilemmasidan kelib chiqqan holda izohlash mumkin. Musaffo havo, chuchuk suv, nodir hayvonlar, o'rmonlar kabi cheklangan tabiiy zaxiralardan unumli foydalanilgan taqdirda, bu zaxiralar yana tiklanish xususiyatiga ega. Biroq biz bu zaxiralarni shunday tezlik bilan kamaytiramizki, ularning qayta tiklanishi tobora qiyinlashib boraveradi. Buning asosiy sababi zaxiralarning hamma uchun umumiylikidir. Chunki umumiy zaxiradan foydalanishda har bir kishi o'z shaxsiy manfaatlari haqida ko'proq qayg'uradi. Bunday hollarda, ko'pincha, ko'pchilikning manfaatlariga zarar yetkaziladi. Qizig'i shundaki, bu hol nafaqat kishilarda «mustaqil Men-konsepsiyasi»ni shakllantiruvchi madaniyatlarda, balki ko'pchilik aholisiga «o'zaro tobelik Men-konsepsiyasi» xos bo'lgan madaniyatlarda ham kuzatiladi.

"Mahbus dilemmasi" hamda "umumiy o'tloqlar fojiasi dilemmasi" orasida quyidagi umumiy jihatlar mavjud:

1. har ikki dilemma ishtirokchilari **atributsiyaning fundamental xatosiga yo'l qo'yadilar**: shaxsiy xatti-harakatlar vaziyatga bog'liq holda, boshqalarning xatti-harakati esa ularning shaxsiy dispozitsiyalaridan kelib chiqqan holda izohlanadi. Ishtirokchilarning ko'pchiligi boshqalar ham ularga nisbatan xuddi shunday xatoga yo'l qo'yayotganini anglamaydi;

2. ikkala dilemmada ham **motivlarning tez-tez o'zgarib turishi** kuzatiladi, ya'ni ishtirokchilar, avvalo, kattaroq foyda olmoqchi bo'ladilar; keyin shaxsiy zararlarni kamaytirishga harakat qiladilar; so'ngra o'z sha'nini (qiyofasini) saqlab qolishga va eng oxirida mag'lubiyatga uchramaslikka intiladilar;

3. hayotdagi aksariyat nizolar kabi har ikki dilemma ham "**natijasi nolga teng bo'lmagan o'yinlar**" hisoblanadi. Ya'ni mazkur o'yin qoidalariga binoan, o'yin ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi har ikki tomon uchun ham yutuq keltirishi, o'zaro raqobat esa ularni mag'lubiyatga uchratishi mumkin;

4. har ikkala dilemma ham o'z mohiyatiga ko'ra "**ijtimoiy tuzoq**" bo'lib, dilemma ishtirokchilarining o'z shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qilgan xatti-harakatlari oqibat natijada ularning o'zi uchun zarar keltirishi mumkinligini namoyon qiladi.

Bunga o'xshash ijtimoiy dilemmalarni qay tarzda yechish mumkin? Qanday qilib odamlarni umumiy manfaatlarga erishish uchun nizoli vaziyatlarda hamkorlik qilishga undash mumkin?

14.3. Hamkorlikka erishish sharoitlari.

O'zaro raqobat sharoitida hamkorlikka erishishning quyidagi bir nechta psixologik usullari aniqlangan: tartibga solish, muvozanatlashtirish, kommunikatsiya, altruizmga chaqirish. Bu usullarning har biriga kengroq to'xtab o'tamiz.

Tartibga solish. Ayting-chi, agar soliqlarni to'lash ixtiyoriy bo'lsa, ko'pchilik soliqlarning hammasini to'larmidi? Ko'pchilik to'lamasligi aniq. Shuning uchun ham bugungi kunda jamiyat o'zining ijtimoiy hamda harbiy xavfsizligini ta'minlashda majburiy to'lov turlariga asoslanadi. Shuningdek, biz umumjamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi qonunlar va kelishuvlarni qabul qilamiz. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi qonunlar, tug'ilishni tartibga soluvchi qonunlar (masalan, Xitoyda) yoki Markaziy Osiyoni yadro qurolidan ozod hudud deb e'tirof etuvchi kelishuvlar shular jumlasidandir.

Muvozanatlashtirish. Hamkorlikka erishishning mazkur usuli "ozgina-yu, sozgina" tamoyiliga asoslanadi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, guruhning kichrayishi guruh a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni oshirar ekan. Shu bilan birga, o'zlariga ajratilgan cheklangan zaxiralardan tejamkorlik bilan foydalanish ko'proq kichik guruh a'zolari uchun xos ekan. Buning sababi shundaki, kichik guruhda har bir kishi o'zining javobgarligi va natijaviylik darajasini chuqurroq his etib, guruhning yutug'idan o'zi ham manfaatdorligini yaxshiroq anglaydi. Shuning uchun, ayrim siyosatshunoslar, jamiyatni samarali boshqarish uchun uni imkoniyat boricha mayda hududiy jamoalarga bo'lish maqsadga muvofiq, deb ta'kidlaydilar.

Kommunikatsiya. Shubhasiz, «ijtimoiy tuzoqqa» tushib qolmaslik uchun odamlar o'zaro muloqotda bo'lishlari lozim. Dilemmani muhokama qilish guruh a'zolari orasida o'xshashlik hissini paydo qiladi hamda ularni umumiy manfaatlar haqida qayg'urishga undaydi. Shu bilan birga, muhokama

jarayonining o'zi dilemma ishtirokchilari uchun o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi. Albatta, har qanday ijtimoiy dilemmada hamkorlik qilish o'zaro foydali, biroq bu hamkorlik dilemma ishtirokchilaridan fidokorlikni va, ma'lum ma'noda, tavakkal qilishni talab etadi. Dilemmani ochiq, erkin va vijdonan muhokama qilish ishtirokchilar orasidagi o'zaro ishonchsizlikni kamaytiradi buning aksi esa o'zaro ishonchsizlikni oshirishi mumkin.

Altruistik me'yorlarga amal qilish. Boshqalar uchun shaxsiy javobgarlik hissining oshishi altruizmni paydo qiladi. Agar dilemma ishtirokchilari hamkorlikdan o'zaro manfaatdor bo'lsalar, bema'lol altruistik me'yorlarga amal qilish mumkin. Guruh manfaatlarini amalga oshirish uchun ayrim vaziyatlarda kishilar shaxsiy manfaatlaridan voz kechadilar.

Nizoli vaziyatlarda hamkorlik qilish natijasida **kompromiss yoku integral yechimga** kelish mumkin. **Kompromiss tomonlarning nimadandir voz kechishi evaziga o'zaro bitim (murosa)ga kelishlarini anglatadi.** Agar nizoli vaziyatni formula orqali "**mening yutug'im – sening mag'lubiyating**" ko'rinishida ifodalasak, kompromiss formulasini "**mening mag'lubiyatga uchramasligim - sening mag'lubiyatga uchramasliging**" ko'rinishida ifodalash mumkin. Biroq kompromiss nizoli vaziyatdan chiqish yo'llaridan biri bo'lsa-da, nizoni har ikki tomon (yoki tomonlar) uchun eng manfaatli tarzda faqat integral yechimga kelish orqali hal etish mumkin. Integral yechimga kelish nizoli vaziyatning formulasini "**mening yutug'im - sening yutug'ing**" tarzida o'zgartiradi. Faraz qilaylik, ikki opa-singil bitta apelsinni bo'lishishi jarayonida nizoli vaziyat yuzaga keldi. Apelsin teng ikkiga bo'lindi: opa-singillarning biri o'ziga tegishli yarimta apelsinning sharbatini ichdi, ikkinchisi esa o'zining tegishi – yarimta apelsin po'stlogini olib, pechenye pishirdi. Bu ularning nizoli vaziyatda kompromissga kelganini ko'rsatadi. Lekin kompromiss natijasida ularning har ikkalasi ham ma'lum ma'noda "**mag'lubiyatga uchradi**". Chunki opa-singillar o'zaro maslahatlashib, bu apelsin ularga nima uchun kerakligini aniqlab olgan taqdirda, ularning biri 2 baravar ko'proq apelsin sharbatiga, ikkinchisi esa 2 baravar ko'proq apelsinli pechenyega ega bo'lardi. Nizoli vaziyatning bu tarzda hal etilishi integral echim topilganidan dalolat beradi. Demak, samimiy va xolisona hamkorlik ikki tomonlama YUTUQ, ya'ni, integral yechimga olib kelishi mumkin.

Cheklangan zaxiralarga taalluqli shaxsiy hamda umumiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlar bilan birga adolatsizlikni idrok etish, boshqalarning maqsad va motivlarini noto'g'ri tushunish ham nizoli vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday hollarda nizoni bartaraf etish uchun **yarashtiruvchi formula - KKKK**dan foydalansa bo'ladi. Mazkur formula quyidagicha sharhlanadi: **birinchi K - kontakt (ya'ni aloqaga kirishish); ikkinchi K – kooperatsiya (ya'ni birlashish); uchinchi K - kommunikatsiya (ya'ni**

muloqot qilish); to‘rtinchi K – konsiliatsiya (ya’ni qoniqish). Yarashiruvchi **KKKK** formulasining samarali amal qilishi uchun nizoli vaziyat ishtirokchilarining bir-biriga ishonishi muhim ahamiyatga ega.

Afsuski, ko‘p vaziyatlarda, jumladan, xalqaro miqyosda, tomonlar orasidagi o‘zaro ishonchsizlik nizoni bartaraf etishni nihoyatda qiyinlashtiradi. "Bizning o‘rtamizda psixologik to‘siq (baryer) mavjud; bu - gumonsirash to‘sig‘i, zo‘ravonlik to‘sig‘i, qo‘rquv, aldov to‘sig‘i, gallyutsinatsiyalar to‘sig‘i..." (**Misr Prezidenti Anvar Saodat Isroil Knissetiga, 1977**). Bunday vaziyatlarda nizoni bartaraf etishga betaraf **vositachi diplomat** yordam berishi mumkin. Diplomat har bir tomonning manfaatdorligini ta‘minlovchi takliflar kiritish, ularni tomonlar bilan muhokama qilish, tomonlarning sha‘nini (qiyofasini) saqlagan holda bir-biriga yon berishlarini ta‘minlash, ya’ni tomonlarni murosaga keltirish, xullas, nizoli vaziyatda tomonlar orasidagi kommunikatsiya (muloqot)ni amalga oshirish vazifasini bajaradi. Ayrim nizolarda tomonlarning manfaatlari bir-biriga shunchalik zid bo‘ladiki, ularni hal qilish uchun **arbitraj** - uchinchi tomon aralashadi. Xalqaro miqyosda arbitraj rolini, masalan, Gaaga Xalqaro sudi yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti bajaradi. Aslida arbitrning aralashuvi nizo ishtirokchilarining vaziyatni nazorat qilish imkoniyatidan mahrum bo‘lishini anglatadi. Shuning uchun ham nizoli vaziyatlarda tomonlar iloji boricha arbitraj aralashuvisiz murosaga kelishga harakat qiladilar.

Xalqaro miqyosda nizoli vaziyatlardan chiqishning yana bir psixologik strategiyasi mavjud. Bu - psixolog **Charlz Osgud** (Osgood, 1916-1991) tomonidan taklif etilgan KYuAIT (GRIT) strategiyasidir (1962,1980). Strategiyaning to‘liq nomi quyidagicha:

1. Постепенные и обоюдные инициативы по разрядке напряженности (ruscha sharhi);

2. Gruduated and reciprocated initiatives in tension reduction (inglizcha sharhi);

- Keskinlikni yumshatish bo‘yicha asta-sekin va ikki tomonlama tashabbuslar (o‘zbekcha sharhi).

KYuAIT strategiyasi yarashiruvchi strategiya hisoblanib, "iltifotga javoban iltifot ko‘rsatish" tamoyiliga asoslanadi. Jahon hamjamiyati oldida yarashish tashabbusi bilan chiqqan tomon nihoyatda katta obro‘ga ega bo‘ladi va, aksincha, bu tashabbusni qo‘llab-quvvatlamagan tomon o‘z obro‘cini yo‘qotadi. Mazkur strategiyaga binoan, tomonlar nizoli vaziyatdan asta-sekinlik bilan qadam-baqadam chiqadilar. Birinchi qadam "kichik iltifot"dan iborat bo‘lib, unga javoban qo‘yilgan ikkinchi qadam "kattaroq iltifot" ko‘rsatilishini talab etadi. Aks holda, bu strategiya amalga oshmasligi mumkin. Xullas, yarashish jarayoniga birinchi qo‘yilgan yarimta qadamga javoban to‘liq bitta qadam qo‘yilishi, so‘ngra bu to‘liq qadamga birinchi tomon to‘liq ikkita qadam bilan

javob qaytarishi, undan keyin ikkinchi tomon bunga javoban to'rtta qadam tashlashi lozim. Strategiya ana shu tarzda amalga oshirilgandagina muvaffaqiyatga erishish mumkin.

KYuAIT strategiyasining sobiq Sovet Ittifoqi hamda AQSh tomonidan amalda samarali qo'llanishi "sovuq urush davri"ning har ikki bosqichida ham keskinlikni yumshatishga va o'zaro munosabatlarning muvofiqlashuviga olib keldi (1960, 1980).

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Nizo, nizo turlari, yarashish, ijtimoiy dilemma, mening yutug'im – sening muvaffaqiyating tamoyili, sog'lom raqobat tamoyili, aloqa, hamjihatlik, konsilyatsiya, KKKK formulasi, QIKYUT formulasi, tartibga solish, muvozanatlashtirish, shaxsiy javobgarlik, ikki tomonlama hamkorlik, keskinlikni yumshatish, shaxsiy manfaatlar, "o'z foydasiga moyillik" harakati, egoistik pozitsiya, jamoaviy maqsadlar, nizoning birlamchi sabablari, tushunmovchiliklar, munosabatlarning yangilanishi, muammoga qaratilgan e'tibor.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Nizoli vaziyatlarning ijtimoiy-psixologik sabablari, bartaraf etish yo'llari.
2. Ijtimoiy dilemmalarga tavsif.
3. Nizoli vaziyatlardagi tartibga solish usuli.
4. Nizoli vaziyatlardagi muvozanatlashtirish usuli.
5. Nizoli vaziyatlarda hamkorlikni o'rnatish yo'llari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Дружинин В. Психология. Учебник. -С-Пб.: Питер, 2003.
2. Karimova V.M. Ota-ona maktabi – baxt kaliti. -T., 2002.
3. Крысько В.Г. Общая психология в схемах и комментариях. -С-Пб.: Питер, 2007.
4. Усманова А. Психология управления. - Т., 2010.
5. Yakubova Z.Yu. Psixologiya va pedagogika. -F.: Fergana-Trans Fergana-Trans, 2005.
6. <http://www.myword.ru> Корнелиус Х., Фрейс Ш. Выиграть может каждый. Как разрешить конфликт? (пер. с англ.). - М.: Стринг, 1999.
7. <http://www.myword.ru> Skott D.G. Конфликты, пути их преодоления (пер. с англ.). - Киев: Внешторгиздат, 1999.

15-MAVZU

IJTIMOIIY GURUHLAR FAOLIYATI

15.1. Ijtimoiy guruhlarning tarixiy rivojlanganligi.

15.2. Shaxs va guruh. Guruh turlari.

15.3. Jamoalarda psixologik o‘zaro moslik.

15.4. Konformizm hodisasi.

15.1. Ijtimoiy guruhlarning tarixiy rivojlanganligi.

Ijtimoiy psixologiya tarixida guruhlarning turli tavsiflari, ularning individga ta’sirini va shu kabilarni tadqiq qilishga katta e’tibor berilgan. Ammo ushbu tadqiqotlarning bir nechta tavsiflovchi xususiyatlarini ta’kidlash mumkin. Birinchidan, “guruhiy yondashuv” ijtimoiy-psixologik yondashuv variantlaridan biri sifatida ko‘rilgan. “Guruhiy” yondashuvdan tashqari, ijtimoiy psixologiyada “shaxsiy” yondashuv ham mavjud. Bu ikki yondashuv ijtimoiy psixologiya vujudga kelishining ikkita manbasi: sotsiologiya va psixologiyadan kelib chiqqan. Ham birinchi, ham ikkinchi yondashuv tarafdorlari uchun odamlarning ijtimoiy xulqining sabablarini izlash xos. Ammo shaxsiy yondashuv tarafdorlari bunday xulqning faqat eng yaqin bo‘lgan sabablarini izlashadi. Shuning uchun ularga guruh faqat ko‘p sonli odamlar bir joyda hozir bo‘lishi fakti sifatida muhim, ammo bunda u, tarkibiga guruh kirgan ijtimoiy tizimdan tashqari ko‘riladi. Ayni shunda guruhning rasmiyatchilikka asoslangan tushunchasi mavjud.

Boshqa tarafdin, “guruhiy” yondashuv, individ o‘z me’yorlari va qadriyatlarini shakllantirayotgan guruhdan ancha tashqariga, ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy tavsiflariga chiqib ketishga intiladi. Ikkinchidan, guruh turli mualliflar tomonidan qanday izoqlanmasin, aksariyati uchun ijtimoiy-psixologik tadqiqotning ikkita asosiy bloklarini ajratish tabiiy hol edi. Bitta blok an’anaga ko‘ra insonlar muloqoti va o‘zaro harakatlarni tavsiflovchi turli jarayonlarni, ya’ni kommunikatsiya, interaktsiya, pertseptsiya, attraktsiya va hokazolarni o‘rganish bilan bog‘liq. Albatta, ushbu jarayonlar vakuumda emas, guruh tarkibida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Ammo tadqiqotlarda guruhiy faoliyat kabi o‘zgaruvchan ko‘rsatkich yoritilmagan. Ammo ikkinchi, ayni guruhlarini o‘rganish bilan bog‘liq blok, biroz chetda, alohida turibdi. Ushbu blok doirasida guruh kattaligi, uning tuzilishi o‘rganiladi, birinchi blokda ko‘rilgan guruhiy jarayonlar tilga olinsa ham, ular birgalikdagi guruhiy faoliyat bilan bog‘liqsiz ko‘rilmoqda. Natijada guruh va jarayonlarning nisbatan izolyatsiyalangan ta’rifi vujudga keladi, har holda guruhda bo‘lib o‘tayotgan jarayonlarni o‘rganishda, guruhning ahamiyatli ko‘rsatkichlari istosno

qilinmoqda. Va nihoyat, uchinchidan, an'anaviy ijtimoiy psixologiya uchun, ayniqsa uning amerikacha ko'rinishida, e'tibor guruhlarning ma'lum turlariga, ya'ni kichik guruhlarga berilgan, va asosan uning ichida shakllanayotgan shaxslararo munosabatlar, ushbu shaxslararo munosabatlar qay darajada guruhiiy faoliyat tavsifiga bog'liq ekanligini aniqlamagan holda o'rganilmoqda. Demak, ular ijtimoiy munosabatlar bilan qanday bog'liqligi tekshirilgani yo'q.

Aytib o'tilganlarning barchasi, guruhni tadqiqot qilishga yangi yondashuvning talablarini aniq ifodalashga majbur qiladi. Vazifa shundan iboratki, umumiy ko'rinishda tekshirilgan insonlar munosabatlari va o'zaro harakatlanishning qonuniyligini, endi ular namoyon bo'layotgan haqiqiy ijtimoiy kataklarda batafsil ko'rib chiqish kerak. Ushbu masalani hal etish uchun, qabul qilingan ma'lum uslubiy tamoyillardan tashqari, ijtimoiy psixologiyada guruh tekshirilishi mumkin bo'lgan, uning asosiy tavsiflari ta'riflanishi mumkin bo'lgan konseptual apparatni belgilash zarur.

Kollektiv (jamo) – lotin tilidan chiqqan tushuncha, “jamlovchi”, ya'ni yaxlitlik, birlashish ma'nosini beradi.

“**Guruh**” tushunchasi ma'nosi bo'yicha “to'garak” so'ziga teng. Ikkala tushuncha asosida odamlarni birlashtiruvchi aloqa yotadi. Jamoa deb, a'zolari ish (xizmat), ma'naviy mazmunli va bevosita mazmunli ruhiy (psixologik) aloqalar bilan birlashgan kichik guruhlar ataladi. Uning a'zolari birgalikdagi urinishlari bilan o'z faoliyatining ijtimoiy-boylik natijalari olinishini ta'minlashadi. Jamoa inson rivojlanishida, u shaxs sifatida shakllanishida bosh omil sifatida xizmat qiladi. Jamoaning psixologik tadqiqotiga ikkita asosiy yondashuv mavjud. Birinchisiga asosan, jamoa – mustaqil, uni tashkil etuvchi a'zolar majmuiga taqalmagan, ijtimoiy hosiladir: yuridik shaxs, aniq faoliyat yoki butun mehnat subyekti sifatida ko'riladi. Jamoa bu yerda yaxlit ijtimoiy subyekt sifatida ko'riladi, uning hayoti va faoliyati har bir a'zosining faolligiga olib keladi va uning hisobiga u ham yashaydi.

Ikkinchi yondashuv bo'yicha, jamoa odamning hayot va faoliyatining ijtimoiy – psixologik muhiti, odamlar bir-biri uchun yaratigan muhit sifatida tushuniladi. Bu yerda jamoa va guruhlar to'g'risida emas, ko'proq “shaxs guruh ichida” haqida gap yuritiladi. Bu konsepsiya jamoada shaxsga qaratilgan nuqtayi nazarni ifodalaydi.

Jamoaning ijtimoiy-psixologik shakllanishi belgisi bo'yicha, uning rivojlanish darajasini aniqlash mumkin.

Mazkur belgilar bo'yicha, jamoa rivojlanganligi darajasiga baho berish mumkin. Yuqori darajada rivojlangan mehnat jamoasi boshqalardan aniq tavsiflar mavjudligi bilan ajralib turadi. Birinchi tavsif barqarorlik, kasbiy va ijtimoiy-psixologik turg'unlik hisoblanadi, u jamoa a'zolarining jipslanganligiga asoslangan. Mehnat jamoasining ikkinchi tavsifi manfaatlar, maqsadlar va butun

hayotiy faoliyatning ijtimoiy-qadriyatli yoʻnaltirilganligi hisoblanadi. Boshqa soʻzlar bilan aytganda, bu uning sogʻlom maʼnaviy-psixologik holatidir. Mehnat jamoasining muhim tavsifi sifatida aniq xodimning manfaatlari, qadriyatlari va ehtiyojlarini korxonaning umumiy maqsadlari va vazifalari bilan uygʻunlashtirish qobiliyati hisoblanadi. Jamoaning bunday tavsifi shakllanganligi uning barcha aʼzosi asoslangan holda jipslashishi uchun va mazkur ishda faol ishtirok etish uchun katta koʻmak beradi. Jamoa rahbari xodimlar oʻrtasida muloqot va oʻzaro harakatlanish yaxshi tashkil etilishi uchun hamda, umuman, jamoa psixologiyasi mazmuni, tarkibi va ahvoli uchun javobgar hisoblanadi. Agar u maʼmuriy tazyiq oʻtkazish va ochiq-oydin majburlash usullari bilan harakat qilsa, samarali boshqaruvni amalga oshira olmaydi. Bulaning barchasi boshqa soʻzlar bilan aytganda, “ichki rahbarlik” deb ataladi. U jamoaviy psixologiyaning asosiy elementlariga: jamoaviy fikr, oʻzaro munosabatlar, kayfiyat va u bilan bogʻliq kommunikatsiya jarayonlari – muomala va oʻzaro harakat qilishga taʼsiroʻtkazishdan iborat. Ichki rahbarlik mehnat jamoasi psixologiyasi normal ravishda faoliyat koʻrsatishini va rivojlanishini taʼminlovchi muhim omil hisoblanadi.

Jamoaviy psixologiyani boshqarish ikkita asosiy usul bilan amalga oshiriladi. Birinchi usulda rahbar oldida turgan masalalarni hal etishga koʻmak beradigan psixologik omillarni aniqlashga va ulardan foydalanishga harakat qiladi. Jamoa psixologiyasiga taʼsir oʻtkazishning ikkinchi usuli, zarur boʻlgan, ammo hozirgi paytda mavjud boʻlmagan boʻgʻinlarni maqsadga yoʻnaltirilgan holda shakllantirish hisoblanadi, bular qatorida guruhiy qoida va holatlarni toʻgʻrilash, alohida xodimlar va guruhlar oʻrtasida oʻzaro munosabatlarni oʻrnatish, yumshatish va mustahkamlash, anʼanalarni maʼnaviy jihatdan yaxshilash, kayfiyatni koʻtarish. Agar jamoa ichidagi jarayonlarga xos qonuniylikni eʼtiborga olsa, ushbu masalalarni hal etish mumkin. Jamoaviy fikrni shakllantirishning odatdagi usulidan foydalanish ham istisno etilmaydi. Usul asos boʻlishi kerak asosiy gʻoyalar rahbar tomonidan bildirilishi, uning tomonidan tushuntirilishi va xodimlar ongiga singdirishi lozim. Agar rasmiy sardor obroʻga ega boʻlsa, jamoaviy fikr bildirilishi lozim boʻlgan muammoni qoldirib boʻlmasa, bu usul yetarli darajada samara beradi.

15.2. Shaxs va guruh. Guruh turlari.

Shaxslararo munosabatlar, asosan, guruh sharoitida, shaxs maʼlum insonlar davrasida, guruhida, jamoada boʻlgan taqdirda roʻy beradi. Shuning uchun ham mutaxassislar jamoalarda roʻy beradigan shaxslararo taʼsirning qonuniyatlari va mexanizmlarini bilishlari va ularni guruhda odamlar mehnatini tashkil etishda, albatta, inobatga olishlari kerak.

Har bir shaxsning fe'l-atvorida, xatti-harakatlarida u mansub bo'lgan millat, xalq, hudud, professional toifa, mehnat qiladigan jamoasi, yaqin atrofdagi muqim guruhi, oilasining ta'siridan paydo bo'lgan sifatlari va xususiyatlari bo'ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzimi va o'sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta'sirlar haqida yuqorida gapirgan edik. Bu ta'sir **makro bosqichdagi ta'sirlar** deb atalib, yaqin muhitning ta'siri – **mikro bosqichdagi ta'sirlar** deb yuritiladi. Ikkala bosqichdagi ta'sirlar ham ijtimoiy psixologik nuqtayi nazardan ahamiyatli va tarbiyaviy mohiyatga egadir. Chunki har bir sharoitda shaxs o'ziga xos ijtimoiy rollarni bajaradi va o'zining «qiyofasini» namoyon etadi. Mehnat jamoasida professional rollarni bajarish jarayonidagi xulq-atvori shaxsning ma'naviy va psixologik ko'rinishidagi asosiy omil bo'lib, katta yoshdagi odam psixologiyasini tubdan o'zgartirish uchun uning professional faoliyatini ham o'zgartirish kerak, deyiladi.

Shunday qilib, shaxsga bir vaqtning o'zida turli ijtimoiy guruhlarining ta'siri bo'lib turadi. To'g'ri, ma'lum davrda bir ijtimoiy guruhning shaxsga ta'siri sezilarliroq va ahamiyatliroq, ikkinchisidiki esa sal kamroq bo'ladi. Masalan, o'quvchilik yillarida maktabdagi o'quvchilar guruhining ta'siri mahalladagi o'rtoqlar davrasinikidan kuchliroq bo'lishi, yangi xonadonga kelin bo'lib tushgan qiz uchun yangi oila muhitining ta'siri talabalik guruhinikidan kuchliroq bo'lishi tabiiy. Lekin har bir alohida daqiqada biz doimo ma'lum guruhlar ta'sirida bo'lamiz. Xo'sh, guruhning o'zi nima? **Guruh – ma'lum ijtimoiy faoliyat maqsadlari asosida to'plangan, muloqot ehtiyojlari qondiriladigan insonlar uyushmasidir.** Demak, guruh uchun ikkita asosiy mezon mavjud: biror faoliyatning bo'lishligi (mehnat, o'qish, o'yin, muloqot, maishiy manfaatlar) hamda u yerda odamlarning o'zaro muloqoti uchun imkoniyatning mavjudligi.

Har bir shaxs uchun taraqqiyotning har bir alohida bosqichida shunday odamlar guruhi bo'ladiki, u ularning niyatlari, qiziqishlari, harakat normalari, g'oya va fikrlariga ergashishga tayyor bo'ladi, harakatlaridan andoza oladi, ularga taqlid qiladi. Bunday guruh psixologiyada **referent guruh** deb ataladi. Amerikalik sotsiologlar referent guruhlarining bir necha turlarini farqlaydilar.

Normativ guruhlar – bu shaxs uchun shunday insonlar guruhiki, ularning normalarini u ma'qullaydi, ularga amal qilishga hamisha tayyor bo'ladi. Bunday guruhlariga, birinchi navbatda, oilani, diniy yoki milliy uyushmalarni, professional guruhlarini kiritish mumkin. Masalan, o'zbek xalqi uchun dasturxon atrofiga o'tirgan zahoti yuzga fотиha tortish, mezbonlarning mehmonlarga «Xush kelibsizlar» deyishlari norma hisoblanadi va har bir oilada shunday harakatlarga nisbatan ijobiy ustanovka shakllanadi. Bunda bola uchun referent rolini ota-onasi, kattalar, mahalladagi hurmatli insonlar o'ynaydi.

Qiyoslash guruhlari – bu shunday guruhki, shaxs o'sha guruhga kirishga, uning ma'qullashiga muhtoj bo'lmaydi, lekin o'z harakatlarini yo'lga solishda

unga asoslanadi va korreksiya qiladi. Masalan, talabalar guruhida shunday yoshlar bo'lishi mumkinki, shaxs ular bilan umuman muloqotda bo'lmaydi, ularning fikrlari yoki qarashlarini yoqlamaydi, lekin bu guruh aynan o'shalarga o'xshamaslik va o'z ustida ko'proq ishlashga o'zini safarbar qilish uchun kerak. Yoki talaba yoshlar sessiya yakunlariga ko'ra differentsial stipendiya oladilar. O'rtacha o'zlashtiruvchi talaba uchun «hamma talabalar» oladigan stipendiya miqdorini nazarda tutib, o'zini tinchlantiradi, a'lochi esa, o'zinikini nafaqat oddiy, o'rtachalar bilan balki, davlat stipendiyalari oladiganlar bilan ham solishtiradi. Ko'rsatkichlar qanchalik yuqori bo'lsa, shunga mos da'vogarlik darajasi ham yuqori bo'ladi, shaxsning qiyoslash guruhlari ham ortiqroq bo'ladi.

Negativ guruhlar - shundayki, shaxs ularning xatti-harakatlaridan ataylab voz kechadi, chunki ular shaxsiy qarashlardan mutlaq farq qiladi. Masalan, ikki qo'shni bir-biri bilan murosalar kelishmasa, hattoki, devorlarini oqlashda ham biri tanlagan rangni ikkinchisi tanlamaydi. Biri «oq» desa, ikkinchisi, aksincha, «qora» deb turaveradi.

Kundalik hayotda shaxs muloqotda bo'ladigan, vaqtini birgalikda o'tkazadigan kishilar guruhi ham turli xil bo'ladi. Masalan, agar odamlar ko'chada tasodifiy hodisaning tomoshabini bo'lib turishgan bo'lsa, ularni psixologiya tilida guruh emas, **agregatsiya (olomon)** deb atashadi. Haqiqiy guruh uchun o'sha odamlarning barchasiga aloqador umumiy faoliyat va hamkorlik qilish, bir-birlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyati bo'lishi kerak. Amerikalik psixolog Ch. Kuli hamkorlikning darajasi mezoniga ko'ra guruhlarni birlamchi va ikkilamchi turlarga bo'lib o'rganishni taklif etgan edi. **Birlamchi guruhda** shaxslararo o'zaro ta'sir «yuzma-yuz, bevosita» ro'y beradi. Masalan, oila davrasidagi, sinfdagi, hisobchilar xonasida o'tirganlar birlamchi guruhga misoldir.

Ikkilamchi guruhlarda har doim ham odamlarning bevosita muloqotda bo'lish imkoniyatlari bo'lmaydi. Ular o'rtasidagi munosabat va o'zaro ta'sir bilvosita bo'ladi. Masalan, yirik bir tashkilotdagi tizimlar orqali muloqot, kasaba uyushmasiga birlashgan odamlar, «Vatan taraqqiyoti» partiyasi a'zolarining bog'liqligi ikkilamchi guruhga misol. Ularda ham umumiylik bo'ladi, masalan, o'sha partiyani oladigan bo'lsak, ular Qashqadaryoda bo'ladimi, Farg'onadami, baribir umumiy g'oya atrofida birlashishadi, a'zolik badallarini vaqtida to'lab turishadi, saylov oldi kompaniyalarida bir - birlarini qo'llab-quvvatlab turadilar.

Ko'pincha guruhlarni rasmiy va norasmiy turlarga ham bo'lib o'rganishadi. **Rasmiy guruhdagi** munosabatlar rasmiy normalar va huquq, burchlar tizimi bilan belgilangan bo'ladi. Masalan, guruhda boshliq bilan xodimlar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlovchi guruh rasmiy bo'lsa, **norasmiy** - ichki, bevosita psixologik munosabatlarni ta'minlovchi guruh hisoblanadi. Masalan, do'stlar

guruhi, yoki talabalar guruhidagi barcha qizlarning tanaffus paytidagi muloqoti guruhi.

Turli guruhlar inson hayotida bir necha funksiyalarni bajaradilar:

a) ijtimoiylashtiruvchi funksiya;

b) instrumental, ya'ni aniq mehnat funksiyalarini amalga oshirishga imkon beruvchi muhit;

d) ekspressiv – odamlarning o'zgalarning tan olishlari, hurmatga sazovor bo'lish, ishonch qozonishini ta'minlash;

e) qo'llab-quvvatlash, ya'ni qiyin paytlarda, muammolar paydo bo'lganda odamlarni birlashtirish funktsiyasi.

R.S.Nemov kichik ijtimoiy guruhlarning quyidagi klassifikatsiyasini taklif etgan:

3-jadval.

Shartli (nominal)	Real (haqiqiy)
Tabiiy	Laboratoriya tipli
<i>Formal (rasmiy)</i>	<i>Noformal (norasmiy)</i>
<i>Kuchsiz rivojlangan</i>	<i>Kuchli rivojlangan</i>
<i>Korporatsiya</i>	<i>Jamoalar</i>
<i>Referent</i>	<i>Noreferent</i>

Guruhlar ulardagi odamlar soniga ko'ra **katta va kichik guruhlarga** bo'linadi. Psixologiyada ko'proq kichik guruhlar o'rganiladi. Uni necha kishi tashkil etishi, necha kishining hamkorlikdagi faolityati ko'proq samara berishi masalasi amaliy ahamiyatga egadir. Ko'pchilik olimlar guruhning boshlang'ich nuqtasi sifatida miqdor jihatdan ikki kishini – **diadani** tan olishadi. Polyak olimi **Yan Shepanskiy** bunga qo'shilmasa-da (uning fikricha kamida uch kishi – triadadan boshlanadi), har qalay diada o'ziga xos uyushma sifatida tan olingan. Masalan, yangi oila qurib, birga yashayotgan kishilar, sevishganlar, ikki do'st – o'ziga xos kichik guruh. Har qanday kichik guruhga xos sifat shuki, uning a'zolari bir-birlari bilan bevosita muloqotga kirishish, «yuzma-yuz» bo'lish imkoniyatga ega bo'ladi. Har bir kishi uchun shu guruh juda ahamiyatli bo'lib, uning normalariga o'zi xohlab-xohlamay bo'ysuna boshlaydi. Kichik guruhning chegarasi masalasi ham ko'p muhokama qilinadi.

G.M. Andreeva bu chegarani 12-15 kishi deb hisoblasa, amerikalik Moreno o'z vaqtida bu chegarani 30-40 gacha surgan edi. Lekin bizningcha, uning yuqori chegarasi necha kishi bo'lishidan qat'iy nazar, o'zaro bevosita muloqot imkoniyatini berishi va har bir a'zo bir-biriga ta'sir ko'rsata olishi kerak.

Har bir guruh o'ziga xos psixologik tizimga ham ega. Uni tashkil etuvchi elementlar nisbatan barqaror bo'lib, ular guruh a'zolari xulq-atvorini

muvofiqlashtirib turadi. Avvalo guruhning *maqsadini* ajratish kerak. **Maqsad** – odamlarni jamoa mehnati atrofida uyushtirib, birlashtiruvchi psixologik elementdir. Masalan, barcha talabalarning maqsadi – o‘qish, professional malaka orttirib, mutaxassis bo‘lib yetishish.

Guruhning *avtonomligi darajasi* ham ma‘lum ahamiyatga ega omil, chunki har bir a‘zo umumiy maqsad asosida birlashgan bo‘lsa ham, ularning har birining o‘z burch va vazifalari bor va shu nuqtayi nazardan har bir odam o‘z imkoniyatlarini o‘zicha ishga solib, o‘zaro munosabatlarga sabab bo‘ladi.

Guruhning psixologik tizimga ta‘sir etuvchi omillariga yana ularning jinsiy, yosh jihatdan, ma‘lumoti va malakasi nuqtayi nazaridan farq qiluvchi va uyg‘unlikni tashkil etuvchi omillar ham kiradi.

Guruhning *uyushganligi* ham dinamik ko‘rsatkichlardan bo‘lib, shu nuqtayi nazardan har bir guruh bir-biridan farq qiladi. Masalan, odamlar hamkorlikda bajarayotgan ishning qiziqarli va hamma uchun manfaatli ekanligi, guruh normalarining a‘zolar tomonidan qabul qilinishi, qadriyatlar tizimini tasavvur qilishdagi fikrlar mosligi uyushqoqlikning mezonlaridir.

Guruhning tizimi yana uning katta-kichikligiga ham bog‘liq. Masalan, 5-10 kishidan iborat guruhdagi munosabatlar yaxshiroq, uyg‘unroq va faoliyat samaraliroq hisoblanadi. Chunki bunday guruhlarda norasmiy muloqot uchun ma‘qul sharoit mavjud bo‘ladi. Bunday guruhlarda «guruhbozlik» degan illat ham bo‘lmaydi. Guruhning hajmi ortib borgan sari ularda rasmiyatchilik, rasmiy yuzaki munosabatlar ko‘payadi va bu odamlar o‘rtasidagi insoniy munosabatlarda o‘z aksini topadi.

15.3. Jamolarda psixologik o‘zaro moslik.

Guruh hayoti va undagi a‘zolarining o‘zlarini yaxshi his qilishlari ko‘p jihatdan ularning hamkorlikda ishlay olishlari va bir-birlariga ijobiy munosabatda bo‘la olishlariga bog‘liq. Bu hodisani tushuntirish uchun psixologiyada psixologik moslik tushunchasi mavjud. **Psixologik moslik deganda**, guruh a‘zolari sifatleri va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarining mos kelishi, qolganlarining kerak bo‘lsa, tafovut qilishi nazarda tutiladi. Moslikning mezoni sifatida N. Obozov quyidagilarni ajratadi:

- a) faoliyat natijalari;
- b) a‘zolarining sarflagan kuch – energiyalari;
- d) faoliyatdan qoniqish.

Ikki xil o‘zaro moslik farqlanadi: psixofiziologik va ijtimoiy psixologik. Birinchi holatda, faoliyat jarayonida odamlarning bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, reaksiyalar mosligi, ish ritmi va tempidagi uyg‘unliklar nazarda tutilsa, ikkinchisida, ijtimoiy xulqdagi moslik – ustanovkalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, qarashlardagi monandlik, yo‘nalishlar birligi nazarda tutiladi.

Birinchi xil moslik ko'proq konveyer usulida ishlanadigan sanoat korxonalarida xodimlarida samarali bo'lsa, bu oliygoh o'qituvchilari, ijodiy kasb egalarida iloji yo'q va bo'lishi mumkin emas, ularda ko'proq ijtimoiy psixologik moslikning ahamiyati kattadir. O'tkazilgan tadqiqotlar psixologik moslikning ko'plab qirralari bo'lishi mumkinligini isbot qildi. Asosan shuni unutmaslik kerakki, qaysi faoliyat va uning maqsadi odamlarni birlashtirgan bo'lsa, o'sha maqsadni idrok qilish va birgalikda anglash istagida uyg'unlikning bo'lishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. **Guruhiy qarorlar qabul qilishda o'zaro ta'sir masalasi.** Guruhda odamlarning bir-birlarini yoqtirishlari yoki, aksincha, inkor qilishlari, ko'pincha, turli xil qarorlar qabul qilish jarayonida ro'y beradi. Guruhiy qarorlar qabul qilish individual qarorlar qabul qilish jarayonidan tubdan farq qilmaydi. Ikkalasida ham avval muammo aniqlanadi, ma'lumotlar to'planadi, bir nechta takliflar ilgari suriladi va, nihoyat, eng ma'quli qabul qilinadi. Lekin guruhda bu jarayon biroz boshqacharoq kechadi va nizolar, ko'pincha, aynan shu jarayon bilan bog'liq bo'ladi.

Amerikalik psixolog **T. Mitchellning** fikricha, o'zaro ta'sir guruh sharoitida quyidagi omillar vositasida ro'y beradi:

- 1) ayrim a'zolar boshqalariga nisbatan ko'proq gapirishga moyil bo'ladilar;
- 2) yuqoriroq mavqega ega bo'lgan shaxslar qarorlar chiqarish jarayonida ham boshqalarga tazyiq o'tkazishadi;
- 3) guruhda ko'p vaqt o'zaro fikrlardagi kelishmovchiliklarning oldini olishga ketib qoladi;
- 4) guruhda ayrim odamlar ta'sirida asosiy maqsaddan chetlash va maqsadga nomuvofiq qarorlar qabul qilish hollari kuzatiladi;
- 5) barcha a'zolar o'zlari sezmagan holda konformlilikka berilishlari va guruh ta'siriga tushib qoladilar. Shuning uchun ham ba'zan majlisni olib boruvchi rais kun tartibini e'lon qilgan bo'lsa-da, undan chalg'ib ketishi va o'rinsiz qarorlar qabul qilishi mumkin.

Lekin guruhiy qarorlar qabul qilish jarayonining eng katta ijobiy tomoni shundaki, unda ko'plab fikrlar tug'iladi va o'rtaga tashlanadi. Bu fikrlar shunday sharoit yaratadiki, oxir-oqibat, alohida individual fikrlardan, biroz bo'lsa-da, farq qiladigan original yangi fikr paydo bo'ladi. Shuning uchun ham rahbarlik san'ati ko'pchilik fikriga tayangan holda oxirida eng ma'qul qarorga kela olishdir. Lekin salbiy tomoni shundaki, guruhiy muzokara va qarorlar qabul qilish jarayoni ba'zi a'zolarida loqaydlik («Menga nima, ular gapirishyapti-ku» kabi), tashabbussizlik («Baribir meniki qabul qilinmaydi, gapirib nima qildim?» kabi) illatlarini ham paydo qilishi mumkin. Bu o'sha muhitda ayrim odamlar fikri doimo qo'llab – quvvatlangan, ayrim odamlarga e'tibor, imtiyoz berilgan sharoitlarda rahbarning aybi bilan ro'y beradi.

Xoffman o'z eksperimentlarida guruhiy qarorlar qabul qilishga guruhning tarkibi ta'sir qilishi mumkinligini isbot qilgan. Uning fikricha, yaxshi, sifatli, ijobiy fikrlar va qarorlar guruh tarkibi har xil (**geterogen tarkib**) bo'lgan sharoitlarda, uning tarkibi bir xil (**gomogen**) bo'lgandan ko'ra, ancha ko'p va sifatli bo'ladi. Gomogen guruhlarda (masalan, taxminan bir xil o'zlashtiradigan talabalar guruhi) qarorlar qabul qilish mobaynida konfliktlarning kam bo'lishi va qarorlar tezda qabul qilinishi aniqlangan.

Har qalay qarorlar qabul qilish jarayoni psixologik jihatdan **tavakkalchilikka** asoslanishi ham isbotlangan. Lekin tavakkalchilik darajasi guruh sharoitida individual holatdagidan ancha past bo'lar ekan. O'rtacha guruh a'zosining bu o'rindagi fikri: «Tavakkal shu gapni aytaychi, noma'qul bo'lsa, guruh bor-ku, ular ma'qullashgan-ku?». Demak, guruh sharoitida qabul qilingan har qanday qaror mohiyatan ijtimoiy xarakterli bo'lib, uning to'g'ri va foydali, natijali bo'lishida rahbarning roli katta bo'ladi.

Guruhdagi psixologik muhit va uni o'rganish.

Guruh va jamoalar to'g'risida gap ketganda, ko'pincha, uning «ma'naviy muhiti», «psixologik muhiti» degan iboralar ishlatiladi. Chunki bu narsa o'sha yerdagi ishning yaxshiligi, faoliyatning samarasi bilan bog'lanadi. ***Ijtimoiy psixologik muhit deganda, biz o'sha guruhning a'zolari fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalar va o'zaro munosabatlaridan iborat bo'lgan emotsional-intellektual holatni tushunamiz.*** Bu o'rindagi asosiy omil - bu a'zolarining o'zaro munosabatlaridir. Ma'lumki, o'zaro munosabatlar ish yuzasidan, faoliyat maqsadlari va mazmuni bilan hamda bevosita bir-birlarini yoqtirish-yoqtirmaslikka asoslangan insoniy emotsional hissiyotlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Professional faoliyatni bajarish jarayonida tabiiy birinchi tipli munosabatlar ustuvor bo'lib, ikkinchilarining xarakteri birinchisidan kelib chiqadi. Do'stlar to'plangan davradagi muhit esa, aksincha, bevosita simpatiyalarga tayanadi.

Ijtimoiy psixologiyada ana shunday psixologik muhitni eksperimental tarzda o'rganishga katta e'tibor beriladi. Eng keng tarqalgan usullardan biri sotsiometriya bo'lib, uning asoschisi amerikalik olim **Jon Moreno** hisoblanadi. Sotsiometriya lotincha «**so cietas**» – jamiyat va «**metreo**» – o'lchayman so'zlaridan olingan bo'lib, guruhdagi shaxslararo munosabatlarni o'lchashga qaratilgan texnikadir. Nazariy sotsiometriya uning muallifi fikricha, jamiyatdagi barcha nizolar, muammolarni yechishning usullaridan biri - insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va shunga ko'ra, jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirish kerak, degan g'oyaga asoslanadi. Amalda esa har bir jamoalarda maxsus sotsiometrik so'rovlar o'tkaziladi va uning natijalari tashkiliy jarayonlarda inobatga olinadi.

Lekin oxirgi paytlarda sotsiometriyaga nazar o'zgargan, uning yuzlab modifikatsiyalari, turlari ishlab chiqildi. Ahamiyatlisi shuki, uni haqiqatan ham guruhdagi ma'naviy-psixologik muhitga ta'sir etuvchi emotsional munosabatlarni aniqlashda mutaxassis tomonidan ishlatish mumkin. Bunda har bir guruh a'zosi tanlov sharoitiga solinadi, ya'ni u yoki bu sharoitda, vaziyatda yoki faoliyatni bajarishda o'ziga yoqqan (yoqmagan ham) sherigini guruhdoshlari orasidan tanlashi kerak. Masalan, maktab o'quvchilariga «Kim bilan birga dars tayyorlashni xohlarding?», «Kim bilan maktab yer uchastkasidagi hasharda yonma-yon turib ishlashni istarding?», mehnat jamoalarida esa «Boshliq tomonidan berilgan muhim topshiriqni ikki kishi bajarishi kerak bo'lsa, sheriklikka kimni olgan bo'lardingiz?», talabalarda «Xorijga o'qishga yuborishsa, guruhdoshlaringdan kimlar senga sherik bo'lishini istaysan?» kabi savollar bilan murojaat qilinadi. So'rov anonim bo'lib, har bir ishtirokchi 3-5 tagacha tanlash huquqiga ega bo'ladi. Natijalar jadvalga solinib, qayta ishlanadi va, hattoki, grafik tarzida chiziladi. Metodika guruhdagi odamlar bir-birlarini yaxshi bilgan taqdirdagina o'tkaziladi. Ma'lumotlarni qayta ishlash har bir xodimning to'plagan tanlovlarini sanash va tahlil qilishga asoslanadi. Ular asosida guruhdagi liderni va liderlik stilini aniqlash mumkin. Sotsiometriya korxonada tarkibida kadrlar zaxirasini shakllantirish, har bir xodimning reytingini aniqlash orqali ularda liderlik sifatlarining borligini o'rganishga imkon beradi.

15.4. Konformizm hodisasi.

Konformizm- guruhning haqiqiy yoki xayoliy ta'siri ostida xulq-atvor yoki e'tiqodning o'zgarishi.

Konformizm qanday sharoitda va qay holda namoyon bo'ladi? Agar biz o'yingohda sevimli futbol komandamizning darvozaga to'p kiritishini boshqa tomoshabinlar bilan birgalikda sakrab va hayqirib qarshi olsak, bu konformizmmi? Yoki millionlab boshqa odamlar singari koka-kola ichsak, konformizmni namoyon qilgan bo'lamizmi? Asosiy masala shundaki, guruhdan tashqarida ham biz o'zimizni shunday tutgan bo'larmidik, masalan, agar o'yingohda biz yagona tomoshabin bo'lsak, sakrab-hayqirarmidik?

Konformizm hamma singari harakat qilishni emas, balki ko'pchilikka xos xulq-atvorning ta'siriga tushib qolishni anglatadi.

Konformizmning ikki xil ko'rinishi mavjud. Ayrim hollarda biz o'zimizni shunday tutishga majbur bo'lamizki, xatti-harakatlarimiz o'zimizni qoniqtirmaydi. Bunday nosamimiy va tashqi konformizm **yon berish** deb ataladi. Biz, ko'pincha, maqtov olish yoki jazodan qutulish maqsadida yon

beramiz. Ba'zan esa ko'pchilikning harakatlariga samimiy ishonish bizning guruh ta'siriga tushib qolishimizga sabab bo'ladi. Konformizmning bu tarzda samimiy va ichdan namoyon bo'lishi **ma'qullash** deb ataladi. Ba'zi paytlarda ma'qullash yon berish natijasida paydo bo'ladi. Konformizm haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish maqsadida ushbu hodisa tadqiq qilingan **mumtoz (klassik)** eksperimentlarni ko'rib chiqamiz.

Muzaffar Sharif (Sherif, 1906) o'tkazgan mumtoz eksperimentlarda **me'yorlar shakllanishining** ijtimoiy-psixologik sabablari o'rganilgan (1937). Bu eksperimentlarni o'tkazishda tadqiqotchi fizika fanidagi avtokinetika hodisasidan foydalangan. Faraz qiling, siz eksperiment ishtirokchisi sifatida qorong'i xonada o'tiribsiz. Sizdan 4,6 metr masofada yorug' nuqta paydo bo'ldi; birozdan so'ng nuqta tartibsiz harakatlana boshladi va o'chdi. Sizdan yorug'lik nuqtasining taxminan qancha masofaga ko'chganini aniqlash talab etiladi. Ertasiga xuddi shu eksperiment yana takrorlanadi, biroq endi siz eksperimentda boshqa ikki ishtirokchi ("soxta ishtirokchilar") bilan birgalikda javob berasiz. Eksperiment ishtirokchilarning ishonuvchanlik darajasini - ma'qullash konformizmini namoyon qildi. Qizig'i shundaki, eksperiment jarayonida "soxta ishtirokchilar" yordamida shakllangan javob me'yori haqiqiy ishtirokchilarning keyingi beshta "avlodida" saqlanib kelgan.

"Nima uchun bir kishining esnog'i boshqalarni ham esnashga majbur qiladi?" (Robert Berton, "Hafaqonlik anatomiyasi", 1621).

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, jamiyatda oshkoralik qanchalik ko'p bo'lsa, jamiyat a'zolarining ishonuvchanlik darajasi ham shuncha yuqori bo'lar ekan.

Solomon Ash (Asch, 1907) eksperimentlarida **guruh tazyiqi** tadqiq qilingan (1955). Eksperimentda 7 kishi ishtirok etadi. Ishtirokchilardan ko'rsatilgan uchta to'g'ri chiziq kesmasining qaysi biri etalonga mosligini aniqlab berish talab etiladi. Eksperiment ishtirokchilari - talabalar. Har bir eksperiment ishtirokchisi o'zining tartib raqamiga muvofiq javob beradi. Eksperimentning haqiqiy ishtirokchisi 6 tartib raqami ostida ishtirok etadi (qolgan ishtirokchilarning hammasi – "**soxta ishtirokchilar**"). Eksperiment uchta seriyadan iborat, ya'ni u uch marotaba o'tkaziladi. Eksperimentning "soxta ishtirokchilari" har uchchala seriyada ham qatnashadilar, ammo faqat uchinchi seriyada ular «ishga kirishadilar». Maqsad - agar bir nechta "soxta ishtirokchi" (ya'ni kichik guruh) bir xilda noto'g'ri javob bersa, eksperimentning haqiqiy ishtirokchisi o'zining to'g'ri javobini o'zgartiradimi yoki yo'qmi - shuni aniqlash. Eksperiment ishtirokchilari yakka holda javob berganlarida 99% to'g'ri javob olingan bo'lsa, guruhda ularning 37%i o'z fikrini "ko'pchilik foydasiga" o'zgartirgan, ya'ni konformizmni namoyon qilgan.

"Ko'pchilik tomonda bo'lish - eng oson ish"(Seneka).

Stenli Milgrem (Milgram, 1933-1984) o'z eksperimentlarida konformizmning yana bir ko'rinishi – **bo'ysunish hodisasini** o'rgangan (1965,1974). Mazkur eksperimentlar o'tkazilish ssenariysi va olingan natijalariga ko'ra haligacha o'z qimmatini yo'qotmagan bo'lsa-da, Stenli Milgremning vatandoshlari (amerikaliklar) bu eksperimentlarni "**millatni haqoratlovchi eksperimentlar**" deb baholaganlar. **Stenli Milgrem** o'z eksperimentlarini quyidagi ssenariy asosida o'tkazgan.

Psixologik tadqiqot laboratoriyasiga, matbuotda berilgan e'longa muvofiq, eksperimentda qatnashish uchun ikki kishi kirib keladi. Ularga, mazkur eksperimentda o'qitish jarayoni samaradorligiga jazolashning ta'siri o'rganiladi, deb tushuntiriladi. Eksperimentda qatnashchilarning biri (ya'ni "o'qituvchi") ikkinchisini so'z juftlarini eslab qolishga o'rgatishi hamda yo'l qo'yilgan xatolar uchun uni (ya'ni "o'quvchini") kuchi tobora oshib boruvchi elektr toki orqali jazolashi talab etiladi. Ssenariyga muvofiq, rollarni taqsimlash uchun "qur'a tashlanadi": eksperimentning haqiqiy ishtirokchisi "o'qituvchi", "soxta ishtirokchisi" esa "o'quvchi" bo'lib chiqadi. "O'qituvchining" ko'z o'ngida "o'quvchi" maxsus kresloga o'tqaziladi va bilagiga elektrodlar bog'lanadi. So'ngra "o'qituvchiga" misol tariqasida kuchsiz tok zarbasi berib ko'riladi. Shundan so'ng "o'qituvchi" 15 volt dan 450 voltgacha tok kuchiga ega bo'lgan "generator" joylashgan asosiy eksperiment xonasiga olib kiriladi. "Generator" tok zarbasini berishga mo'ljallangan knopkalardan iborat bo'lib, har bir navbatdagi knopka yordamida oldingidan 15 volt kuchliroq tok zarbasi beriladi. Knopkalar 3 qismga ajratilgan bo'lib, ularning tepasiga "**kuchsiz zarba**". "**juda sezilarli zarba**" hamda "**xavfli: kuchli zarba**" degan yozuvlar yopishtirilgan; "generatorning" oxirgi 435 volt dan 450 voltgacha qismiga esa "**XXX**" maxsus belgisi qo'yilgan. "O'qituvchidan" eksperiment jarayonida "o'quvchini" navbatdagi har bir xatosi uchun bir daraja kuchliroq tok zarbasi bilan jazolash talab etiladi. Agar "o'qituvchi" eksperimentatorning talablariga bo'ysunsa, 75, 90 va 105 voltli "jazolashda" "o'quvchining" ingrashini, 120 va 150 voltda uning baqirishini, 270, 300 va 315 voltlarda esa "Javob berishdan bosh tortaman!", degan xitoblarini eshitadi; 330 voltli "jazodan" keyin "o'quvchi" jimib qoladi. "O'qituvchining" eksperimentni to'xtatish haqidagi taklif va iltimoslariga javoban eksperimentator "o'quvchining" javob bermasligi ham noto'g'ri javob sifatida baholanishi, demak jazolanishi lozim, deb tushuntiradi. "O'qituvchini" eksperimentni davom ettirishga undash maqsadida eksperimentator quyidagi maxsus iboralarni qo'llaydi:

"Marhamat, davom ettiring".

"Eksperiment shartlari davom ettirishingizni talab etadi".

"Davom ettirishingiz nihoyatda muhim".

"Boshqa ilojingiz yo'q; davom ettirishingiz shart".

Agarda Siz shunday vaziyatga tushib qolsangiz, o'zingizni qanday tutgan bo'lardingiz?

Stenli Milgrem eksperimentlarni boshlashdan oldin qatnashuvchilarga yuqoridagi savol bilan murojaat qilganda, biror kishi ham "jazolashda" 300 volt dan nariga o'tmasligi hamda eksperimentatorning talablariga taxminan 135 voltgacha bo'ysunishlari mumkinligi haqidagi javoblarni oldi. Biroq bevosita eksperimentlar jarayonida ishtirokchilarning 63%i "o'quvchini jazolashda" oxirgi nuqta – 450 voltgacha yetib borgan hamda eksperimentatorning o'zi ularni to'xtatmaguncha eng kuchli zarba bilan "jazolashni" davom ettirganlar.

Eksperiment ishtirokchilarining bu qadar itoatkorligi Stenli Milgremni qattiq xavotirga soldi, chunki kishilarning shu darajada konformizmga beriluvchanligi jamiyatda **genotsid (xolokost)** singari ayanchli hodisalarga sabab bo'lishi va mudhish oqibatlarga olib kelishi mumkin. Farg'ona vodiysida 1989-yilning yozida mesxetin turklariga qarshi bo'lib o'tgan mudhish voqealar bunga yaqqol misol bo'ladi.

Har qanday yovuzlik kichik qadamlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Konformizm hamda uning namoyon bo'lish shart-sharoitlari haqida so'z yuritar ekanmiz, ijtimoiy fasilitatsiya va ijtimoiy ingibitsiya hodisalari hamda ijtimoiy yalqovlik holatiga alohida to'xtab o'tish lozim.

Biz biror bir ishni bajarayotganimizda boshqa odamlarning oddiy ishtiroki bizga va bajarilayotgan ishning natijasiga ta'sir ko'rsatadimi yoki yo'qmi? Masalan, atrofimizdagi odamlarning ko'z o'ngida imtihon topshirish, biror bir masalani yechish yoki ovqatlanish bizga qanday ta'sir etadi? Atrofimizdagi odamlar bizning xatti-harakatlarimizni qanday baholashi mumkinligi haqidagi fikrlar oqibat natijada xulq-atvorimizni o'zgartiradimi yoki yo'qmi?

Albatta, boshqalarning ishtiroki ishning samaradorligini oshirishi yoki pasaytirishi mumkin, deb aytish, "ertaga havo ochiq bo'ladi, ehtimol yomgir yog'adi", deyish bilan barobar. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bunday vaziyatlarda bajarilayotgan ishning samaradorligi uning qanchalik murakkabligi, bajaruvchining tayyorgarlik darajasi hamda vaziyat ishtirokchilariga bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Kishining oddiy yoki o'ziga yaxshi tanish bo'lgan ishlarni boshqalar ishtirokida yaxshiroq bajarishga bo'lgan moyilligi **ijtimoiy fasilitatsiya** hodisasi deb ataladi. Bu hodisa boshqalar ishtirokida dominant reaksiyalarning kuchayishi bilan izohlanadi.

Ijtimoiy fasilitatsiyaga qarama-qarshi hodisa, ya'ni boshqalarning ishtiroki murakkab yoki notanish ishlarni bajarish samaradorligining pasayishiga olib kelishi **ijtimoiy ingibitsiya** deb ataladi.

Ijtimoiy yalqovlik – kishilarning umumiy maqsad yo‘lida shaxsiy intilishlariga nisbatan kamroq kuch sarflashga moyilliklaridir.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Shaxs, guruh, referent guruh, diada, triada, ijtimoiy-psixologik muhit, geterogen tarkib, gomogen tarkib, ijtimoiy hamkorlik, guruhiy moslik, guruhiy normalar, konformizm, xulq-atvor normalari, guruhiy bosim ko‘rsatish, bo‘ysunish, ijtimoiy fasilitatsiya, ijtimoiy ingibitsiya, agregatsiya (olomon), psixologik moslik.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Shaxs va guruhning o‘zaro ijtimoiy hamkorligi.
2. Ijtimoiy guruh turlari.
3. Ijtimoiy guruhlarning tarkibiy qismi.
4. Konformizm hodisasi.
5. Muzaffer Sherif nazariyasi mohiyati.
6. Solomon Ash nazariyasi mohiyati.
7. Stenli Milgrem nazariyasi mohiyati.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Кабаченко И. Психология организаторской и управленческой деятельности. Учебник. - Питер, 2003.
2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. Elektron darslik. -T., 2008.
3. Машков В. Психология управления. - М.,2000.
4. Усманова А. Психология управления. Электронный учебник.– Т., 2008.
5. Усманова А. Психология управления. - Т., 2010.
6. Якубова З. Психология менеджмента. - Т.: УМЭД, 2000.
7. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. – Т.: JIDU. 2013.

16-MAVZU SHAXS FAOLLIGI

- 16.1. Shaxs va uning faolligi.
- 16.2. Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar.
- 16.3. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.
- 16.4. Motivlarning turlari.

16.1. Shaxs va uning faolligi.

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o‘z-o‘zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo‘lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning **faolligidir**. Faollik (lotincha «actus» - harakat, «activus» - faol so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Faollik - o‘sha oddiy qo‘limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog‘liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg‘onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo‘lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o‘z-o‘zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi bilan aloqador sifatleri orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan **ikki turi** farqlanadi:

A. Tashqi faollik – bu tashqaridan va o‘z ichki istak-xohishlarimiz ta’sirida bevosita ko‘rish, qayd qilish mumkin bo‘lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo‘ladigan faollik.

B. Ichki faollik – bu, bir tomondan, u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi, qon aylanish, nafas olish, bosim o‘zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya’ni aslida ko‘rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni o‘z ichiga oladi.

Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so‘ng ona o‘z farzandi visoliga yetdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini silashi, ko‘zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko‘rsak, ichki faollik – o‘sha ko‘z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog‘inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta’siri), ko‘rib idrok qilgandagi o‘zaro bir-birlariga intilishni ta’minlovchi ichki, bir qarashda ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo‘ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo‘lsak ham, uni ifodalagan rasmni ko‘rsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak,

ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxsga va uning ehtiyojlariga bog‘liq bo‘lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo‘lib, shaxsning jamiyat bilan bo‘ladigan murakkab va o‘zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faolligi «harakat», «faoliyat», «xulq» tushunchalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o‘zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo‘lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni **faoliyat** deb yuritiladi. Ya’ni, **faoliyat** - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o‘z-o‘zini o‘zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos faollik shaklidir. Bu – yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o‘z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o‘yin faoliyati, bu – moddiy ne’matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu–yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati, bu – rekordlarni ko‘paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o‘xshash faoliyatlar. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg‘ul bo‘lib turadi.

16.2. Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar.

Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma’lum narsaga – predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, ma’ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo‘lib, u avvalo o‘sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o‘zgarishlar qilish orqali, bilimlar zaxirasini boyitayotgan bo‘ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan *nimalarga* yo‘naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi.

Tashqi faoliyat shaxsni o‘rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o‘zgartirishga qaratilgan faoliyat bo‘lsa, **ichki faoliyat** - birinchi navbatda, aqliy faoliyat bo‘lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtayi nazaridan ichki – aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyat natijasida yuzaga keladi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro‘y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo‘lsak, bola

dastlabki soʻzlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida oʻzicha gapirishga oʻrganib, oʻylaydigan, mulohaza yuritadigan, oʻz oldiga maqsad va rejalar qoʻyadigan boʻlib boradi.

Har qanday sharoitda barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi – muvofiqlik nuqtayi nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy – motor harakatlar mujassam boʻladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar oʻylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy boʻlgani bilan uning peshonalari, koʻzlari, hattoki, tana va qoʻl harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir toʻxtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, uzum koʻchatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bogʻbon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligini anglab, bilib turib olib tashlaydi. Aqliy harakatlar – shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham oʻz ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi koʻrinishlarda boʻlishi mumkin:

1. **pertseptiv** – yaʼni, bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar toʻgʻrisida yaxlit obraz shakllanadi;

2. **mnemik faoliyat** – narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bogʻliq murakkab faoliyat turi;

3. **fikrlash faoliyati** – aql, fahm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat;

4. **imajitiv** – («image» -obraz soʻzidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

Yuqorida taʼkidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat boʻlishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga oʻtish roʻy bergan boʻlsa, bunday jarayon psixologiyada **interiorizatsiya** deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan gʻoyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga koʻchirilishi **eksteriorizatsiya** deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga koʻra ham farqlanadi. Masalan, shunday boʻlishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yoʻnalishini talab qiladi. Lekin vaqt oʻtgach, bora-bora unda ongning

ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o'girilganda, **malaka** hosil bo'ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni **ko'nikmalar** deb ataymiz. *Ko'nikmalar* - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko'nikma va malakalar o'zaro bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham o'quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko'nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo'lsak, uning shakllanish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. oddiy namoyish etish yo'li bilan;
2. tushuntirish yo'li bilan;
3. ko'rsatish bilan tushuntirishni uyg'unlashtirish yo'li bilan.

Hayotda ko'nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni yengillashtiradi. O'qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlaydi.

Faoliyatni klassifikatsiya qilish (tasniflash) va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli – bu barcha insonlarga xos bo'lgan asosiy faollik turlari bo'yicha tabaqalashdir. Bu – muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlaridir.

Muloqot – shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (verbal) va nutqsiz vositalar (noverbal) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

O'yin – shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi.

O'qish faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Mehnat qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi, albatta, biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir.

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal

qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar – sabablar muhim bo'lib, bu *faoliyat motivlaridir*.

16.3. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi.

Yuqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz kuzatilmaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «*motiv*» va «*motivatsiya*» tushunchalari ishlatiladi.

«*Motivatsiya*» tushunchasi «*motiv*» tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. **Motivatsiya** - inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo'lida?» degan savollarga javob qidirish - motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi:

a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar);

b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda **shaxsiy dispozitsiyalar** ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o'zi tushunib yetmaydi, «Nega?» degan savolga «O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman», deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozitsiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil

harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozitsiya anglangan, ongli hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan *motiv* – konkretroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng qamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, o'sha bir konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, bir shaxsning o'zi ham o'zidagi holat, kayfiyatga bog'liq holda bir xil vaziyatni alohida hollarda turlicha idrok qilishga moyil bo'larkan. Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida qaramay, balki unda shunga o'xshash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik – dispozitsiyaning mavjudligi bilan tushuntirish to'g'riroq bo'ladi. Shu ma'noda shaxs xulqining motivatsiyasi turli sharoitlardan orttirilgan tajribaga tayangan, ongli tahlillar, hattoki, ijtimoiy tajriba normalarining ta'sirida shakllanadigan sabablar kompleksini o'z ichiga oladi. Masalan, texnika oliygohlarida: «Materiallarning qarshiligi» nomli kurs bor deylik. Shu kursni o'zlashtirish va undan sinovdan o'tish ko'pchilikka osonlikcha ro'y bermaydi. Hali kurs boshlanmasdan, yosh talabalarda shu kurs va uning talablariga nisbatan shunday ustanovka shakllanadiki, albatta, bu kurs qiyin, uni olib boruvchi o'qituvchi o'ta talabchan, qattiqqo'l va hokazo degani. Bunday motivatsiya mana necha avlod talabalar boshdan kechirayotgan holat. Endi konkret shaxsning dars jarayoni boshlangan keyingi harakatlari konkret motivlar bilan izohlanadi va tirishqoq talaba uchun bu fan ham boshqa fanlar qatori tinimsiz izlanish, o'z vaqtida darslarni tayyorlashni talab qilsa, boshqasi uchun (dangasaroq talaba uchun) bu darsdan keyin dars yo'q va u qachon shu semestr tugashini kutib harakat qiladi.

Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Ya'ni, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Misol uchun talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart-sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi, bola uchun motiv o'rnini bosadi. Yana bir oddiy misol: qo'lingizda kitob bor. Siz hali uni o'qishni boshlamadingiz. Lekin o'qish istagi bor, shu istakning ortida esa, o'sha

mazmunni bilish va uning mohiyatini bilib olish ehtiyoji turadi. Rus olimi R. Nemoov shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi.

Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Biologik ehtiyojlar – bu fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.

Ijtimoiy ehtiyojlar – bu mehnat qilish, bilish, estetik va axloqiy-ma'naviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Masalan, eng tabiiy va tushunarli hisoblangan bizning yemishga – ovqatga bo'lgan ehtiyojimizni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Yana misol uchun, to'y marosimlari yoki juda to'kin dasturxon atrofida o'tirgan odam nima uchun shunchalik ko'p ovqat iste'mol qilib yuborganini bilmay qoladi. Agar bu tabiat qo'yni yoki paxta dalasidagi hashar bo'lsa-chi, bir burda issiq non ham butun tanaga rohat baxsh etuvchi malham bo'lib, ochlikni bilintirmaydi. Kamtarona dasturxondan ovqat yeb o'rgangan kishi oz-oz yeyishga o'rgansa, yoshligidan normadan ortiq yeb o'rgangan odam shifokor oldiga borib, o'zi uchun ozdiruvchi dori-darmon so'rasa so'raydiki, lekin uyda o'zi yemishini nazorat qilishi kerakligini bilmaydi. Demak, bu ham madaniyatga, etikaga, oila muhitiga bevosita bog'liq narsa ekan.

Umuman shaxs ijtimoiy xulqi motivi haqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: **harakat dasturi va maqsad**. Harakat dasturi maqsadga erishish vositalariga aniqlik kiritadi. Shuning uchun ham dasturda nazarda tutilgan vositalar maqsadga erishishni oqlashi kerak, aks holda dastur hech narsa bermaydi. Masalan, ba'zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi shaxs yetishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda og'ir tarbiyaviy shartlarni qo'yadilar, bola erkinligi bo'g'iladi, u qat'iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo'lmaydigan, qaysar, uncha-muncha tashqi ta'sirga berilmaydigan bo'lib qolib, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan, maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo'ladi.

16.4. Motivlarning turlari.

Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida **muvaffaqiyatga erishish motivi** bo'lib, bunday

nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D. Maklelland, D. Atkinson va nemis olimi X. Xekxaufenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: **muvaqqiyatga erishish motivi** hamda **muvaqqiyatsizliklardan qochish motivi**. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarga kirishishda qaysi motivga mo'ljallanishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaqqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilar, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar – tanish-bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

Boshqacha xulq-atvorni muvaqqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaqqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir-oqibat, ular baribir muvaqqiyatsizlikka uchrab, «O'zi sira o'ladim yurishmaydigan odamman-da» degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaqqiyatli tugatgach, ko'tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, har qanday ishni yakunlagandan so'ng, uning natijasidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og'rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o'rinda *talabchanlik* degan sifatning roli katta. Agar muvaqqiyatga yo'nalgan shaxslarning o'zlariga nisbatan qo'ygan talablari darajasi ham yuqori bo'lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari, aksincha, past bo'ladi. Bunday tashqari, har birimizdagi o'zimizdagi real qobiliyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs, hattoki, mag'lubiyatga uchrasa ham, unchalik qayg'urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo'lishiga ishonadi. Ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg'urib boshdan kechiradi. Uning uchun shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg'urish sifati ham ma'lum ma'noda motivlar xarakterini belgilaydi.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z-o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz va muvaqqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi. Masalan, mas'uliyatli imtihon topshirish jarayonini olaylik. Ba'zi talabalar imtihon oldidan juda qayg'uradilar, hattoki, qo'rqadilar ham. Ular uchun imtihon topshirish juda katta

tashvishdek tuyuladi. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo'lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman beg'am bo'lib, sira koyimaydilar. Tabiiyki, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatining samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shaxsdagi da'vogarlik darajasi ham ta'sir qiladi. Da'vogarlik darajasi yuqoriroq bo'lganlar bilgan-bilmaganini isbot qilishga urinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham

Shuning uchun ham har birimiz ijtimoiy faoliyat motivlaridan tashqari, shaxsiy xislatlarimizni ham bilishimiz va ongli tarzda xulqimizni boshqara olishimiz kerak.

Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, motivlar, ya'ni xatti-harakatlarimizning sabablari biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya'ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag'lubiyatga uchraganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizning sabablari bizga ayon bo'lavermaydi. Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari psixologiyada ijtimoiy ustanovka (inglizcha «attitud») hodisasi orqali tushuntiriladi.

Ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy obyektlar, hodisalar, guruhlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik holatiki, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi. Masalan, Vatanimizni hammamiz sevamiz, bayrog'imiz muqaddas, nemis investorlarga ishonamiz, negrlarga rahmimiz keladi, tijorat ishlari bilan shug'ullanadiganlarni, albatta, puldor, badavlat, deb hisoblaymiz va hokazo. Bu tasavvurlar, baho va hissiyotlar qachon va qanday qilib ongimizda o'rnashib qolganligiga e'tibor bermasdan yuqorida sanab o'tgan hissiyotlarni boshdan kechiraveramiz. Mana shularning barchasi ijtimoiy ustanovkalar bo'lib, ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlarda ro'yobga chiqadi.

Amerikalik olim **G.Ollport** ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

a) Kognitiv komponent – ustanovka obyektiga aloqador bilimlar, g'oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

b) Affektiv komponent – ustanovka obyektiga nisbatan subyekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

v) Harakat komponenti – subyektning obyektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo‘lish).

Bu uch xil komponentlar o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustuvorroq bo‘lishi mumkin. Shuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib-intizom bilan juda yaxshi tanish bo‘lsalar-da, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. «Tasodifan dars qoldirish», «jamoatchilik joylarida tartibni buzish» kabi holatlar kognitiv va harakat komponentlarida uyg‘unlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu bir qarashda so‘z va ish birligi tamoyilining turli shaxslarda turlicha namoyon bo‘lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqqa zid harakat qilsa va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o‘rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-qarshilik va tafovut bo‘lmasligiga yoshlarni o‘rgatib borishimiz kerak. Bu shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Shaxs faolligi, ichki faollik, tashqi faollik, ko‘rish, sezish, qabul qilish, mushaklarning harakati, qon bosimi, moddalar almashinuvi, faoliyat, pertseptiv harakat, mnenik faoliyat, fikrlash faoliyati, imajitiv faoliyat, malaka, ko‘nikma, motiv, motivatsiya, ijtimoiy ustanovka, muvaffaqiyatga erishish, mag‘lubiyatdan qochish, pozitiv yondashuv, ijtimoiy xulq-atvor, ijtimoiylashuv.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

Inson faoliyati va uning psixologik tuzilishi.

Faoliyat va ijtimoiy xulq-atvor motivatsiyasi.

Malaka, ko‘nikma va odatlar, ularning shakllanishi.

O‘z-o‘zini baholash tushunchasi.

Shaxs va uning motivlari: muvaffaqiyatga erishish va mag‘lubiyatdan qochish motivlari.

Ijtimoiy ustanovka va uni kasbiy faoliyat mobaynida o‘zgartirish muammosi.

Faoliyatda muloqot muammosi.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. -T.: O‘zbekiston, 2005. – 96 b.

2. Дружинин В. Психология. Учебник. - СПб.: Питер, 2003.

3. G‘aybullaev N.R. va boshq. Pedagogika. Ma’ruzalar matni. -T.:

Universitet, 1999.

4. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. - T., 2002.

5. Немов Р.С. Психология. –М.: Владос, 2003.

6. Социальная психология/Под ред. А.М.Столяренко. -М.: ЮНИТИ, 2006.

7. <http://www.myword.ru> Крайг Г. Психология развития (пер. с англ.). – С-Пб.: Питер, 2005.

8. <http://www.myword.ru> Первин Л., Джон О. Психология личности. Теория и исследования (пер. с англ.). – М.: Аспект Пресс, 2000.

9. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. -T.: JIDU. 2013.

17-MAVZU SHAXSNING IJTIMOIIY BORLIQNI BILISHI

17.1. Bilish jarayonlari va kasbiy faoliyat.

17.2. Idrok va uning xususiyatlari.

17.3. Xotira va shaxs tajribasining boyligi.

17.1. Bilish jarayonlari va kasbiy faoliyat.

Kasbiy faoliyat shaxsdan juda ko‘p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o‘z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o‘z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. *Kasbiy bilimdonlik* shaxs umumiy madaniyatining shunday yo‘nalishiki, u kishidan faqat kasbiga taalluqli bo‘lgan bilimlardan tashqari shu bilimlarning hosil bo‘lish yo‘llari va malakalarning takomillashuvini ta‘minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir. Ma‘lumki, odamlar bir-birlaridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko‘rgan-kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtda aniq esga tushira oladilar. Ba‘zilar ko‘zi bilan ko‘rgan har qanday obyektini mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikrlaydi, kimdir sodda, ravon tilda o‘z his-kechinmalarini ayta olsa, boshqalar har bir hikoyaga, albatta, fantaziya elementlarini qo‘shishga moyil bo‘ladilar. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan taassurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatlari har xil bo‘larkan. Ikkinchi tomondan, shunday kasb-korlar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatlarning mukammalashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshqaruv tizimlarida ishlaydigan operator o‘z diqqatini har qanday mayda o‘zgarishlarga ham qaratishga o‘rgansa, konstruktor mavhum matematik hisob-kitoblarga usta bo‘lib boradi. Iqtisodchi-moliyachi pulning har bir tiyidan foyda olishga o‘rgansa, shoir tabiatda barcha hodisa va voqealarni badiiy bo‘yoqlarda, o‘ziga xos idrok qilishga moyilligi oshadi.

Demak, odamning tashqi olam xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidori o‘sishi va professional malakalari rivojlanganligiga bog‘liq tarzda kechadi. Shuning uchun har ongning muhim aks ettirish shakllari bo‘lmish bilish jarayonlari - idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlarning inson hayoti va kasbiy o‘sishidagi roliga to‘xtab o‘tamiz.

Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish. Chunki har birimiz ongimiz borligini, atrofdagi narsalar va hodisalarning ayrim alohida hamda yaxlit xususiyatlarini bilamiz. Bu narsa va hodisalar bizda har bir alohida sharoitda o'ziga xos hissiy kechinmalarni keltirib chiqarishini ham bilamiz. Masalan, qorningiz och qolganda, yemishga bo'lgan talabingizni haqiqatan bor yoki yo'qligini birovlardan so'ramaysiz-ku? Yoki kitob mutolaa qilayotgan shaxs shu kitobni haqiqatdan ham o'zi o'qiyotganligini boshqalardan so'ramaydi. Bunday ishlar o'z-o'zidan tabiiy jarayonlardek kechaveradi. Faqat imtihon paytida kecha kechasi bilan mutolaa qilib, o'rganib chiqqan materialni nega hozir domla oldida eslay olmayotganligingiz sizni ko'proq qiziqtiradi va siz «Xotiram ustida ishlashim kerak» degan xulosaga kelasiz.

Darhaqiqat, bilish jarayonlari ham ma'lum ma'noda boshqariladigan jarayonlar bo'lib, agar siz o'z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak.

Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun olimlar uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar – sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgarigi idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodemiz va diqqat kerak bo'ladi. Hattoki, tasodifan qo'limizga kirib ketgan zirapchaga reaksiyamiz ham emotsiyalardan tashqari, o'sha narsaning bu yerda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi. Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'tardi.

Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Masalan, maxsus asboblarda yordamida aslida odam ko'rmayotgan, his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarni keltirib chiqarayotganligi qayd etildi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, odam kino ko'rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko'z o'ngida

gavdalanadi. Psixologlar shunday eksperiment qilishdi: kunlarning birida o'ziga xos tasvir namoyish etildi. 24 ta kadr o'rniga 25 kadr berib, o'sha 25-kadrda «Koka - kola iching» degan yozuv berildi. Tabiiyki, oddiy idrok bu bitta kadri ilg'amaydi. Lekin kinoteatr bufetida ushbu ichimlikni ichish kadrda keyin 18 foizga oshgan. Demak, aslida ong bu ma'lumotni qabul qilgan, lekin real anglash, oydinlashuv ro'y bermagan ekan. Analogik holat xotiramizda ham tez-tez ro'y beradi. Kimnidir uchratib qolamizda, o'ylanamiz: qayerda ko'rgan ekanman? Hech eslolmaysiz, lekin yuzi, ko'zi va boshqa sifatlari tanishday. Buni shunday izohlash lozimki, odam ko'rgan-kechirganlari aslida uning miyasida saqlanadi, biz ong sohasiga ayrim ma'lumotlarnigina chiqara olamiz. Faqat, kasal bo'lib yoki biror narsadan qattiq tashvishga tushganimizda kallamizga har xil o'y-fikrlar kelaveradi. O'shalar aslida bor narsalarning beixtiyor tiklanishi.

Ongdagi ma'lumotlarning aslida miyamizdagilardan kamligining asosiy sababi – odam har qanday ma'lumotni **saralab, tanlab qabul qiladi**, o'zi uchun «ahamiyatsiz» deb baholagan narsaga diqqat ham qilmaydi, eslab qolmaydi ham. U o'z ongida barcha mavjud ma'lumotni o'ziga xos tarzda qayta ishlaydi, o'zgartiradi. Shuning uchun ham har bir inson o'ziga xos va qaytarilmasdir – individualdir, deyiladi. Bilish jarayonlaridagi individuallik sabablarini tushunish uchun eng muhim bilish jarayonlari bilan tanishamiz.

17.2. Idrok va uning xususiyatlari.

Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni **figura va fonda** idrok qiladi. Figura – shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. Fon esa aksincha, noaniqroq, umumiyroq narsa bo'lib, aniq obyektini ajratishga yordam beradi. Masalan, gavjum bozorda ketayotgan taqdirda ham o'z ismimizni birov aytib chaqirsa, darrov o'sha tarafga qaraymiz. Ism - figura bo'lsa, bozordagi shovqin - fon rolini o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz biror narsani idrok qilayotgan paytimizda uni albatta biror fondan ajratib olamiz. Masalan, gul bozorida aynan qip-qizil atirgul sizga yoqib qolib, o'shani xarid qilasiz, qolgan gullar fonday ongingiz aktiviga o'tmaydi.

Shunday qilib, **idrok** – bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko'plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan obyektini xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks ettirishimizni ta'minlaydi. Ya'ni, idrokning asosida narsa va hodisaning yaxlitlashgan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok o'ziga nisbatan soddaroq bo'lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, xidini, mazasini, rangini sezamiz, ya'ni alohida-alohida xossalar ongimizda aks etadi.

Bu – sezgilarimizdir. Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzdagi birlashuvi, degan fikrga mutlaq qarshilar. Chunki idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu obyektga shaxsiy munosabati va idrokda faolligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, buning isboti uchun, ko'pincha, **Rubin figurasi** tavsiya etiladi. Unda ikkita qora profil oq fonda berilgan. Bir qarashda ayrimlar bu rasmlarga qarab, «Bu – vaza» deb atasa, boshqalar uni bir-biriga qarab turgan ikki kishi yuzining yon tomondan ko'rinishi, deb ta'riflashi mumkin. Shunisi xarakterliki, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini *tushunishga* harakat qiladi, lekin biror figurani ko'rgach, ma'lum vaqtgacha boshqasini ko'rmay turadi. Agar shu idrok darajasi qolsa, ya'ni yana nimanidir ko'rishni xohlamasa, u ikkinchi figurani ko'rmasligi ham mumkin. Bu bizdagi idrok jarayonlarining faolligimizga, obyektga munosabatimizga bevosita bog'liqligini ko'rsatib turibdi. Ikkinchidan, idrok bizning kayfiyatimizga ham bog'liq. Tashvish bilan yo'lakchadan o'tib ketayotib, oyog'ingiz tagidagi narsa tugul, ro'paradagi odamni ham ko'rmay qolishingiz mumkin. Yoki san'at muzeyida tomosha qilib yurgan ikki kishi bir rasmda tamoman har xil narsalarni, elementlarni ko'rishi mumkin. Yaxshi kayfiyatda, yaxshi do'stlar kompaniyasida iste'mol qilgan taom sizga juda mazaliday tuyuladi. Agar talaba biror fan predmetidan qarzdor bo'lib qolsa, och qoringa yegan shirin taomi ham «tatimaydi», hatto, nima yeganini ham unutib qo'yadi. Yomon kayfiyat, ko'proq, qora, nursiz ranglarni idrok qilishga moyil bo'lsa, yaxshi, ko'tarinki kayfiyat, aksincha, hamma narsani eng yoqimli ranglarda «ko'radi». Bu yana bir bor idrokning oddiygina aks ettirish yoki bilish jarayoni emas, balki shaxsdagi faol ustanovkalarga bog'liq bo'lgan, mantiqan asoslangan ongli jarayon ekanligini isbotlaydi.

Shaxs idrok qilishi jarayonlariga xos bo'lgan bir nechta qonuniyatlar psixolog olimlar yozgan ilmiy adabiyotlarda keltirilgan, biz ularning ayrimlarini belgilaymiz:

A. Figura va fonning ilgari harakatga bog'liqligi qonuni. Bu qonunning ma'nosi: odam ilgari tajribasida bo'lgan, bevosita to'qnash kelgan narsalarini idrok qilishga moyil bo'ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak, keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lgan bo'lsa, tabiiy, fonday qabul qiladi. Bu qonunning hayotdagi o'rni chet davlatlarga borgan turistlar tajribasiga tayanib tushuntirilishi mumkin. O'zbekistonliklar yer kurrasining qaysi burchagida bo'lmasin, o'zbek do'ppisi yoki atlas ko'ylakni juda tez ilg'ab oladilar va suyunib ketadilar ham. Yonidagi sheriklari o'zbek bo'lsa ham, aynan do'ppili o'zbekni ko'rib, ko'zlari yashnab ketadi. Boshqa millat vakillari, masalan,

nigeriyalik ham milliy ko‘ylagida yurgan bo‘lishi mumkin, lekin o‘zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligicha qoladi.

B. Idrokning konstantligi qonuni. Bu qonun ma‘lum ma‘noda oldingisiga bog‘liq. Ya‘ni bunda ham ilgarigi tajriba katta rol o‘ynaydi. Ma‘nosi: odam o‘ziga tanish bo‘lgan narsalarni o‘sha xossa va xususiyatlar bilan o‘zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Masalan, samolyot ichida o‘tirib yerga qaraganmisiz? Avtomobil yo‘llari, ularda harakat qilayotgan mashinalar kichkina ko‘rinadi, lekin biz ularni hozir kichrayib qolgan, deb idrok qilmaymizku? Aslida ko‘z qorachig‘imizdagi aks kichkina bo‘lsa-da, ularni o‘zimiz «to‘g‘rilab» alohida predmetlar sifatida idrok qilaveramiz.

Bu o‘rinda bir etnografning Afrikadagi kuzatishi haqida misol keltirish joizdir. U kunlarning birida Pigmeylar deb ataluvchi qabila vakillaridan biri bilan quyuq o‘rmondan chiqqan (bu qabilaning umri qalin o‘rmonda o‘tadi). Ro‘parada yaylovda sonsiz mollar podasi o‘tlab yurgan bo‘lgan. Etnograf ularni oddiy mollar podasi sifatida idrok qilgan, pigmey esa ularni chumolilarga o‘xshatib, ularning ko‘pligi va kichikligidan hayratlangan. Olimda idrokning konstantligi namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uning sherigida uning buzilganligi kuzatilgan.

Demak, idrokimizning konstantligi, ya‘ni ilgarigi tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o‘zgartirmay, turg‘un holda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muhitda to‘g‘ri moslashuvimiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta‘minlaydi. Konstantlik - «constanta» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgarmas, doimiy degan ma‘noni bildiradi.

D. Kutishlar va taxminlarning idrokka ta‘siri. Ko‘pincha bizning idrokimiz ayni paytda biz nimalarni kutayotganimizga bog‘liq bo‘lib qoladi. Biz o‘zimiz kutgandan ham ko‘p paytlarda o‘zimiz ko‘rgimiz kelgan narsalarni ko‘ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz. Masalan, sonlar qatorida paydo bo‘lgan B harfi uzoqdan albatta 13 soniday idrok qilinadi, yoki aksincha harflar orasidagi 13 «B» ga juda o‘xshaydi. Kechasi yolg‘iz qolib kimnidir kutayotgan bo‘lsangiz, har qanday juda sekin sharpa ham oyoq tovushlariga o‘xshayveradi. Sog‘ingan do‘stingizga biror jihati bilan o‘xshash bo‘lgan odamni ko‘rsangizchi? Shunday qilib, inson idroki shaxsiy ma‘no va ahamiyat kasb etgan ma‘lumot vositasida ongdagi bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qiladi. Birovning orqadan chaqirishini kutayotgan bo‘lsangiz, negadir albatta, bosh harfi to‘g‘ri kelgan ismni aytsa ham tezgina o‘sha tomonga o‘girilib qaraysiz. Aynan shunday hodisalar ba‘zan idrokdagi xatoliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Amerikalik Dj. Begbi degan olim stereoskop orqali amerikalik va meksikalik bolalarga shakli unchalik aniq bo‘lmagan slaydlarni birin-ketin ko‘rsatgan. Amerikalik bolalar ularni beysbol o‘yini, oq sochli qiz ifodalangan desalar, meksikalik bolalar ularni buqalar jangi, qora sochli qiz, deb ta‘riflaganlar.

Ko'pchilik bolalar esa ko'rsatilgan ikkita rasmdan faqat bittasini ko'rganini e'tirof etganlar. Demak, bizning idrokimiz, uning mazmuni madaniy va ma'naviy muhitga ham bog'liq bo'lib, bu kutishlar tizimidan kelib chiqarkan.

E. O'zgarma ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Bu qonunning mohiyati shundaki, muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi. Masalan, o'tirganingizda soatning tiqillashini eshitganmisiz? Ha, tovush eshitiladi, lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng u yo'q bo'lib qolganday – eshitilmaydi. Yoki eksperiment sharoitida yolg'iz bitta nuqtadagi yorug'lik manbai ko'zga ta'sir etilib, ko'z ham shu nuqta bilan bir vaqtda harakatga keltirib turilganda, 1-3 sekunddan so'ng odam yorug'lik manbaini ko'rmay qo'ygandek. Shunga o'xshash eksperimentlar barcha idrok turlarida ham sinalgan. Past ohangli kuy ham ma'lum vaqtdan keyin eshitmaganday hisni keltirib chiqarishini sinab ko'rishingiz mumkin.

Nutq vositasida hadeb bir xil so'zlarni qaytaraverish psixoterapevtik praktikada gipnotik holatni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ishlatiladi. Chunki bir xil so'zlar hadeb qaytarilaversa, ular o'zining ma'no-mohiyatini ham yo'qotadi. Masalan, ko'chalarda yuradigan «folbinlar»ni ko'rganmisiz? Ular avtomatik tarzda aytadigan so'zlari aslida ularning o'zlari uchun umuman ma'nosini yo'qotgan («baxtingdan ochaymi, taxtingdan ochaymi?») va hokazo shunga o'xshash so'zlar).

Har qanday harakat hadeb qaytarilaversa, «psixologik to'yinish» hodisasi ro'y beradi va harakatlar avtomatlashib, uning ayrim detallari umuman ong nazoratidan chiqadi. Masalan, mahoratli raqqosa har qanday raqsga ham chiroyli, jozibali harakatlar bilan o'yin tushib ketaveradi.

F. Anglanganlik qonuni. Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma'nosi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki his qilayotgan narsamiz ma'nosiz, tushunarsiz, noaniq bo'lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. Masalan, xitoy tilini bilmaydigan odam shu tilda so'zlashuvchilar orasiga tushib qolsa, psixologik jihatdan juda qiynaladi. Ya'ni, *bizga barcha narsalarda biror ma'no va mazmun kerak*. Odam, odatda, tushunadigan narsasinigina idrok qiladi. Hattoki, ma'ruzachining bugun tushuntirayotgan ma'ruzasidagi faktlar sizning tushunchalaringiz va bilim doirangizdan uzoq bo'lsa, professorga qarab o'tirgan bo'lsangiz ham uning gaplari qulog'ingizga kirmaydi. Shunday paytlarda «Nima deyapti o'zi?» deb qo'shnimizdan so'rab qo'yamiz ham, zero ma'ruzachi o'sha biz uchun qadrdon bo'lgan o'zbek tilida gapirayotgan bo'lsa ham. Sinab ko'rish uchun o'rtog'ingizga bir nechta so'zlardan iborat qatorni bering. Ular orasida mazmunan bir-biriga bog'liq bo'lmagan so'zlar, hattoki, ma'nosiz (teskarisiga yozilgan so'zlar) bo'lsin. Oraga 2-4 ta tanish o'zbek tilidagi so'zlardan aralashtiring. Bir daqiqa mobaynida qarab, eslab qolganini qaytarishni

so‘rasangiz, o‘sha 2-4 ta so‘zlardan boshqalarni deyarli «ko‘rmaganining» guvohi bo‘lasiz.

G. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Biz idrok jarayonida ilgari tajribaga tayanganimiz bilan, ko‘pincha, adashamiz, ba‘zan esa o‘zimiz uchun yangiliklar ochib, tajribani yanada boyitamiz. Ilgari tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo‘lib, bizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma‘lumotlarning ko‘lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, *idrok – tashqi muhit to‘g‘risidagi taxminlarimizni isbot qilishga qaratilgan faol jarayondir.* Biz bevosita idrokimiz «tagiga yetolmayotgan», «tushunmayotgan» narsalarni bevosita his qilgimiz, qo‘limiz bilan ushlab ko‘rgimiz, ular bilan ishlagimiz keladi. Ya‘ni, idrok qilinayotgan narsada noaniqlik, sir paydo bo‘lsa, biz «Bu nima bo‘ldi?» degan savol asosida taxmin qila boshlaymiz va uni tekshirish uchun harakat qilamiz. Aynan harakatlar, amaliy ishlar idrokimiz imkoniyatlari va chegaralarini kengaytiradi va anglashga yordam beradi. Shuning uchun ham har bir ishni boshlashdan avval nimaga egamiz, nima kerak va nima qilsak, tezroq yaxshi natijaga ega bo‘lamiz, degan savol bilan o‘zimizdagi tajribada bo‘lgan bilimlarimiz bilan unchalik aniq bo‘lmagan ma‘lumotlarni tarozuga solish va imkon boricha nutqimiz, harakatlarimiz bilan real tajribani kengaytirishga intilishimiz kerak. Shunday qilib, bir qarashda oddiyroq tuyulgan idrok ham inson bilimlari, tushunuvchanligi va faolligi bilan bog‘liq psixologik jarayon bo‘lib, u aslida shaxsiy tajribamizning birlamchi asosi va bazasidir.

17.3. Xotira va shaxs tajribasining boyligi.

Odam ko‘rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma‘lum bo‘lishicha, bir vaqtning o‘zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo‘lgan ma‘lumotning qolishi qiyin ekan ekan. Bu yettita so‘z, son, belgi, narsaning shakli bo‘lishi mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgili bo‘lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo‘larkan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma‘lumotlarni saralab, terib ishlatishi yana bir psixik jarayonni - xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi. Odatda biz biror bir materialni o‘qiydigan bo‘lsak, uni hech bir o‘zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz. Lekin ajablanarlisi shundaki, borgan sari material ma‘lum o‘zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo‘lib saqlanadi. Ba‘zi bir material yoki ma‘lumot xohlasak ham xotiradan o‘chmaydi, boshqasini esa, juda qattiq xohlasak ham, kerak paytda yodimizga tushirolmaymiz. Bu kabi savollar, inson bilish jarayonlaridagi eng muhim savollar bo‘lib, ba‘zan o‘z taraqqiyotimiz va kamolotimizni ham ana shunday omillarga bog‘lagimiz keladi.

Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi har qanday ma'lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa, yoki o'zgarasa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Lekin har doim ham bizning professional faoliyatimiz manfaatlariga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Xotira – bu tajribamizga aloqador har qanday ma'lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog'liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir.

Inson xotirasining yaxshi bo'lishi, ya'ni his-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog'liq:

1. esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;
2. shaxsning o'zi shug'ullanayotgan ishga nechog'lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;
3. shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;
4. shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;
5. irodaviy kuchi va intilishlariga.

Xotira jarayonlari shaxsning faoliyatdagi yutuqlariga bog'liq bo'lgani uchun ham, uning tabiati, qanday kechishiga ko'plab olimlar ahamiyat berganlar. Masalan, nima uchun odam u yoki bu ma'lumotni xotirada saqlaydi, degan savolga turli olimlar turlicha javob beradilar. Masalan, fiziologlar uning sababini miyada hosil bo'ladigan nerv bog'lanishlari – assotsiatsiyalar bilan bog'lashsa, bioximiklar – ribonuklein kislota (RNK) va boshqa bioximik o'zgarishlar oqibatidadir, deb tushuntiradilar.

Psixologlar esa xotirani doimo inson faoliyati, uning shaxs uchun ahamiyati va motivlar xarakteri bilan bog'laydilar. Chunki shaxsning yo'nalganligi, uning hayotdagi mavqei va qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi aynan xotirasining mazmuniga bog'liq. Shuning uchun, hattoki, shunday gap ham bor: «Nimani eslashingni menga ayt, men sening kimligingni aytaman».

Amaliy nuqtayi nazardan xotiraning samaradorligi, uni o'quv va mehnat faoliyati jarayonida oshirish katta ahamiyatga ega. Chunki, ko'pincha, odamlar orasida ishchanrog'i, o'quvchi yoki talabalar orasida bilimlirog'i ham bir qarashda xotirasining kuchi bilan boshqalardan ajralib turadi. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning xotirasi haqida afsonalar yuradi. Masalan, u o'z qo'l ostidagi beklarning nafaqat ismini, balki otasining ismlarini ham yoddan bilarkan, uchrashuvlarda bevosita nomini aytib murojaat qilarkan. Bu fazilat ham uning o'z qo'l ostidagilar orasida obro'sining balandligiga ta'sir ko'rsatgan. Amerikaning mashhur prezidentlaridan Avraam Linkoln ham ana shunday

fenomenal xotirani o'z yaqinlari va ish yuzasidan u bilan bog'liq bo'lgan xodimlarga nisbatan namoyon etib, lol qoldirgan ekan. Demak, xotira tarbiyasi, uni kerakli yo'sinda rivojlantirish, kerak bo'lsa, shaxsiy obro' hamda ishdagi samara masalasi bilan bevosita bog'liq ekan.

Umuman, *xotiraning samaradorligi* - eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog'lanadi. Demak, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko'ra ham farqlanadilar:

1. materialni tezda eslab qoladiganlar;
2. materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar;
3. istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar.

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tug'ma deb atashadi. To'g'ri, oliy nerv tizimi, uning o'ziga xos ishlash xususiyatlari xotiraning o'ziga xos individual uslubini belgilashi mumkin. Lekin hayotda, ko'pincha, shaxsning bilish jarayonlari va sezgi organlarining ishlash qobiliyatlariga bog'liq tarzda ajralib turadigan tiplari haqida gapirishadi. Masalan, ayrim odamlar ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning *xotirasi ko'rgazmali-obrazli* bo'lib, ko'zi bilan ko'rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi ham. Boshqalar esa o'zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo'ladi. Bundaylar *so'z – mantiqiy xotira* tipi vakillaridir. Yana bir tipli odamlar bevosita his qilgan, «yuragidan» o'tkazgan, unda biror yorqin emotsional obraz qoldira olgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu *emotsional xotiradir*. Lekin yana bir xotira egalari borki, ularni *fenomenal xotira* sohiblari deb atashadi. Psixologiyaga oid kitoblarda ana shunday xotiraga ega bo'lgan kishilar to'g'risida ko'p yozilgan. Bu shunday kishilarki, ular bir vaqtning o'zida nisbatan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni esda saqlay oladi va esga tushiradi. Masalan, tarixiy shaxslar orasida **Yuliy Sezar, Napoleon, Motsart, Gauss**, shaxmat ustasi **A.Alexin** kabi insonlar xotirasi ana shunday noyob bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Taniqli, rus psixologi va neyropsixologi **A.R.Luriya** ham ana shunday xotira sohiblaridan biri - asli kasbi jurnalist bo'lgan **Shereshevskiy** degan shaxs xotirasini ataylab uzoq vaqt mobaynida o'rgangan. Uning xotirasi shunday ediki, **Dantening** «Ilohiylik komediyasi»dan olingan uzundan-uzoq parchani bir marta qarab olgandan so'ng, 15 daqiqadan so'ng so'zma-so'z aytib bera olgan. Shunisi xarakterli ediki, komediya unga notanish bo'lgan italyan tilida yozilgan edi. Ko'pchilikni qanday qilib yaxshi, mustahkam esda saqlab qolish muammosi qiziqтира, Shereshevskiy uchun qanday qilib unutish masalasi murakkab edi. Uni xotira obrazlari doimo qiynar, ko'rgan narsalari ko'z oldida gavdalanaverar edi. Qanday qilib eslab qolasiz? degan savolga u shunday javob bergan: men «materialni» o'zimga tanish va sevimli bo'lgan Moskva ko'chalariga joylashtiraman. Bir marta bir materialning bir bo'lagi o'sha «ko'chaning» salqin

tushgan yeriga tushib qolib, esga tushirishi ancha qiyin bo'lgan ekan. Shunga o'xshash har bir fenomenal xotira egalarining o'ziga xos eslab qolish uslublari bo'lar ekan.

Shotlandiyalik matematik **A.Etkin** 1933-yili 25 ta bir-biri bilan bog'lanmagan so'zlardan iborat ikki qatorni eslab qolib, hech bir xatosiz uni 27 yildan keyin esga tushira olgan. «Qilich va qalqon» kinofilmidagi rus razvedkachisi **I.Vaysning** natsistlar tomonidan rejalashtirilgan birinchi navbatda batamom yo'q qilinishi lozim bo'lgan obyektlar – shifrlari bilan ko'rsatilgan ro'yxatini bir karra ko'rib chiqib, bir necha daqiqadan so'ng esga tushirganini eslang. U ham go'yoki, ko'rib turganday o'sha ro'yxatlarni qaytadan o'qiganday, takrorlaydi. Tarixda bunday kishilar bor va ular bizning oramizda ham yo'q emas. Muhimi shundaki, ana shu fenomenal xotirani shaxs va jamiyat manfaatiga mos tarzda unumli ishlata bilishdir.

Esda saqlangan ma'lumotni xotiradan chiqarib olib, qayta tiklash ham muhim muammo. Chunki, ko'pincha, biz xotiramizda kechagina o'qigan yoki yaqindagina o'qituvchimiz aytib bergan ma'lumotning borligini bilamiz-u, lekin kerak vaqtda uni esga tushira olmaymiz. Ma'lumotni xotiradan chaqirib olish omillariga quyidagilar kiradi:

Ma'mulotning anglanganligi. Biz o'zimiz to'la anglagan, tushungan narsalarni osonroq esga tushiramiz. Masalan, alifboni juda oson esga tushiramiz, yoki 1, 2, 3, 4 va hokazo tartibli sonlarni bir ko'rgandan so'ng u milliongacha bo'lsa ham esga tushirishimiz sirayam qiyin emas. Lekin shu sonlardan bor yo'g'i 7 - 8 tasini teskari yoki aralash tartibda yozilgan bo'lsa, ularni esga tushirish ancha mushkul bo'ladi. «**Psixologiya**» yozuvini esga tushirish juda oson, lekin «i p i o x o y a s l g» harflari to'plami aynan o'sha harflardan iborat bo'lsa ham sira esga tushira olmaymiz. Demak, materialni yaxshilab esda saqlash va esga tushirish uchun uni tushunish va anglash kerak. Mazmunini va mohiyatini tushungan holda, iloji bo'lsa, o'zimizdagi qiziqishlarga bog'lay olishimiz kerak.

Kutilmagan ma'lumot. Kutilmaganda paydo bo'lgan yangi va yaxshi ma'lumot ham yaxshi esga tushadi. Masalan, sonlar qatorida berilgan bitta harf, yoki aksincha, harflar orasidagi bitta son, uzun jumlar orasida paydo bo'lgan qisqa jumla esga tezroq va aniqroq tushadi. Buning oddiy sababi – biz kutilmaganda paydo bo'lgan ma'lumot yoki narsaga hayratlanamiz, jonli emotsiyalar bilan javob beramiz, bu esa yaxshi eslab qolishga va, kerak bo'lganda, yorqin tiklashga asosdir.

Ma'lumotning mazmun yoki shakl jihatdan bir-biriga yaqinligi. Masalan, agar ko'plab bir-biriga bog'liq bo'lmagan so'zlar orasida «erkak» va «ayol» so'zlari paydo bo'lgan bo'lsa, bittasining esga tushirilishi ikkinchisining ham esda tiklanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv rejasiga kiritilgan

barcha fanlar shunday birin-ketinlikda beriladiki, birini o'zlashtirish ikkinchisining ham o'zlashtirilishiga, bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi.

Esda saqlash vaqti bilan esga tushirish vaqti o'rtasidagi farq. Odamda berilgan ma'lumotni idrok qilish va shu orqali esda saqlash vaqti qanchalik ko'p bo'lsa, esga tushirish ham osonroq bo'ladi. Shuning uchun ham uzoq muddatli xotirada saqlanadigan informatsiya uzoq vaqt mobaynida, ko'pincha, bir necha marta qaytarib beriladi, qisqa muddatlida esa bir marta, qisqa fursatda beriladi va shu narsani esga tushirish kerak bo'lganda, tiklanmaydi. Masalan, biror tekstni kompyuterga kiritish uchun o'rtog'ingizga berib, keyin nimalarni kiritganini so'rang. Javob aniq: «Esimda yo'q». Ya'ni ma'lumotning umumiy mazmuni yodda qolsa ham, asosiy tushunchalar va mohiyat esda qolmaydi.

Shunday qilib, xotira faol jarayon bo'lib, u shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar bilan ishlash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini tasavvur qilishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Eng xarakterli narsa shuki, inson faqat eshitgan ma'lumotining 10 foizini, eshitgan va ko'rgan narsasining 50 foizgachasini, o'zi faol bajargan ishlarining deyarli 90 foizini yodda saqlaydi. Bu ko'plab psixologik eksperimentlarda isbot qilingan. Shaxsning o'zi o'ylab topib, o'zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu hodisa psixologiyada "*generatsiya effekti*" deb ataladi. Agar talaba yoki o'quvchi ham o'zi biror teoremani mustaqil ravishda isbot qilgan bo'lsa, yoki biror xulosaga mustaqil ravishda kelolgan bo'lsa, o'qituvchi tushuntirgan hodisaga yaqin narsa to'g'risida o'rtoqlariga so'zlab bergan bo'lsa, albatta, uni xohlagan paytda osongina esga tushiradi. Shuning uchun ham oxirgi paytlarda o'yin metodlari, munozara metodlaridan o'quv jarayonida ham keng foydalanilmoqda. Hattoki, kattalarni qisqa fursatda o'qitish va malakalarini oshirishda ham turli xil amaliy o'yinlardan, ijtimoiy psixologik treninglardan foydalanishning ma'nosi ham shunda - yaxshi va tez eslab qolish hamda samarali esga tushirish. Iqtisodiy o'quvlarda turli xil «keys stadi»larni tahlil qilish va o'z nuqtayi nazaricha maqbul harakat shakllari, qarorlar qabul qilish ham mutaxassislar malakasini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Xotira qonunlari.

Shaxsda o'z xotirasini yaxshilash istagi bo'lsa, u holda xotiraning sakkiz qonunini eslab qo'yishni taklif etamiz:

Anglanganlik qonuni. Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustahkam xotirada muhrlagan bo'lamiz.

Qiziqish qonuni. Anatol Frans: «Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaha bilan yutish kerak» deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, demak, siz ilgarigi tajribangiz yetishmaganligidan uni yaxshi o'zlashtira olmaganligingizni his qilishingiz mumkin. Demak, eski bilimlar ham tajribaga aylangandagina, yangilariga zamin bo'la oladi.

Eslab qolishga tayyorlik qonuni. Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lg'usi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Masalan, fizika o'qituvchisining barcha darslari sizga doimo ma'qul bo'lgan bo'lsa, Siz: «Bugun ham yangi narsa o'rganib chiqaman», deb o'zingizni ishontirasiz va oqibatda natija ham yaxshi bo'ladi. Yoki vaqtga nisbatan tayyorlik ham shunday. «Bir amallab imtihon topshirsam, keyin qutulaman», deb darsga tayyorlangan bo'lsangiz, imtihon tugagach, go'yoki miyangizni birov «yuvib qo'yganday» bo'ladi. Agar materialni mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak, deb umringiz oxirigacha muhimligini anglasangiz, u narsa xotirada muqim saqlanadi.

Assotsiatsiyalar qonuni. Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu ham yozgan edi. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, ayni konkret xona o'sha yerda ro'y bergan hodisalarni ham eslatadi.

Birin-ketinlik qonuni. Harflarni alifbodagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada ham ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashtirish va, kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo'lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo'ladi. Bundan tashqari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma'lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushiriladi.

Tormozlanish qonuni. Har qanday muayyan ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotni tormozlaydi. Shuning uchun u o'chib ketmasligini istasak, yangini esda saqlashdan avval, mustahkamlash choralari ko'rishimiz kerak.

Demak, yaxshi kuchli bilimlarga ega bo'lish uchun har bir predmet yoki fanning mavzularini o'ziga xos tarzda yoqtira olish va xotirada saqlash uslublarini ishlab chiqishingiz kerak ekan. Lekin, albatta, matematika fanidan keyin fizikani, tarixdan keyin adabiyot fanini, she'r yodlashni uyqu oldidan amalga oshirmaslikni maslahat beramiz.

Idrok va xotira jarayonlarining samaradorligi va ularni boshqarish yana bir psixik jarayon – diqqatga bog'liqdir. Diqqat – shunday psixik jarayonki, u shaxs ongining narsa va hodisalarga yo'nalganligini aks ettiradi. Hosil bo'lish va amal qilish xususiyatiga ko'ra diqqat ikki turli: ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'ladi.

Ixtiyorsiz diqqat kishining anglashilgan niyatlari va maqsadlaridan mustasno tarzda hosil bo‘ladi. Ixtiyoriy diqqat ongli ravishda boshqarilayotgan va tartibga solingan bo‘ladi. Ixtiyorsiz diqqatning paydo bo‘lishi psixofiziologik va psixik omillar bilan belgilanadi. Ixtiyoriy diqqat shaxs faoliyatida namoyon bo‘ladi. Shu diqqat turi borligi tufayli kishi xotiradan o‘zi uchun zarur ma’lumotlarni faol tarzda, tanlab ajratib olishga, to‘g‘ri qarorlarni tanlashga, faoliyat jarayonida paydo bo‘ladigan vazifalarni amalga oshirishga layoqatli bo‘ladi. Diqqatning xususiyatlariga: ko‘chishi, barqarorligi, taqsimlanishi va ko‘lami kiradi. Diqqatning salbiy jihati ham mavjud. Bu parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning tez-tez va oson bo‘linib turishida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘qish va ishda susayishga olib keladi. Shuning uchun har bir talaba o‘z ta’lim faoliyatining samaradorligini oshirishi uchun diqqat xususiyatlarini bilishi bilan birga, uni boshqarish va rivojlantirish omillarini topa olishi kerakdir.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Kasbiy bilimdonlik, idrok, figura va fon, kutishlar va taxminlar, anglanganlik qonuni, taxminlarni tekshirish jarayoni, xotira, xotiraning samaradorligi, assotsiatsiyalar, diqqat.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Bilish jarayonlari.
2. Kasbiy faoliyat.
3. Idrok va uning xususiyatlari.
4. Xotira va shaxs tajribasining boyligi.
5. Xotira qonunlari.
6. Diqqat jarayoni.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Дружинина В. Психология. Учебник нового века. – С-Пб.: Питер, 2004.
2. Zufarova M.E., Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari jamoasi, 2008.
3. Майерс Д. Социальная психология. - СПб, 1997.
4. Психология и педагогика. Под ред. А.А.Радугина. – М.: Т-Центр, 2003.
5. Karimova V.A., Akramova F.A., Psixologiya. Ma’ruzalar matni. – T., 2002.
6. Радугина А.А. Психология и педагогика. -М.:Т-Центр, 2003.
7. Xaydarov F.I., Halilova N.I. Umumiy psixologiya. – T.: TDPU, 2010. 400b.
8. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. – T.: JIDU. 2013.

18-MAVZU TAFAKKUR

18.1. Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati.

18.2. Tafakkur turlari va shakllari.

18.3. Tafakkur operatsiyalari. Tafakkurni rivojlantirish usullari.

18.1. Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati.

Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Aks holda u eslab qolmaydi ham, keyingi safar analogik obyekt bilan to'qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya'ni, biz ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi *ma'noli*, kerak bo'lsa, *ma'nili* bo'lishini xohlaymiz. Shunisi xarakterliki, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomondan beriladigan ma'no har bir alohida shaxs tomonidan turlicha idrok qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - hayotining ma'nosi bo'lsa, dehqon uchun yer va undan olinadigan hosil - ahamiyatli hisoblanadi. Hattoki, bitta narsaning o'zi turli odamlar uchun turli xil ma'no va mazmun kasb etadi. O'sha kitob misolini oladigan bo'lsak, kitob industriyasi bilan shug'ullanuvchi muhandis uchun – ishlab chiqarish mahsuloti, kitob do'koni sotuvchisi uchun – tovar-mahsulot, o'quvchi uchun – ilm manbai, muallif olim uchun – ijodining mevasi, eng qimmatli narsadir. Har bir alohida narsaga bo'lgan munosabatimiz uning biz uchun qadr-qimmatiga bevosita ta'sir etadi, u goh ijobiy, goh salbiy bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan ham biz narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lamiz.

Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashtirishga bag'ishlangan ma'ruza qanchalik zerikarliday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo'llari haqidagi ma'lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so'zning morfologik tahlili - shunchalik befarqlik holatini keltirib chiqaradi. Demak, bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada *tafakkur, fikrlash* deb ataladi.

Tafakkur – inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o'zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan

chetda bo'lgan, u, asosan, faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala hisoblangan. Psixologiya ilmining otaxoni hisoblanmish nemis olimi Vilgelm Vundt ham psixologiyani ikkiga - fiziologik psixologiya (eksperimental yo'l bilan bilish jarayonlarini o'rganuvchi fan) va xalqlar psixologiyasi qismlariga bo'lgan va ikkinchi qismiga nutq va tafakkur psixologiyasini ham kiritgan va uni eksperimental tarzda o'rganib bo'lmaydi, ularni tushuntirish mumkin, xolos, deb hisoblagan. Bu xulosalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa ham shuni ta'kidlash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari – bu bilish jarayonlari; ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli; uchinchidan, bu jarayonlar ham eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi; to'rtinchidan, tafakkur – bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo'lmay, narsalar va ularning xossalarini ular yo'q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtropik hududlari to'g'risida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam ham subtropiklik xossasini bilgani uchun ushbu axborotni tushunib, uni qabul qila oladi. Sinov paytida talaba kecha o'qigan, laboratoriya sharoitida sinab ko'rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro'parasida namoyon bo'layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro'y bergan hodisalarni yana formulalar va statistik hisob-kitoblar vositasida isbot qilib berishi ham mumkin. Bu operatsiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi. Tafakkur qilishimizni ta'minlovchi organ – bu bizning miyamiz. Barcha hisob-kitob ishlari – eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab mavhum teoremlarni isbot qilishga qaratilgan operatsiyalar miyada sodir bo'ladi. Shuning uchun ham juda charchab turgan paytda odamdan biror qiyinroq masala xususida fikr bildirishini so'rasangiz, «hozir boshim og'rib turibdi, juda charchaganman, biroz o'zimga kelay, keyin fikrlashamiz», deb javob beradi. Demak, miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o'zaro uzviy bog'liq ekan. Miyamizning fikrlash qobiliyati va imkoniyatlari shunchalik salmoqliki, ayrim olimlarning fikricha, uning ishlash qonunlari hozir biz ishlatayotgan kompyuterlar emas, yana 100-200 yillardan keyin paydo bo'ladigan murakkab, o'ta «aqli» kompyuterlar faoliyatiga yaqin ekan.

Kallamizga kelgan barcha o'y-xayollar – bu *fikrlardir*. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har on, har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni yechish – *fikrlash* jarayonidir.

Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir masala, muammo, jumboqni hal qilish kerak bo'lganda paydo bo'ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta

yechimni berishi shart, aks holda u boshqa jarayonga – xayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Fikr, g‘oya, aniq yechim bo‘lmaganda, inson miyasining borliqdagi narsa va hodisalar mohiyatini aks ettirishi *xayol* deb ataladi. Shuning uchun ham do‘stlar davrasida ba‘zan muammo xususida tortishuv bo‘lib qolganda, aniq bilimi yoki g‘oyasi yo‘qligi tufayli kallasiga kelgan narsani aytgan bolaga qarab «Juda olib qochishga ustasan-da, xayolparast» deyishadi.

Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko‘raylik. Sizga mixlar solingan bir karton quticha, ikkita sham va bolg‘acha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o‘rnatib, yoqib qo‘yish kerak. Kim qanday yechadi? Albatta, birdaniga to‘g‘ri yechimga kelish qiyin. Qutichani bo‘shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka qoqish mumkinligi to‘g‘risida fikr kallaga kelmaguncha, yechimni topish qiyin. Ayni shu masala ikki xil shart bilan berilgan: bittasida quticha mixlar bilan to‘la deyilgan, ikkinchisida quticha bo‘sh deb berilgan. Ikkinchi holatda bolalar uning yechimiga tezroq kelishgan.

Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yechish mobaynida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilsagina yechimga kelarkan. Agar idrok bilan bog‘laydigan bo‘lsak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o‘rinlari almashadi va hokazo. Bunday individual farq shundaki, ba‘zi bolalar yechimga to‘g‘ridan-to‘g‘ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir necha yechimning variantlarini ko‘z oldiga keltirib, so‘ng bir qarorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir juda sekin. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma-yon o‘tirgan ikki bola bir xil yechimni belgilaydi, lekin o‘sha yechimga kelish yo‘llari har birida o‘ziga xos bo‘ladi. Aynan shu jarayonning qanday kechishini *tafakkur psixologiyasi* o‘rganadi. Muammoning yechimi ba‘zan birdan, yorqin yulduzday yarq etib paydo bo‘ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada *insayt – oydinlashuv* deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniqlik, insayt paydo bo‘lganini o‘zi ham bilmaydi. Eng iqtidorli, zukko olimlar ham o‘z fikr yuritish qonuniyatlariga e‘tibor berib, yangi g‘oya qachon, qanday yo‘l bilan paydo bo‘lganiga javob topolmaganlar. Hattoki, ba‘zan shunday ham bo‘ladiki, yangilik kashf etgan olim o‘zining fikri naqadar noyob ekanligini anglash imkoniyatiga ham ega bo‘lmaydi, qolaversa, kashfiyot go‘yoki uniki emasday, qayerdan kelib qolganini ham tushunmaydi. Shuning uchun ham ko‘plab genial kashfiyotlarning haqiqiy qadr-qimmatini muallif o‘tib ketgandan keyin tarix tomonidan baholanadi. Xuddi shunday qadrga ega bo‘lgan kashfiyotlar yurtimizda yashab o‘tgan yuzlab allomalar ijodiga taalluqli. Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Al-Farg‘oniy, Xorazmiy, Zamashhariy kabi allomalar o‘zlari ijod qilgan paytlarida yaratgan g‘oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o‘lmas ekanligini keyingi avlod, butun

bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. R. Dekartning kallasiga analitik geometriya g'oyasi kelganda, o'zida yo'q xursand bo'lgan va cho'kkalab, yig'lab shu fikrni unga ato etgan Xudoga sajda qilgan ekan.

Darhaqiqat, miyadagi tiniqlik, oydinlashuv, avvalo, Ollohning inoyati, qolaversa, o'sha fikr egasining mashaqqatli mehnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkan zahmatli terlari evaziga ro'y beradi. Umuman yangiliklar ochish, ijod qilishga aloqador tafakkur turi uning eng ahamiyatli va, shu bilan birga, eng qiyin turidir. Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashf qilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo'l bilan uni ochishi mumkinligini o'zi ham bilmaydi. Shu o'rinda akademik Kedrovning Mendeleev davriy jadvalini kashf qilganligi xususidagi esdaliklari juda o'rinli. Olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma'lum qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o'ylab yurgan. «Kallamga kelyapti-yu, uni ko'rolmayapman», deb tashvishlanardi olim. Kunlardan bir kun u juda toliqib, yozuv stoli ustida uxlab qolganda, tushida davriy jadvalni «ko'rgan». Xursand bo'lib ketib, uyg'ongan zahoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdagi ishi bilan o'ngidagi ishining farqi shu bo'lganki, tushida yengil moddalar pastda joylashgan bo'lgan, Mendeleev ularni o'ngida «to'g'rilab» chiqqan. Bu ham o'sha insaytga bir misol.

18.2. Tafakkur turlari va shakllari.

Insonning fikrlash jarayoni tahlil qilinganda, uning qanday shakllarda kechishi ahamiyatli bo'lib, bu uning turlari va shunga ko'ra fikrlashdagi individuallik masalasidir. 5-jadvalda tafakkurning turli mezonlar asosidagi klassifikatsiyasi keltirilgan.

Hayot mobaynida o'qiganlarimiz, ma'lum shart-sharoitlarda konkret dalillar va nazariy bilimlar asosida mushohada qilgan bilim va g'oyalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni **nazariy tafakkurdir**. Undan farqli **amaliy tafakkur** bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lgan fikrlarimizga asoslanadigan tafakkurimizdir.

Ko'rgazmali harakat tafakkurining xususiyati shundaki, u ham odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi. **Ko'rgazmali-obrazli tafakkur** esa ko'rgan-kechirgan narsalar va hodisalarning konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir. **Mantiqiy tafakkur** – bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya va tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo'lmagan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mulohazalarimiz ushbu tafakkurga misol bo'la oladi.

Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'ladi.

Fikrlashimizning yana bir turi **reproduktiv** bo'lib, uning mohiyati - ko'rgan-bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi. Undan farqli **produktiv yoki ijodiy tafakkur** - fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga bog'liq bo'lgan **konvergent** fikrlash masalaning yechimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, **divergent tafakkur** - fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi. Fikrning kashf etish, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati ba'zan uning **kreativlik** sifati bilan bog'lab tushuntiriladi. Kreativlik – shunday xislatki, u go'yoki yo'q joyda bor qiladi, ya'ni oddiygina, jo'ngina narsalarga boshqacha, birovlarnikiga o'xshamagan yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, uchta so'z berilgan – «qalam», «ko'l», «ayiq». Uchalasini qo'shib, yangi jumlar tuzish kerak. Har kim o'zidagi kreativlik darajasiga ko'ra turli xil jumlar tuzsa bo'ladi, masalan, «Bola qalamni olib, ko'lda cho'milayotgan ayiq rasmini chizdi». Yoki «Terak qalamchalari ekib chiqilgan ko'l yoqasida bir ayiq bolasini cho'miltirardi». Shunga o'xshash ko'plab jumlar tuzish mumkin.

Mashhur olim **K.Yung** insonlarni fikrlashlariga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lgan edi:

1. **Intuitiv tiplilar.** Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha hissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, his qilib, yorqin emotsional munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror narsa xususida fikrlarini bayon eta olmaydilar.

2. **Fikrlovchi tiplar.** Bunday kishilarda doimo mantiq, mulohaza hissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap tomoni o'ngiga nisbatan dominanta (ustun) hisoblanadi. Bundaylar gapira boshlashsa, ko'pincha, «Faylasuf bo'lib ket-e», deb ham qo'yishadi. Chunki ular o'zlarigacha bo'lgan bilimlar, mantiqiy fikrlash borasidagi yutuqlarga tayanib, doimo to'g'ri gapirishga, doimo fikrlarini mantiqan asoslash – argumentatsiya qilishga harakat qiladilar. Aniq va texnika, tibbiyot fanlari bilan shug'ullanuvchilarda ana shu tafakkur tipiga moyillik va psixologik hozirlik bo'lsa, ular o'z kasblari borasida juda yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardan farqli birinchi toifa vakillaridan yaxshi yozuvchilar, shoirlar, tilshunoslar, psixologlar yetishib chiqadi

Tafakkur shakllari.

Tafakkur qilish shakllari yoki formasiga tushunchalar, hukmlar va xulosa chiqarish kiradi.

Tushunchalar – tafakkurning shunday shakli, u narsa va hodisalarga xos bo‘lgan eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o‘zida aks ettiradi. Ular umumiy va juz‘iy, konkret yoki mavhum bo‘lishi mumkin. Masalan, «ong» tushunchasini oladigan bo‘lsak, uning eng muhim va boshqa tushunchalardan farq qiladigan jihatlarini ajratishimiz kerak: faqat insonga xoslik, oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmi ekanligi va hokazo.

Hukmlar – atrofimizdagi narsalar va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aks ettiradi. Masalan, «Inson ongli mavjudot» degan hukm - fikr «odam, inson», «ong» va «mavjudot» tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalab turibdi. Ana shunday hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko‘p ishlatiladi va ular tabiatan turli bog‘liqliklarni yo tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi, rost yoki yolg‘on bo‘ladi. Shaxsning insoniyligi aslida u ishlatadigan iboralarning qanchalik mantiqqa, hayotiy haqiqatlarga to‘g‘ri kelishi, argumental ekanligi bilan baholanadi. Doimo to‘g‘ri, mantiqan fikr yuritgan odamni biz «bama’ni, gapida jon bor, haqiqatgo‘y» deb ta’riflaymiz.

Xulosalar – mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo‘lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o‘rtasidagi bog‘lanishdan yangi bir fikrni keltirib chiqarishni nazarda tutadi. Masalan:

1- hukm: *O‘zbekiston – mustaqil davlat.*

2- hukm: *Qirg‘iziston – mustaqil davlat.*

3- hukm: *Qozog‘iston – mustaqil davlat.*

4- hukm: *Turkmaniston – mustaqil davlat.*

5- hukm: *Tojikiston – mustaqil davlat.*

Demak, barcha Markaziy Osiyo davlatlari - mustaqildir.

Shunga o‘xshash biz ba’zan ayrim fikrlardan umumiy bir fikr keltirib chiqaramiz (bu – induktiv xulosa chiqarish), ba’zan esa, aksincha, umumiydan juz‘iy – alohida fikr chiqaramiz (fikrlashning bunday harakati deduktsiya deb ataladi).

18.3. Tafakkur operatsiyalari. Tafakkurni rivojlantirish usullari.

Psixologiyada fikrlash jarayoni **operatsiyalari** deb ataladi.

Fikrlash operatsiyalariga **analiz** (fikran narsa va hodisalarga taalluqli sifat va xususiyatlarni alohida qilib ajratish, tahlil qilish), **sintez** (analiz jarayonida ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish, qo‘shish), **mavhumlashtirish** (alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg‘itish, ayrim xossani mavhumlashtirish), **taqqoslash** (predmetlar va ularga xos bo‘lgan xususiyatlarni fikran bir-biriga solishtirish, umumiy va farq qiluvchi jihatlarini topish),

umumlashtirish (umumiy va muhim sifatlariga ko'ra predmetlarni guruhlashtirish, umumiyashtirish) kabilar kiradi.

Biz yuqorida tafakkurning individual xususiyatlari va ushbu jarayonga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni o'rgandik. Lekin aslida maqsad shundayki, har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan holda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Oxirgi yillarda psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida, dars paytida ham o'stirish va bunga qisqa yo'llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samaraliroq qiladi. Ayrim juda jiddiy va murakkab ijod daqiqalarini inobatga olmaganida, yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni, undagi faoliyat shakli individual tafakkurning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa isbot qilinganki, jamoada ishlash ko'plab nostandart fikrlarning tug'ilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'larkan.

Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri «breyn storming» deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi «miyani zabt etish»dir («мозговая атака» ruscha –«brain storming» ingl.). Uni o'tkazish quyidagi tamoyillarga asoslangan:

1. Ba'zi intellektual masalalarni yechishda bitta yechim bilan cheklanib bo'lmaydi va shu maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayonda «guruhiy effekt» bo'lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo'ladi va bunda alohida ayrim individual qarorlarga ta'sirlanishga yo'l qo'yilmaydi.

2. Guruhga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir-birlaridan fikrlash uslublarining noyobligi bilan farq qiladilar. Masalan, kimdadir mantiqiylik ustun, kimdir kreativ, kimdir tanqidchi va shunga o'xshash.

3. Guruhda shunday ijodiylik ruhi bo'lishi kerakki, har kim xohlagan fikrini bemalol aytaveradi, u yoki bu fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin uningegasi tanqid qilinmaydi. Bunday sharoitda o'rtacha intellektual darajaga ega bo'lgan shaxs ham shunday fikrlar izhor qila boshlaydiki, ular alohida qolgan paytida sira ham miyaga kelmagan bo'lardi.

Bu jarayon oliy o'quv yurtlarida darslarda ham qo'llanilishi mumkin, faqat uning yuqoridagi tamoyillari inobatga olinishi va guruhda o'zaro hamjihatlik muhiti bo'lishi kerak.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Tushunchalar, fikrlar, tafakkur qilish, tafakkur turlari, tafakkur shakllari, tafakkur operatsiyalari, breyn storming usuli, intellektual masalalar.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati.
2. Tafakkurning turlari.
3. Tafakkurning shakllari.
4. Tafakkur operatsiyalari.
5. Tafakkurni rivojlantirish usullari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A., Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq, 1999.
2. Karimov I.A., Jismoniy va ma'naviy yetuk avlodni tarbiyalash. -T.: O'zbekiston, T.12, 2004.
3. Karimov I.A., Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat // Xalq so'zi, 2005, 7 dekabr, № 23.
4. Karimov I.A., Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. -T.: O'zbekiston, 2008.
5. Дружинин В., Психология Учебник нового века. - С-Пб: Питер, 2004.
6. Zufarova M.E., Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari jamoasi, 2008.
7. Karimova V.A., Akramova F.A.. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. - T., 2002.
8. Karimova V.M., Ota-ona maktabi – baxt kaliti. –T., 2002.
9. Немов Р.С., Психология. -М.: Владос, 2003.
10. Радугин А.А., Психология и педагогика. -М.: Изд-во Центр, 2003.
11. Хаьдаров F.I., Halilova N.I. Umumiy psixologiya. - T.: TDPU, 2010. 400b.

19-MAVZU

SHAXS TARAQQIYOTINING YOSHGA BOG‘LIQ XUSUSIYATLARI

19.1. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar.

19.2. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo‘lish.

19.3. O‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida shaxs ijtimoiylashuvining o‘ziga xosligi.

19.4. Yoshlardagi attraktsiya va emotsional munosabatlar.

19.1. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar.

Shaxs individual taraqqiyotining muhim omillaridan yana biri uning yoshiga bog‘liq bo‘lgan xususiyatlaridir. Chunki taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o‘zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga, yangiliklari va o‘zgarishlariga ega bo‘lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, iqtidori, bilish jarayonlariga bevosita ta‘sirini o‘tkazadi.

Yosh taraqqiyoti davrlarining ham sifat, ham miqdor o‘zgarishlariga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlari borki, amaliy psixologiya har bir yosh xususiyatlarini ana shu ikkala ko‘rsatkich nuqtayi nazaridan o‘rganishi va shaxs xulqini boshqarish va ta‘sir ko‘rsatishda ularga tayanmog‘i lozim. Umuman psixologiyada isbot qilingan faktlardan biri shuki, turli davrlardagi inson taraqqiyoti o‘ta murakkab jarayon bo‘lib, har bir davrning o‘z qonuniyatlari mavjud. Har bir bosqichda shaxsning biror bir xususiyatlari o‘zining yetuklik fazasiga erishadi. Masalan, olamni sensor jihatdan bilishning yetuklik fazasi 18 – 25 yoshlarda (Lazarev ma‘lumotlariga ko‘ra), intellektual, ijodiy yetuklik – 35 yoshlarda (Leman ma‘lumotlari), shaxsning yetukligi 50 - 60 yoshlarga kelib eng yuqori nuqtasiga erishadi. Shunga o‘xshash xususiyatlar insonning butun umri mobaynida muttasil kamolga yetib, rivojlanib borishini ta‘minlaydi. Shunisi xarakterliki, har bir yoshda biror funktsiyalarning rivojlanishi boshqa bir funktsiyalarning susayishi hisobiga ro‘y beradi. Masalan, bolalikning ilk bog‘cha yoshida fazoga moslashuv juda kuchaysa, keyinchalik vaqtni adekvat idrok qilish kuchayadi. Qariyalarning biror narsalar xususida bilimdonligi, ma‘lumotlar dunyosidagi yaxshi orientatsiyasi, psixomotorik funktsiyalar va bevosita bilish jarayonlarining susayishi hisobiga ro‘y beradi. Xuddi shunday bolaning 3-5 yosh davri tilni, uning lug‘aviy va strukturaviy xususiyatlarini o‘zlashtirishga juda maqbul bo‘lsa, yetuklik davri bo‘lmish 45-55 yoshlarga kelib ayni shu sifat deyarli o‘zini yo‘qotadi («til qotib qoladi»).

Psixologiyaning maxsus tarmog‘i hisoblanmish yosh davrlari psixologiyasining eng asosiy muammolaridan biri shuki, inson psixik taraqqiyotida qanday omillar – genetik, tug‘ma yoki orttirilgan, ijtimoiy omillar

roli yetakchi ekanligi masalasidir. Bir tomondan, bolaning o'z ota-onalaridan meros sifatida o'zlashtirgan sifatlari, masalan, anatomo-fiziologik xususiyatlar, miya faoliyatining o'ziga xosligi, tana tuzilishi (qo'l, oyoq, yuz tuzilishi va boshq.), albatta, psixologik jihatdan odam bolasining muhitga moslashuvi, unda erkin harakat qilishi, jarayonlarni ongida aks ettirishiga sabab bo'ladi. Chunki oddiygina anatomik anomaliya holati (qo'lning kaltaligi, bo'yning juda kichikligi kabi) psixikaga va shaxsning jamiyatda o'zini tutishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin, ikkinchi tomondan, tashqi muhit ta'sirini ham kamsitib bo'lmaydi. Masalan, agar bola maxsus o'quv maskanlarida o'qimasa, unga tarbiyaviy ta'sirlar ko'rsatilmasa, uning rivojlanishi qanday bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Bu muammolar ustida bosh qotirgan olimlar **L.Vigotskiy, J.Piaje, S.Rubinshteyn, A.Leontyev** va ko'plab boshqa psixologlar ikkala omil rolini ham inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitning yetakchi ta'siri to'g'risidagi fikrni baravar yoqlaganlar. Chunki to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya, oila va undagi o'zaro munosabatlarning xarakteri, shaxs muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruhlar, u tanlagan kasb va kasbdoshlari muhiti, nikoh va ma'lumot masalalarining qanday hal qilinganligi kabi qator ijtimoiy omillar shaxsning rivojlanishi, uning o'z-o'zini anglashi va o'zgalarga munosabati, bilish jarayonlari hamda intellektual taraqqiyotida katta ahamiyatga egaligiga shubha yo'q. Respublikamiz Prezidenti **I.Karimov** boshchiligida mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq boshlangan «Sog'lom avlod uchun» shiorini amalga oshirish siyosati farzandlarimizning ham jismonan, ham ruhan, ham aqlan yetuk bo'lishlariga qaratilgan. Jismonan sog'lom tanada sog'lom ruh bo'lishi tabiiy.

19.2. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish.

Shu vaqtgacha psixologiya ilmida shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lib o'rganishga juda katta e'tibor qaratilgan. Bir qancha davriy sxemalar ham taklif etilgan. Lekin shu sohada astoydil ijod qilgan har qanday olim o'zining «davrlarini» taklif etavergan. Bu tushunarli, zero insonning hayotiy yo'li va uning asosiy lahzalari tarixiy taraqqiyot mobaynida o'zgaradi, bir avloddan ikkinchi avlod taraqqiyotiga o'tishning o'zi ham qator o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Davrlarga bo'lishga qaratilgan klassifikatsiyalarning o'zi ham ikki turli bo'ladi: juz'iy (alohida davrlarni yana qo'shimcha davrlarga bo'lish – «davrlar ichidagi davrlar») va umumiy (inson umrining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan). Masalan, juz'iy klassifikatsiyaga J. Piajening intellektning rivojlanishini bosqichlarga bo'lishini kiritish mumkin. U bu taraqqiyotni 3 bosqichda tasavvur qilgan:

- sensomotor intellekt bosqichi (0 – 2 yosh). Bunda, asosan, olti bosqich farqlanadi;

- konkret operatsiyalarni bajarishga tayyorlash va uni tashkil etish bosqichi (3 - 11 yoshlar);

- formal operatsiyalar bosqichi (12 – 15 yoshlar). Bu davrda bola nafaqat bevosita ko‘rib turgan narsasi, balki mavhum tushunchalar va so‘zlar vositasida ham fikr yurita oladi.

D.B. Elkoninning yosh davrlari bosqichlari ham shu guruhga kiradi va u ham bolalikning uch davrini farqlaydi: ilk bolalik, bolalik va o‘smirlik. Har bir bosqichning o‘ziga xos yetakchi faoliyati, o‘zgarishlari va rivojlanish shart-sharoitlari mavjud bo‘ladi va ularni bilish tarbiyachilar uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Har bir bosqichda faoliyat motivlari ham o‘zgaradi, ularning o‘zgarishi shaxs ehtiyojlari va talablari darajasining o‘zgarishiga mos tarzda ro‘y beradi.

Inson hayotining barcha davrini yaxlit tarzda qamrab olgan klassifikatsiyalardan biri butun jahon olimlarining qaroriga ko‘ra, 1965-yili Fanlar Akademiyasining maxsus simpoziumida qabul qilingan sxema hisoblanadi. U quyidagi jadvalda keltirilgan. U **B.G.Ananyev**, chet ellik olim Birrenlar taklif etgan klassifikatsiyaga yaqin bo‘lib, umumlashtirilgan toifalashdir.

4 - jadval

Yosh davrlari	Erkaklarda	Ayollarda
Chaqaloqlik	1 – 10 kun	1 – 10 kun
Emiziklik davri	10 kundan 1 yoshgacha	10 kundan 1 yoshgacha
Ilk bolalik	1 - 2 yosh	1 - 2 yosh
Bolalikning 1 - davri	3 - 7 yosh	3 - 7 yosh
Bolalikning 2 - davri	8 - 12 yosh	8 - 11 yosh
O‘smirlik davri	13 - 16 yosh	12 - 15 yosh
O‘spirinlik davri	17 - 21 yosh	16 - 20 yosh
O‘rta yetuklik davri:		
birinchi bosqich	22 - 35 yosh	21 - 35 yosh
ikkinchi bosqich	36 - 60 yosh	36 - 55 yosh
Keksalik davri	61 - 75 yosh	56 - 75 yosh
Qarilik davri	76 - 90 yosh	76 - 90 yosh
Uzoq umr ko‘ruvchilar	90 yoshdan ortiq	90 yoshdan ortiq

Taraqqiyotni yosh davrlarga bo‘lishda o‘ziga xos klassifikatsiyalar ham bor. Masalan, **E. Erikson** shaxs «Men»ining rivojlanish bosqichlarini ajratib har birida ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni belgilab o‘tgan.

1 - bosqich (ishonch - ishonchsizlik) – bu hayotning 1 - yili.

2 - bosqich (mustaqillik va qat'iyatsizlik) – 2 - 3 yoshlar.
3 - bosqich (tadbirkorlik va gunoh hissi) – 4 - 5 yoshlar.
4 - bosqich (chaqqonlik va yetishmovchilik) – 6 - 11 yoshlar.
5 - bosqich (shaxs identifikatsiyasi va rollarning chalkashligi) – 12 - 18 yoshlar.

6 - bosqich (yaqinlik va yolg'izlik) - yetuklikning boshlanishi.

7 - bosqich (umuminsoniylik va o'ziga berilish) – yetuklik davri.

8 - bosqich (yaxlitlik va ishonchsizlik) - keksalik.

Erikson klassifikatsiyasining o'ziga xos qimmatini shundaki, unda shaxsning o'zi to'g'risidagi tasavvurlarining jamiyat ta'sirida o'zgarishi nazarda tutiladi. Shunga o'xshash bosqichlarga bo'lishlar oxirgi paytda yana ko'plab mualliflar tomonidan taklif etilmoqda (**G.Grimm, D.Bromley** va boshq.). Ularning barchasidagi umumiy mezon shuki, har bir taraqqiyot davri shaxs rivoji uchun nimani taklif etadi-yu, shaxs unda qanday rivojlanish ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ularni tabiiy o'zgarishlarda bilish va o'rganish kerak, chunki busiz shaxs tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, maktab yoshidagi bolalarga qo'yilgan talablar katta odamlar jamoasiga to'g'ri kelmaydi, yoki bog'cha yoshidagi bola bilan til topish va talaba bilan til topish o'ziga xos pedagogik takti va o'sha yosh sohasida bilimdonlikni talab qiladi.

19.3. O'smirlik va o'spirinlik davrlarida shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi.

O'smirlik va o'spirinlik davrlari maktab va boshqa ta'lim maskanlarida o'qish davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrdagi yetakchi faoliyat ***o'quv faoliyati*** bo'lib, unda bola bilim olish bilan bog'liq, malaka va ko'nikmalarni orttirishdan tashqari, shaxs sifatida ham muhim o'zgarishlarga yuz tutadi.

O'smirlik davri eng murakkab va, shu bilan birga, muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik – 14-15 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim o'ziga xos jihati shundan iboratki, u bolalikdan o'spirinlik, kattalikka, yoshlikdan yetuklikka o'tish davridir.

O'smirlik – organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu bola fe'lini o'zgaruvchan, dinamik qilib qo'yadi va ba'zan noma'qulliklar, noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular, albatta, asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bola tezga achchiqlanadigan yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin. O'smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog'at bo'lib, u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham o'zgartiradi. Shu bilan bog'liq holda ongli jinsiy mayllar, ular bilan bog'liq noxush his-

kechinmalar, fikrlar paydo bo'ladiki, bola ularning asl sababini ham tushunib yetolmaydi. Psixik taraqqiyotning o'ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Bu taraqqiyot o'quv jarayonida kechgani uchun to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati bola psixikasining muvozanatiga va uning turli fikr-o'ylardan chalg'ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda bola mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko'proq o'z fikr-o'ylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko'paytirishga intiladi. Buning sababi - yana o'sha kattalikka o'tish bo'lib, bolada o'ziga xos «kattalik» hissi paydo bo'lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida ham ifodalanadi. Shuning uchun ham maktabda berilgan mustaqillik va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari, samimiyluk muhiti unda mustaqil fikrlashga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. Shunga bog'liq tarzda o'smirning o'z falsafasi, o'z siyosati, baxt va muhabbat formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o'rganishi esa uni o'zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o'ziga xos *o'smirlik egotsentrizmining* shakllanishiga - butun olam va uning qonuniyatlari unga bo'ysunishi kerakday fikrning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham aynan o'smirlik paytida bolalar o'z ota-onalari bilan hadeb tortishaveradilar. Aniq bir to'xtamga kelolmasa ham tortishish biror firknini izhor qilish ehtiyojining o'zi unga juda yoqadi. Shunday bo'lishiga qaramay, o'smirlik yuqorida ta'kidlanganidek, qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar «krizislar, tanazzullar» davri ham deb ataydilar. Sababi - bola ruhiyatida shunday inqirozli holatlar ko'p bo'ladiki, u bu inqirozni, bir tomondan, o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, uni hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetishmaydi. Masalan, «kattalik hissiga» to'sqinlik qiladigan omillardan biri - bu ularning o'z ota-onalaridan moddiy jihatdan qaramligi. Ruhan qanchalik o'zlarini katta deb his qilmasin, o'smir maktabga ketayotib, onasidan yoki otadan pul so'raydi, ular esa bolaga bolalarcha munosabatda bo'lib, ozginagina pul beradilar. Ikkinchidan, kattalarday bo'lishni xohlaydi, lekin qiz bola onasining, o'g'il bola otasining kiyimini toshoyna oldida kiyib ko'rsa, baribir yarashmaydi. Ya'ni, tashqi ko'rinishdagi kamchiliklar - hali qaddi-qomatning kelishmaganligi, uning ustiga yuzlari va tanasida paydo bo'ladigan noxush toshmalar uning ruhan salbiy hisslarni boshdan kechirishiga olib keladi. Ya'ni, bu yoshni «arosat» yoshi deb ham atash mumkin, chunki katta bo'lib katta emas, bola ham emas. Shularning barchasi o'smirlik davridagi ruhiy tug'yonlarga sabab bo'ladi. Lekin shularga qaramay, bola o'zi bilib, bilmay o'z aqliy salohiyatini o'stirishga intiladi,

chiroyli fikrlashga tashna bo‘ladi va bu – uning psixik taraqqiyotidagi eng muhim o‘zgarish hisoblanadi.

O‘smir shaxsning takomillashuvi va shakllanishiga turtki bo‘lgan omillardan biri – o‘quv faoliyati motivlaridagi sifat o‘zgarishidir. Kichik maktab yoshidagi boladan farqli, o‘smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo‘lish, o‘qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko‘paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma’lum *ijobiy mavqeni egallash uchun harakat qiladi. Unda* kelajakda yaxshi odam bo‘lish uchun o‘qish motivlari ustuvor bo‘lib boradi. Lekin I.V.Dubrovinaning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, o‘quv faoliyati motivlari orasida umuman bilish, yangi bilimlarga ega bo‘lish motivi kuchsiz bo‘lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o‘qishga og‘rinib kelib, salbiy emotsiyalar va xavotirlik hislarini boshdan kechiradilar (o‘rtacha 20% o‘quvchilar). Bu kattalarning o‘smir bilan ishlashini qiyinlashtiradi.

O‘smirning shaxs sifatida taraqqiyotida ikki xil holat kuzatiladi: bir tomondan, boshqalar, tengqurlar bilan yaqinroq aloqada bo‘lishga intilish, guruh normalariga bo‘ysunish, ikkinchi tomondan, mustaqillikning oshishi hisobiga bola ichki ruhiy olamida ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi. O‘zgalarni anglash bilan o‘z- o‘zini anglash o‘rtasida ham qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi. Ko‘pincha o‘smir o‘z imkoniyatlarini yuqori baholaydi, boshqalar esa uning kuchi, irodasi va salohiyatiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Lekin shunday bo‘lsa-da, o‘zini nima qilib bo‘lsa ham, hech bo‘lmaganda, tengqurlar jamiyati tomonidan tan olinishiga erishishga intiladi va ular bilan muloqot hayotining ma’nosiga aylanib qoladi. Agar mabodo o‘smir shu davrda biror sabab bilan tengqurlari jamiyati tomonidan inkor qilinsa, u bunga juda katta mudhish voqeaday qaraydi, maktabga bormay qo‘yishi, hattoki, suitsidal harakatlar (o‘z joniga qasd qilish)ni ham sodir etishi mumkin.

O‘smirlik davridagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishnoqli va foydali yo‘li – bu uning biror narsaga turg‘un qiziqishiga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilishdir. Masalan, shu davrda texnikaga qiziqib qolgan bola qiziqishini qondirish shart-sharoitining yaratilishi, bekor qolmasligiga erishish, har bir harakatini rag‘batlantirish, unga bir ish qo‘lidan keladigan odamday munosabatda bo‘lish katta pedagogik ahamiyatga ega. Uning qiziqishlarini bila turib, oldiga yangidan yangi maqsadlar qo‘yish - bola shaxsining rivojiga asosdir. Shundagina uning o‘z «Men»i to‘g‘risidagi tasavvurlari ijobiy, o‘z-o‘ziga bahosi obyektiv va adolatli bo‘ladi, o‘zining nimalarga qodirligi va kim ekanligi haqida yaxshi fikrlar paydo bo‘ladi.

O‘spirinlik davri. Yuqori sinfga o‘tgan o‘spirin psixologiyasining o‘ziga xosligi shundaki, u hozirgi paytini, buguni va ertasini kelajak nuqtayi nazaridan, istiqbolga nazar bilan qabul qiladi. Aynan shu davrga kelib, o‘spirin turli kasblarga qiziqqa boshlaydi, o‘zining kelajakda kim bo‘lishini tasavvur qila

boshlaydi. Demak, o'z-o'zini professional nuqtayi nazardan ajratish, tasavvur qilish –o'spirinlikning eng muhim yangiligidir. Professional taraqqiyotning asosiy bosqichlarini ajratar ekan, E.A. Klimov (1996), alohida «*optatsiya*» (lotincha so'z: optatio – xohish, tanlov) bosqichini ajratadi va uning xarakterli tomoni – odam tomonidan professional taraqqiyotning bosqichi tanlanishidir, deb e'tirof etadi. Optatsiya bosqichi 11-12 yoshdan 14-18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi.

Biror aniq kasb-hunarni tanlash va o'z faoliyatini shunga yo'naltirish o'spirin shaxsi uchun juda katta ahamiyatga ega. Ana shunday tanlovning adekvat va to'g'ri bo'lishi o'spirindagi bilish bilan bog'liq qiziqishlar va professional yo'nalishning shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Professional qiziqishlarning shakllanishining o'zi olimlar tomonidan to'rt bosqichli jarayon sifatida qaraladi. Uning **birinchi bosqichi** – 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi va o'ta o'zgaruvchanligi, shaxsdagi bilish jarayonlari va asl iqtidor bilan bog'lanmaganligi bilan xarakterlanadi. 14-15 yoshlarga to'g'ri keladigan **ikkinchi bosqichda** qiziqishlar paydo bo'ladi, ular ko'p bo'lib, bevosita bolaning bilish imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. **Uchinchi bosqichda** – 16-17 yoshlarda qiziqishlarning shunday integratsiyasi ro'y beradiki, ular, avvalo, jinsiy xususiyatlar va shaxsdagi individual xususiyatlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Masalan, qizlar va o'g'il bolalar o'zlariga mos va yarashadigan kasb-hunarni tanlay boshlaydilar. L. Golovey (1996) fikricha, **to'rtinchi** - hal qiluvchi bosqichda qiziqishlar doirasi sezilarli darajada torayib, professional yo'nalish shakllanaib bo'ladi va u kasb tanlash bilan yakunlanadi.

O'zining yuqori pog'onasiga ko'tarilgan qiziqishlar o'spirinning professional yo'nalishi va to'g'ri kasb-hunarni tanlashiga zamin yaratadi. Ular boladagi individual-psixologik xususiyatlar va jinsiy farqlar bilan bog'liq bo'lgani uchun ham o'g'il bolalar ko'proq texnik va iqtisodiy yo'nalishlarni, qizlar esa – ijtimoiy-gumanitar va badiiy sohalar bilan bog'liq kasblarni tanlaydilar. Umuman, inson hayotida *kasbiy o'z-o'zini anglash* katta o'rin tutadi va u juda yoshlik paytidanoq shakllana boshlaydi. Bu jarayonni bosqichlarda tasavvur qilish mumkin.

Birinchi bosqich: bolalar o'yini, bunda bola ilk yoshlikdanoq u yoki bu kasbga bog'liq professional rollarni qabul qiladi va uning muhim elementlarini o'zicha «o'ynaydi» («o'qituvchi», «doktor», «traktorchi», «futbolchi», «artist» va shunga o'xshash).

Ikkinchi bosqich: o'smirlik fantaziyasi – bunda o'smir o'ziga juda yoqqan professional rolni xayolan egallaydi.

Uchinchi bosqich: kasb-hunarni dastlabki tanlash – o'smirlik va ilk o'spirinlik davriga to'g'ri keladi. Turli-tuman faoliyat turlari dastlab o'smirning

qiziqishlari nuqtayi nazaridan («prokurorlikka qiziqaman, demak, yurist bo‘lishim kerak»), keyin uning qobiliyatlari nuqtayi nazaridan («matematikani oson yechaman, matematik yoki muhandis bo‘lsammikan?»), va nihoyat, o‘smirdagi qadriyatlar tizimidagi ahamiyatiga qarab («nochor kasallarga yordam bergim keladi, shifokor bo‘laman») toifalarga bo‘linadi va ajratiladi.

To‘rtinchi bosqich: amaliy qaror qabul qilish – kasbni tanlash. Bunda ikkita muhim jihat bor: konkret ixtisoslikni uning kvalifikatsiyasi xususiyatlari, ishning hajmi, og‘irligi, mas’uliyatlilik va unga yetarli tayyorgarlikning borligi. Lekin oxirgi sotsiologik ma’lumotlarga ko‘ra, oliy o‘quv yurtini tanlash, konkret kasb-hunarni tanlashdan oldinroq yuz bermoqda. Masalan, o‘spirin qiz «Men baribir Nizomiy nomli universitetga kiraman», deydi va so‘ngra konkret fakultet tanlanadi. Ko‘pincha, ixtisoslikdan, keyinchalik professiyadan «sovib qolish»lar ana shunday ustanovkalar bilan tushuntiriladi.

Bundan tashqari, kasb tanlashga ta’sir qiluvchi yana boshqa omillar ham borki, ularning hisobga olinishi ham ba’zan yoshlarning to‘g‘ri, o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlariga mos kasb-hunarni tanlamasligiga sabab bo‘ladi. Masalan, bunday omillarga oilaning moddiy shart-sharoiti, o‘qish joyining uydan uzoqligi, o‘quv tayyorgarligining saviyasi, emotsional yetuklik, sog‘liqning holati va boshqalar kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash Milliy dasturining 1997-yilda qabul qilinishi Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, mustaqil fikrlaydigan, yuksak malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Joylarda tashkil qilinayotgan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tashkil etilgan Tashxis markazlari 9-sinfni tamomlagan yoshlarning iqtidori va layoqati, qiziqishlarini o‘z vaqtida aniqlash, uni psixologik metodlar yordamida diagnostika qilishni amalga oshiradi. Bu tadbirlar yoshlardagi kasb-hunarga bo‘lgan yo‘nalishni adekvat qilish, o‘z yashash joyidan uzoq bo‘lmagan sharoitda zarur, o‘z layoqatiga mos hunar egasi bo‘lib yetishishga yordam beradi.

19.4.Yoshlardagi attraktsiya va emotsional munosabatlar.

O‘smirlik va o‘spirinlik davrlari nafaqat professional tanlov va kasb egallash uchun maqbul davr bo‘lmay, bu davr yoshlarning o‘zligini anglash, o‘z qadr-qimmatini bilish va boshqalarga nisbatan munosabatda bo‘lish tajribasini egallash davri hamdir.

O‘smir ham o‘spirin ham qancha ichki ruhiy iztirob, qarama-qarshilik, mas’uliyat onlarini boshidan kechirmasin, uning emotsional olami, atrof-muhitda ro‘y berayotgan hodisalarni ongida aks ettirishi katta o‘rin tutadi. Aynan o‘smirlik davri bola qalbida kim bilandir sirlashish, kimnidir o‘ziga eng

yaqin kishi sifatida tan olish, uni ruhiyatida kechayotgan barcha o'zgarishlardan voqif etish istagi va ehtiyojini uyg'otadi. Birinchi marta «do'stlik», «muhabbat», «sevgi» tushunchalari ham aynan shu davrda paydo bo'ladi. Shuning uchun ham yetuklik va keksalik davridagi kishilar ham o'smirlik va o'spirinlik yillarini eng beg'ubor, jozibali va yoqimli davrlar sifatida xotirlaydilar.

Bu taraqqiyot davri **attraktsiya** deb atalmish hissiyotning paydo bo'lishi uchun eng maqbul davrdir. **Attraktsiya** (lotincha attrahere – yoqtirtirish, o'ziga jalb etish) – *bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yoqishi va yoqtirishi, o'zaro moyillikni tushuntiruvchi emotsional hisdir.* Bu bir odamda boshqa bir odamga nisbatan shakllanadigan ijtimoiy ustanovkaning bir ko'rinishi bo'lib, simpatiya - yoqtirishdan tortib, to sevgi-muhabbat kabi chuqur emotsional bog'liqlik ham shu his asosida paydo bo'ladi. Ijtimoiy psixologiyada ushbu hissiyotning asl sabablari ijtimoiy motivlar – sheriklarning bevosita bitta makon va zamonda ekanliklari, ularning tez-tez uchrashib turishlari, uchrashuvlar tezligi, suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa, hissiyotlarning tarbiyalanganligi kabi omillar ta'sirida paydo bo'lishi va uning kechish mexanizmlari o'rganiladi. Tadqiqotlar bu kabi emotsional munosabatlar aynan balog'at yoshi arafasida rivojlanishini isbot qilgan. Shunisi ahamiyatliki, attraktsiyaning namoyon bo'lishi, uning kuchi va mazmuni o'smir - yoshning shaxs sifatida o'zini idrok qilishi, o'z-o'zini hurmat qilishi va o'zgalarga nisbatan munosabatlarda toqatliroq bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatar ekan. Shuning uchun ham ana shu davrda o'smir va o'spirin atrofida u yoqtirgan va uni yoqtiradigan odamlarning bo'lishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, uning aksi bola ruhiy azoblanishining sabablaridan hisoblanadi. **Do'stlik.** O'smirlik va o'spirinlik yoshida paydo bo'ladigan barcha muammolarni yechish va u bilan o'rtoqlashish uchun bolaga do'st kerak. Psixolog tili bilan aytganda, do'st – bu «alter-Ego», ya'ni ikkinchi «Men» bo'lib, u o'sha paytdagi «Men»ning bir qismi sifatida idrok qilinadi. Bu shunday odamki, shaxs u bilan barcha dardu-hasratlarini muhokama qiladi, muammolarini uning oldiga to'kib soladi. Do'stlikning boshqa intim, emotsional hissiyotlardan farqi shuki, u odatda bir jins vakillari o'rtasida bo'ladi va do'stlar odatda 2 kishi, ayrim hollarda 3-4 kishi bo'lishi mumkin.

Do'stlikning ham ko'zlagan *maqsadlari* bo'ladi: u amaliy, ish – faoliyat bilan bog'liq, sof emotsional (ya'ni, muloqot ehtiyojlarini qondirish), ratsional (intellektual muammolarni hal qilishga asoslangan), axloqiy (o'zaro insoniy sifatlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi) bo'lishi mumkin. Do'stlikning asosiy sharti – *o'zaro bir-birini tushunish.* Shu shart bo'lmasa, do'stlik haqida gap bo'lishi mumkin emas. Agar ana shunday tushunish bo'lsa, do'stlar gap-so'zsiz ham qiliqlar, yuz ifodasi, yurish-turishga qarab ham bir-birlarini tushunib olaveradilar.

Ikki jins vakillari o'rtasida ham do'stlik bo'lishi mumkin, faqat u, ko'pincha, tanishuv bilan sevgi-muhabbat o'rtasidagi oraliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Do'stlarga xos bo'lgan sifatlarga bir-birini ayash, g'amxo'rlik qilish, ishonch, shaxsiy muammolarga befarq bo'lmaslik, qo'llab-quvvatlash, mehr kabilar kiradi. Ularning ardoqlanishi do'stlikning uzoq davom etishi va ikkala tomon manfaatiga mos ishlarni amalga oshirishga undaydi. Do'sti yo'q o'smir yoki o'spirin o'zini juda baxtsiz, nochor hisoblaydi. Ayniqsa, agar do'sti xoinlik qilsa, uning kutishlariga zid ish qilsa, bu holat juda qattiq ruhiy iztiroblarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham har bir yosh o'z do'stini xafa qilib qo'ymaslik, uning ko'ngliga qarab ish qilishga harakat qiladi. Agar ilk o'spirinlikda do'stlik mazmunan ancha yuzaki, bevosita muloqot maqsadlari asosida tashkil etilgan bo'lsa, yosh o'tgan sari u hayot mazmuni va yuksak qadriyatga aylanib boradi. **Sevgi.** Agar do'stlik attraktsiya namoyon bo'lishining birinchi ko'rinishi bo'lsa, sevgi qalblar yaqinlashuvining muhim alomatidir. *Sevgi* – bu nafaqat hissiyot, balki boshqalarni seva olish qobiliyati hamda sevimli bo'la olishdir. Shuning uchun ham o'smirlar va o'spirinlar uchun bu hissiyotning borligi juda katta ahamiyatga ega. Aynan o'smirlir va ilk o'spirinlikdagi sevgi beg'ubor, tiniq, samimiy bo'lib, yosh o'tgan sari uning mazmuni boyib, boshqa qadriyatlar ham o'rin egallay boshlaydi. To'g'ri, o'smir bilan o'spirin sevgisida ham sifat farqlari bor. Masalan, o'smirlar bir-birlariga mehr qo'yishganda ko'proq sheriklarning tashqi qiyofalari, intellektual imkoniyatlari va ijtimoiy mavqelariga e'tibor beradilar. Haqiqiy sevgi o'spirinlik yillarining oxirlarida paydo bo'lib, uning asosiy mezonini endi tashqi belgi va afzalliklar emas, balki insoniy fazilatlar bo'lib xizmat qiladi.

Sevgi – bu shunday tuyg'uki, u bir shaxsning ikkinchi shaxs ustidan mutlaq ustunligi yoki afzalligini inkor etadi. Bunday hissiyot esa sevgi bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'spirinlik yoshidagi yigit va qizlar guruhda muloqotda bo'lishni va bunda teng huquqli munosabatlar bo'lishini xohlaydilar. Bu talab sevishganlar uchun ham qonun hisoblanadi. Do'stlikdan farqli, bu yerda turli ko'rinishlar yoki turlarni ajratish mumkin emas. Bu hissiyot shundayki, u tomonlarni faqat axloqan va ma'naviy jihatdan yaqin bo'lishini taqozo etadi. Sevgan yurak ma'naviy jihatdan yaxshi, ulug' va ijtimoiy jihatdan manfaatli ishlarni qilishga qodir bo'ladi. To'g'ri, ko'pchilik ota-onalar o'quvchilik yillarida paydo bo'lgan sevgi hissidan biroz cho'chiydilar, uni cheklashga, hattoki, qizlarga taqiqlashni ham afzal ko'radilar. Lekin aynan shu hisning borligi yoshlarni ulug'vorroq, samimiyroq, har narsaga qodir va kuchliroq qiladi. Sevgida «ishi yurishmaganlarning» esa boshqa sohalarda ham ishi yurishmaydi. Ular o'zlarini tushkun, baxtsiz, omadsiz hisoblaydilar.

Olimlar sevgining yoshlarda namoyon bo'lishi va uning psixologik tahlilini o'rganishgan. Ma'lum bo'lishicha, sevgining dastlabki bosqichi - o'zaro yoqtirib

qolish – **simpatiya** bo‘lib, bunda asosan sevgi obyektining tashqi jozibasi rol o‘ynaydi. Masalan, o‘zbek xonatasini chiroyli qilib tiktirib olgan qizchani davrada paydo bo‘lishi, tabiiyki, ko‘pgina yigitlarning e‘tiborini beixtiyor o‘ziga tortadi. Ulardan ko‘pchiligi birdaniga, bir vaqtda aynan shu qizchani «yoqtirib» qolishadi. Lekin davradagi qaysi yigit unga ham ma‘lum jihatlari bilan yoqib qolsa, o‘zaro simpatiya shu ikki shaxs o‘rtasida ro‘y beradi. Vaqtlar o‘tib, bu ikki yosh bir necha marta uchrashib turishsa, oddiy yoqtirish sevgiga, jiddiyroq narsaga aylanishi mumkin. Shu narsa ma‘lumki, aynan shu qonuniyatni bilgani uchun ham ko‘pchilik o‘spirinlar, birinchidan, davralarda bo‘lishga, qolaversa, birovlariga yoqish uchun tashqi ko‘rinishlariga alohida e‘tibor berishga harakat qiladilar. Yoqimtoy bo‘lishga harakat qilsa-yu, birortaning e‘tiborini o‘ziga tortolmagan o‘spirin esa bu holatni juda chuqur qayg‘u bilan boshdan kechiradi. Agar xuddi shunday narsa bir necha marta surunkali takrorlansa, o‘sha yosh davralarga bormay qo‘yadigan, o‘zi haqida yomon fikrlarga boradigan, ayrim hollarda hammani o‘ziga «dushman» bilib, xafa bo‘ladigan bo‘lib qoladi.

Eksperimental izlanishlarning ko‘rsatishicha, sevishtanlik o‘spirin yoshlarining shaxs sifatlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, uning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Masalan, sevishtanlar boshqalardan farqli, ikki marta ziyod o‘zaro gaplashishar, gaplari sira ado bo‘lmas ekan. Bundan tashqari, bundaylar sakkiz marta ortiq bir-birlarining ko‘zlariga qarab vaqt o‘tkazisharkan.

Yana shu narsa aniqlanganki, sevgi bilan bog‘liq hissiyotlar har bir jins vakilida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Masalan, o‘spirin yoshlar qizlarga nisbatan romantizmga beriluvchan, tezgina yaxshi ko‘rib qoladigan bo‘lisharkan. Ularning tasavvuridagi sevgi ancha romantik, ideal ko‘rinishga ega bo‘ladi. Qizlar esa yigitlarga nisbatan sekinroq sevib qolishadi, lekin sevgini unutish, undan voz kechish ularda (qizlarda) qiyinroq kecharkan. Agar yigitlar bir ko‘rishdayoq yoqtirib qolgan qizni sevib ham qolishi ehtimoli yuqori bo‘lsa (eksperimentlarda sevgi bilan simpatiyaning korrelyatsion bog‘liqligi kuchli), qizlarda bunday bog‘liqlik ancha past ekan, ya‘ni hamma yoqtirganlarini ham sevmas ekan, umuman simpatiyaning paydo bo‘lishi ham biroz qiyin ekan.

Bundan tashqari, o‘spirinlik yillaridagi sevgi va muhabbat hissi nafaqat qarama-qarshi jins vakiliga qaratilgan bo‘ladi, balki aynan shu davrda otanonaning qadrlanishi va ularga nisbatan sevgi-muhabbat, yaqinlar - aka-uka, opa-singil, hayotda ibrat bo‘ladigan kishilarni yaxshi ko‘rish, Vatanni sevishtan kabi oliy hislar ham tarbiyalanadi. Shuning uchun ham haqiqiy yuksak muhabbat sohiblari bo‘lmish yoshlarni tarbiyalash – jamiyatda insoniy munosabatlarni barqarorlashtirish, odamlar o‘rtasida samimiy munosabatlar o‘rnatish va ma‘naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta‘limning barcha bosqichida ma‘naviy tarbiyaning ajralmas bo‘lagi sifatida ana shunday samimiy munosabatlarni tarbiyalash, targ‘ib etish, kerak

bo'lsa, yoshlar ongiga ana shunday sevgi va sadoqat haqidagi qadriyatlarimizni singdirishimiz kerak. Sevgi va muhabbat hislari keng ma'noda – Vatanga, yurtga, xalqqa, borliqqa, kasbga va yaqin kishilarga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Shaxs taraqqiyoti, ijtimoiy va genotipik omillar, davriylik, o'smirlik, o'spirinlik, shaxs ijtimoiylashuvi, attraktsiya, emotsional munosabatlar, do'stlik, sevgi.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Shaxs taraqqiyoti.
2. Ijtimoiy va genotipik omillarning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.
3. Davriylik tushunchasi.
4. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish.
5. O'smirlik va o'spirinlik davrlariga ijtimoiy-psixologik tavsif.
6. Shaxs ijtimoiylashuvi va o'ziga xosligi.
7. Yoshlardagi attraktsiya va emotsional munosabatlar.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1997
2. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. -С-Пб.: Питер, 2001.
3. Дружинин В. Психология. Учебник нового века. -С-Пб.: Питер, 2003.
4. Zufarova M.E., Ivanov P.I. Umumiy psixologiya. -T.: O'zbekiston faylasuflari jamoasi, 2008.
5. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. -T., 2002.
6. Радугин А.А. Психология и педагогика. -М.: Изд-во Центр, 2003.
7. Хайдаров F.I. Halilova N.I. Umumiy psihologiya. -T.: TDPU, 2010. 400 b.
8. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. -T.: JIDU, 2013.

20 - MAVZU

SHAXS INSONIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA

20.1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi.

20.2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'рни.

20.3. Muloqotni o'rnatish muammolari.

20.1. Insoniy munosabatlar psixologiyasi.

Shaxs – *ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi – uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi.* Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita «yuzma-yuz» bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; subyekt-subyekt tipli (diologik, sheriklik) yoki subyekt-obyektli (monologik) bo'lishi mumkin.

Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his-kechinmalar, tashvish-quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ularning munosabatlardagi tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki «yarimta jumladan» ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim hollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni – bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona - bola, qaynona - kelin va h-zo).

O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari – o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, «jozibasi», betakrorligi shundaki, o'zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan hol-ahvol so'radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz

ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom-alikni bajo keltirib o'tib ketavergan bo'lardingiz. Ya'ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma-xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar.

XXI asrda yashar ekanmiz, odamning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o'tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylandi va bu, o'z navbatida, insonlarga zarur axborotlar uzatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb-faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaning dolzarbligini axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrni korporatsiyalar asri deb, bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu korporatsiya insonlarning o'zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo'lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko'p hollarda bevosita yuzma-yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar - uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, Internet kabilar yordamida aniq va lo'nda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o'ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb-hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblari deb atalib, ularda «odam-odam» dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsulini belgilaydi.

Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va salohiyati keskin oshdi.

20.2. Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni.

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, hattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir.

Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi – suhbatdoshlarning *o'zaro bir-birini tushunishlarini ta'minlash*dir. Bu o'zbeklarda samimiy salom-alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk xislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, hol-ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya'ni bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega.

Uning **ikkinchi** muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktlari shuni ko'rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi – u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Ko'plab tadqiqotlarda izolyatsiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas. Taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Ammo baribir har qanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan yerda bir o'rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u, shu hayotsiz g'or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o'rgimchak bilan gaplasha

boshladim, uning taqdiri uchun qayg'ura boshladim...». Shaxsning muloqotga bo'lgan ehtiyojining to'la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o'zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti, ko'pincha, odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o'tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma-yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o'z oldida turgan hamkasbiga qarab ko'proq, tezroq ishlashga kuch va qo'shimcha iroda topadi. To'g'ri, bu hamkorlikda o'sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o'rtasida o'zaro simpatiya hissi bo'lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta'sirini o'rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya'ni so'rovnomada asosida bir-birini yoqtirgan va bir-birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir.

Muomala va muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlagan maqsadlaridan biri – o'zaro bir-birlariga ta'sir ko'rsatish, ya'ni fikr-g'oyalariga ko'ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarini o'zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. **Psixologik ta'sir** – bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta'sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

Verbal ta'sir – bu so'z va nutqimiz orqali ko'rsatadigan ta'sirimizdir. Bunday asosiy vositalar so'zlardir. Ma'lumki, nutq – bu so'zlashuv, o'zaro muomala jarayoni bo'lib, uning vositasi - so'zlar hisoblanadi. Monologik nutqda ham, dialogik nutqda ham odam o'zidagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarni topib, sherigiga ta'sir ko'rsatishni xohlaydi.

Paralingvistik ta'sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillari. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do'stimiz bizga biror narsani va'da berayotgan bo'lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib-pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan «Albatta bajaraman!», desa ishonamiz, albatta.

Noverbal ta'sirning ma'nosi «nutqsiz»dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o'rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, xidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, «Ko'rganimdan biram xursandman», desa, ishonasizmi?

Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir-birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval, nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 58% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin, albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri: «Ust-boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi».

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. *Ta'sirning tashabbuskori* – bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalanadi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o'rnidan turib kutib oladi, iltifot ko'rsatadi, hol-ahvolini ham quyuoqroq so'raydi va so'ngra gapning asosiy qismiga o'tadi.

Ta'sirning adresati – ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u tashabbusni o'z qo'lga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

20.3. Muloqotni o'rnatish muammolari.

Oxirgi yillarda “kasbiylik” («**professionalizm**») tushunchasi tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini, «inson omili»ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabidir. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish olmaslik, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay

olmaslik, o'z nuqtayi nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmaslik, «birov»ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada *kommunikativ uquvsizlik*, yoki *diskommunikatsiya* deb ataluvchi holatni keltirib chiqaradi. Bunda odamlar, oddiy til bilan aytganda, bir-birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho'zilib ketishi mumkin.

Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tatbiqiy yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir korxonada, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menejer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o'rgatish muammosini chetlab o'tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis - shifokor, muhandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professional mahoratini ko'rsata olmaydi. Har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish - ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan biri bo'lib, u tabiiy va hayotiy hisoblanadi. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofida gilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini uylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqesini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini odam anglashini taqozo etadi. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlarning biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir-birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni – tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog **Deyl Karnegi** «Yaxshi suhbatdosh – yaxshi

gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir» deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni «tinglaganlari» uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi **A.Shopengauer** «Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang» deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz, ko'pincha, yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa – bu bizning o'z fikr-o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin biz kundalik hayotda uning asosan ikki usulini qo'llaymiz: *so'zma – so'z qaytarish va boshqacha talqin etish*. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining bir qismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa – sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, hattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bundan tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, «Yo'g'-e?», «Nahotki?», «Qara-ya?», «Yasha!» luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yanayam o'z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutlaq hokimi, degan tasavvur unchalik to'g'ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug'diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa – bu axborotning o'zi. Tinglayotgan odam ma'nili, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma'lumot oladi. Gapirgan esa, aksincha, o'zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan «teskari aloqani» olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o'rgatishning muhim yo'nalishlaridan biri – odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan

o‘rinli foydalanishga o‘rgatishdir.

Muloqot jarayonida kasbiy tinglash tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Uning mazmun-mohiyatiga quyidagilar kiradi:

- **aktiv holat.** Bu – agar kreslo yoki divan kabi mebel bo‘lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so‘ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

- **suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish.** Bu nafaqat suhbatdoshni o‘ziga jalb qilib, balki, keyin, navbat kelganda, o‘zining har bir so‘ziga uni ham ko‘ndirishning samarali yo‘lidir.

- **o‘ychan jimlik.** Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas‘uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o‘zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo‘li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o‘z-o‘ziga hurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko‘pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqot samarali bo‘lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g‘oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma‘ruzachi professorning har bir chiqishi va ma‘ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi.

Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon – gapirish va tinglashning faol o‘zaro ta’sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo‘lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o‘rgatishga juda katta e’tibor beriladi. Bu boradagi fanning o‘z uslubi bo‘lib, uning nomi **ijtimoiy psixologik trening** (IPT) deb ataladi. IPT – muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi – IPTning bir ko‘rinishi bo‘lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo‘ladigan kommunikativ malaka, ko‘nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo‘l-yo‘riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so‘zlashga o‘rgatish, majlislar o‘tkazish, janjalli, nizoli holatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa – trening qatnashchilari ongiga birovlarni tushunish, o‘zini o‘zga o‘rniga qo‘ya olish, boshqalar manfaatlarini bilan o‘zini o‘ziga qo‘yish g‘oyasini

singdirishdir. Treninglar mobaynida *guruhiy munozaralar, rolli o‘yinlarning* eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Muloqot jarayoni, muomala madaniyati, hamjihatlik, hamkorlik, jamoa ruhi, psixologik ta’sir, verbal ta’sir, paralingvistik ta’sir, noverbal ta’sir, samarali ta’sir, insoniy munosabatlar, ijtimoiy rollar, ijtimoiy kutilishlar, adekvat munosabat, muomala texnikasi, muomala vositalari, manfaatlarning uyg‘unligi, sharqona muomala, muvozanat, manzirat, o‘zaro hurmat-e’tibor, kattalar ibrati.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Muloqot va insoniy munosabatlar psixologiyasi.
2. Muloqotning inson hayotida tutgan o‘rni va funksiyalari.
3. Muloqotning psixologik tizimi.
4. Muloqotning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati.
5. Muloqot texnikasi. To‘g‘ri so‘zlash san’ati.
6. Tinglash, uning psixologik mohiyati va texnikasi.
7. Muloqotning yosh davrlariga mos kelishi va individual farqlari.
8. Samarali muloqot sirlari.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. Ma‘ruzalar matni. -T., 2002.
2. Майерс Д. Социальная психология. - СПб.: Питер, 2000.
3. Радугин А.А. Психология и педагогика. -М.: Центр, 2003.
4. Yakubova Z.YU. Psixologiya va pedagogika. -F.: Fergana-Trans, 2005.
5. <http://www.myword.ru> Кулагина И.Ю. Возрастная психология. – М.: УРАО, 2003.
6. Xaydarov F.I. Halilova N.I. Umumiy psihologiya. -T.: TDPU, 2010. 400 b.
7. Usmanova A.A. Psixologiya va pedagogika chizmalar va sharhlarda. -T.: JIDU, 2013.

21-MAVZU

MEHNAT FAOLIYATI PSIXOLOGIYASI

21.1. Mehnat psixologiyasi tushunchasi. Mehnat, kasb, mutaxassislik.

21.2. Mehnatning psixologik mazmuni va o'rganish usullari.

21.3. Mehnat egasining shakllanishi. Kasbgramma usuli.

21.4. Shaxsning mehnat faoliyati, mehnat turlari.

21.1. Mehnat psixologiyasi tushunchasi. Mehnat, kasb, mutaxassislik.

Mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadigan fan. Bugun tom ma'noda, mehnat faoliyatining psixologik qonuniyatlarini bilish, mehnat vazifalarini ro'yobga chiqarishda inson shaxsi imkoniyatlarini va chegarasini aniqlash, inson va mehnat shart-sharoitlarining o'zaro ta'siri hamda moslashuvining qonunlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Mehnat faoliyati psixologiyasi – bu psixologiyaning bir sohasi bo'lib, inson shaxsining mehnat subyekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo'llari va usullarini ilmiy jihatdan o'rganadi.

Mehnat faoliyati psixologiyasining asosiy vazifalariga quydagi muammolar bo'yicha amaliy tavsiyalarini o'rganish va ishlab chiqish kiradi:

- kasbiy faoliyat muayyan turlarining psixologik xususiyatlari (uning vositalari, mazmuni, tashkil etish va shart-sharoitlari, xatolar tahlili, kasblar klassifikatsiyasi va boshqalar);

- shaxs individual-psixologik xususiyatlarining mehnat samaradorligi, muvaffaqiyati va xavfsizligiga ta'siri;

- kasbiy layoqat shakllanishining psixologik qonuniyatlari (kasbga yo'naltirilganlik, tanlov, tayyorgarlik, mehnatga moslashuv);

- ishchi, xizmatchining funksional holati (toliqish, emotsional zo'riqish, stress, monotoniya va boshqalar) va ularni diagnostika, profilaktika va korreksiya qilish usullari;

- inson-texnika munosabatlarining psixologik qonuniyatlari;

- yangi texnika yaratish va qo'llash jarayonining injener-psixologik ta'minoti (loyihalash, baholash).

Mehnat psixologiyasi faoliyatni takomillashtirishning yo'llari, usullari va vositalarini o'rganishdan tashqari, inson psixikasining fundamental hodisalarini tadqiq etishni (mehnat subyekting shakllanishi, mehnat sharoitida shaxs xususiyatlarining roli, kasbiy qobiliyatlarning shakllanishi va boshqalar) nazarda tutadi.

Atrof muhitni o'zgartiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida mehnat va psixologiyaning o'zaro munosabati mehnat faoliyati psixologiyasi mohiyatining bir qator jiddiy holatlariga tayanadi, u:

- nafaqat inson mehnatini yengillashtirishga, balki mehnatni yanada mahsuldor, jozibali, xavfsiz etib zavq va iqtisodiy jihatdan naf berishiga qaratilgan; - mehnatni insonga va insonni mehnatga moslashtirishga qaratilgan (insoning tabiat, texnika, boshqa odamlar ustidan hukmronlik qilishi g'oyasini munozarali, gohida mavhum etadi);

- mehnat faoliyati psixikaning shaxsga bog'liq va o'zgaruvchan xususiyatlarini turli toifadagi odamlarga xos ekanligini aks ettiruvchidir.

Mehnat, kasb, mutaxassislik. Mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o'zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat bo'lib, u inson faolligining anglangan bir turiga kiradi. Mehnat inson uchun uning shaxsiy va ijtimoiy hayotida o'zini ro'yobga chiqarish va ko'rsata olish vositasi hamda usulidir. Bu, o'z navbatida, inson muomalasi, o'zini va tashqi olamni anglashi, shaxs sifatida rivojlantirishi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratishida aks ko'rinadi. Ushbu vazifalarning bajarilishi mehnatning maqsadini tashkil etadi.

Mehnat funksiyalarining samarali amalga oshishi quyidagi omillarga bog'liqdir:

- 1) muayyan faoliyat uchun layoqatli kishilarni tanlash;
- 2) kasbiy tayyorgarlik;
- 3) mehnat jarayonini tashkil etish va ratsional sharoitlar;
- 4) mehnat qurollarining qulayligi va samarali ekanligi;
- 5) ish ko'lamiga inson imkoniyatlarining mos kelishi;
- 6) mehnat xavfsizligi tizimi, kasbiy salomatlik va inson umrini saqlash, ishga layoqatlilikni psixologik qo'llab-quvvatlash.

Mehnat – inson imkoniyatlarining psixologik, fiziologik, kasbiy va boshqa jihatdan namoyon eta olish xususiyati bo'lib, u turli toifa odamlarda turlicha ifodalanadi. Asosan, yosh davrlari ko'rsatkichi, kasbiy tayyorlik darajasi, salomatligi holatiga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ko'pgina amaliy vazifalarni bajarish, shuningdek, shaxs psixik faolligining asoslarini mehnat faoliyatiga bog'liqlik tomonlarini o'rganish masalasi muhimdir.

Mutaxassislik – faoliyat shakllari birlashmasi bo'lib, mazmun, vositalar, tashkilotlar, mehnat natijalari hamda mehnat subyektini tayyorlashga qo'yiladigan talablar majmuini tashkil etadi. Bu tushunchada mehnat faoliyatining turli tomonlari va turli darajasi ask etadi:

1) mehnat obyekt va predmeti, uning mazmuni, shartlari hamda tashkiliy jihatlari;

2) maqsadli vazifa va mehnatning natijaviy xarakteri;

3) mehnat egasining xususiyatlari – uning bilimlari, malaka, ko‘nikma, qobiliyatlari;

4) iqtisodiy va ijtimoiy tomonlari – ishga joylashish, moddiy ehtiyojlarning qondirilishi, ijtimoiy mavqeyining tasdiqlanishi.

Mutaxassislik tushunchasi, odatda, aniq faoliyat turi va xususiy tavsifini ifodalaydi, mehnatning qay darajada bo‘linish imkoniyatini aks etadi (masalan, shifokor kasbi, mutaxassislik – terapevt, jarroh, ko‘z shifokori, kardiolog va boshqalar).

21.2. Mehnatning psixologik mazmuni va o‘rganish usullari.

Mehnat faoliyatining har bir aniq turi ma’lum darajada normativ tasdiqlangan bo‘ladi. Bunda, albatta, samaraliroq va ixchamroq bo‘lish ko‘rsatkichlari muhim mezon etib olinadi. Inson tomonidan kasbnini o‘zlashtirish jarayonida bu normlar o‘ziga xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlar va psixologik xususiyatlarni mujassam etadi, ya’ni:

1) faoliyat motivlari, uni harakatlantiruvchi kuchlari (moddiy, bilish, estetik va boshqalar);

2) faoliyat maqsadlari, uning mazmuni va aniq kutiladigan natijalarning ifodalanganligi;

3) faoliyat dasturi, mazmunning tasavvuri va jarayonning aks etishi;

4) faoliyatning axborotga asoslanganligi, ma’lumotlar bazasi, kasbiy bilimlarga oid predmetli va subyektiv sharoitlar, ularni amalga oshirishga oid ma’lumotlar;

5) qarorlarni qabul qilish jarayoni, muammoli vaziyatni ko‘rish, farazni ilgari surish, bajarish tamoyilini aniqlash, hal etish imkoniyatlarini baholashni amalga oshirish;

6) psixomotor jarayonlar;

7) muhim kasbiy sifatlar, mehnat egasining psixologik xususiyatlari, aniq mehnat jarayonida namoyon bo‘ladigan individual-psixologik sifatlar, fazilatlar.

Mehnat faoliyatini o‘rganish usullari. Shaxsning mehnat faoliyatida psixik holati, jarayonlari, mehnatdagi yutuqlarini aniqlash maqsadida turli usullar qo‘llaniladi. Bunda qaysi mezonlarga ko‘ra shaxs muvaffaqiyatlarga erishganligi masalasi muhimdir.

Shuning uchun quyidagi toifadagi usullarning qo‘llanilishi kuzatiladi:

1) aniq faoliyatning o‘ziga xos tomonlari bilan tanishish uchun ish hujjatlarini tahlil qilish;

2) faoliyat mazmuniga oid ma’lumotni vizual to‘plash uchun ish jarayonini kuzatish;

3) xronometraj, mehnat jarayonining ayrim ko‘rsatkichlarini baholash;

4) ishchi, xizmatchidan yozma yoki og‘zaki ravishda ma’lumot olish uchun so‘rov (anketa, suhbat, ekspert baholash) metodi;

5) mehnat vazifalarini bajarishga oid shaxsiy tasavvur, fikr, kechinmalarini o‘zida kuzatish va hisobot;

6) mehnat faoliyatiga qo‘yilgan eksperimentatordan faoliyatiga oid ma’lumotlarni olish uchun mehnat metodi;

7) shaxsning hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarning tahlili uchun biografik usul;

8) faoliyat sharoitlarini o‘rganish uchun fiziologik-gigienik usul;

9) mehnat subyektining psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun tajriba (tabiiy va laboratoriya) usuli.

21.3. Mehnat egasining shakllanishi. Kasbgramma usuli.

“Mehnat egasi”, ya’ni mehnat subyekti tushunchasi psixologiyaning fundamental kategoriyasi bo‘lib, u insonning ongli, maqsadli, faol harakat qilishini bildiradi. Mehnat egasi sifatida aniq bir inson (individ)gina emas, balki ijtimoiy guruh, ya’ni mehnat jamoasi ham olinishi mumkin. Shunday qilib, mehnat subyekti, egasi – bu faol harakat qiluvchi, anglash va o‘zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruhdir.

Mehnat egasi bo‘lish uchun ushbu talablar amalga oshishi zarur:

1) qobiliyatlarning va boshqa kasbiy muhim sifatlarning yuqori darajasiga erishish;

2) mehnatdan qoniqish;

3) mehnat obyektini to‘g‘ri tushunish va aks ettirish;

4) o‘zini boshqara olish tizimini rivojlantirish;

5) faoliyatning umum qabul qilingan usullarini o‘zlashtirish;

6) o‘zini-o‘zi baholay olish malakalarini rivojlantirish, o‘zini ro‘yobga chiqara olish va hurmat qila olish.

Kasbiy mahorat sohibi bo‘lish uchun ikkita asosiy jihat: mehnat egasining kasbiy barqarorligi va kasb mahorati masalasi hal etilishi muhimdir. Kasbiy barqarorlik – mehnat kishisining (psixologik, fiziologik, xulq-atvor va ishga bog‘liq) xarakterologik xususiyatlarining ish jarayonida shakllanishi bo‘lib, unda, albatta, bu xususiyatlar uning mehnat kishisi sifatida kamol topishiga, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishiga imkon berishi nazarda tutiladi. Kasbiy barqarorlikka ega bo‘lish deganda, biz mehnat kishisining mehnat faoliyatida unga qo‘yilgan vazifalarni yuqori sifatda bajarish darajasiga erishgan holatini tushunamiz.

Mehnat subyektining kasbiy barqarorlik darajasini ushbu to‘rt yo‘nalishda ko‘rish kerak:

1) uning ijtimoiylashuvi jarayoni sifatida. Bunda shaxs tomonidan ijtimoiy normalarning o'zlashtirilishi, ijtimoiy tajribaga ega bo'lish, qiziqish, qadriyatlar, ijtimoiy rollar, jamoat ishlari, ijtimoiy muhitga kirishi va moslashishi nazarda tutiladi;

2) shaxs rivojlanishi jarayoni sifatida. Bunda mehnat egasining faolligi, mehnatdagi samara va yutuqlarning miqdor va sifat ko'rsatkichlari, kasbiy qobiliyatlarning shakllanishi, mehnat motivlarining mehnat talablariga ko'ra amalga oshishi ko'zda tutiladi;

3) shaxsning kasbiy o'z-o'zini ko'rsata olishi, o'zini baholashi, o'zini nazorat qila olishi tushuniladi. Bu mehnat egasining turli yosh davrlarida, faoliyatining turli bosqichlarida, jamiyat tomonidan ning unga qo'yiladigan talablarda namoyon bo'ladi. O'z navbatida, mehnat faoliyati, ijod yo'li, kasbiy rivojlanish davrlar sifatida ham e'tirof etiladi;

4) shaxsning faolliligi ko'rinishi sifatida. Bunda shaxsning faoliyat bilan birgalikda o'sishi, dinamik rivojlanishi tushuniladi.

Kasbiy barqarorlikka erishish darajasi o'z tizimiga ega. Bu tizimda kasbiy barqarorlik bilan bog'liq motivlar, maqsadlar, jarayonni amalga oshirish dasturiga oid tasavvurlar, mehnat faoliyatining axborot asoslari, qarorlar qabul qilish bosqichlari, qabul qilingan qarorlarni tekshirish bo'yicha nazorat operatsiyalarini amalga oshirish kabi yo'nalishlar namoyon bo'ladi. Demak, kasbiy barqarorlikka erishish darajasi - bu jamiyat va shaxsning vazifasi bo'lib, bu jarayonning samaradorligi va mahsuldorligi bilan bog'liq bo'lgan mehnat kishisining ijtimoiy va shaxsiy ko'rsatkichlari bo'yicha faoliyatini baholash va rivojlanishini ko'zda tutish mumkin.

Mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, sifat va miqdor ko'rsatkichlarini har tomonlama o'rganish hamda tizimlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbografiya deb, mehnat subyekting faoliyat tarkiblari (uning mazmuni vositalari, sharoitlari, tashkilot) bilan o'zaro munosabatlarning bog'liqligini o'rganish va aniqlashga qaratilgan majmuaviy usullarning yig'indisiga aytiladi. Kasbgramma – kasbning turli obyektiv xarakteristikalarining tasnifi va psixogramma – faoliyatning psixologik xarakteristikalarini tasnifini nazarda tutadi.

Kasbgrammani quyidagi tamoyillarga ko'ra tuzish maqsadga muvofiq:

- 1) ma'lum faoliyatning aniq, o'ziga xos tasnifi;
- 2) atroflicha o'rganilganlik;
- 3) o'rganish dinamikasi (rivojlanish sharti bilan, faoliyat o'zgarishi);
- 4) tizimlilik (faoliyatning alohida xarakteristikalarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri);
- 5) qabulning o'xshashligi (kasblarni aniq taqqoslash uchun);
- 6) miqdoriy va sifatiy usullarni qo'llash.

Kasbgramma quyidagi umumiy tavsifga ega:

1) kasbga oid umumiy ma'lumotlar (tarkib, tayinlash, xodimlarning majburiyatlari, mehnat samaradorligi ko'rsatkichlari);

2) faoliyat mazmuni (asosiy vazifalar tahlili, ma'lumotlar oqimining o'ziga xosligi, xatolar tahlili);

3) faoliyat vositalari (ma'lumotlarni ko'rsatish, ularni joylashtirish, yoyish);

4) mehnat sharoitlari (sanitar-gigienik, ijtimoiy-psixologik, estetik);

5) faoliyatni tashkillashtirish (ish yuklamasining ko'rinishi va hajmi, ish va dam olish tartibi);

6) faoliyat subyektini (funksional holatlar, kommunikativ sifatlar, vazifalariga taalluqlilik).

Faoliyat kasbgrammasi mehnat egasining kognitiv, emotsional-irodaviy, motivatsion, individual-psixologik va boshqa kasbiy muhim bo'lgan sifatlariga qo'yiladigan talablar hamda xarakteristikalaridan iborat bo'lishi kerak. Kasblar klassifikatsiyasiga oid lug'atlar ko'riladigan bo'lsa, u holda 7 mingdan 35 mingacha kasblar mavjud ekanligi kuzatiladi. Psixologiyada ilmiy- amaliy vazifalarini yechish uchun bu kasblarni tizimlashtirish, ularni qandaydir kasbiy va psixologik belgilariga ko'ra taqsimlash va qiyoslash kerak bo'ladi.

I.A.Klimov tomonidan "Kasblarning 4 xil daraja"si taklif etilgan. Unga ko'ra, birinchi daraja obyekt tizimini inobatga olib 5 xil toifadagi kasblar kiritilgan:

1) odam-tabiati (O-Ta) - agronom, mikrobiolog,;

2) odam-texnika (O-Te) - mexanik, operator, payvandchi,;

3) odam-odam (O-O) - shifokor, o'qituvchi, sotuvchi,;

4) odam-belgilar sistemasi (O-Bs) - matematik, muharrir,;

5) odam-badiiy obraz (O-Bo) - dirijyor, musavvir, artist,;

Ikkinchi darajada mehnat maqsadiga ko'ra uchta toifa keltirilgan:

1) gnostik (yunoncha, bilim) kasblar: degustator (O-Ta), nazoratchi (O-Te), sotsiolog (O-O), korrektor (O-Bs), san'atshunos (O-Bo);

2) o'zgartiruvchi kasblar: cho'pon (O-Ta), payvandlovchi (O-Te), o'qituvchi (O-O), hisobchi (O-Bs), gul bezovchi (O-Bo);

3) alohida kasblar: kuzatuvchi-uchuvchi (O-Ta), injener-konstruktor (O-Te), tarbiyachi (O-O), programmachi (O-Bs), kompozitor (O-Bo).

Uchinchi darajada avvalgi darajadagi har bir kasb to'rtta alohida bo'limlarga bo'linadi, bo'linishda esa mehnat qurollari asos etib olinadi:

1) qo'l mehnatiga asoslangan kasblar – payvandlov ishlari nazoratchisi, kimyoviy tahlil laboranti, veterinar, payvandchi;

2) mashina va qo'l mehnati kasblari – tokar, avtomobil haydovchisi, ekskavator mashinisti;

3) avtomatik sistemalarni qoʻllaydigan kasblar – programmali boshqaruv dastgoni operatori, aviadispatcher, elektr tarmoqlari navbatchi operatori;

4) mehnatda funksional vositalarga koʻra kasblar – aktyorlar, akrobatlar.

Toʻrtinchi darajada mehnat sharoitiga koʻra har bir guruhning oʻziga xos quyidagi belgilari koʻrinadi:

1) normal sharoitda ishlaydiganlar – laborantlar, hisobchilar;

2) ochiq havoda ishlaydiganlar – agronom, montajchi, DAN xodimi;

3) alohida noqulay sharoitda ishlaydiganlar – gʻavvoslar, shaxtachilar, oʻt oʻchiruvchilar;

4) ish sharoiti oʻta maʼsuliyatli boʻlganlar – bolalar bogʻchasi tarbiyachisi, oʻqituvchi, tergovchi.

Mazkur klassifikatsiya tufayli kasblarning umumiy sxemasi koʻrinadi. Bu, oʻz navbatida, koʻp kasblar turli xarakteristikalariga xos ravishda boʻlinishini bildiradi.

21.4. Shaxsning mehnat faoliyati, mehnat turlari.

Shaxs mehnat faoliyatini izohlashda beshta tushuncha muhim hisoblanadi. Mehnat faoliyati, bir tomondan, odamning ehtiyojlari, ichki motivatsiyasi mahsuli boʻlsa, ikkinchi tomondan, aynan u shu mehnatni amalga oshiruvchi, hamda uning mahsullarini oʻzlashtiruvchi ham aynan uning oʻzidir. Shuning uchun ham shaxsning ushbu tizimdagi asl mohiyatini bilishi, uning faolligini taʼminlovchi shart-sharoitlarni yarata olish va mehnati mahsulini bashorat qilish faoliyat samarasining bosh omili hisoblanadi.

Odamning mehnatga munosabati masalasi, mehnatning shaxs uchun muhim, yaʼni doimiy qadriyatga aylanishi, mehnat motivatsiyasi masalasi psixologiya uchun dolzarb va ahamiyatlidir. Bu masala yana shuning uchun ham dolzarbki, Oʻzbekiston mustaqil boʻlib, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich oʻtishi sharoitida odamning ijtimoiy qadriyat hisoblanmish mehnatga ongli munosabati –qadriyatlar ierarxiyasida ijtimoiy faollik va mehnatning oʻrnini aniq bilishga undaydi. Shunday qilib, yuqorida sanab oʻtilgan omillar mehnatning subyektini boʻlmish shaxsni ishga undovchi va mehnat operatsiyalarini muvaffaqiyatli bajarishga psixologik jihatdan hozirlovchi psixologik shart-sharoitlardir. Ular kompleks tarzda insonni mehnat faoliyatiga safarbar qiladi va mehnatga munosabati xarakterini belgilaydi.

Maʼlumki, tevarak-atrofimizni qamrab olgan olamdagi iqtisodiy obyektlar, jarayonlar. munosabatlarning rivojlanishi va oʻzgarib borishi iqtisodiyot va psixologiya fanlari oʻrtasidagi bogʻlanishning tobora oydinlashishiga xizmat qilmoqda. Bunday bogʻlanishlarni, ularning ilmiy tadqiqotlari koʻlamining kengayib borayotganligidan ham kuzatish mumkin. Bir tomondan, zamonaviy

bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy va psixologik fanlarning nafaqat yaqinlashuvi, balki qo‘shilishi, bir-birining mohiyatiga kirib borishi sodir bo‘lmoqda. Ikkinchi tomondan – individual, guruhli va jamoaviy psixologiyaning xo‘jalik jarayonlariga, iqtisodiy amaliyotga hamda sohadagi boshqaruv qarorlarining qabul qilinishiga ta‘sirining keskin kuchayishi kuzatilmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va munosabatlarning shakllanish darajasiga e‘tibor berib qarasa, psixologiya borgan sari ko‘proq iqtisodiyotga kirib borayotganligi, uni to‘ldirayotganligi, yo‘naltirayotganligi hamda uning katta kichik ko‘lamdagi voqeliklarining tub negiziga aylanib borayotganligini sezamiz. Afsuski, bu holat iqtisodchilarning ham, psixologlarning ham ilmiy tadqiqotlari predmeti sifatida izlanishlarini kam miqyosda qamrab olmoqda. Insonning iste‘molchi va iqtisodiy foyda izlovchilar sifatidagi xulqida kuzatiladigan psixologik xususiyatlar Adam Smit va Alfred Marshallardan boshlab to Jon Keynsgacha bo‘lgan “iqtisodiy nazariya”ning klassik namoyandalari asarlarida aks etgan bo‘lsada, iqtisodiyot fani hozirgacha psixologiya bilan yonma-yon turib, uning tarkibiga kirmagan. Psixologiya fani esa, o‘zining ong va psixika xususidagi ilmiy asoslangan qarashlarini saqlagan holda, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish, iste‘mol qilish, shuningdek, boshqaruvni tashkil etish jarayonidagi iqtisodiy xulqni o‘rganishga kirishgan. Jamiyatning har bir rivojlanish bosqichida, uning ijtimoiy-iqtisodiy darajasiga ko‘ra, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yangi mehnat faoliyati turlarining paydo bo‘lishi, eskilarining yo‘qolishi kuzatiladi. Bu jarayon mehnat subyekting tavsifi va faoliyat komponentlarida namoyon bo‘ladi (masalan, inson resurslarining soni, ularning dunyoqarashi, ma‘lumot saviyasi, darajasi, mehnat vazifalarining mazmuni, ish yuklamasining turi, mehnat vositalarining o‘zgarishi, ishni tashkil etish va sharoitlarning xususiyatlari).

Mehnat faoliyatining turli xarakteristikalarini uning turli klassifikatsiya ko‘rsatkichlariga ko‘ra tizimlashtirishga olib keladi. Bunga misol sifatida tasnifning bir ko‘rinishini keltirish mumkin:

1) Mehnat egasining ish yuklamasi xususiyati va mehnat vazifalarini bajarishiga ko‘ra: jismoniy va aqliy mehnat.

2) Mehnat vazifalarining tavsifi, ish ko‘lami, mehnat jarayonining tashkil etilishiga ko‘ra aqliy mehnat:

- operativ (boshqaruvchi);
- operatorli (texnika bilan informatsion bog‘lanishli);
- ijodiy (an’anaviy - dars berish, davolash; noan’anaviy - ilmiy ish, adabiy, musiqiy asarlarni yozish);
- evristik (kashfiyot);
- dinamik va statik;

- bir xil (monoton) va har xil (mazmuni, davomiyligiga ko'ra).

3) Mehnat sharoitlarining xususiyatlariga ko'ra qulay (mehnat sharoitlarida gigienik talablar belgilangan ko'rsatkichlar darajasida bo'lishi), noxush va noqulay ish sharoitlari (bosimning ko'tarilishi - g'avvoslarning ishi, past harorat – qutbda ishlaydiganlar, ma'lumotlar oqimining juda ko'p bo'lishi – dispetcherlik xizmati).

4) Faoliyat tashkil etish shakliga ko'ra:

- reglamentli (ma'lum kun tartibi bo'yicha);
- reglamentlanmagan (erkin kun tartibi bo'yicha);
- aralash (smenali, vaxta);
- individual va jamoaviy (hamkorlikdagi).

Ushbu hamkorlikdagi faoliyat bu umumiy motivlar va faoliyat maqsadi asosida mehnat egalarining olib boradigan ish faoliyatlari hisoblanadi. Hamkorlikdagi faoliyat psixologik tizimida ushbu tarkibiy jihatlar: umumiy maqsad, aniq vazifalar, umumiy motiv, hamkorlikdagi harakat va umumiy natijalarni nazarda tutadi. Hamkorlikdagi faoliyatning umumiy belgilari va uning subyekti o'zaro bir-biriga bog'liqdir.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Shaxs, kasb, diqqat, fikr yuritish, xotira, sezgilar, hissiyotlar, tasavvur qilish, qabul qilish, nutq, mehnat unumdorligi, malaka, kirishimlilik, qaror qabul qilish, kasbiy muhit, kasb tanlash, ma'naviy muhit, kasbiy malaka, kasbiy tayyorgarlik, kasb klassifikatsiyasi, mutaxassislik, kasbgramma, ratsional sharoit, mehnat xavfsizligi, kasbiy salomatlik, mehnat qurollari, xulq-atvor, natijaviylik, qobiliyatlar, vazifalar, motivatsiya.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Shaxs va kasb tushunchalariga umumiy tavsif.
2. Bilish jarayonlari va ularning natijaviylik xususiyatlari.
3. Bilish jarayonlarining kasb tanlashdagi ta'siri.
4. Ish joyi va unga qo'yiladigan talablar.
5. Mehnat unumdorligini oshirish yo'llari.
6. Ish joyidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi.
7. Kasbiy malakani oshirish usullari.
8. Kasbgramma tuzilmasi tushunchasi.
9. Mehnat egasining ish yuklamasi xususiyatlari va mehnat vazifalarini bajarish jarayoni.
10. Kasblar klassifikatsiyasi.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Кабаченко И. Психология организаторской и управленческой деятельности. Учебник. -С-Пб.: - Питер, 2003.
2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. Elektron darslik. -Т., 2008.
3. Машков В. Психология управления. - М., 2000.
4. Усманова А. Психология управления. Электронный учебник. -Т., 2008.
5. Усманова А. Психология управления. -Т., 2010.
6. Nayitov O.E. Psixologik iqtisod. - Т., 2006.
7. Якубова З. Психология менеджмента. - Т.:УМЭД, 2000.
8. Qosimova. D. S. Menejment nazariyasi. -Т., 2011.
9. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Halilova N.I. Kasb psixologiyasi. - Т.:TDPU, 2010. -127 b.

22-MAVZU

IQTISODIY PSIXOLOGIYA VA IQTISODIY XULQ-ATVOR

22.1. Iqtisodiy psixologiya fanining tarixiy rivojlanganligi.

22.2. Iqtisodiy xulq-atvor.

22.3. Pulni ijtimoiy-psixologik idrok qilish.

22.1. Iqtisodiy psixologiya fanining tarixiy rivojlanganligi.

Har birimiz iste'molchi, ishlab chiqaruvchi, tadbirkor, soliq to'lovchi yoki boshqa iqtisodiy agent sifatida ma'lum bir qaror qabul qilganimizda, iqtisodiyotga tegishli ma'lumotlarni idrok etish va baholashga asoslanamiz. Iqtisodiy munosabatlar doirasida insonning xatti-harakatlarini tushunish hamda unga tayangan holda samarali iqtisodiy siyosat olib borishda psixologiyaning o'rnini boshqa hech bir fan bosa olmaydi.

Psixologiya fanining iqtisodiy psixologiya tarmog'i insonning iqtisodiy munosabatlar doirasidagi xatti-harakatlarini o'rganish natijasida paydo bo'ldi.

Iqtisodiyot fanida iqtisodiy va psixologik nazariyalarni birlashtirishga urinish XVIII-XIX asrlarga taalluqli. Iqtisodiy psixologiyaga tegishli dastlabki fikrlar **Adam Smit** tomonidan ishlab chiqilgan qiymat nazariyasiga kiritilgan «mahsulotning foydaliligiga subyektiv yondashuv» tushunchasida o'z aksini topgan. O'sha paytlarda endigina shakllanib kelayotgan psixologik bilimlar iqtisodiyot fanini rivojlantirish uchun xizmat qila boshladi. Avstriyaning siyosiy iqtisod maktabi vakillari **K.Menger** va **U.Jevons** fikricha, iqtisodiy munosabatlar doirasida qaror qabul qilishda insonlar «o'zi uchun foydalilik» ko'rsatkichini oshirish hamda xarajatlar ko'rsatkichini kamaytirishga intiladi (1871). Mazkur maktabning boshqa bir vakili **E.Bem-Baverk** esa kapitaldan olinadigan foyda foizi nazariyasini ishlab chiqishda kapital egalari hamda uni qarzga oluvchilarning kelajakka nisbatan subyektiv noaniqlik darajasidagi farqni psixologik determinanta sifatida qo'llagan (1891). Keyinchalik ko'plab boshqa iqtisodiy yo'nalish vakillari ham insonning xo'jalik faoliyatidagi xatti-harakatlarini tushunishda psixologik omillarning yanada kengroq spektrini hisobga olish zarurligini ta'kidlay boshladilar. Fransuz sotsiologi **G.Tard** o'zining ikki jildli «Iqtisodiy psixologiya» asarida (1902), bu tushunchani birinchi bo'lib 1881-yilda chop etilgan maqolasida qo'llaganini qayd etadi. Tardning fikricha, iqtisodiy psixologiya iqtisodiyotning psixologik asoslari bilan shug'ullanadi. Tard, inson ijtimoiy mavjudot bo'lganligi sababli, insonlar orasidagi o'zaro munosabatlarga iqtisodiy xatti-harakat nazariyasining asosi sifatida qarash lozim, deb qayd etadi. Shuningdek, Tard dam olish va

iste'molchilik san'atining ahamiyati mehnat faoliyatidan kam emasligini uqtiradi.

Yana bir fransuz iqtisodchisi **P.L.Reyno** iqtisodiy o'sish faqat mehnat va mablag' bilan emas, balki «inson omili» bilan belgilanishini ta'kidlaydi. U iqtisodiyot nazariyasiga iqtisodiy o'sish dinamikasini izohlovchi «mental energiya» («*aqliy quvvat*») tushunchasini kiritdi (1964).

AQShda «iqtisodiy psixologiya» tushunchasi iqtisodiy muammolarni o'rganishda psixologik nazariya va usullarni qo'llay boshlagan mutaxassis sotsiolog **J.Katona** tomonidan 1940-yillarda kiritildi. Katona iqtisodiy psixologiyaning asosiy g'oyalardan biri - xarid qilish jarayoni xaridorning imkoniyatlari bilan birga uning xohishiga bog'liqligini ifodalab berdi. Uning fikricha, psixologiyaning iqtisodiy tadqiqotlardagi vazifasi iqtisodiy jarayonlar, ya'ni iqtisodiy xatti-harakatlar, qarorlar va tanlovga ta'sir etuvchi omillarni ochib berish hamda tahlil etishdan iborat. Iqtisodiyot psixologiyasiz muhim iqtisodiy jarayonlarni tushuntirib berolmaganidek, psixologiya ham iqtisodiyotsiz inson xulq-atvorining ba'zi bir umumiy tomonlarini ochib berolmaydi (1951).

Iqtisodiy psixologiyaga qiziqishning ortishi va bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamining kengayishi 1960-70-yillarga to'g'ri keladi. Ularning asosiylari sifatida **A.Tverski** va **D.Kanemanning** tanlov nazariyasini, **F. Van Raay** va **K.E.Varneridaning** iste'molchilar xulq-atvori nazariyasini, **S.Li** va **P.Vebning** pul psixologiyasi hamda jamg'arish muammolari nazariyasini, **Sh.Maytalning** guruh iqtisodiy xatti-harakatlar nazariyasini, **D.Maklellandning** tadbirkorlik va iqtisodiy o'sish nazariyalarini sanab o'tish mumkin.

Bugungi kunda iqtisodiy tadqiqotlarga psixologik bilimlarni tatbiq etuvchi ikkita yo'nalishni kuzatish mumkin: **ijtimoiy** va **iqtisodiy psixologiya**,

Sotsioiqtisod – iqtisodiy xatti-harakat qonuniyatlarini izohlashda shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvor, qaror qabul qilish va taqqoslash jarayonlari, me'yorlar va qadriyatlar haqidagi psixologik, sotsiologik, madaniy hamda antropologik bilimlarga tayanadi.

22.2. Iqtisodiy xulq-atvor.

Iqtisodiy psixologiya – iqtisod fanini tubdan qayta qurishga da'vo qilmagan holda, iqtisodiy yondoshuvlarni ishlab chiqishda inson psixologiyasini hisobga olishni taklif etadi.

Iqtisodiy psixologiyaning predmetini insonning shaxsiy va ijtimoiy guruhdagi iqtisodiy xulq-atvori tashkil etadi.

Iqtisodiy xulq-atvor – insonning shunday xatti-harakatlariki, unda iqtisodiy qarorlar qabul qilish, bu qarorlarning determinantlari hamda oqibatlari o‘rin olgan.

Iqtisodiy psixologiya – iqtisodiy xulq-atvorning asosida yotuvchi psixologik mexanizmlar va psixologik jarayonlarni o‘rganuvchi fan. Mazkur ta’rif iqtisodiy psixologiya sohasidagi tadqiqotchilarning Xalqaro Assotsiatsiyasi (IARER) tomonidan qabul qilingan.

Iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik omillar va bu qarorlarning oqibatlari, umuman, inson iqtisodiy xulq-atvorining determinantlari iqtisodiy psixologiyaning tadqiqot obyektlari hisoblanadi.

Iqtisodiy xulq-atvorni ilmiy tadqiq etishga asos solgan **J.Katona** birinchi bo‘lib iqtisodiy xulq-atvorga ta’sir etuvchi psixologik omillar haqida umumiy tasavvur beruvchi tayanch iqtisodiy-psixologik paradigmani taklif qildi (1964). Mazkur paradigmaga ko‘ra, obyektiv muhit (tushumlar, mol-mulk, ishning xususiyat va imkoniyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy mavqe) psixik jarayonlarga hamda jamiyat a’zolarining subyektiv iqtisodiy kayfiyatiga ta’sir etadi, bu esa, o‘z o‘rnida, iqtisodiy xulq-atvor, ya’ni iste’mol talabi va jamg‘arishga ta’sir ko‘rsatadi. Bu paradigma psixologiyada xatti-harakatni tashqi stimulg javob reaksiyasi sifatida izohlovchi bixevioristik yondashuvga asoslanadi.

1981-yilda **F. Van Raay** tomonidan taklif etilgan iqtisodiy psixologiyaning konseptual sxemasi tayanch iqtisodiy-psixologik paradigmani kengaytirib, iqtisodiy xulq-atvorga shaxsiy omillar hamda insonning iqtisodiy va siyosiy tizimga nisbatan ustanovkalari ta’sir etishini ko‘rsatib berdi. Unga asoslangan holda **X.Antonides** iqtisodiy xulq-atvorga ta’sir etuvchi jarayonlar hamda obyektiv va subyektiv omillarni aniqlashtiruvchi strukturaviy paradigmani ishlab chiqdi (1991).

22.3. Pulni ijtimoiy-psixologik idrok qilish.

Iqtisodiy psixologiyada pul tushunchasiga alohida e’tibor beriladi, chunki pul iqtisodiy munosabatlarda asosiy almashuv vositasi, qiymat me’yori, to‘lov va jamg‘arish vositasi hisoblanadi.

Insonlarning pulga munosabati doimo subyektiv va ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lgan. Pulni ijtimoiy-psixologik idrok etishga jinsiy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasi, ish joyi, e’tiqod, tarbiya xususiyatlari kabi omillar ta’sir etadi. Insonlarning pulni sarflash va jamg‘arish (to‘plash)ga bo‘lgan munosabatlari ham iqtisodiy psixologiyada keng tadqiq qilingan. Pulni jamg‘arishga moyil odamlarni **K.E.Vernerid** quyidagi tiplarga bo‘lgan:

1. naqd pul egalari – kundalik sarf-xarajatlardan kelib chiqqan holda jamg‘arma tashkil etuvchilar;

2. «bufer» jamg'aruvchilar – kutilmagan sarf-xarajatlardan kelib chiqqan holda jamg'arma tashkil etuvchilar;

3. maqsadli jamgaruvchilar – uzoq muddatli foydalanish tovarlariga (masalan, uy, ta'til va h.k) sarflash maqsadida jamg'arma tashkil etuvchilar;

4. boylik egalari – investitsiya qilish maqsadida jamg'arma tashkil etuvchilar.

Iqtisodiy psixologiyada iste'molchi xulq-atvorini o'rganish inson tomonidan mahsulotning turli xarakteristikalarini idrok etish, baholash va uni xarid qilish bilan bog'liq tanlash jarayonidan boshlab, xaridorning turmush darajasi uslubigacha bo'lgan muammolarni qamrab oladi. Bu sohadagi tadqiqotlarning katta qismi xarid qilish jarayonidagi xulq-atvorni, ya'ni xaridor qaysi mahsulotni, qachon va qayerdan sotib olish haqidagi qarorni qanday qabul qiladi hamda bu qarorni qabul qilishga nimalar ta'sir etishini o'rganadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, xarid qilishga undovchi motivatsiyalarga ko'ra xaridorni quyidagi tipologiyalardan biriga kiritish mumkin (**P.K.Lant, S.M.Livingston**, 1992):

- «**andozali xaridorlar**» (31%) – impulsiv xaridlarni kamdan-kam sodir qiladilar, do'konlarda yurishni yoqtirmaydilar, ko'proq savdo markazlarida xarid qilishga moyil bo'ladilar;

1. «**bekorchi xaridorlar**» (24%) – xarid qilish jarayoniga taqdirlash sifatida munosabatda bo'ladilar (masalan, kayfiyatini yoki o'z-o'zini baholash darajasini ko'tarish uchun xarid qiladilar), do'konlarda vaqt o'tkazishni yoqtiradilar;

2. «**tejamkor xaridorlar**» (18%) – xarid paytida iloji boricha “yutishga” harakat qiladilar, kayfiyatga bog'liq xaridlarga yo'l qo'ymaydilar;

3. «**ehtiyotkor xaridorlar**» (15%) – do'konlarda yurishni ozmi-ko'pmi yoqtiradilar, me'yorida tejamkor bo'ladigan, impulsiv xaridlardan saqlanadilar;

4. «**muqobil**» (alternativ, noan'anaviy) xaridorlar (12%) – zamonaviy iste'molchilikdan chetda bo'lishga va, ko'pincha, komission do'konlardan xarid qilishga harakat qiladilar, bo'sh vaqtlarini do'konlarda yurishga sarflamaydilar, kayfiyatga qarab xarid qilmaydilar.

Iqtisodiy psixologiyaning makroiqtisodiy muammolariga jamiyat a'zolarining davlat iqtisodiy siyosatiga munosabati (masalan, ular tomonidan soliq siyosatining idrok etilishi), bandlik va ishsizlik muammolari, kishilarning boylik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, shaxsiy turmush darajasidan qoniqish, mehnat va dam olishning muvofiqligi singari inson bilan jamiyat orasidagi iqtisodiy munosabatlardan kelib chiquvchi muammolarni kiritish mumkin.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Iqtisodiy psixologiya, iqtisodiy xulq-avtor, qiymatlar nazariyasi, shaxsiy foyda ko'rish, qiymat me'yori, jamg'arish usuli, pul psixologiyasi, iste'molchi san'ati, xaridor, jinsiy xususiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasi, ishchi shart-sharoitlar, e'tiqod, tarbiya xususiyatlari, guruhiy iqtisodiy xatti-harakat, tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Psixologiya fanining iqtisodiy tarmog'i.
2. Sotsioiqtisod va iqtisodiy psixologiya yo'nalishlari: farqi, uyg'unligi.
3. Iqtisodiy xulq-atvor.
4. Iqtisodiy xulq-atvorga bag'ishlangan tadqiqotlar.
5. Iqtisodiy psixologiyada pul tushunchasi.
6. Iste'molchining xulq-atvori.
7. Xaridorlar tipologiyasi.
8. Iqtisodiy psixologiyaning makroiqtisodiy muammolari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Жариков А.И. Психология управления. -М.: Пламя, 2004.
2. Майерс Д. Социальная психология. -С-Пб.: Питер, 2000.
3. Усманова А.А. Психология управления. -Т.: УМЭД, 2010.
4. Nayitov O.E. Psixologik iqtisod. -T., 2006.
5. Якубова З.Ю. и др. Психология менеджмента. -Т.: ЖИДУ, 2002.
6. <http://www.book-ua.org> Ревневская Н.И. Психология менеджмента. Конспект лекций. -М., 2008.
7. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Halilova N.I. Kasb psixologiyasi. - T.: TDPU, 2010. -127b.
8. Doymurodov N. Rahbar psixologiyasi. - Qarshi: Nasaf, 2005.

23 - MAVZU

TADBIRKORLIK PSIXOLOGIYASI. REKLAMA PSIXOLOGIYASI

23.1. Tadbirkorlik hodisasi.

23.2. Tadbirkorlik hodisasi nazariyalari.

23.3. Reklama – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida.

23.1. Tadbirkorlik hodisasi.

Iqtisodiyot fanida hozirgacha tadbirkorlik hodisasiga yagona yondashuv va uni tavsiflovchi xususiyatlar ishlab chiqilmagan, «tadbirkor» tushunchasiga aniq va ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ta'rif berilmagan. Buning **asosiy sabablari** quyidagicha:

1) tadbirkorlik – jamiyat rivojlanishi tarixi nuqtayi nazaridan nisbatan yangi hodisa;

2) bu rivojlanayotgan hodisa, shuning uchun jiddiy o'zgarishlarga moyil hamda turli tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitlarda o'ziga xoslikka ega;

3) bu murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, o'zida ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik tomonlarni mujassamlashtirgan.

Tadbirkorlikka ta'rif berishning yana bir qiyinchiligi shundaki, bu so'z bir vaqtning o'zida ham ilmiy, ham ommaviy tushuncha sifatida qo'llanib kelmoqda.

Shunga qaramay, sotsiologlar tomonidan tadbirkorlarni ijtimoiy strafikatsiya doirasida alohida ijtimoiy guruh sifatida o'rganish tadbirkorning empirik identifikatsiya ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga yordam berdi, ular quyidagilar (**T.I.Zaslavskaya**, 1995):

1. **asosiy mashg'uloti** (tadbirkorlik, yakka yoki yollanma mehnat);
2. **asosiy faoliyat turi** (korxonaga egalari, yakka yoki yollanma mehnat);
3. **asosiy ish joyi** (korxonaning turi (yakka mehnat, xususiy korxonaga, aksionerlik korxonasi, davlat korxonasi);
4. **kasb-lavozim mavqei** (xo'jalik rahbarlari, mutaxassislar, ishchi-xizmatchilar).

Yuqorida taklif etilgan ko'rsatkichlar asosida tadbirkorlik faoliyatining sharoiti va mazmuniga ko'ra tadbirkorlarning quyidagi guruhlari identifikatsiya qilindi:

- tom ma'nodagi tadbirkorlar – bir vaqtning o'zida ham mulkdor, ham o'z korxonasining rahbari (yakka biznes bilan shug'ullanuvchilar guruhi ham kiradi);

- «yarim tadbirkorlar» – tadbirkorlik faoliyatini yollanma mehnat bilan

birga olib boruvchilar (bu guruh rahbarlar va oddiy xizmatchilarga bo‘linadi);

- menejerlar – korxonaga egasi bo‘lmagan holda rahbarlik funksiyalari va zaxiralar taqsimoti bilan shug‘ullanuvchilar (bu guruh tasarrufchilar va yollanma menejerlarga bo‘linadi).

Tadbirkorlik iqtisodiy hodisa sifatida.

Tadbirkorlik faoliyati xususidagi zamonaviy qarashlarni shartli ravishda quyidagi ikki toifaga ajratish mumkin:

- *funksional rolli;*
- *tizimiylashgan.*

Funksional rolli yondasuv tarafdorlarining fikricha, tadbirkorlik – iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga eltuvchi ma‘lum vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatining bir ko‘rinishidir. Bunda ba‘zi mutaxassislar ushbu vazifani faqat sohaga aloqador, deb hisoblasalar, ba‘zilari esa, inson amaliy faoliyatining barcha jabharlari bilan bog‘liqdir, deb tushuntirishadi.

Klassik adabiyotlarda tadbirkorlikning iqtisodiy xususiyatini tahlil qilishda, dastavval, foyda olish va talablarni qondirishga yo‘naltirilgan naqd resurslar (moliyaviy, insoniy, tashkiliy, axborot va h.k.)dan foydalanishning eng maqbul kombinatsiyasini amalga oshiruvchi tadbirkorning xo‘jalik subyekti alohida ajratib ko‘rsatiladi. So‘nggi o‘rinda, iqtisodiyotda yangi imkoniyat va kombinatsiyalarni qidirish hamda yaratish, tadbirkorning asosiy iqtisodiy xususiyati sifatida belgilanadi. Mazkur holatda birinchidan, ixtirochilik va, ikkinchidan, an‘anaviy menejmentdan farqli o‘laroq, ko‘proq, innovatsion tadbirkorlik xususida fikr yuritiladi.

Ayrim mutaxassislar tadbirkorlikdagi innovatsiya xususiyatini tahlil qilishar ekan, uni “Ma‘lum bir qimmatga ega bo‘lgan biror yangilikni yaratish jarayoni” sifatida baholashadi. Boshqalari esa, undagi asosiy xususiyatlar mulk egasi va menejer deb qayd etishib, uni “Tadbirkorni iqtisodiy korxonaga yaratuvchisi, uning egasi, ish yurituvchisi hamda o‘z biznes faoliyatidagi amalga oshiriladigan barcha turdagi tavakkalga javob beruvchi tashkilotchi” sifatida belgilashadi. Har ikkala tahlil ham funksional yondashuvlar doirasida “tadbirkorlik” – aniq subyekt tavsifiga bog‘lanmagan holda, egasiz, qiyofasiz, faqat faoliyat turi sifatida namoyon bo‘ladi.

Jozef Schumpeter tadbirkorlik faoliyatiga iqtisodiy xulq-avtorning turi sifatida izoh berib, uni ataylab tarqatuvchi konkret odamlarni ajratish va personifikatsiyalash juda qiyin hamda muammolidir, deb ta‘kidlaydi. Uning fikricha, “Tadbirkorlik – kasb sanalmaydi va unda uzoq vaqt qolib ketish mumkin emas... Tadbirkor har doim ham ma‘lum faoliyat turining subyekti bo‘lib ajralmaydi va ijtimoiy hodisa sifatida tan olinmaydi”(Шумпетер Й.А.

История экономического анализа (в 3 томах). –Минск: Экономическая школа, 2004. –С.164).

Menajemen borasidagi zamonaviy adabiyotlarda (Мескон М., Альберт М. и др. Основы менеджмента. -М.: Дело, 2004) boshqaruvning rivojlanishi, tashkiliy ishlar bo'yicha yangiliklar tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilishi jarayonida - samarali, innovatsion boshqaruvning boshqalardan ajralib turuvchi alohida xususiyati sifatida talqin qilinadi. Bular "tadbirkorlik boshqaruvi", "korporativ yoki ichki tadbirkorlik" degan atamalar bilan nomlangan. Mulkka ega bo'lish (mulkdor) va tavakkalchilikka personal javobgarlik, ushbu holatlarda tadbirkorlik faoliyatining muhim belgisi sifatida o'rganilmagan. Shu bois, bunday yondashuvda menejer va tadbirkor o'rtasidagi rasmiy status (mavqe, maqom) orasida tafovut deyarli yo'q bo'lib ketadi.

Tizimiylashgan yondashuv tarafdorlarining qarashlarida esa, tadbirkorlikni psixologik obyekt sifatida belgilash uchun, tadbirkorlar alohida guruh sifatida baholanib, ijtimoiy identifikatsiyalashga urinilgan. Yuridik nuqtayi nazardan, tadbirkorlik – tovarni sotish va mol-mulkdan foydalanish orqali tizimli daromadga ega bo'lish, amaldagi qonunlar asosida ro'yxatdan o'tgan yuridik yoki jismoniy shaxslarning xizmat ko'rsatishi, faoliyatga yo'naltirilgan mustaqil, tavakkalchilikka asoslangan xatti-harakatidir.

Garvardda tadbirkorlik bo'yicha tadqiqot markazning asoschilaridan biri bo'lgan A. Koulning fikricha: "Tadbirkorlik – bu individ yoki guruhning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoit (vaziyat)lardan foydalangan holda xomashyo, jamg'arma, axborot yoki mehnat ko'rishida bo'lgan turlarini yaratish, saqlab qolish hamda ko'paytirishga yo'naltirilgan maqsadli faoliyatidir"(Кузин Ф.А. Делайте бизнес красиво. -М.: ИНФРА-М, 1995. -С.45-47).

Ma'lumki, Amerika erkin ishbiarmonligida insonning tabiiy xislatlaridan, xususan, o'z obro'si va qadr topishga intilishi bilan bog'liq bo'lgan motivlardan to'la-to'kis foydalanilish maqsadga muvofiqdir. Tadbirkor faoliyat yuritish barobarida foyda oladi hamda jamiyat farovonligiga o'z hissasini qo'shadi. Amerikaliklarning tadbirkorlik faoliyatiga qattiq kirishishlariga sabab, bu ulardagi moddiy va ma'naviy ahvoldan qoniqmaslik xislatining mavjudligidadir. O'z navbatida, bu ularni o'ylashga va harakat qilishga chorlab, boyishning yangicha yo'llarini izlashga majbur qiladi.

Ko'pchilik amerikaliklarda tadbirkorlik faoliyatiga nisbatan hasad yoki nafrat hissi mavjud emas. Jamiyat va davlat bir necha o'n million nafar ishbiarmon kishilarni, millatning o'ziga xos "oltin fondi" sifatida yaxshi anglaydi. Shu asosda fuqarolarda ishbiarmonlik ruhi so'nmasligini oldini olish maqsadida, davlat va jamiyat o'z vaqtida bir qator strategik chora-tadbirlarni belgilaydi.

Bu esa amerikacha tadbirkorlikning o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlarini namoyon etadi.

Ronening ikkiyoqlama modeliga binoan, tadbirkorlikning asosi – maqsadga erishish va yangilik yaratishdir. Tom ma'noda esa tavakkalchilikka yuz tutish xususiyatidir. Shu model va psixologiyaning yetakchi xususiyatlari orqali tadbirkor bilan menejer maqsadga erishish borasida, tavakkal qilishdan qo'rqadi, chunki kompaniya inqirozga yuz tutishi mumkin. Tadbirkorlar esa aksariyat holatlarning rivojlanishi uchun tavakkalchilik bilan ish boshlashga majburdirlar. Tadbirkorlar o'z faoliyatini boshlashdan oldin axloqiy-madaniy omillarni o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Bu ularning bo'lg'usi tadbirkorlik faoliyatlari davomida ijtimoiy-psixologik bilimlarni qanchalik o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytsak, hozirda jamiyatda tadbirkor qatlamning psixologik, ijtimoiy hamda ijtimoiy-psixologik mavqening xususiyatlari, shuningdek, hayot faoliyatining iqtisodiy sharoitlari haqida adekvat tasavvurlarga ega bo'lishi o'ta muhim sanaladi. Bularga: tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish motivatsiyasi, tavakkalchilik, muvaffaqiyatsizlik, raqobatga munosabat, o'z-o'ziga baho berish, uzoqni ko'ra olish va hokazolarni kiritish mumkin. Shu bilan birga ularda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni rivojlantirish dinamikasini kuzatish ham muhim ahamiyatga molikdir.

Mamlakatimizda kichik va o'rta biznes, xususan, tadbirkorlik tobora rivojlanib, bu yo'ldagi qarama-qarshiliklar va muammolar asta-sekinlik bilan hal qilib borilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida o'zbek tadbirkorligi intensiv tadqiqotlar obyektiga aylantirilayotganligini e'tirof etish mumkin. U asosan sotsiologlar, iqtisodchilar, tarixchilar va ko'pgina boshqa mutaxassislar tomonidan o'ranilmoqda. Bu tadqiqotlarda zamonaviy o'zbek tadbirkorligi rivojlanishi bilan bog'liq tushunchalar va fenomenlarning ilmiy jihatdan asoslanishi boyitilib, ularga nisbatan har xil talqin berishga harakat qilingan.

Tadbirkorlik insonning yuksak darajadagi faoliyati bo'lib, unga Amir Temur ham juda katta baho berib, "Tajribamdan ko'rilgankim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir", - deb ta'kidlaydi (Temur tuzuklari. -T., 1991. 15- bet). Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadbirkorlikning tarixi juda uzoq o'tmishga borib taqalsa-da, uning hozirgi zamon tushunchasi 18-asrda paydo bo'lgan va, ko'pincha, "mulkdor" iborasi bilan aralastirilib talqin qilingan. Keyinchalik xo'jalik hayotida ishtirok etuvchi kapitalning mulkdor kapitalidan ajralib chiqishi natijasida "mulkdor" tushunchasiga to'g'ri kelmay qoladi.

Umuman, tadbirkorlikning an'anaviy jihati o'rganilgan, lekin ushbu faoliyatga xos bo'lgan, uni boshqa iqtisodiy munosabatlardan ajratib turuvchi

ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniq ajratib, belgilab olinmagan edi. Shu bois ham psixologik izlanishlar ko‘proq chet el tadqiqotchilari tomonidan yig‘ilgan bilimlar hamda tajribalar natijalariga murojaat etadi. Chunki har qanday tadqiqotni tashkillashtirish va amalga oshirish jarayonida, mahalliy shart-sharoitlarni inobatga olgan holda xorijiy tadqiqiy ma‘lumotlar muhim metodologik manba hisoblanadi. Xorij tadqiqotchilari “tadbirkorlik” bilan qator muhim konsepsiyalarni o‘zaro bog‘lashgan bo‘lib, ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan tasnif etish mumkin.

Tadbirkorlik hodisasi bizning hayotimizga kirib kelgan yangi tushunchalardan biri hisoblanib, asosan, mustaqillik yillarida bu muammoga (yo‘nalishga) katta e‘tibor berila boshlanadi. Hattoki, 20-asrning 80-90-yillarida chop etilgan ilmiy-psixologik adabiyotlarni kuzatadigan bo‘lsak, bu tushuncha haqida ma‘lumot yo‘qligini, yoki bo‘lsa ham juda kam miqdorda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirga kelib esa, jamiyatimizda “tadbirkor” so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan atamalardan biriga aylanib qolmoqda.

Izlanuvchilar tomonidan tadbirkorlik xodisasiga turlicha ta‘riflar berilgan: K.Abudraxmonov, F.Mamarasulov larning yozishicha: “Tadbirkorlik – bu mulk huquqi subyektlarning mollar ishlab chiqarish, xizmatlar ko‘rsatish asosida foyda yoki daromad olishga qaratilgan amaldagi qonunlar doirasida tashabbuskorlik bilan faoliyat ko‘rsatishidir” (Abdurahmonov K., Mamarasulov F. Mehnat iqtisodi. O‘quv-uslubiy materiallar. -T., 1996. 67-68 betlar).

Mualliflarning fikricha, tadbirkorlikni mazmuni va tabiatiga ko‘ra ayrim kishilar yoki guruhlarning o‘z-o‘zini ish bilan ta‘minlash hamda tashabbuskorligiga asoslanadigan aktiv mehnat faoliyati sifatida baholash mumkin. V.Karimovanning yozishicha, tadbirkorlik yaxlit bir ta‘rif bilan chegaralanmaydi, uni bir necha muhim jihatlariga ko‘ra tavsiflash mumkin. Tadbirkorlik – bu kishining shaxsiy tashabbuslariga asoslangan, foyda olish va mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida tavakkalchilik bilan faoliyat yuritishiga oid harakatlari majmuidir (Karimova V.A., Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. Ma‘ruzalar matni. – T., 2002. 57- bet).

Shu o‘rnida, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni inobatga olgan holda, muallif tomonidan bu tushunchaga berilgan ikkinchi ta‘rifni keltirish mumkin: tadbirkorlik – insonning dadil ravishda muhim va og‘ir maqsadlarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan shaxsiy sifatlari jamlanmasidir. Umuman, yuqoridagi ikkita ta‘rifga ko‘ra, tadbirkorlik hodisasi – shaxsning faoliyati hamda shaxsiy sifatlari majmui ekan. Yana V.Karimova fikrini davom ettirib: “tadbirkorlik yoki ishbilarmonlik – bu yangi g‘oyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq butun mas‘uliyatni o‘ziga olib, tavakkal ish tutishdir. Ishbilarmonlik – bu doimo yangi narsani o‘ylab topish va bunyod qilishga, borini yanada yaxshilashga intilish, urinish...”, – deb ta‘kidlaydi (O‘sha yerda. 63- bet.).

Bundan ko‘rinadiki, tadbirkorlik ishbilarmonlik atamasi bilan ham bog‘liq tarzda qo‘llaniladi. Lekin muallif bu tushunchani “Tadbirkorlik uddaburonlik sifati ham sanalib, bunda shaxs bir vaqtning o‘zida ma’lum muammo yuzasidan bir qancha yechimlarni topa oladi. Xususan, u har qanday murakkab holatdan chiqishning samarali hamda omilkor yo‘lini topishga tayyor turadi va buni amalda isbot qiladi. Shu bois, ular har qanday vaziyatdan chiqish yo‘lini qidirib topib, bu maqsadda o‘z shaxsiy sarmoyalarini sarf qiladilar ham”, – deb izohlab beradi. Shuningdek, muallif ishbilarmonlik faoliyati va uning mohiyatini alohida ko‘rsatib beradi. Uning fikrcha, ishbilarmonlik faoliyati, eng avvalo, mavjud boylikdan biznes bilan shug‘ullanish maqsadida, undan foydalana oladigan faol va tashabbuskor kishining intellektual foaliyatidir. Aynan u “dinamizm”, “dadillik”, “tashabbus”, kabi tushunchalar bilan qo‘shilib ketib, tadbirkorlik faoliyatida ko‘pgina samarali g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

Tadbirkorlik faoliyati muammosi haqida fikr yuritish ekanmiz, uning intellekt yoki aqlning psixologik qurilmasiga doir qator sifatlari haqida ham gapirib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bu borada N. Norqulova ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan bo‘lib, ushbu sifatlarga: tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblilik hamda mavjud muammolarni tezkor ravishda yechish kabi sifatlar kirishini ko‘rsatib o‘tadi. Muallif ularning har biriga ta’rif berishga harakat qilgan. Uning fikricha, tejamkorlik – tafakkur yoki aqlning shunday sifati sanalib, u ayni vaziyatda kam vaqt va mablag‘ sarf etib, natijaga osonlik bilan yetish imkoniyatidir (N.Norqulova. Rahbar ayollarda tadbirkorlik motivatsiyasi masalalari. -T., 2001. 27- bet).

Hisob-kitoblilik esa, faoliyat natijalariga erishish yo‘llarini oldindan tasavvur qilish va uning moddiy hamda ma’naviy qiymatini anglash xislatidir. Qo‘yilgan vazifani tezkor tarzda hal qila olish esa intellektning dinamik xarakteristikasi bo‘lib, u qo‘yilgan vazifani boshlanishidan tamom bo‘lishigacha sarflangan vaqtning miqdori bilan o‘lchanadi. Qisqa fursat ichida kam kuch sarf qilib, katta hajmdagi faoliyatni amalga oshirish – tezkor, samarali aql-idrokning mahsulidir.

E. Sariqov va M. Mamatovlar tadbirkorlik tushunchasga ta’rif berishda, iqtisodiy faoliyat jarayonida erishiladigan daromad hamda uni orttirish imkoniyatlari borasidagi qarashlar tahlilidan foydalanganlar (Iqtisodiyot va biznes asoslari: (E.Sariqov, M. Mamatov). -T.: Sharq, 1997. 53- bet.).

Agar yuqoridagilarni inobatga oladigan bo‘lsak, tadbirkor – bu ishlab chiqarish va tijoratning zarur omillaridan boylik yaratish uchun foydalana oladigan odamdur. Shuningdek, mualliflar tadbirkorga qo‘yiladigan talablar, moddiy boyliklar yaratuvchi boshqa oddiy odamlarga nisbatan taqqoslanganda, ancha keng ekanligini asoslab berishgan. Masalan, duradgorlik hunarini olsak, uning yutug‘i eshik, dereza va boshqa anjomlar yasashga mohir usta ekanligi

bilan baholanadi. Agar bevosita hunarmand tadbirkorlik bilan shug'ullanishni boshlasa, bu undan mavjud anjomlarni ishlab chiqarishdan tashqari yana qator qo'shimcha faoliyat yuritishni ham talab qiladi. Masalan, olibsotarlik, marketing, boshqarish, hisob-kitob, moliyalashtirish, kadrlar bilan ishlash, ularni topish, tanlash, ish bilan ta'minlash va ushbu xizmatlarni muvofiqlashtirish kabilarni.

Mualliflar tadbirkordan qo'shimcha qanday sifatlar talab etilishini ham ko'rsatib, unga ulkan fidokorlik, mehnatsevarlik, chuqur fikrlash va dunyoqarashning kengligi, o'zgarib turadigan sharoitda ishlash uchun moslashuvchanlik, oilaning qo'llab-quvvatlashi, tadbirkor va uning oilasini ta'minlab turish uchun zarur bo'lgan ma'lum miqdordagi mablag', tavakkal qilib ishlash kabilarni kiritishadi.

Tadbirkorlik xulq-atvor, faol yo'l-yo'riqlar, qoidalar va boshqa xatti-harakatlarni tartibga solish faoliyatlari bilan ham uzviy bog'liqdir. Undagi bu holat shaxs oldida turuvchi mustaqil axloqiy tanlovning mavjudligini nazarda tutuvchi erkin tanlab olingan hayotiy mavqe sifatida gavdalanadi. Tadbirkorlik yuqoridan belgilanuvchi (direktiv) qat'iy ruxsat-taqiqlar bilan bog'liq emas. Bu o'z shaxsini namoyon etishga harakat qilish bilan bog'liq ijodiy faoliyatdir. U faoliyat manfaati yo'lida o'zini-o'zi tarbiyalash, cheklash, burch hissi hamda shaxsiy axloqiy javobgarlikka asoslangan bo'ladi. Ushbu ixtisoslik muhitida mavjud bo'lgan tadbirkorlikning axloq me'yorlari "nomus", "obro'-e'tibor", "imij" (tadbirkorlik subyekting obrazi, qiyofasi) tushunchalari bilan uzviy bog'liqdir. Tadbirkor odamning yaxshi nomi o'ziga yarasha kapitaldir, u uzoq yillar davomida qilingan mashaqqatli mehnati tufayli to'planadi va o'ylab qilinmagan harakat evaziga bir zumda yo'qotiladi. Bu esa ishbilarmonlar doirasiga xos bo'lgan sog'lom konservatizm (eskilikni yoqlash) bo'lib, uning asosiy belgilari ehtiyotkorlik, aql-mulohaza bilan ish tutish kabi xususiyatlarda namoyon bo'ladi.

23.2. Tadbirkorlik hodisasi nazariyalari.

So'nggi yillarda iqtisodiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlarda tadbirkor tushunchasiga faqat alohida iqtisodiy faoliyat turining subyekti sifatida emas, balki alohida psixologik tip sifatida yondashilmoqda. Bu yondashuv natijasida, asosiy maqsadi insonni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga undovchi hamda tadbirkorlik faoliyatining samarasini ta'minlovchi maxsus psixologik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar ko'plab o'tkazilmoqda. Masalan, psixolog **D.Makklelland**ning tadqiqotlari muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining yuqori ko'rsatkichi tadbirkorga xos alohida psixologik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Keyinroq psixologlar **D.Atkinson** va

X.Xekxauzen o'z tadqiqotlarida muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasini o'rgandilar. Natijada quyidagi xulosalar olindi:

- muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini namoyon qiluvchi kishilarga faoliyatning pozitiv maqsadlarini aniq qo'ya olish, bu maqsadlarga erishishda muttasil faollik ko'rsatish, o'z imkoniyatlariga ishonish hamda ularni adekvat baholash xos bo'lib, bunday kishilar, odatda, o'rtacha murakkablikdagi masalalarni tanlaydilar, muvaffaqiyatsizlikka duch kelsalar, bor imkoniyatlarini safarbar qilib, faollikni yanada oshiradilar;

- muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasini namoyon qiluvchi kishilar esa o'z imkoniyatlariga ishonchsizlik bilan qaraydilar, muvaffaqiyatsizlik ehtimoli ularni qattiq xavotirga soladi, o'z-o'zini baholash darajasi, ko'pincha, noadekvat (ko'tarilgan yoki pasaytirilgan) bo'lgani sababli ular, odatda, yoki haddan tashqari yengil, yoki juda murakkab masalalarni tanlaydilar; muvaffaqiyat ularda faollikni oshiradi, ammo muvaffaqiyatsizlik bu faollikni keskin pasaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, samarali tadbirkorda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasiga nisbatan sezilarli darajada ustun bo'ladi.

Ko'p yillar davomida shaxsning lokus nazorati borasida tadqiqotlar olib borgan psixolog **J.Rotter** samarali tadbirkorga lokus nazoratining internal ko'rinishi xos bo'lishini aniqladi. Lokus nazoratining internal ko'rinishi egalari (internallar) ekesternallardan farqli ravishda, o'zlari uchun ahamiyatli bo'lgan hodisalarni shaxsan yuqori darajada nazorat qila oladilar; shuningdek, ularda shaxsiy yutuqlari hamda muvaffaqiyatsizliklari uchun javobgarlik hissi yuqori bo'ladi.

R.Broksauz tomonidan o'tkazilgan psixologik eksperimentlar esa tadbirkorning tavakkalchilik (risk)ka bo'lgan munosabatini tadqiq etishga qaratilgan bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida muvaffaqiyatga erishgan shaxslarga o'rtacha tavakkalchilik xos ekanligini aniqladi.

Tadbirkorlik faoliyati hamda tadbirkor shaxsiga xos psixologik xususiyatlarni tadqiq etish va ularning ilmiy tahlilini amalga oshirish davom etmoqda.

Bugungi kunda psixologiya fani turli sohadagi mutaxassislariga o'zlarining shaxsiy zaxiralarini aniqlash va samaradorlik darajasini oshirish, shaxslararo munosabatlarini tuzatish hamda psixologik kamchiliklardan xalos bo'lish imkoniyatini bermoqda. Tadbirkorlar ham bundan mustasno emas. Mutaxassis-psixologlar tadbirkorlar uchun maxsus biznes-maslahatlar, treninglar va seminarlar olib boradilar. Bu mashg'ulotlar tadbirkorlarda biznes psixotexnikasi, nostandart vaziyatlarda tez qaror qabul qilish, komanda bilan ishlash, atrofdagi kishilarning psixologik holatini tushuna olish, shaxsiy hissiyotlarini boshqara

olish, murakkab vaziyatlarda o'ziga ishonchni saqlay olishning malaka va ko'nikmalarini ro'yobga chiqaradi yoki shakllantiradi.

Tadbirkorlikni tashkil etish bo'yicha olib borilgan izlanishlar bir qator nazariyalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Frederik Xerzbergning "motivatsiyali gigiyena" yoki "ishni jonlantirish" nazariyasiga ko'ra, ishchilarning ishga bo'lgan ishtiyoqi quyidagi gigiyenik omillarga bog'liq:

- mehnat sharti;
- firmaning siyosiy ahamiyati;
- maoshi;
- jamoadosh va boshqalar bilan bo'lgan munosabati.

Motiv omillariga esa:

- faoliyatdagi muvaffaqiyat;
- ish yuzasidan ko'tarilishi;
- qulay imkoniyatga egaligi;
- faoliyatining qiziqligi va qiyinligi;
- faoliyatining xilma-xilligi;
- faoliyatini rejalashtirilishida qatnashish va hokazolar .

Bu motivlar bir-biri bilan nafaqat tadbirkorlik motivatsiyasini shakllantiruvchi jarayonda, balki tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlarda motivatsiyaga oid nazariyalar, asosan, ikki toifaga ajratiladi:

- mazmuniy;
- jarayoniy.

Motivatsiyaning mazmuniy nazariyalari, birinchi navbatda, insonlarni harakatga undovchi ehtiyojlarni aniqlashga harakat qiladi va aynan u orqali ishning hajmi hamda mazmuni aniqlanadi. Motivatsiyaning zamonaviy mazmuniy konsepsiyalariga asos solinishi, asosan, Abraham Maslow, Frederick Herzberg, David McCllandlarning ishlari bilan bog'liq.

David McClland X.Myurreyning motivatsiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarining nazariy g'oyalari va empirik yondashuvlari asosida erishgan yutuqlarini rivojlantirib, bir qator tajribalar seriyasini o'tkazgan. U tadqiqotlari obykti sifatida nafaqat o'quv muassasasi talabalarini, balki tadbirkorlarning ham ishtirok etishini ta'minlashga uringan (1961). David McClland tadqiqotlarining asosiy g'oyasi sifatida, tadbirkorlarning alohida psixologik xususiyatlari, jumladan, ayrim mavjud standartlar bilan bellashish jarayonida aniqlagan yutuqlar motivatsiyasining yuqori darajasi namoyon bo'ladi.

Mashhur nemis sotsiologi M.Veber (Max Weber) XIX asr boshlarida biznesdagi holatni tahlil etar ekan, biznes odobi masalasiga mufassal to'xtalib o'tgan. Biznesning mohiyatini tushunib yetgan holda u: "Trubinalardan tutun

chiqish uchun foyda olinishi zarur”, – deb ta’kidlagan. Bu yerda u tadbirkorlar faoliyatida ikki yo‘nalishni ajratib ko‘rsatadi:

- usiz ishlab chiqarish mavjud bo‘lmaydigan oqilona foydaga intilish;
- “boylikka intilish”.

M.Veber ikkinchi yo‘nalishni: “Bunday intilish ofitsiantlar, shifokor, rassomlar, yengil tabiatli kishilar, askarlar, qimorboz va gadoylarda uchraydi. U barcha davr va mamlakatlarning aholi guruhlari ham alohida shaxslariga xos bo‘ladi va u biznes emas”, – deb to‘liq ishonch bilan ta’kidlaydi (Вебер М. Избранные произведения / Пер с нем.; Сост., общ. ред. Ю.Н. Давыдова. - М.: Прогресс, 1990. – 804 с.).

Motivatsiyaning jarayoniy nazariyasining quyidagi uchta asosi mavjud:

- “Kutilishlar nazariyasi”;
- “Adolatlilik nazariyasi”;
- “Portret-Louler modeli”.

Kutilishlar nazariyasi. Kutilishlar nazariyasining asosiy mazmuni Viktor Vroom ishlariga borib taqaladi. Unga ko‘ra tadbirkordagi ehtiyojning yuqoriligi, ma’lum bir maqsadga erishish motivatsiyasining yagona zaruriy sharti bo‘la olmaydi. Bu o‘rinda tadbirkor maqsadini amalga oshirish jarayonida tanlangan yo‘l kutilayotgan natijaga erishtirishiga va ehtiyojning qondirilishi mumkinligiga ishonishi lozim bo‘ladi. Kutishlar jarayonini ma’lum bir voqea sodir bo‘lishi ehtimoliga tadbirkor shaxs tomonidan beriladigan baho sifatida talqin qilish mumkin. Mehnatga motivatsiyaning tahlilida kutishlar nazariyasi uchta o‘zaro bog‘liqlikni tavsiflaydi: mehnat xarajatlari – natija, natija – rag‘batlantirish va valentik (rag‘batlantirish bilan qoniqish).

Adolatlilik nazariyasi. Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun odamlar qanday qilib o‘z kuchlarini taqsimlashi va yo‘naltirishi to‘g‘risidagi boshqa bir tushuntirishni adolatlilik nazariyasi beradi. Bu nazariya bo‘yicha, tadbirkorlar olgan manfaatlarini sarf qilgan mehnatlariga munosabatini subyektiv tarzda aniqlashadi va xuddi shunday faoliyat bajarayotgan boshqa tadbirkorlar olgan manfaatlari bilan taqqoslashadi. Agarda taqqoslash nomutanosiblikni yoki tengsizlikni ko‘rsatsa, bu unda ma’lum ma’noda psixologik stresslarni paydo qiladi.

Natijada, tadbirkor tenglik yoki adolatlilik hissiyotini, sarf qilayotgan kuch-g‘ayratini kamaytirishi va olayotgan daromad miqdorini o‘zgartirish orqali to‘g‘rilashi mumkin bo‘ladi. **Port’er-Louler (Porter-Lawler) modeli.** Layman W.Porter va Edward E.Lawlerlar kutilishlar va adolatlilik nazariyalarini o‘z ichiga oluvchi, motivatsiyaning jamlanma jarayoniy nazariyasini yaratishgan. Ularning modellarida beshta asosiy ko‘rsatkich mavjud: sarf qilingan mehnat, qaror qabul qilish, olingan natijalar, rag‘batlantirish, qoniqqanlik darajasi (David McClelland, The Society- Princeton, N.J.: Van Nostrand, 1961, - pp. 119-122).

Robert J.Kreitner hamda Angelo J.Kinickilarning fikricha, tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasi bevosita va bilvosita uch sohaga bo‘linadi:

- tadbirkor faoliyatini ilhomlantirish, unga ruh baxsh etish;
- faoliyatni maqsadga yo‘naltirish va uning tarmoqlarini ajratish;

- faoliyatning shakllanishini belgilash (Kreiner, Robert. Organizational behavior / Robert J. Kreitner, Angelo J. Kinicki. – BPI/ IRWIN, Homewood, IL 60430 Boston, MA 02116, 1989. – pp. 142-205).

D.Hebbning fikricha, ishlab chiqarishdagi motivatsiya, asosan, tadbirkor faoliyati sifatini ko‘tarish maqsadida, uni qo‘llab-quvvatlash va yo‘naltirish kabi harakatlar bilan uzviy bog‘liq jarayondir (Hebb D. O. Textbook of psychology. Philadelphia; W.B. Saunders Company; London-Toronto. 1972. - p. 159). Psixologik nuqtayi nazardan motivatsiyani tizimli tarzda o‘rganish insonni mehnatga aynan nima yo‘naltirishini yaqqol aniqlash imkonini berdi. B.Weoner o‘zining “Motivatsiya nazariyalari” kitobida tadbirkorlik faoliyati motivatsiyani yoritishda “Instinkt nazariyasi”, “Idrok etish nazariyasi”, “Boshqarish va mustahkamlash nazariyasi” kabi nazariyalarning o‘rni beqiyosligini alohida ta’kidlab o‘tgan (Weiner B. Theories of Motivation. - Chicago. 1972. – pp. 54-66).

Umuman olganda, motivlar anglangan va anglanmagan (qisman anglangan) bo‘lishi mumkin. Birinchisida, ijtimoiy xulqning sabablari aniq, egasi uchun ravshan bo‘lsa, ikkinchi holatda, amalga oshirilgan xulqning ichki psixologik sababi, ya’ni uning ortida turgan ehtiyoj, faollik jarayonining mexanizmlari anglanmaydi. Anglangan motivlar ijtimoiy hulqni o‘rganishda katta ahamiyatga ega, chunki biz, ko‘pincha, odamlar orasida, jamoat joylarida o‘zimizning nima sababdan aynan shu mavqeni tanlashimizni, aynan shunday qarorlarga tayanishimizni, aynan shu odamlarni yoqtirayotgan yoki yoqtirmayotganligimizni aniq bila olmaymiz. Bu holat ijtimoiy ustanovkalar orqali tushuntiriladi. Ijtimoiy ustanovka – u yoki bu guruhlariga nisbatan shaxs tomonidan baholash, harakat qilishga hozirlikni va idrok qilish usullarini anglatadi. Demak, tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasini shakllantirish va uni ishlab chiqarishga qo‘llash psixologik qarashlarda mahalliy sharoitda tor doiradagina o‘rganilgan tadqiqot muammolaridan biridir.

23.3. Reklama – ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida.

Reklama psixologiyasi alohida yo‘nalish sifatida XIX-XX asrlar chegarasida vujudga keldi. 1924-yilda nemis olimi **T.Kenig** o‘zining «Reklama psixologiyasi: uning hozirgi ahvoli va amaliy ahamiyati» kitobida, keng davralarni amaliy psixologiyaning faqat ikki sohasi – kasbiy yaroqlilik hamda reklama qiziqtiradi, deb yozgan edi.

Reklama ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida uzoq o'tmishda paydo bo'lgan («reklama» - lot. baqirish). Biroq qadimdan insonlar e'tiborini jalb qilish uchun nafaqat so'zdan, balki tashqi tasvirdan ham foydalanilgan. Masalan, hukmdorlar va

mashhur shaxslarning nomlari hamda ularga atalgan maqtovlarni binolar peshtoqiga yozish, tekis toshga turli farmon yoki e'lonlarni yozish. Xullas, reklamaning inson ongi orqali uning irodasi va xatti-harakatlariga ta'siri azaldan ma'lum bo'lgan.

O'tgan asrning 50-yillarida bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda taklifning talabdan oshib ketishi bozor munosabatlarini o'rganish va boshqarish (marketing) ehtiyojini paydo qildi. Marketingning maqsadi insonlarning ehtiyojini qondirib, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarish va reklama qilishdan iborat. Ammo, ko'p o'tmay, reklama orqali insonlar irodasi va xatti-harakati bilan manipulyatsiya qilish xavfi namoyon bo'la boshladi. Bu muammo iqtisodiy psixologiya sohasidagi mutaxassislarni reklamaning inson ongiga ijobiy hamda salbiy ta'sirini yanada kengroq va chuqurroq tadqiq qilishga undadi.

Reklamani idrok etishda psixik jarayonlarning o'ziga xos kechishini va uning strukturasi birinchi bor **E.Levis** 1896-yilda tadqiq qilgan bo'lib, bu struktura shunday ko'rinishga ega: reklamaning inson ongiga ta'siri e'tiborni jalb qilishdan boshlanadi va **diqqat (attention)** jarayoni bilan bog'liq bo'ladi; so'ngra u **qiziqish (interest)** paydo qilishi lozim; keyin **xohish (disire)** tug'iladi; shundan keyingina mahsulotni sotib olish bilan bog'liq **xatti-harakat (activity)** yuzaga keladi. Keyinchalik mazkur formulaga yana bir element – **motiv (motive)** kiritildi va formula **AIMDA** ko'rinishiga keldi.

Ammo yuqoridagi formula xaridorning tafakkur jarayonini hisobga olmagan, chunki reklamaning ishontirish funksiyasi e'tibordan chetda qolgan. Shuning uchun mutaxassislar **ACCA** formulasini taklif etdilar: **diqqat (attention)**, dalillarni **idrok qilish (comprehension)**, **ishontirish (conviction)**, **xatti-harakat (activity)**.

Reklamaning psixologik strukturasi ochib berishga harakat qilgan yana bir qancha formulalar mavjud. Ularning eng ommaviysi 1961-yilda **R.Kolli** tomonidan taklif etilgan **DAGMAR** modelidir. Mazkur formula ingliz tilidagi *Defining advertising goals – measuring advertising results* (ya'ni reklama maqsadlarini aniqlash - reklama natijalarini o'lchash) iborasining bosh harflaridan tuzilgan bo'lib, unga ko'ra, xarid qilish jarayoni 4 bosqichni o'z ichiga oladi: 1-bosqich –mahsulotning markasini tanish, 2-bosqich – assimilyatsiya (mahsulot sifati haqida xabar berish), 3-bosqich – ishontirish (xaridga psixologik moyillikni paydo qilish), 4-bosqich – xatti-harakat (ya'ni bevosita xarid qilish).

Xullas, mahsulotning reklamasini tayyorlashda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, har qanday mahsulot iste'molchi uchun o'zida ikkita – funksional hamda psixologik mohiyatni birlashtiradi. Mahsulotning funksional mohiyati uning bevosita fiziologik ehtiyojlarni qondirish maqsadidan kelib chiqadi. Masalan, ovqat – ochlikni bartaraf etish uchun, soat – vaqtni to'g'ri aniqlash uchun kerak va h.k. Mahsulotning psixologik mohiyati esa shaxsning psixologik xususiyatlari, o'z-o'zini baholash darajasi yoki imiji bilan bog'liq. Masalan, kiyimni bozor yoki do'kondan emas, maxsus butikdan sotib olish; ochlikni har qanday ovqat bilan emas, tanqis taom bilan bartaraf etish va h.k. Mahsulot reklamasini bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar mahsulotning psixologik mohiyatiga alohida e'tibor berishlari lozim.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Tadbirkor, tadbirkorlik, reklama, stratifikatsiya, emperik mos kelish parametri, naqd pul egalari, «bufer» jamg'aruvchilar, maqsadli jamg'aruvchilar, boylik egalari, ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik tamoyillar, o'zgarishlarga moyillik, kasbiy lavozim, xo'jalik rahbarlari mutaxassislik, yakka tadbirkorlik, yakka mehnat, yollangan mehnat, xususiy korxonalar, aksiyadorlik korxonasi.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik hodisasi.
2. Tadbirkorlik – jamiyat rivojlanishi tarixida yangi hodisa ekanligi.
3. Tadbirkorning ijtimoiy stratifikatsiya doirasidagi empirik mos kelish parametri ko'rsatkichlari.
4. Muvaffaqiyatga erishish (muvaqffaqiyatsizlikdan qochish) motivatsiyasi.
5. Reklamani idrok etish.
6. Reklamani samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus formulalar.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Жариков А.И. Психология управления. - М.: Пламя, 2004.
2. Майерс Д. Социальная психология. - С-Пб. Питер, 2000.
3. Усманова А.А. Психология управления. -Т.: УМЭД, 2010.
4. Nayitov O.E. Psixologik iqtisod. - T., 2006.
5. Якубова З.Ю. и др. Психология менеджмента. -Т.: ЖИДУ, 2002.
6. <http://www.book-ua.org> Ревневская Н.И. Психология менеджмента. Конспект лекций. - М., 2008.
7. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. - Qarshi: Nasaf, 2005.

24-MAVZU

TASHKILOTCHILIK VA BOSHQARUV FAOLIYATIDA QOBILIYATLARNING O'RNI

24.1. Tashkilotchilik va boshqaruv psixologiyasining asosiy tushunchalari.

24.2. Psixologiyada qobiliyatlar tushunchasi.

24.3. Tashkillashtirish qobiliyatlarining psixologik xususiyatlari.

24.4. Boshqaruv qobiliyatlarining psixologik xususiyatlari.

24.1. Tashkilotchilik va boshqaruv psixologiyasining asosiy tushunchalari.

Tashkilot – mehnatni tashkil etish va taqsimlash sharoitlarida, ma'lum me'yoriy asoslarda harakat qiluvchi ikki va undan ortiq shaxslarning rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan faoliyati. Bunday faoliyat uchta parametr – murakkablik, rasmiyatchilik va markazlashtirish bilan tavsiflanadigan ma'lum tuzilish orqali amalga oshiriladi. Tashkilot tuzilishining murakkabligi uning differentsiatsiya va integratsiya darajasi bilan aniqlanadi. Differentsiatsiyaning uchta asosiy turi mavjud – tuzilishning gorizontal, vertikal va fazoviy taqsimlanishi. Gorizontal differentsiatsiya tashkilotda mehnatning funksional taqsimlanishiga asoslangan va uning tarkibiy bo'linmalar ixtisoslashganligining darajasini, hamda ularning sonini ta'riflaydi. Tashkilotning ichida ixtisoslashuv darajasi naqadar yuqori bo'lsa, unda nisbatan mustaqil bo'linmalar shunchalik yuqoriroq darajada ajralib turadi.

Vertikal differentsiatsiya tashkilotni ierarxiya bo'yicha o'zaro bo'ysungan boshqaruv bo'linmalarga taqsimlashga asoslangan. Bunday vertikal rahbar va bo'ysunadigan xodimlarning holatlarini ajratadi va ularni ma'lum tartib qatoriga keltiradi. Ammo vertikal boshqaruvda, rahbarning faoliyatni muvofiqlashtirish imkoniyatlari cheklangan. Uning faoliyati faqat "ikkinchi bosqichga" ta'sir ko'rsatadi. Agar rahbar, xodimlarning sonidan qat'iy nazar, tashkilotning barcha a'zolarini boshqarish bo'yicha cheklanmagan imkoniyatlarga ega bo'lganda edi, ierarxiyaga zarurat mavjud bo'lmas edi. U tashkilot a'zolarining cheklangan qismini samarali boshqarishi mumkin. Shu sababdan bo'ysunish tizimiga zarurat vujudga keladi. Tuzilishning fazoviy taqsimlanishi o'z faoliyatini mintaqaviy tamoyil asosida olib boradigan tashkilotlarga tegishli bo'lib, uchta ko'rsatkichda namoyon bo'ladi: mintaqaviy bo'linmalar orasidagi o'rtacha masofada mintaqaviy bo'linmalar soni, ushbu bo'linmalar xodimlari sonining nisbati va markaziy vakolatxonada boshqaruv xodimlarining soni. Barcha bo'linmalar samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun, ular bitta yaxlit tuzilmaga birlashtirilgan

bo‘lishlari kerak (ya’ni integratsiyalangan bo‘lishi lozim). Bunda bosh integratsiya vositasi, ierarxiya hisoblanadi, chunki aynan u tashkilotning butun tuzilishining yaxlitligini va boshqarilishini ta’minlaydi. Shuningdek, tashkilot tuzilishi bilan nazarda tutilgan va uning tarkibiga o‘rnashgan boshqa muhim integratsiyalovchi vositalar ham mavjud. Turli boshqaruv funktsiyalar tashkilot tuzilishining integratsiyalanish darajasi oshishiga ko‘mak berishadi. Tashkilotning markazlashtirish tuzilishi quyi turgan bosqichlarda qabul qilingan qarorlar soni, quyi turgan bosqichlarda qabul qilingan qarorlarning muhimligi, quyi turgan bosqichlarda qabul qilingan qarorlarning oqibatlari, bo‘ysungan xodimlar ishi ustidan nazorat hajmi bilan ta’riflanadi. Markazlashtirish funktsiyalarni bajarishning rasmiy usullari bilan chambarchas bog‘liq. Qaror qabul qilishda qanchalik erkinlik ko‘p bo‘lsa, markazlashgan tizimdan markazlashmagan tizimga o‘tish darajasi shunchalik yuqoriroq.

Demak, tashkilot tuzilishida, uning mazmunini anglatuvchi boshqarish faoliyatining quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ajratish mumkin:

- rahbarning ierarxiyada joyini namoyish qilib turuvchi asosiy funktsiyalari;
- rahbarning funksional imkoniyatlari;
- rahbarning gorizontal tarmoqda u yoki bu “katak”ka aloqadorligi, bu uning ishlab chiqarish - texnik funktsiyalarining tizimini belgilaydi;
- boshqarish usulining mazmuniga ta’sir ko‘rsatuvchi tuzilishning sinfi va turi;
- kadr masalalarini hal etishda, xodimlarga qo‘yiladigan talablar majmui;
- rahbar va bo‘ysungan xodimning maxsus turini aniqlash;
- rahbar va bo‘ysungan xodimning psixologik xususiyatlariga teng bo‘lmagan talablarni qo‘yadigan turli tuzilmalar mavjudligi;
- rahbarning tashkillashtiruvchi funktsiyasini belgilovchi tuzilishni tanlash.

Yuqorida keltirilgan barcha yo‘nalishlar tashkilot tuzilishi va boshqaruv faoliyatining bog‘liqligining ahamiyatini, tarkibiy farqlarni bilish zaruratini va ularning rahbar faoliyatiga ta’sir o‘tkazish tavsiflarini ta’kidlab o‘tadi. Boshqarish – odamlarni tashkilot (firma, korxonalar va hokazolar)ning maqsadlariga erishish uchun zarur ishlarni bajarishga undash (majburlash, zo‘rlash)ga qaratilgan inson faoliyati.

Boshqarish – rahbar tomonidan xodimlarga buyruq berishdan iborat, ularda topshirilayotgan ishning maqsadlari ko‘rsatiladi. Ushbu murojaatlar axborot (kommunikatsiya) va jismoniy tavsifga ega bo‘lishi mumkin. Daryo bo‘yida turgan ikkita odamni faraz qilaylik. Bittasini itarib yuboramiz – u suvda. Ikkinchisiga: “Sakra!” - deymiz. U ham suvda. Harakatlarimizning natijasi bir xil – ikkala odam suvda, harakatlarimiz esa aslida har xil. Biz odamni suvga itarganimizda, jismoniy harakat qildik. Odamga “sakra” deganimiz – axborot tavsifiga ega harakat. Ayni shu harakat boshqarish hisoblanadi. Ushbu harakat

amalga oshirilishi uchun, odam unga berilgan buyruqni tushunishi kerak. Shuningdek, u buyruq berayotgan shaxs bilan bo'ysunishni nazarda tutadigan ma'lum munosabatlarda bo'lishi kerak. Bunday bo'ysunish munosabatlari asosida bo'ysungan shaxs buyruq berayotgan shaxsga qaram (tobe) bo'lishidir. Boshqarish – bu tashkilot ehtiyojlarini tahlil qilish, uning maqsadlariga erishish imkoniyatlarini va ularga erishish uchun urinishlar narxini tahlil qilishdan iborat intellektual jarayon. Qaror qabul qilishdan avval vaziyatni tashkil etuvchi komponentlar to'g'risida hamda rahbar buyruqni berishni rejalashtirayotgan xodimlar to'g'risida to'plangan va tahlil etilgan ma'lumot qanchalik aniq bo'lsa, boshqarishning kutilayotgan natijasiga erishish imkoniyati shunchalik yuqoriroq bo'ladi. Boshqarish – bu his-tuyg'u bilan bog'liq jarayon, chunki buyruq berish va uni nazorat qilish, bo'ysungan shaxsning harakatlari bilan kuzatiladi, ular esa, majburiy tarzda odamlarning his-tuyg'ulari bilan birga bo'ladi. Har qanday boshqarish faoliyati ma'lum tizim doirasida amalga oshiriladi.

Boshqarishning bunday tizimi, faoliyat maqsadlari, vazifalari va ehtiyojlari bilan belgilangan va yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi integratsiyalangan va birlashgan mustahkam boshqaruv aloqalarning tarkibiy elementlarining majmuidan iborat. Taklif etilayotgan tizimda uning quyidagi asosiy tarkibiy qismlari taqdim etilgan.

Boshqaruvchi quyi tizim mehnat obyektlariga boshqaruv ta'sirini shakllantiradi va amalga oshiradi. Boshqarish subyektlari sifatida rahbar, bo'ysungan shaxslar, mehnat jamoasi (Sr, Sn, Stk) chiqishadi. Rahbar lavozim maqomiga muvofiq, tizimni shakllantiruvchi bosh vazifalarni amalga oshiradi. Boshqariladigan quyi tizim o'tkazilayotgan boshqaruv ta'siriga muvofiq kasbiy faoliyatning masalalari hal etilishini ta'minlaydi. Mazkur quyi tizim obyektlari sifatida shu xodimlarning o'zlarini – rahbar, bo'ysungan shaxslar hamda boshqarish ta'siri ostida bo'lgan mehnat jamoasini (Or, On, Otk) tushunish kerak. Boshqaruvchi va boshqariladigan tizimlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar rasmiy (me'yoriy) va norasmiy (erkin) o'zaro aloqalarni qamrab oladi. Tajribada erkin tizim mavjudligini ko'p sonli doimo amalda bo'ladigan obyektiv va subyektiv tavsifga ega omillar asoslab beradi. Boshqarish tizimini hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi sharoitlarni, omillarni hisobga olish, uning eng unumdor modeli qurilishini nazarda tutadi. Boshqarish tizimi uchun boshqaruvchi organ yoki boshqarish subyekti va boshqarish obyekti tizimning mazmunidan kelib chiqadigan ma'lum bog'liqlikda bo'lishi shart. Har bir boshqaruvchi instantsiya, har qanday darajali dinamik tizimning boshqaruvchi organi sifatida, o'z navbatida, yuqoriroq instantsiyaga nisbatan bo'ysungan hisoblanadi. Boshqaruvchi tizimning muhim xususiyati – ularda qayta aloqa mavjudligi, ya'ni boshqaruvchi instantsiyalar boshqarilayotgan obyektlar holati to'g'risida ma'lumot olishlari imkoniyati bo'lib hisoblanadi. Shu sababdan boshqarish

faoliyati boshliqlarning yoki boshqa mansabdor shaxslarning bo‘ysungan xodimlar bilan shaxsiy muloqotini hamda quyi turgan tuzilmalar tomonidan rahbariyatga uzluksiz ma’lumot topshirishini nazarda tutadi.

24.2. Psixologiyada qobiliyatlar tushunchasi.

Boshqarish qobiliyatlarini o‘rganishning qiyinchiliklari, qobiliyatlar toifasining o‘zi psixologiyada eng murakkab tushuncha hisoblanadi. Ushbu tushuncha hamon to‘liq yoritilmagan. U doimo mohiyati ochilishidan go‘yo “qochib yuradi” va boshqa psixologik tushunchalar – bilim, ko‘nikma, intellekt, shaxsiyat xususiyatlari, psixologik jarayonlar va hokazolar orasida g‘oyib bo‘ladi. Shunga qaramasdan, hozirgi paytda ularning umumpsixologik tavsifi shakllangan. Uning asosiy holatlari quyidagicha: qobiliyatlar – bu shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, ular biron bir faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishi shartlari hisoblanib, uning uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va mahoratni o‘zlashtirish dinamikasida farqlarni namoyish qiladi. Qobiliyatlarni boshqa psixologik holatlardan farqlovchi uchta asosiy belgilari ajratiladi:

a) qobiliyatlar – bu bitta odamni boshqa odamdan farqlovchi individual-psixologik xususiyatlar;

b) bu – faqat biron bir faoliyatni yoki bir nechta turdagi faoliyatlarni muvaffaqiyatli bajarishga aloqador xususiyatlar;

d) odamda shakllangan, bilim, ko‘nikma va mahorat o‘zlashtirilishining yengilligi va tezligini asoslovchi bo‘lsa ham, ularga bog‘liq bo‘lmagan qobiliyatlar.

Qobiliyatlar ikkita asosiy jihat bilan tavsiflanadi: sifatiy va miqdoriy. Sifatiy xususiyatlar nuqtayi nazaridan ko‘rilayotgan qobiliyatlar, odamning faoliyati muvaffaqiyatlilikini ta‘minlovchi, o‘ziga xos simptomlar majmui, tuzilishi ko‘rinishida, psixologik xususiyatlarning murakkab majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Qobiliyatlarning miqdoriy tavsifi ular namoyon bo‘lishi darajasi, rivojlanishi, qobiliyatlar darajasi aniqlanishini nazarda tutadi. Qobiliyatlarni ikkita asosiy toifaga – umumiy va maxsus qobiliyatlarga ajratish qabul qilingan. Birinchilari bitta emas, ko‘p sonli faoliyatlar bajarilishining muvaffaqiyatlilikini belgilaydi; ular qatoriga, masalan, intellekt kiradi. Ikkinchilari faoliyat bo‘yicha ixtisoslashgan hisoblanadi va faoliyatning aniq bir turi samarali bajarilishini belgilaydi.

Qobiliyatlar faoliyatda iste‘dod nishonlari asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bu asab tizimining va butun organizmning morfologik, funksional xususiyatlari. Ular qobiliyatlar rivojlanishi uchun tabiiy-biologik asoslangan tug‘ma dastlabki shartlar sifatida chiqadi. Qobiliyatlar psixologiyasining yana bitta asosiy va umumiy holatlaridan biri – ularni taqdim etilishining uchta sifatiy

farqlangan darajalarini ajratish hisoblanadi. Qobiliyatlarning o‘zi, iste’dodlilik va daholik qobiliyatlar nazariyasida qobiliyat irsiyat bo‘yicha o‘tishi, tug‘ma qobiliyatlar masalasi o‘ta muhim bo‘lib, u hamon hal etilmagan. Qobiliyat va shaxsiyat rivojlanishi – bir-biriga bog‘liq ikki jarayon. Shu bilan qobiliyatlar tushunchasi psixologik tushunchalarning umumiy tarkibida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda. Bu asos beruvchi psixologik toifalar – faoliyat va shaxsiyat o‘rtasidagi “oraliq” bosqichdir.

24.3. Tashkillashtirish qobiliyatlarining psixologik xususiyatlari.

Mehnatni tashkillashtirish uchun, mutaxassislarning kasbiy fazilatlari mavjudligi va ularning rivojlanganligi darajasi, u yoki bu korxonada yoki tashkilotning mehnat samaradorligi talablariga javob beradigan sifatlar to‘plami mavjudligi o‘ta muhim hisoblanadi. Bu yerda faoliyatning psixologik ta‘minoti uchun mehnatni tashkil etish va mehnat sharoitlarini takomillashtirishga erishish kerak. Faoliyatni yaxshilash uchun yaxshi tashkilotchi mehnatni me‘yorlash vositasidan foydalanadi.

Me‘yorlash – bu ishlab chiqarishni boshqarish bo‘yicha, zarur xarajatlar va mehnat natijalarini aniqlashga qaratilgan faoliyat turi. Mehnatga me‘yorlangan yondashuvda rahbar mehnat jarayonini, uning qismlarga taqsimlanishini, texnologiya va mehnat tashkil etilishining optimal varianti tanlanishini, ish tartiblari, jihozlarni, loyihalarni, ish usullari va uslublarini tahlil qiladi, ish joylariga xizmat ko‘rsatish tizimini, ish va dam olish tartibini, texnologik va mehnat jarayonlari xususiyatlariga muvofiq me‘yorlar hisoblanishini aniqlaydi, tashkiliy-texnik sharoitlarni muvofiqlashtiradi. Bundan tashqari, mehnatni me‘yorlash jarayonida rahbar xarajatlar me‘yorlari va ish natijalarini, mehnat jarayoni tuzilishining me‘yorlari va mehnatning murakkab taraflarini, mehnatning sanitariya-gigiena va estetik sharoitlarini va hokazolarni o‘rganib chiqadi. F.Teylor mehnatning ilmiy tashkil etilishini tahlil qilib, ilmiy boshqaruvda eng muhim element sifatida aniq vazifa qo‘yishni ko‘rgan, har bir ishchining faoliyati rahbar tomonidan batafsil yozma yo‘riqnoma ko‘rinishida avvaldan rejalashtirilgan bo‘lishi kerak, unda ishchiga qo‘yilgan vazifa ta‘riflanadi, bunda nafaqat qilinadigan ish ko‘rsatilishi joiz, balki bu ishni qanday qilish lozimligi va unga qancha vaqt sarflanishi kerakligi ham aniq ko‘rsatilishi shart.

Mehnatni me‘yorlaganda, samarali rahbar o‘z faoliyatida ishni bo‘ysira qilishni qo‘llaydi. Ya‘ni, ish rejasini tuzganda, u: a) eng muhim va shoshilinch ishni; b) muhim, ammo shoshilinch bo‘lmagan ishni; d) shoshilinch ishni; e) shoshilinch bo‘lmagan va muhim emas ishlarni ajratadi. Yuqori samarali, kasbiy faoliyatni ta‘minlash uchun, rahbar ishchilar mehnatini boyitishga intiladi.

Bunday yondashuv asoslanish darajasini oshirishni va xodim o'z mehnatidan qoniqishi tuyg'usini kuchaytirishni nazarda tutadi. Mehnat tashkillashtirilishini takomillashtirganda rahbar faoliyat sharoitlarini yaxshilashga katta ahamiyat beradi. Ish kuni shiddatli, tizimiy ravishda ish qizg'inligida, u doimiy quvvat sarflanishini talab etganda, hayajon, qiyinchiliklar va stress, serdiqqat ish sharoitlarida bu alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Ruhiy sog'liqning muhim belgilaridan biri, odamning o'zini-o'zi boshqara olish qobiliyati, ya'ni tetik ahvolda o'z fikrlari, tuyg'ulari, harakat va sezish funksiyalarini erkin boshqara olishi hisoblanadi.

Shuning uchun boshqarish faoliyati bilan shug'ullanayotgan har qanday shaxs psixologik o'zini-o'zi boshqarish va o'zini-o'zi nazorat qilish texnikasiga ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, stressga chidamlilik ham rahbarning kasbiy muhim sifatlaridan biri hisoblanadi, u odamni psixologik o'zini-o'zi boshqarish usullaridan foydalanish ko'nikmalari bilan ta'minlaydi. Stresslarni yengishga bo'shashish mashg'ulotlar texnikasi yordam beradi, ular jismoniy va ruhiy zo'riqlardan dam olishni ta'minlaydi. Bo'shashish usuli sifatida autogen mashg'ulot ko'pchilikka ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan.

Tashkiliy qobiliyatlarning yana bitta xususiyati, rahbarning kommunikativ omilkorligi hisoblanadi, uning tarkibiga xodimlar bilan munozaralarda, aniq vaziyatlarni tahlil etishda, ish va rolli o'yinlar vaqtida va hokazolarda muomala qila olish kiradi. Bu esa, o'z navbatida, rahbarda o'zini-o'zi rivojlantirishga, butun hayoti davomida uzluksiz o'zi ta'lim olishiga ehtiyoj shakllanishiga olib keladi. Kommunikativ qobiliyat boshqarish funksiyalari samarali bajarilishini ta'minlaydi, psixologik jihatdan esa, shaxsiy o'zaro harakatlanish va kommunikativ maydon tashkil etilishini ta'minlaydi. Ushbu tashkilotchilik xususiyatlari lokal qobiliyatlar bilan to'ldiriladi va takrorlanadi, ular alohida boshqarish funksiyalari samarali bajarilishini ta'minlaydi. Ularning tarkibi boshqarishning bazaviy funksiyalar tizimi asosida aniqlanadi. Shunday qilib, tashkilotchilik qobiliyatlarining asosiy ko'rsatkichlari quyidagicha:

- mehnat tashkil etilishi va sharoitlarini takomillashtirishga intilish;
- mehnat me'yorlanishini mahoratli qo'llash;
- xodimlar mehnatini boyitish;
- o'zini-o'zi boshqara olish va o'zini-o'zi nazorat qilish texnikasiga ega bo'lish;
- kasbiy masalalarni ijod bilan hal etishga intilish;
- odamlar bilan ishlashga va ularni boshqarishga psixologik tayyorgarlik;
- axloqiy yetuklik va madaniyat.

24.4. Boshqaruv qobiliyatlarining psixologik xususiyatlari.

Qobiliyatlar tushunchasining oxirgi darajagacha umumiy maqomi, ularning faoliyat bilan ham, shaxsiyat bilan ham uzilmas bog'liqligi, ayni boshqarish qobiliyatlarini va ularni o'rganishning murakkabligini asoslaydi. Murakkablikning mohiyati quyidagicha. Har qanday boshqarish faoliyati uchta asosiy "o'lchov"ga ega:

1) faoliyatga oid, ya'ni biron bir tizimni tashkil etish va uni boshqarish bilan bog'liq;

2) kadrlarga oid, ya'ni "shaxsiyat", odamlarni boshqarish, shaxslararo o'zaro munosabatlarni tashkil etish bilan bog'liq;

3) ishlab chiqarish-texnologik, bevosita texnologik jarayonni tashkil etish bilan, uning tezkor boshqaruvi bilan bog'liq.

Boshqarish samaradorligi rahbar ushbu uchta turli "o'lchov"ni qanchalik ta'minlashga qodir bo'lishiga hamda ularni o'zaro uyg'unlashtirishiga bog'liq.

Birinchisi – faoliyatga oid "o'lchov", tashkiliy-ma'muriy bo'lib, rivojlangan umumboshqaruv ko'nikma va qobiliyatlarni, birgalikdagi faoliyatni samarali tashkil etish mahoratini talab etadi.

Ikkinchisi – shaxsiy "o'lchov", sifatiiy o'zga qobiliyatlar mavjudligini talab etadi, ular samarali va shaxslararo munosabatlarni, odamlarni tashkillashtirish (uyushtirish) va boshqarishni ta'minlashi kerak. Bunday qobiliyatlar sifatida na maxsus, na umumiy qobiliyatlar chiqa oladi, bu yerda faqat asosiy shaxsiy sifatlar harakat qiladi.

Uchinchisi – ishlab chiqarish "o'lchovi", rahbarning ayni kasbiy fazilatlari – uning maxsus qobiliyatlarining mavjudligini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, boshqarish jarayonida ushbu uchta "o'lchov"larni birlashtirish, yana bitta toifadagi qobiliyatlar – muvofiqlashtiruvchi, umumtashkilotchilik tavsifiga ega qobiliyatlarni talab etadi, ular ham yetakchi shaxsiy sifatlar bilan bog'liq. Shu sababdan boshqarish qobiliyatlarining tarkibi, mazmuni juda keng. Ular qatoriga nafaqat kasbiy tasnifga ega xususiyatlar, balki ko'plab boshqa xususiyatlar - rahbarning shaxsiy fazilatlari kiradi. Shuning uchun boshqarish qobiliyatlari to'g'risidagi masala rahbar shaxsiyatining umumiy tuzilishi muammosi bilan birgalikda muhokama qilinadi, ayrim holatlarda esa, bu muammo boshqarish qobiliyatlari o'rnida ko'riladi. Bevosita qobiliyatlar tushunchasi bunda rahbarning shaxsiy sifatleri tushunchasi bilan teng tushuniladi. Bu boshqarish qobiliyatlarga zamonaviy nazarning o'ziga xos xususiyatidir.

Bunday yondashuv ham mavjud bo'lish huquqiga ega; u boshqarish faoliyatining haqiqiy murakkabligini, ushbu faoliyat shaxsga qo'yadigan talablarning xilma-xilligini aks ettiradi.

Xorijiy psixologiyada u “xususiyatlar nazariyasi”da shakllangan, unda bunday qobiliyatlarning keng ro‘yxatlari keltirilgan, shuningdek, u boshqa yo‘nalishlarda ham rivojlangan. Shu bilan birga, ushbu yondashuv “kolleksiyaviy” deb nomlanadi. U boshqarish qobiliyatlar tarkibi qanday savoliga javob bermaydi, ularning o‘zaro bog‘liqligini va ularning tashkilotchiligining xususiyatlarini yoritib bermaydi. Ushbu haqiqatan ham murakkab masalaga oydinlik kiritish uchun, boshqarish qobiliyatlari majmuidan odatda ajralib turadigan bir qator toifalarni ta’kidlab o‘tamiz. Birinchidan, bu boshqaruvchi shaxsiyatining asosiy tavsiflari toifasi, u menejerlik tavsiflari tushunchasi bilan belgilanadi. Ularning barchasi boshqarish faoliyati uchun zarur yoki istalgan hisoblanadi, chunki boshqa teng sharoitlarda, uning muvaffaqiyatlilikini ta’minlaydi. Bundan tashqari, ular shaxs boshqarish faoliyatini afzal ko‘rishini, ushbu faoliyatga moyillikni asoslovchi omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, bu boshqarish qobiliyatlar toifasi hamda uning tarkibiga boshqarish faoliyatiga bevosita va eng sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi, uni mazmuni va talablari bilan aniqlovchi xususiyatlar kiradi. Mazkur toifa aksariyat hollarda “tor ma’noda” boshqarish qobiliyatlari sifatida ko‘riladi. U ham ikki guruhga ajraladi. Birinchisi – bu umumboshqarish qobiliyatlari. Ular mazkur turdagi faoliyatning tarkibiga kiradigan ayrim funksiyaning muvaffaqiyatlilikini emas, balki faoliyatning samaradorligini umumiy jihatdan belgilaydi. Ikkinchi guruh – bu xususiy boshqarish qobiliyatlari, ular uning alohida funksiyalari samarali bajarilishini, boshqarishning muhim bo‘lsa ham, shaxsiy masalalari hal etilishini ta’minlaydi. Aytib o‘tilgan ikkita toifa funksional-faoliyat mezon bo‘yicha, faoliyat uchun shaxsiyatning qanday sifatleri va psixikaning qaysi xususiyatlari zarurligiga qarab ajraladi. Shu bilan birga, boshqarish psixologiyasida qobiliyatlarni ajratishning yana bitta mezon mavjud – tarkibiy-psixologik. Unga muvofiq, qobiliyatlarni ajratish asosi sifatida faoliyatning tuzilishi va mazmuni emas, psixika tuzilishi olinadi. Ushbu mezonga muvofiq, birinchidan, boshqarish faoliyatida umumiy va maxsus qobiliyatlar namoyon bo‘lishi ajratiladi. Ikkinchidan, qobiliyatlar – psixik jarayonlarning asosiy turlari – kognitiv, tartibga solish, kommunikativ, asoslash, iroda bo‘yicha ajratiladi.

Shunday qilib, boshqarish qobiliyatlarining asosiy tuzilishi ikkita mezon – funksional-faoliyat va tarkibiy-psixologik mezonlarining bir birini to‘ldirishi asosida qo‘llashga asoslangan. Natijada, sifatlarning uchta asosiy toifasi ajratiladi, ular yoki bevosita boshqarish qobiliyatlari bo‘ladi, yoki qobiliyatlar funksiyalarini bilvosita bajaradi. Uchta toifaning har biri ikkita asosiy guruhga taqsimlanadi. Bunda uchinchi toifa birinchi ikkita toifa uchun psixologik asos hisoblanadi, ularga kiradigan qobiliyatlar rivojlanishi darajasini asoslaydi. Shu bilan birgalikda, ushbu toifalarning boshqarish faoliyatiga va uning

muvaffaqiyatli kechishiga, amalga oshirish imkoniyatlariga va shaxs tomonidan o‘z kasbiga kora afzalliklar qidirib topishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy menejerlik tavsiflari quyidagi omillar yordamida tashkil topgan:

Birinchi omil – yoshga oid. Umuman yosh va faoliyat muvaffaqiyatliligi o‘rtasida biron bir bevosita va bir ma’noli bog‘liqlik mavjud emas.

Ikkinchi omil – jins omili, u ham shaxsning, ayniqsa, kasbiy-boshqarish faoliyatini afzal ko‘rishi va ushbu faoliyat sifatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil. Ta’kidlash kerakki, ayol-rahbar psixologiyasi oxirgi paytda tadqiqotchilar e’tiborini tortsa ham, zamonaviy boshqaruv psixologiyasi – bu, asosan, “erkak rahbarlar psixologiyasi”. Ayol-rahbarlar va erkak-rahbarlarning qiyosiy tekshiruvdan qilingan asosiy xulosa quyidagilardan iborat. Umuman olganda, erkak rahbarlar bitta boshqaruv masalalarni, ayollar boshqa masalalarni yaxshiroq hal etishadi. Umumiy holatda esa, erkak-rahbarlar bir qancha ustunlikka ega. Madaniy-ta’lim daraja omili. Birinchi ikkita omildan farqlanib, samarali boshqarish faoliyatiga bevosita ijobiy bog‘liqligi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, odam umuman biron bir lavozimni egallashi uchun u majburiy shart ham bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy maqom omili. U boshqarish faoliyati mazmuniga asoslanmagan, ammo tajribada, tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, uning muvaffaqiyatliligiga, ayniqsa, u yoki bu rahbarlik lavozimini egallashga, “boshqaruv vertikali” bo‘yicha yuqoriga ko‘tarilishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Navbatdagi uchta fazilat - emotsional barqarorlik, stressga bardosh beruvchanlik va ijodkorlik muvaffaqiyatli rahbarning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Emotsional barqarorlik rahbarning ishonchli individual faoliyatini ta’minlash uchun ahamiyatli. Psixologiyada qaytarilgan holatlar vujudga kelishining mexanizmi ta’riflangan, bunda guruhning bitta a’zosida, ayniqsa, guruh rahbarida vujudga kelgan holat, guruhning boshqa a’zolarida ham ongli ravishda va, asosan, ongsiz ravishda vujudga keladi.

Demak, rahbarda uning past darajali emotsional barqarorligi oqibatida vujudga kelgan salbiy holatlar, bo‘ysungan xodimlarida ko‘p marotaba qaytarilishi mumkin. Bunda ushbu holat ko‘p karra zo‘rayib boradi. Shu bilan guruhning butun birgalikdagi faoliyatining samaradorligi pasayib ketishiga asos paydo bo‘ladi. Demak, yuqorida menejer shaxsining boshqarish faoliyati muvaffaqiyatliligining omillari hisoblangan xususiyat va tavsiflari keltirilgan. Ular boshqarish faoliyati muvaffaqiyatli amalga oshirilishini asoslovchi birinchi toifali fazilatlarni tashkil etadi. Ushbu fazilatlarning aksariyati o‘zaro ta’sirlanadi, ularning mazmunlari esa, biridan biriga o‘zaro o‘tadi.

Bundan guruhdagi fazilatlar takrorlanishi kelib chiqadi. Shu bilan qobiliyatlar tarkibining eng umumiy xususiyatlaridan biri namoyon bo‘ladi. Boshqarish qobiliyatlarining ikkinchi toifasi qobiliyatlarining ikkita quyi guruhini

o'z ichiga oladi. Birinchisi – boshqarish faoliyati kasbiy faoliyat turi sifatidagi mazmuni bilan talab etilgan umumboshqarish qobiliyatlaridir. Ularning maxsus shartlari va talablari mavjud bo'lib, asosiylari – ma'muriy vazifalari, tashkil etilishining “subyekt - subyektga oid” tamoyiliga asoslangan. Ikkinchisi – lokal tavsifga ega, u yoki bu boshqarish vazifasi bilan asoslangan qobiliyatlardir. Boshqarish qobiliyatlarining uchinchi toifasi, birinchi ikkita toifadan farq qilib, funksional-faoliyatga oid mezonga asoslanib emas, balki tarkibiy-psixologik mezonga asosan ajratiladi. U qobiliyatlarning psixologiyada qabul qilingan umumiy va maxsus qobiliyatlarga ajratilishini aks ettiradi. Bunda maxsus qobiliyatlar tushunchasi ikki jihatdan ko'rilishini inobatga olish zarur. An'anaga ko'ra, maxsus qobiliyat deganda, ma'lum bir faoliyat turini bajarish qobiliyati tushuniladi. Ammo maxsus qobiliyatlar, shuningdek, alohida “psixologik faoliyatlar” shakllanganligining shaxsiy darajasi bilan, ya'ni asosiy psixologik jarayonlar rivojlanishi darajasiga bog'liq. Bu vaziyatda fikrlash, pertsetiv qobiliyalar to'g'risida gapiriladi.

Boshqarish faoliyatining muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi umumiy qobiliyatlar qatoriga intellekt, ijodkorlik, ta'lim olish qobiliyati, reflekslilik, faollik, o'zini-o'zi boshqara olish kiradi. Boshqarish faoliyatiga ta'sir ko'rsatishlarining barcha ularga xos qonuniylik, bir vaqtning o'zida rahbarning umumiy qobiliyatlari sifatida intellekt, ijodkorlik, ta'lim olish qobiliyati, reflekslilik, faollik, o'zini-o'zi boshqara olishning va hokazolarning tavsifini beradi. Umumiy qobiliyatlardan farq qilib, maxsus qobiliyatlar boshqarish faoliyatining muvaffaqiyatligiga bevosita bog'liq. Ularning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, faoliyat muvaffaqiyati ham shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, mnemik jarayonlar rivojlanishi darajasining boshqarish faoliyatining ko'rsatkichlari bilan aloqasi, so'zsiz, bevosita va kuchli va bu yerda uzoq muddatli hamda operativ xotira ko'rsatilishi, rahbar faoliyati muvaffaqiyatligining obyektiv shartlari hisoblanadi.

Shuningdek, fikrlash qobiliyatining boshqarish faoliyatining muvaffaqiyati bilan bog'liqligi, bevositaligi ham aniq. Boshqa maxsus qobiliyatlar – perseptiv, paralingvistik, kinestika va boshqalar ham xuddi shunday ahamiyatga ega. Boshqarish qobiliyatlarining psixik tuzilishining tavsifi psixika, umuman olganda, uchta asosiy – kognitiv, tartibga soluvchi va kommunikativ quyi tizimlarni o'z ichiga olishini nazarda tutish kerak.

Demak, boshqarish faoliyatida namoyon bo'ladigan alohida qobiliyatlar kabi psixika tarkibi bilan asoslangan maxsus tartibga soluvchi va kommunikativ qobiliyatlar mavjudligi, qobiliyatlar umumiy tizimini yana bitta turi bilan to'ldirishga majbur qiladi. Ular maxsus, xususiy qobiliyatlarga nisbatan ko'proq integratsiyalanadi. Shu bilan bir vaqtda ular umumiy qobiliyatlarga nisbatan kamroq umumiyashtirilgan. Umumiy qobiliyatlar ularning psixologik

tuzilmasida makrodarajani tashkil etadi. Xususiy qobiliyatlar qobiliyatlar tuzilmasida mikrodaraja sifatida ko‘riladi. Integral qobiliyatlar ular o‘rtasida joylashib, qobiliyatlarning umumiy tuzilmasida mezodarajani tashkil etishadi. Boshqarish faoliyatida, ayni shu – o‘rta, o‘tuvchi bosqich eng muhim hisoblanadi. Uning tarkibiga kiradigan qobiliyatlar o‘z nomi bo‘yicha ham izoshaklli, deyarli – boshqarish funksiyaga teng. Turli usullar qobiliyatlarning xar-hill shakllarini talab etadi, ammo ayni individual o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan qobiliyatlar u yoki bu rahbarning afzal tomonlarini belgilab o‘tadi. Shuning uchun ham usul shaxsiy qobiliyatlarning tuzilishiga nisbatan “ornini bosuvchi” vazifasini bajaradi. U yoki bu usulni tanlanishi rahbarga o‘zining kuchiga tayanishga va zaif tomonlaridan xolis bo‘lishiga imkon beradi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Tashkilot, tashkilotchilik, boshqaruv, qobiliyatlar, shaxsiyat, xususiyatlar nazariyasi, funksional-faoliyat.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Tashkilotchilik psixologiyasi.
2. Boshqaruv psixologiyasi.
3. Psixologiyada qobiliyatlar tushunchasi.
4. Boshqaruv qobiliyatlari.
5. Boshqaruv qobiliyatlarining tarkibi.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Кабаченко И. Психология организаторской и управленческой деятельности. Учебник. - С-Пб.: Питер, 2003.
2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. Elektron darslik. -T., 2008.
3. Машков В. Психология управления. - М., 2000.
4. Усманова А. А. Психология управления. Электронный учебник. -Т., 2008.
5. Усманова А. А. Психология управления. -Т.. 2010.
6. Якубова З.Ю. и др. Психология менеджмента. – Т.: ЖИДУ, 2002.
7. Hayitov O.E. Psixologik iqtisod. -T., 2006.
8. Jalilov S.X., Xaydarov F.I., Halilova N.I. Kasb psixologiyasi. -T.: TDPU, 2010. -127 bet.

25-MAVZU

YETAKCHILIK VA RAHBARLIK FENOMENLARI

25.1. Yetakchilik va rahbarlik faoliyatiga ijtimoiy-psixologik tavsif.

25.2. Yetakchilik nazariyalari.

25.3. Rahbar obro‘si va hokimiyatning zarurligi.

25.1. Yetakchilik va rahbarlik faoliyatiga ijtimoiy-psixologik tavsif.

Ijtimoiy guruhlarda dinamik jarayonlarga tavsif berganda, albatta, guruh qanday tashkil etilishi, uni tashkil etish vazifasini o‘z zimmasiga kim olishi, guruhni boshqarish bo‘yicha faoliyatning psixologik surati qanday degan savollar tug‘iladi. Sardorlik va rahbarlik muammosi ijtimoiy psixologiyaning tub muammolaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy sharoitlarda muammo kengroq, guruhni boshqarish muammosi sifatida ko‘rilishi kerak. Shuning uchun, eng avvalo, atamalarga oydinlik kiritish va “yetakchi” bilan “rahbar” tushunchalarini yoritib berish o‘ta muhim. Bunda “sardor” tushunchasi siyosiy ma’noda qo‘llanilishi ko‘rilmaydi. B.D.Parigin yetakchi va rahbar o‘rtasida quyidagi farqlarni ajratgan:

1) yetakchi asosan guruhda shaxslararo munosabatlarni tartibga soladi, rahbar esa, guruhda ijtimoiy tashkilotdagi kabi rasmiy munosabatlarni tartibga soladi;

2) yetakchi likni mikromuhit sharoitida aniqlash mumkin (masalan, kichik guruhda), rahbarlik – makromuhit qismi, ya’ni u ijtimoiy munosabatlarning umumiy tizimi bilan bog‘liq;

3) yetakchi lik o‘zidan-o‘zi vujudga keladi. Har qanday haqiqiy ijtimoiy guruhning rahbariyati yoki tayinlanadi, yoki saylanadi, qaysi usul qo‘llanishidan qat’iy nazar, u o‘zidan-o‘zi vujudga kelmaydi, aksincha, u ijtimoiy tuzilmaning turli elementlari nazorati ostida amalga oshirilib, maqsadga yo‘naltirilgan bo‘ladi;

4) yetakchi lik nisbatan barqaror emas, sardor paydo bo‘lishi guruhning kayfiyatiga sezilarli darajada bog‘liq, shu paytda rahbariyat – barqaror holat;

5) bo‘ysungan shaxslar ustidan rahbarlikni amalga oshirish, sardorlikdan farq qilib, turli sanksiyalarning aniqroq tizimiga ega, sardor qo‘lida bunday sanksiyalar tizimi mavjud emas;

6) rahbar tomonidan (va, umuman, rahbariyat tizimida) qaror qabul qilinishi murakkabroq va ko‘plab turli vaziyatlar va fikrlar bilan asoslangan, bunda ushbu vaziyat va fikrlar mazkur guruhda bo‘lishi shart emas, sardor esa, bevosita guruhiy faoliyatga tegishli qarorlarni qabul qiladi;

7) yetakchi ning faoliyat doirasi – asosan u sardor bo‘lgan kichik guruhdir, rahbarning faoliyat doirasi kengroq, chunki u kichik guruhni keng ijtimoiy tizimda ifodalaydi. Xuddi shunday farqlarni (biroz o‘zgartirishlar bilan) boshqa mualliflar ham keltirishgan.

Vujudga kelishi bo‘yicha yetakchi va rahbar farqlansa ham, ularning faoliyatlarining psixologik tavsiflarida umumiy xususiyatlar mavjud, ularning faoliyatlarini ta’riflaganda, aslida bu unchalik to‘g‘ri bo‘lmasa ham, ularni bir-biriga deyarli teng deb aytishga asos bo‘ladi. yetakchilik guruhning ayrim a’zolari xulqining sof psixologik tavsifi, rahbariyat, eng avvalo, boshqarish va bo‘ysunish rollarning taqsimlanishi nuqtayi nazaridan, ko‘proq darajada munosabatlarning ijtimoiy tavsifi. Yetakchilikdan farqlanib, rahbariyat jamiyat tomonidan tartibga solinadigan huquqiy jarayon sifatida harakat qiladi.

Yetakchi tarafdorlarini nafaqat yo‘naltiradi va ortidan ergashtiradi, u ularni ortidan ergashtirishni istaydi, tarafdorlari esa, uning ketidan shunchaki ergashishmaydi, ular yetakchi ketidan borishni istashadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, odamlar sardorning bilim va qobiliyatlariga guruhning boshqa a’zolarining tegishli sifatlariga nisbatan yuqoriroq baho berishadi. Odam nima uchun sardor bo‘ladi? Xususiyatlar konsepsiyasiga muvofiq, yetakchi ma’lum xususiyatlarga, qobiliyatlarga ega, bular hisobiga u yetakchi bo‘lib qoladi. Yetakchiga quyidagi psixologik sifatlar xos: o‘ziga ishonch, o‘tkir va tez moslanuvchan aql, o‘z ishini puxta bilish kabi omilkorlik, kuchli iroda, odamlar psixologiyasini tushunish qobiliyati, tashkilotchi qobiliyatlari. Ammo haqiqiy guruhlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ayrim vaqtda aytib o‘tilgan qobiliyatlarga ega bo‘lmagan odam yetakchi bo‘lib qoladi va, boshqa tarafdand, bunday qobiliyatlarga ega inson bo‘lib, u yetakchi bo‘lmasligi mumkin. Vaziyatli sardorlik nazariyasi vujudga kelgan, unga asosan, guruhda biron bir vaziyat vujudga kelganda, mazkur guruh uchun vaziyatni optimal ravishda hal etish uchun zarur sifat, xususiyat, qobiliyat, tajribaga ega shaxs sardor bo‘lib qoladi. Har xil vaziyatlarda guruh o‘z yetakchisi sifatida har xil odamlarni ilgari suradi.

B.D.Parigin tadqiqotlarida yetakchi turlari faoliyat turiga (universal yetakchi, vaziyatli yetakchi), uning mazmuniga (ilhomlovchi, sardor, ijrochi yetakchi, ishbilarmon yetakchi, emotsional yetakchi) va rahbariyat usuliga (avtoritar yetakchi, demokratik yetakchi, liberal yetakchi) bog‘liq holda keltirilgan.

Shunday qilib, faqat ushbu guruhni u yoki bu guruhli vaziyatlar, muammo, masala yechimiga olib keladigan, guruh uchun eng muhim bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarga ega, guruhga mos bo‘lgan qadriyatlarga ega bo‘lgan shaxs guruh yetakchisi bo‘la oladi. Yetakchi – bu go‘yo guruh ko‘zgusi, yetakchi ayni shu ma’lum guruhda paydo bo‘ladi, guruh qanday bo‘lsa, yetakchi ham shunday bo‘ladi. Tashkilotchi qobiliyatlariga ega yetakchi vaziyatni tez va to‘g‘ri

baholay oladi, birinchi navbatda, faollashtirilishi kerak bo'lgan masalalarni ajratib oladi, amalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihani behuda urinishlardan farqlaydi, vazifalarning hal etilishi muddatini aniq hisoblab chiqadi.

Odamlarni boshqarish iste'dodi ijtimoiy-psixologik sifatlar va xususiyatlarning katta majmuiga asoslanadi. Ommaning o'z sardoriga ishonchi va mehri ham katta ahamiyatga ega. Yetakchiga ishonch – bu uning yuksak fazilatlari, yutuq va vakolatlarini tan olish, uning harakatlarning zaruratini, to'g'riligini va samaradorligini tan olishdir. Bu obro' egasi bilan ichki rozilik, uning ko'rsatmalariga muvofiq harakat qilishga tayyorgarlik. Majburlash vositalari yo'qligida faqat ishonch asosida o'z ketidan ergashtirish mumkin. Ushbu ishonch odamlar sardorlari bilan ichki rozilikda va birlikda bo'lganligini ko'rsatadi. Yetakchi jamoaga qattiq darajada qaram. Guruh, yetakchi ko'rinishi - modelga ega bo'lib, haqiqiy yetakchidan, bir tomonidan, shu modelga mos kelishni talab qiladi, ikkinchi tarafdin, yetakchidan guruh manfaatlarini ifodalash talab etiladi. Bu tuzilmalar, birinchidan, guruh faolligining ishga tushishi, guruh harakatlari muvofiqlashtirilishi va uning tashqi aloqalari va nufuzi ta'minlanishi uchun mo'ljallangan. Ikkinchidan, buning uchun guruhdagi shaxslararo munosabatlarni tartibga solish kerak, guruh a'zolariga shaxsiy ko'makni ta'minlash kerak. Aytib o'tilgan masalalar hal etilishi quyidagi vazifalar orqali amalga oshirishili mumkin:

- a) axborot-tahlil;
- b) dastur ishlab chiqilishi;
- d) qaror qabul qilinishi;
- e) qarorlar ijrosini tashkillashtirish.

Yetakchiga haqiqiy borliqning oqilona tahlili bog'liq. Olib borilgan tahlil natijasida olingan xulosalar asosida, xulq yo'li - harakatlar dasturi shakllanadi va qarorlar qabul qilinadi. Bundan so'ng kuch va vositalar jalb etilishi boshlanadi. Yetakchi qabul qilingan qarorlar ijrosini tashkil etish uchun, butun guruh yoki uning aksariyat qismining madadiga erishishi kerak. Tajribali, vaziyatga aql bilan qaraydigan rahbar, uning tayyorgarlik darajasi va tajribasi qancha yuqori bo'lishidan qat'iy nazar, u faqat o'ziga ishonishi mumkin emasligini tushunadi va boshqarish faoliyatiga vijdonli va tashabbuskor xodimlarni jalb qiladi. Aksariyat hollarda aynan atrofdagi kishilarga qarab, yetakchi iste'dodi darajasiga baho berish mumkin. Bo'ysungan xodimlar bilan rahbarning o'zaro munosabatlari, jamoaning psixologik iqlimi, jamoa ishi natijalari rahbar tomonidan amalga oshirilayotgan boshqarish usuliga bog'liq.

Rahbar faoliyatining psixologik mazmunini o'rganish uchun, sardorlik mexanizmi to'g'risidagi bilimlardan foydalanish mumkin, ammo faqat ushbu mexanizmni bilish, rahbar faoliyatining to'liq tavsifini bermaydi. Shuning uchun mazkur muammoning tahlilida ketma-ketlik quyidagicha bo'lishi kerak: avval

sardorlik mexanizmining umumiy tasniflarini aniqlash, so'ng ushbu mexanizmni rahbarning aniq faoliyati doirasida talqin qilish lozim.

Kichik guruhning a'zolarining o'zaro ta'sirlanishi natijasida aniq vaziyatni hal etish uchun guruhni tashkil etish uchun ilgari surilgan shaxs, guruh yetakchisi bo'ladi. U guruhning boshqa a'zolariga nisbatan faollik, ishtirok va mazkur vazifani hal etishda ta'sir ko'rsatishning yuqoriroq darajasini namoyon qiladi. Shunday qilib, sardor aniq vaziyatda paydo bo'ladi, o'ziga ma'lum bir vazifalarni oladi. Guruhning qolgan a'zolari uning yetakchiligini qabul qilishadi, ya'ni sardor bilan u yetaklaydigan, ular ketidan ergashishlarini nazarda tutgan munosabatlarni qurishadi. Yetakchilikni guruhiy hodisa sifatida ko'rish kerak: yetakchi yakka holda bo'lishi mumkin emas, u hamisha guruh tuzilmasining qismi bo'ladi, yetakchilik esa, mazkur tuzilmada munosabatlar tizimidir. Shuning uchun yetakchilik fenomeni kichik guruhning dinamik jarayonlariga aloqadordir.

25.2. Yetakchilik nazariyalari.

Yetakchilik tushunchasi vujudga kelishga bir qator nazariyalar asos bo'ladi. Ular quyidagilarni tashkil etadi. "**Xususiyatlar nazariyasi**" (ba'zan uni "xarizmatik nazariya" deb atashadi, "xarizma", ya'ni "xudo marhamati", turli din tizimlarida odamga tushgan marhamat sifatida izohlangan). XIX asr oxiri - XX asr boshidagi nemis psixologiyasi qoidalariga asoslangan va butun e'tiborini sardorning tug'ma sifatlariga qaratgan. Mazkur nazariyaga muvofiq, faqat ma'lum bir shaxsiy xususiyatlarga ega yoki ma'lum bir psixologik qobiliyatlarning to'plamiga ega shaxs yetakchi bo'la oladi. Turli mualliflar ushbu zarur xususiyat yoki tavsiflarni ajratishga harakat qilishadi. Masalan, amerika ijtimoiy psixologiyasida ushbu xususiyatlar to'plamini chuqur sinchiklab o'rganish uchun test sinovlari tizimini tuzib chiqish kerakligi masalasi qo'yiladi. Ammo, juda tez vaqt ichida bunday xususiyatlar ro'yxatini tuzish imkoniyati yo'qligi ma'lum bo'ldi. Shunda 1940-yilda K.Berd turli tadqiqotchilar tomonidan ta'riflab o'tilgan va "yetakchi" xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan 79 dan iborat xususiyatlar ro'yxatini tuzib chiqadi. Ular qatoridan: "tashabbuskorlik", "dilkashlik", "hazilkashlik", "o'ziga ishonch", "xayrixohlik" kabi atamalar o'rin oldi. Keyinchalik R.Stogdill ro'yxatga "hushyorlik", "mashhurlik", "agressivlik" tushunchalarini qo'shdi. Ammo turli mualliflar tomonidan xususiyatlar ro'yxatiga kiritilgan atamalar mustahkam o'ringa ega bo'lmadi: ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarning 65% faqat bir marotaba tilga olinganligi, 16-20% – ikki marotaba, 4-5% – uch marotaba va atigi 5% – to'rt marotaba belgilanib o'tilganligi aniqlandi. Ro'yxatdagi "iroda" va "aql" kabi xususiyatlar nisbatan ko'proq uchraganligi va ular yetakchilik faoliyatida

o'ta muhim o'ringa ega bo'lgani e'tirof etildi. Lekin, berilgan boshqa atamalar o'zining nisbiyligi bilan ajralib turgani tuzilgan ro'yxatning to'laqonli va haqqoniy emasligini isbotladi. Stogdill ro'yxatiga yangi xususiyatlar qo'shilgan qo'shimcha ro'yxat chop etildi, ammo ushbu hodisadan so'ng xususiyatlar nazariyasi batamom rad etilganligi ma'lum bo'ldi. Mazkur nazariyaga qarshi bo'lgan G.Jennings e'tirozi matbuotda chop etildi. Uning fikricha, xususiyatlar nazariyasi yetakchning emas, balki ko'proq eksperimentator (tajriba o'tkazuvchi)ning xususiyatlarini ifodalaganligi ko'zga tashlandi.

Xususiyatlar nazariyasi qatoridan "**vaziyatli nazariya**" deb nomlangan ta'limot ham o'rin oldi. Bu konseptual sxemada xususiyatlar nazariyasi to'liq rad etilmaydi, ammo asosan yetakchilik – vaziyat hosilasi deb ta'kidlanadi. Guruhiy hayotning turli vaziyatlarida uning a'zolari boshqalarga nisbatan, hech bo'lmasa, bitta qobiliyati bilan ustunroq turishi va mazkur vaziyatda ayni shu qobiliyati o'rqli yetakchi bo'la olishi ehtimoli bor ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunda tug'ma qobiliyatlar to'g'risidagi g'oya rad etilib, o'rniga, aniq vaziyatdan kelib chiqqan hodisa tufayli yetakchilik qobiliyati o'ziga xos ahamiyat kasb etishi ma'lum bo'ladi (albatta, boshqa shaxslarda ushbu qobiliyatning mavjudligi rad etilmagan holda).

Yetakchilik xususiyatlari, qobiliyatlari va fazilatlarini nisbiy bo'lib qoldi. Vaziyatli sardorlikning ushbu joyi J.Piaje tomonidan tanqid etildi, uning fikricha, bunday yondashuvda sardor shaxsiyati faolligi to'g'risidagi masala to'liq rad etiladi, u qandaydir tayinsiz odamga aylanib qolmoqda. Bunday fikrlarda aniq bo'lib turgan ziddiyatlarni yengish uchun, E.Xartli to'rtta "model"ni taklif etdi, ular nima uchun ayrim odamlar sardorga aylanishlarini va ular sardor bo'lishlarini faqat vaziyat belgilamasligini tushunishga yordam beradi. Xartli fikrlashicha, **birinchidan**, agar kimdir biron bir vaziyatda sardor bo'lib qolsa, boshqa vaziyatda ham u sardor bo'lib qolishi istisno qilinmaydi. **Ikkinchidan**, stereotiplar ta'siri ostida, guruh a'zolari ma'lum bir vaziyatdagi sardorni umuman sardor deb ko'rishadi. **Uchinchidan**, odam bitta vaziyatda sardor bo'lib qolib, obro'ga erishadi va keyinchalik odamlar uni sardor sifatida tanlashlariga ayni shu obro'si yordam beradi. **To'rtinchidan**, ayrim odamlar "lavozim izlash"ga moyil bo'lishadi va ularning xulqlari shunday bo'ladiki, boshqalar ularga ushbu "lavozimlarni berishadi.

Yetakchilik xususiyatlari nisbiyligini yengish uchun, ushbu fikrlarni yetarli deb hisoblash uchun asoslar mavjud emas. Ilm tarixida ko'p uchraydigan vaziyat shundaki, ikkita bunday chegaraviy yondashuv, odatda, uchinchi yondashuvni vujudga keltiradi. Uchinchi variant yetakchilikning tizimiy nazariyasida aks ettirilgan, unga ko'ra yetakchilik guruhda shaxslararo munosabatlarni tashkil etish tizimi sifatida ko'riladi, sardor esa, ushbu jarayonni boshqaradigan subyektdir. Bunday yondashuvda yetakchilik guruh funksiyasi sifatida talqin

etiladi va uni guruh maqsadlari va vazifalari nuqtayi nazaridan o'rganish kerak, ammo bunda yetakchilik shaxsiyati tuzilishini ham rad etish kerak emas. Guruh hayotiga tegishli boshqa o'zgaruvchan ko'rsatkichlarni ham inobatga olish tavsiya etiladi. Bular ichida, masalan, guruh mavjudligining davomiyligi. Bu ma'noda tizimiy nazariya bir qator ustunlikka ega. Oddiy yetakchilik emas, balki boshqaruv to'g'risida gapirganda, ular ayon: bu borada F.Filler taklif etgan boshqarish samaradorligining ehtimollik modeli o'ta ommaviy.

25.3. Rahbar obro'si va hokimiyatning zarurligi.

«**Obro'**» (lotincha auctoritas so'zidan - hukm, nufuz, vazn, namuna) – keng ma'noda ijtimoiy hayotning turli sohalarida biron bir shaxs yoki tashkilotning hamma tan olgan nufuzidir. Tor ma'noda – rahbar odamlarni boshqara olishi uchun unga zarur bo'lgan hukumat munosabatlari shakli.

Obro' mavjud emasligi boshqaruvni yo'qotish bilan teng hodisadir. Rahbar obro'si shaxs yoki bir nechta shaxsning (obro' egalari) boshqa odamlarning xulq va fikrlarini majburlamagan holda yo'naltirish qobiliyati bilan ifodalanadi. Obro' mavjudligi odamning ko'p sonli hayotiy muammolarni oqilona baholashga imkoniyatlari cheklanganligi va obro' egalarining fikrlariga ishonish zarurati bilan bog'langan.

Obro' haqiqiy (samarali) va soxta (samarasiz) obro'ga taqsimlanadi.

Samarali obro' orttirish – odamlarning manfaatlariga mos kelgan ta'sir, shuning uchun odamlar o'z ixtiyorlari bilan unga bo'ysunishadi. Samarali obro' – rahbar ta'sirining odamlarning o'z manfaatlari bilan birlashishidir. **Soxta obro'** orttirish – odamlarni boshqarayotgan shaxs va odamlarning manfaatlari bir-biriga zid bo'lishiga asoslangan. O'z manfaatlarini ko'zlab, rahbar yolg'on, abjirlik, tilyog'lamalik, odamlar manfaatlariga zid bo'lgan ijtimoiy-psixologik o'yinlar qiladi.

“Obro'” muammosini mantiqiy o'rganish, ushbu masalaning “tahdid qiluvchi obro' kompleksi” vujudga kelishiga tegishli yana bir tarafini ajratishga imkon beradi.

“Tahdid so'lovchi obro' kompleksi” boshqarish faoliyatida quyidagilar asosida vujudga keladi: a) obro'ni yo'qotish bilan bog'liq bo'lgan doimiy qo'rquv, b) uni har qanday usul bilan saqlab qolish istagi (ko'pincha bu vaziyatni kadrlar siyosatida o'zgarishlar ro'y berganda uchratish mumkin).

Samarali rahbar obro'yi barqaror bo'lishi uchun, uning shaxsiyati egallab turgan lavozimi qo'yiladigan talablarga mos kelishi kerak. O'z navbatida, rahbar qarorlarida va xodimlar ongida rahbarning shaxsiy salohiyati ham aks ettishi lozim.

Tashkilotning turli bo‘linmalarida ishchi xodimlar tarkibidan tashkil topgan guruhlar tuziladi. Bu guruhlar rahbar atrofidagi o‘ziga xos muhitni xosil qiladi. Buday xolatning bo‘lmasligi rahbarga belgilangan vazifalarini samarali bajarishga imkoniyat bermaydi. Aksariyat rahbarlar o‘z faoliyatida o‘zi raxbarlik qilayotgan tashkilotidan tashqari bo‘lgan odamlar, ya’ni yetkazib beruvchilar, buyurtmachilar, raqiblari, ularning faoliyatlarini tartibga soluvchi kasaba uyushmalari va idoralarga o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

Rahbar xodimlarning harakatlari aniq belgilangan vakolatlarga ega bo‘lgan vaziyatda ham muvaffaqiyatli amalga oshmasligi mumkin. Chunki zamonaviy ishchilar avvalgiday an’anaviy hukumatga bo‘ysunishdan bosh tortadi va norosiliklar bildiradi. Bunday muammolar vujudga kelganda ham, rahbar rasmiy ravishda unga bo‘ysunmaydigan ishchi-xodimlarga o‘z e’tiborini qaratadi, ularga bog‘liq bo‘ladi.

Ta’sir o‘tkazishning barcha shakllari odamlarni boshqa shaxsning istaklarini bajarishga undaydi, bunda ular tomonidan qondirilmagan ehtiyojlar qondiriladi yoki ularni qondirilishiga to‘sqinlik ko‘rsatadi.

Ta’sir kuchi hukumatning turli shakllarida belgilanishi mumkin. Hukumat va yetakchilik (boshqaruv) sohasida tadqiqotchilar tomonidan hukumat asoslarining qulay tasnifini ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, hukumatning beshta asosiy shakli namo‘yon bo‘ladi:

- 1) majburlashga asoslangan hukumat;
- 2) mukofotlashga asoslangan hukumat;
- 3) ekspert hukumati;
- 4) etalon hukumati (misol, namuna hukumati);
- 5) qonuniy hukumat.

Hukumatning barcha turlari rahbarlarga ishchi xodimlarni mehnat qilishga majburlash ishlarini amalga oshirishga imkoniyatlar beradi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Rahbar, yetakchilik, rahbarlik, xavf soluvchi mavqe, mavqe turlari, samarali mavqe, xarizmatik nazariya, vaziyat nazariyasi, davomiylik nazariyasi, majmuaviy nazariya, shaxslararo munosabatlar, mikromuhit, makromuhit, kichik guruhlar, muvaffaqiyatli rahbar, ta’sir ko‘rsatish jarayoni.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Rahbar shaxsiga umumiy tavsif.
2. Yetakchilik va rahbarlik fenomenlari.
3. “Xavf soluvchi mavqe” tushunchasi.
4. Mavqe turlari.
5. Yetakchilik nazariyalariga tavsif.

6. Yetakchining ma'naviy-axloqiy qiyofasi.
7. Rahbar va ishchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va ularni tartibga solish shart-sharoitlari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. - Qarshi: Nasaf, 2005.
2. Кабаченко И. Психология организаторской и управленческой деятельности. Учебник. - С-Пб.: Питер, 2003.
3. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. Elektron darslik. -T., 2008.
4. Машков В. Психология управления. - М., 2000.
5. Усманова А. А. Психология управления. Электронный учебник. - Т., 2008.
6. Усманова А. А. Психология управления. - Т., 2010.
7. Якубова З.Ю. и др. Психология менеджмента. - Т.: ЖИДУ, 2002.
8. Nayitov O.E. Psixologik iqtisodiyot. - Т., 2006.

26 – MAVZU RAHBAR IMIDJI

26.1. Imidj tushunchasiga umumiy tavsiv.

26.2. Rahbarning Ijtimoiy-psixologik qiyofasi.

26.1. Imidj tushunchasiga umumiy tavsiv.

«Sizning ko‘rinishingiz – bu Siz atrofdagi dunyoga ko‘rsatayotgan suratingizdir. Ko‘rinishingiz Sizga qarshi emas, Siz uchun ishlashi kerak».

“Imidj ortida biz inson yoki tashkilot mazmunini ko‘ramiz va o‘z munosabatlarimizni imidjga tayanib quramiz”. “Qanchalik imidjimizni aniqroq tanlab ko‘rsak, shunchalik kommunikatsiya samarali bo‘ladi”(L.Braun).

“Stereotipni buzishda hech qanday ma‘no yo‘q, mavjud stereotipga asoslangan holda, o‘z stereotipingizni qurishingiz kerak. Imidj - bu yangi stereotip, biz faqat bizni qiziqtirayotgan auditoriyani unga yaqinlashtiramiz”.

Insonning konstitutsional va xulqiy xususiyatlari majmuasi sifatida tushuniladigan imidj, odamlar bilan aloqaning boshlang‘ich davrida alohida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. U odamlar e‘tiborini ularga murojaat qilgan odamning taklifiga qaratishga yordam beradi. Agar odamning tashqi ko‘rinishi ishonch tug‘dirmasa, uning xulqida kamchiliklar mavjud bo‘lsa, odamlar u bilan uzoq muddatli, ishonchga asoslangan munosabatga kirishmaydi. Rahbar ishida imidj ahamiyatini tushunish uchun bitta solishtirish ahamiyatli. O‘zini noto‘g‘ri taqdim qilgan rahbar, ishbilarmon obro‘sigga erishishi uchun, odamlar bilan birinchi uchrashuvda o‘z haqida ijobiy taassurot qoldirgan rahbarga nisbatan 4 marotaba ko‘proq vaqt sarflashi kerak.

L.Braun fikricha, shaxsning tashqi ko‘rinishi, ovozi, suhbat olib borish qobiliyati kabi sifatleri, odam mavqesida hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Albatta, odam mavqega erishishi imkoniyatlariga baho berganda faqat buni asosiy mezon sifatida olish to‘g‘ri emasligi tushunarli hol. Muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlari ishchining odamlarga ma‘qul kelgan tashqi ko‘rinishidan iborat emas, aksincha, bu fikrni yana bir marotaba takrorlab o‘tamiz, u ma‘qul tashqi ko‘rinish va ma‘qul ichki mazmun o‘rtasida ziddiyat mavjud emasligidan iborat. Ichki mazmun deganda, odam intellekti, uning kuchli psixikasi va ularga asoslangan faoliyati tushuniladi.

Hozirgi kun talablari bozor munosabatlari rivojlanishining dolzarbligini isbotlamoqda. Katta biznes va hayotning barcha taraflarining siyosatlashuvi oldimizga yangi talab qo‘yadi - barchaning ko‘zi oldida, odam o‘zini namoyish qilishi kerak. Bu yerda asosiy qoida - “o‘zimni sotishim uchun, men yaxshi taassurot qoldirishim kerak” (o‘zini-o‘zi taqdim qilish). Istagimizdan qat‘iy

nazar, biz o‘zimiz tegishli u yoki bu ijtimoiy guruhning u yoki bu belgisini ifodalaymiz. Shuning uchun, ijtimoiy ierarxiyada o‘z martabamizni oshirmoqchi bo‘lsak, o‘zimizda ko‘p narsalarni o‘zgartirishimiz, mutaxassislar maslahatlari asosida o‘z imidjimiz ustida ishlashimiz kerak.

Rahbar siymosi muammosini tadqiq qiluvchi ayrim olimlar rahbarning tashqi qoplamasi va uning xulqining tashqi belgilarini sun‘iy ravishda ajratib olib, uni xorijiy so‘z bilan nomlab (“imidj”), o‘tkazilgan tadqiqot manfaatida shaxslarning fikrini aniqlashni “unutishdi”. Ushbu yondashuvning kamchiligi shuki, unda 12 ta firma xodimlariga murojaat qilish bilan kifoyalangan. Ularga atigi bitta savol berilgan: o‘zingizning bevosita rahbaringizning tashqi ko‘rinishi qanday bo‘lishini istar edingiz? Ushbu so‘roq natijasida 42 (15Q27) ta ma‘qullangan xususiyatdan iborat rahbar ko‘rinishining modeli yaratildi. Quyida uchbu sifatlar ro‘yxati keltirilgan:

- odamning ishda muvaffaqiyatliligi;
- jasurlik, tavakkalchilikka tayyorlik;
- boshqarishning sardorcha turi;
- o‘ziga mas‘uliyatni olishga tayyorlik;
- kutilayotgan foydadan ortiq foyda olingan taqdirda, tashkilotning barcha xodimlari bilan daromadlarni bo‘lishi qobiliyati;
- ish muvaffaqiyatsiz bo‘lgan taqdirda barcha bilan teng azoblanish;
- odamlar bilan muloqotda oddiylik;
- mustaqil ravishda tadbirkorlik muvaffaqiyatiga erisha olmaydigan odamlarga nisbatan kamsitmaydigan marhamatlilik;
- odamlarga o‘zlarini namoyon qilish, o‘z shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilishga yo‘l berish;
- xodimlarning shaxsiy ehtiyojlarini bilish;
- xushmuomalalik;
- ishga sadoqat;
- muvaffaqiyatsizlikda boshqalarni ayblamaslik;
- xayrixohlik;
- hamma narsani o‘z vaqtida qilish qobiliyati;
- murakkab vaziyatlarda yumor tuyg‘usini saqlash qobiliyati;
- kiyimida zebolik;
- odamlarga obyektiv baho berish qobiliyati;
- tanqidni o‘z muvaffaqiyatlarining zaxirasi sifatida bila olish;
- yaxshi tarafga o‘zgarishga qodirlik;
- dasturxon atrofida o‘zini tuta bilish;
- muvaffaqiyatsizlik yoki ish barbod bo‘lganda, ishni boshidan boshlash qobiliyati;
- kayfiyat barqarorligi;

- odamlar bilan maslahatlashishni bilish;
- izchillik (tuyg‘ular ustidan nazorat);
- odamlar ehtiyojlariga ochiqlik;
- ortiqcha, keraksiz ishni qilmaslik va optimal sxemalar bo‘yicha ishlashni bilish ko‘rinishida ishbilarmonlik;
- nutq qisqaligi, moslashuvi va aniqligi (rasmiy ma’ruza yoki shaxsiy suhbat bo‘lishidan qat’iy nazar);
- ahil (yaxshirog‘i ko‘p farzandli) oila mavjudligi (sog‘lom oila qura olmagan rahbar ko‘pchilikda salbiy taassurot qoldiradi; bunday rahbarlarda odamlar jismoniy va ruhiy kamchiliklarni ko‘rishadi);
- odamlarning qadriyatlarini kamsitmasdan tanqid qila olish;
- ishonchlilik – o‘z va’dalarini bajarishga moyillik va bajara olish;
- o‘zining noto‘g‘ri qarorlari va o‘zini oqlamaydigan harakatlaridan voz kechishni bilish;
- bo‘ysungan xodimlar bilan hamkorlikda ishlay olish;
- o‘ziga ishonch;
- pastkashlik mavjud emasligi;
- haqqoniylik, vijdonlilik;
- har qanday faoliyatni o‘z kuchi bilan bajarishga moyillik;
- maqsadga erishishga to‘sqinlik qilayotgan har qanday tashqi ta’sirga qarshilik qila olish;
- maqsadga yo‘naltirilganlik;
- qabul qilinayotgan qarorlarning oqibatlarini oldindan bila olish;
- turmushda kamtarlik;
- odoblilik (tadqiqot E.S.Jarikov va A.I. Elin tomonidan o‘tkazilgan).

Yuqorida xodimning odamlar uchun eng aniq, eng istalgan belgilari keltirilgan. Ilmiy model bir qancha murakkabroq. Unda nafaqat yuqorida keltirilgan xususiyat va sifatlar, balki ushbu sifatarni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar hamda ijobiy xususiyatlarga qarama-qarshi xususiyatlar ham qayd etiladi. Komil rahbarlar bo‘lmaydi. Ularning psixologik tuzilishlarida odamlarda ijobiy taassurot qoldiradigan sifatlar ham, salbiy taassurot qoldiradigan sifatlar ham mavjud. Psixologik nuqtayi nazarda haqiqiy rahbar – bu qarama-qarshi xususiyatlar birligidir. Ularning nisbati rahbarning shaxsiy portretini tashkil etadi. Agar odam uni yomon tarafdin ko‘rsatadigan narsani yenga olsa, u boshqa odamdan ancha yaxshiroq ko‘rinadigan bo‘lishi mumkin.

26.2. Rahbarning ijtimoiy-psixologik qiyofasi.

Qiyofani shakllantirish muammosini ma’lum vaqt ichida hal etib bo‘lmaydi. Bu jarayon. Ushbu jarayon ijobiy natijani to‘plab borishi uchun uning doimiy ilmiy kuzatuv kerak. Bozor – o‘zgaruvchan tizim. Ba’zida u

tadbirkorga boyish uchun ajoyib imkoniyatlar beradi, ba’zida teskarisi. Ushbu vaziyatlarning har birida tadbirkor bosimga uchraydi, u psixikasini salbiy tarfaga o’zgartirib yuborishi mumkin. Tadbirkorga xulq va faoliyatning dinamik barqaror stereotipini shakllantirish bilimiga asoslangan doimiy psixologik ko‘mak kerak, uning stressga chidamliligi ustidan doimiy ish olib borilishi lozim.

Ushbu uyg‘unlanish, so‘ng tadbirkorning ijobiy qiyofasini saqlab qolish jarayonida birinchi qadam, tadbirkorning ijtimoiy ma’qul imidjini shakllantirish muammolari ustidan ishga kirishish hisoblanadi. Ikkinchi qadam, ushbu bilimlarni tadbirkorlik faoliyatida qo‘llashni biladigan mutaxassislarni tayyorlash. Uchinchi qadam – ushbu mutaxassislarni, jamiyatning barcha tizimlariga haqiqatan ta’sir o‘tkazuvchi bozor subyektlarining demokratiya, insonparvarlik va adolat qonuniyati bo‘yicha yashaydigan ko‘rinishini ta’minlash, shuningdek, tadbirkorlik tashkilotlarida uzluksiz ishni olib borish uchun biznes tarkibiga kiritish. Tadbirkor modeli – bu barkamol tuzilish. Unga nisbatan nafaqat muvaffaqiyatli biznes uchun zarur insoniy funksional sifatlarini o‘lchash bo‘yicha psixodiagnostik vositalar shakllanadi, balki taqdimot sifatleri ham shakllanishi kerak. Ularsiz tadbirkorlik faoliyati ijobiy qabul qilinmaydi.

Hozirgi paytda samarali imidjni shakllantirish standartlashtirilgan uslubiyat (SIShSU) qo‘llaniladi. U rahbar imidjini tahlil qilish imkoniyatlari bilan bir qatorda, o‘z imidjingizning salbiy va ijobiy taraflarini kuzatish imkoniyatini beradi. Bu rahbarga o‘z faoliyat rejalarini hamda o‘z xulqini tartibga solishga yordam beradi, xodimlarga esa – rahbarning ijtimoiy qulay ko‘rinishilarini shakllantirishning muvaffaqiyatlari to‘g‘risida ma’lumotni tizimiy ravishda olish imkoniyat yaratadi.

Tadbirkorning tashqi ko‘rinishi va xulqi bevosita uning asab tizimiga bog‘liq. Odamlar paranoya darajasida gumonlovchi yoki psixopatik ravishda dushmancha munosabatda bo‘lganlarni yomon qabul qilishadi hamda xulqda depressiv holatlarni va vasvaslikni ma’qullashmaydi. Shuning uchun oxirgi paytda stressga bardosh berishning zamonaviy psixologik usullari ishlab chiqilgan.

Stressga bardosh berishning ishlab chiqilgan tizimi stresslarni obyektivlash konsepsiyasiga asoslangan va bozor sharoitida inson faoliyatining deyarli barcha taraflarin hamrab oladi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Imidj, imidj turlari, rahbar imidji, imidj nazariyalari, dastlabki tasavvur, rahbar usuli, universal model, individual xususiyatlar, sog‘lom turumush tarzi, ijobiy qiyofa, shaxsiy taqdimot, tashqi vositalar, yetakchilik qobiliyati, ishga

sadoqatlilik, xolisona baholash, ishbilarmonlik etiketi, samimiy munosabat, tanqidiy yondashuv, noo‘rin qarorlarni cheklash, ma’naviy va jismoniy yetuklik.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Rahbar imidji tushunchasi.
2. Rahbar imidji turlari.
3. Rahbar imidjini tuzish sabablari.
4. “Dastlabki tasavvur samarasi” tushunchasi.
5. Imidj va boshqaruv usuli tizimi.
6. Rahbar imidjining universal modeli.
7. Shaxsning individual-tipologik xususiyatlari.
8. Imidjning bozor munosabatlariga mos kelishi.
9. Imidjelogiya fanining mazmun-mohiyati.
10. Imidjni tuzishdagi an’anaviy va zamonaviy tartib-qoidalar.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Кабаченко И. Психология организаторской и управленческой деятельности. Учебник. –С-Пб.: Питер, 2003.
2. Mahmudov I. Boshqaruv psixologiyasi. Elektron darslik. –Т., 2008.
3. Машков В. Психология управления – М., 2000.
4. Усманова А. А. Психология управления. Электронный учебник. –Т., 2008.
5. Усманова А. А. Психология управления. – Т., 2010.
6. Якубова З.Ю. и др. Психология менеджмента. – Т.: ЖИДУ., 2002.
7. Nayitov O.E. Psixologik iqtisod. – Т., 2006.

27 - MAVZU

SIYOSIY MADANIYAT SHAXSNING IJTIMOIIY YO‘NALGANLIGI VA QADRIYATLARINI SHAKLLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

27.1. Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida.

27.2. Siyosiy madaniyat – yoshlarning qadriyatlarini belgilab beruvchi omil sifatida.

27.3. Yoshlarning siyosiy faolligi.

27.1. Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida.

Siyosiy madaniyat – umumiy madaniyatning tarkibiy qismi, siyosiy tajribaning, siyosiy bilimlar va moyilliklar sifatining, xulq-atvor andozalarining, qadriyatlarga munosabatning, siyosiy subyektlar faoliyatining jamuljam ko‘rsatkichi; jamiyat siyosiy hayot tarzi va uslubining umumiy tavsifi. Keng ma‘noda siyosiy madaniyat siyosat sohasidagi ijtimoiy birliklar va ayrim shaxslarning siyosiy tajribasi va xotirasini, ularning siyosiy xulq-atvorga ta‘sir ko‘rsatuvchi mo‘ljallari va ko‘nikmalarini o‘zida ifodalaydi.

“Siyosiy madaniyat” atamasining ham, siyosiy madaniyat tushunchasining ham ko‘plabi talqinlari mavjud. Siyosiy madaniyat – bu siyosiy obyektlarga taalluqli muayyan qadriyatlar, mo‘ljallar, xulq-atvor andozalarining mexanik yig‘indisi emas. Siyosiy madaniyat - o‘ziga xos harakat tarzi va usuli bo‘lib, bu, eng avvalo, umuman madaniyat va, shu jumladan, siyosiy madaniyat tushunchasining mohiyatini aks ettiradi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy madaniyat – bu jamiyatda keng tarqalgan qadriyatlargina emas, balki ularning tizim hosil qiluvchi tuzilmalardagi in‘ikosi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta‘siri hamdir. Bunda siyosiy madaniyatning boshqa elementlari, masalan, mo‘ljallar, normalar va hokazolarning ta‘sirini hisobga olish ham muhimdir. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, siyosiy madaniyat – bu madaniyat va siyosatning muayyan sintezi. Ayni holda ma‘no hosil qiluvchi komponent sifatida siyosiy madaniyatning ijtimoiy-madaniy mazmuni amal qiladi¹.

Siyosiy madaniyat – ziddiyatlarga to‘la tizim; unda o‘tmish, hozirgi zamon va yaqin kelajak bir-biri bilan faol aloqaga kirishadi. Shu ma‘noda, muayyan

¹Усманова А.А. Психологические особенности политической активности молодежи и ее поведения как части электората Жур. “Мир психологии” № 4, -М., 2009. – С.236-237.

tarixiy kontinuumdan qat'iy nazar, har qanday millat siyosiy madaniyatining o'ziga xosligi to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Siyosiy-madaniy normalar, qadriyatlar va mo'ljallar siyosiy xulq-atvor hal qiluvchi rol o'ynaydigan siyosiy jarayonlar natijasini ko'p jihatdan belgilaydi, degan nuqtayi nazar mavjud. S.Uelch fikriga ko'ra, siyosiy xulq-atvorga siyosiy madaniyat ta'sirini o'rganishga nisbatan ikki asosiy yondashuv - bixevioralizm va interpretativizm farqlanadi (Ch.Teylor, R.Taker, A.Meyer, S.Uelch va boshq.). Bixevioralistik metodologik asos xulq-atvorga "stimul reaksiya" prinsipi doirasida yondashish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, insonning o'z faolligini tashqi muhit ta'siriga javob nuqtayi nazaridan tadqiq etish imkonini bermaydi. Interpretativistik asos esa, siyosiy madaniyat siyosiy hayot mazmunlarning tagiga yetish, uning mohiyatini anglash yo'lidagi izlanishlarni o'zida ifodalashidan kelib chiqadi. Bu yerda hokimiyat va boshqaruv, kishilarning siyosatda ishtiroki siyosat va huquqning o'zaro aloqasi, siyosat va iqtisod, siyosat va ma'naviyatning o'zaro nisbati muammolari jamiyat siyosiy rivojlanishining o'ziga xos matritsasi hisoblanadi.

Nazarimizda, K.S.Gadjiev taklif qilgan ta'rifni biz belgilagan maqsadga ayniqsa yaqin deb hisoblash mumkin. Nomi zikr etilgan muallif siyosiy madaniyatga "aholining aksariyat qismi tomonidan siyosiy hamjamiyat subyekti sifatida e'tirof etiladigan qadriyatlar normativ tizimi" deb qaraydi. Uning fikricha, siyosiy madaniyat siyosiy tizim xususidagi asosiy qarashlar, mo'ljallar va timsollarni o'z ichiga oladi.

Siyosiy-madaniy, siyosiy munosabatlarning amal qilishi, siyosiy munosabatlar va jarayonlarning rivojlanishi, siyosatda odamlarning ishtirok etishi prinsiplarida, kishilarning hokimiyatga, o'z siyosiy nuqtayi nazari va xulq-atvoriga bo'lgan siyosiy munosabatlarida, siyosiy ijtimoiylashuv xususiyati va qadriyatlarida aks etuvchi qadriyatlarning tavsiflarini o'z ichiga oladi.

27.2. Siyosiy madaniyat yoshlarning qadriyatlarini belgilab beruvchi omil sifatida.

Siyosiy madaniyatni yoshlarning qadriyatlarga munosabatini shakllantirish asosi sifatida tadqiq etganda, shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayoniga alohida e'tiborni qaratish, bizningcha, o'rinli bo'ladi. Bu yerda ma'rifiy, qadriyatlarga va xulq-atvorga oid elementlarni birlashtirishning maqsadga muvofiqligi o'sib borayotgan insonning jamiyat hayot faoliyati siyosiy sohasida umumiy yutuqlari mavjudligini hamda ulardan foydalanishni nazarda tutadi.

Ma'rifiy element shu bilan tavsiflanadiki, yosh inson o'z bilimlari va aql-idrokini quyidagilarga yo'naltiradi: shaxsiy (jamoaviy, davlat, ijtimoiy, mintaqaviy, global va sh.k.) siyosiy manfaatlarini ifodalashga; konstitutsiyani

va mamlakatning boshqa qonunlarini, yirik siyosiy partiyalar va boshqa ijtimoiy-siyosiy kuchlarning dasturlarini o'rganishga; mamlakatda yuzaga kelgan siyosiy munosabatlarni, sodir bo'layotgan siyosiy voqealar va hodisalarni tahlil qilishga; ijtimoiy-siyosiy hayotda, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etishning shaxsiy shakllari va usullarini namoyish etishga; xalqaro hayotdagi yetakchi siyosiy jarayonlar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishga va h.k.

Xulq-atvoriga oid element yosh inson quyidagilarda ongli ravishda ishtirok etishida ifodalanadi: referendumlarni o'tkazish vaqtida davlat ahamiyatiga molik hujjatlarning loyihalarini muhokama qilishda; turli davlat va jamoat tashkilotlari hamda organlarining ishida ishtirok etishda (shtatda yoki jamoatchilik asosida); faoliyatning muayyan turlarida (kampaniyalarda va boshqa ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda) qatnashishda; siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarga a'zolikda.

Shaxsning siyosiy ijtimoiylashuvi "yosh avlod vakillarini ijtimoiy-siyosiy tuzilmaning to'laqonli a'zolariga aylantirish usuli" sifatida yosh insonning siyosiy subyekt, siyosiy munosabatlar ishtirokchisi, fuqaro sifatida shakllanish jarayoni nuqtayi nazaridan talqin qilinadi. Umumiy siyosiy madaniyat bilan qo'llab-quvvatlangan bu jarayon jamiyatda yetakchilik qilayotgan siyosiy mo'ljallar, me'yorlar, qadriyatlar va siyosiy xulq-atvor andozalarini individ tomonidan o'zlashtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Siyosiy ijtimoiylashuv siyosiy madaniyatning yaxlit substantsiyasi sifatida "shaxs unga jamiyatning siyosiy hayotida mo'ljal olish imkonini beruvchi muayyan siyosiy bilimlar, qadriyatlar va me'yorlarni o'zlashtirishi"ga ko'maklashadi.

Siyosiy madaniyatni erkin fikrlovchi shaxsning qadriyatlarga munosabatini shakllantirish asosi sifatida o'rganishni jamiyatda yangi siyosiy-institutsional sharoitlarni yaratish hamda yoshlar siyosiy-huquqiy me'yorlarni o'zlashtirishlari uchun noyob imkoniyat yaratuvchi siyosiy submadaniyat mazmunining tahlilidan boshlash, bizningcha, o'rinli bo'ladi.

Izohli lug'atlarda "submadaniyat" atamasi "jamoat, ijtimoiy guruh qadriyatlari, mo'ljallari, xulq-atvor andozalari, hayot uslubi tizimi, yetakchi madaniyat doirasidagi mustaqil yaxlit tuzilma" sifatida, "normativ madaniyat doirasida u yoki bu hamjamiyat yoki muayyan ijtimoiy guruhni farqlash imkonini beruvchi e'tiqodlar, qadriyatlar, me'yorlar, xulq-atvor andozalari tizimi" sifatida, "yetakchi madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan va ayni vaqtda undan farq qiladigan madaniy andozalar yig'indisi" sifatida, "umuman madaniyat singari, jamoa ijodiy imkoniyatlarining mahsuli" sifatida tavsiflanadi. Shakllangan, barqaror tus olgan qadriyatlar va mo'ljallar yig'indisi jamiyatning umumiy madaniyatida, shu jumladan, aholi turli ijtimoiy-demografik va professional qatlamlarining siyosiy madaniyatida bevosita aks etadi.

Yoshlar, siyosiy submadaniyat vakillari sifatida, jamiyatda yetakchi o‘rin egallaydi. Bu vaqt o‘tishi bilan iqtisod va siyosatda, jamiyatning ijtimoiy va ma’naviy sohalarida yetakchi o‘rinni egallaydigan, XXI asrda esa, hozir shakl-shamoyilini aniq farqlash mushkul bo‘lgan vazifalarni hal qiladigan kishilarning yosh belgisiga ko‘ra tuzilgan guruhi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab respublikamizda yoshlarning qoyaviy-siyosiy ongini, ularning o‘z g‘oyaviy e‘tiqodlari, dunyoqarashi, vatanparvarlik prinsiplarini erkin ifodalashga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga molik xulq-atvorini shakllantirish, bo‘lg‘usi hayot faoliyatiga kasbiy tayyorgarlik darajasini yuksaltirish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Bu sharoitlar shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida ikki yoqlama ijobiy samara beradi va yoshlarning siyosiy bilimlari va tasavvurlari, ularning qadriyatlarini, ruhiy holati va his-tuyg‘ulari, nuqtayi nazarlari va mo‘ljallaridan iborat alohida yaxlitlikni hosil qiladi. Mazkur aniq va muayyan tavsifga ega bo‘lgan yoshlarga ijtimoiy o‘zgarishlar subyekti, noyob insoniy kapital, bo‘lg‘usi jamiyatning muhim resursi sifatida qaraladi².

Tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yoshlar hokimiyat va jamiyatning o‘ziga bo‘lgan munosabatini teran baholaydi. Yoshlarning qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, turli ijtimoiy harakatlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim tizimini isloh qilish, sog‘lom turmush tarzini tashkil etishga doir turli dasturlar va mamlakat hududida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan boshqa ko‘plab tadbirlar shunga imkoniyat yaratmoqdaki, hozirgi o‘zbek yoshlari kelajakda hayotda muvaffaqiyatlar qozonish, unda munosib o‘rinni egallashga yordam beruvchi madaniyat va ma’lumot darajasiga erishmoqdalar. Ayni vaqtda, turli birlashmalar faoliyatida, siyosiy qarorlar qabul qilish, siyosiy dasturlarni ishlab chiqish jarayonida yoshlarning ishtiroki madaniyat va ta’lim singari asosiy qadriyatlarga yigitlar va qizlarning ijobiy munosabatini mustahkamlashga ko‘maklashmoqda³.

So‘nggi yillarda yoshlarga oid oqilona siyosat olib borilishi natijasida O‘zbekistonda yigit va qizlarning ijtimoiy rivojlanishida ularning maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning qadriyatlarini va ideallarini safarbar etish, ijodiy imkoniyatlarini butun jamiyat manfaatlarida ro‘yobga chiqarish borasida ulkan

² O‘sha yerda. 238-bet.

³ Усманова А.А. Психологические основы политической активности молодежи Узбекистана. Матер. Междун. науч-прак. конфер. – Тольятти-Москва, 2012. –С. 13-15.

ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston yoshlari o‘zlarining jamiyatdagi maqsad va vazifalarini, o‘z ijodiy imkoniyatlarini amalda namoyon etishga qaratilgan mo‘ljallarini tobora teran anglab yetmoqdalar. Maorif, madaniyat va mehnatni faol o‘zlashtirish yoshlarda siyosiy masalalarni hal qilish va davlatni boshqarishda ishtirok etishga qaratilgan g‘oyaviy mo‘ljallar va maqsadlar shakllanishiga olib kelmoqda.

27.3. Yoshlarning siyosiy faolligi.

Hozirgi yoshlar bugungi kunda o‘zlarining 23 yil oldingi tengdoshlaridan o‘zgargan motivatsion faoliyati, xulq-atvori, qadriyatlarga munosabati, qiziqishlari va ideallari bilan ajralib turadi. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar turli xil – musiqiy, sport, ekologik, siyosiy, tarixiy, ijtimoiy, huquqiy qiziqishlar bo‘yicha guruhlarga birlashmoqdalar. Ular qarorlar qabul qilish jarayonida elektoratning ishonchli qismiga aylanmoqdalar, yoshlarga bevosita daxldor bo‘lgan siyosiy dasturlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etmoqdalar. Ayni vaqtda mazkur jarayon ijobiy barqarorligi bilan ajralib turadi.

Yoshlarning qadriyatlarga munosabati atrof borliqning muhim obyektlariga nisbatan munosabatlarda (shu jumladan, siyosiy masalalarni hal qilish jarayonida) ifodalangan mo‘ljallar, ularning shaxs kamol topishiga, individning ijtimoiylashuvi va siyosiylashuviga ko‘maklashadi. Yoshlarning rivojlanish va kamol topish darajasi tashqi dunyo bilan bir qatorda, ichki dunyoni ham idrok etishga ko‘maklashadi, ong va o‘zlik o‘rtasidagi o‘zaro aloqani belgilaydi. Bunda hayotning mazmuniga doir masalalar o‘z xulq-atvor va faoliyat shaklini teran tanlashni talab qiladi.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda O‘zbekiston yoshlari aholining jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida o‘z manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini istaydigan ijtimoiy faol, istiqboli porloq qismi hisoblanadi. U turli yo‘nalishlardagi qiziqishlar guruhlari birlashmoqda. Jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida, ayniqsa, siyosiy islohotlar sohasida u elektoratning ishonchli qismiga aylanadi, jamiyatning hozirgi va bo‘lg‘usi hayotiga bevosita daxldor bo‘lgan siyosiy dasturlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etadi.

Shaxsning ijtimoiylashuvi, uning jamiyat ishlariga qo‘shilishi ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Bu yerda siyosiy bilimlar, tajriba bilan bir qatorda, shaxsning qadriyatlari va mo‘ljallarini belgilovchi to‘g‘ri hayot pozitsiyasi, u yoki bu tashkilot doirasida ishlashning alohida shakli zarur.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlarni tushuntirishda yoshlarning tashkilotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning konstitutsiyaviy huquqlari “O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati asoslari

to'g'risida"gi qonuni (1991) bilan mustahkamlangan. Yoshlarning "Kamolot" jamg'armasi (1996) va keyinchalik uning negizida vujudga kelgan shu nomdagi O'zbekiston yoshlar ijtimoiy harakati (2001) yoshlarning siyosiy intilishlari, intellektual qobiliyatlari va ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi. "Kamolot" yoshlarning ijtimoiy muammolarini yechishga, eng avvalo, uning hayotdagi mo'ljallarini amalga oshirish, ishga joylashish, ta'lim olish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish muammolarini hal qilishda yordam qo'lini cho'zadi. Yoshlarning muammolarini samarali hal qilishda "Yoshlar yili" davlat dasturi (2008) ham faol ishtirok etadi. Unda komil insonni voyaga yetkazish, uning fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Qishloq yoshlari o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun sharoit yaratish masalalariga 2009-yilgi Davlat dasturida ham alohida e'tibor qaratilgan⁴.

Yoshlar tashkiloti siyosiy partiya yoki siyosiy harakatning tarkibiy qismi sifatida siyosiy hayotda ishtirok etishiga asoslangan nuqtayi nazar ijtimoiy-siyosiy harakatda yoshlarning o'rni va ahamiyatini o'rganishda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bu borada yoshlarga siyosiy hayot va faoliyatda mo'ljal olish, o'z ijobiy maqsadlarini ro'yobga chiqarish, liderlik fazilatlarini amalda namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Ma'lumki, mavjud siyosiy partiyalar aholi turli guruhlari va qatlamlarining siyosiy xohish-irodasini ifodalaydi. Ular demokratik yo'l bilan saylangan yoshlar qanoti vakillari orqali davlat hokimiyatini shakllantirishda va uning faoliyatida ishtirok etadi. Bundan tashqari, ular fuqarolik jamiyati qurish va huquqiy davlatni rivojlantirish sharoitida zarur bo'lgan yoshlar siyosiy madaniyatini tarbiyalash borasida izchil ish olib boradi.

Turli hokimiyat organlarida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar ulushi ancha katta. Siyosiy partiyalarning yoshlar qanotida 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan deputatlar ulushi 36% ni tashkil etadi. Chunonchi, Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatning o'quvchilar, yoshlar va talabalarning hayotini yaxshilashga qaratilgan qonun loyihalari ishlab chiqiladigan "Mehnat va ijtimoiy masalalar bo'yicha qo'mita"da uning tarkibidagi xalq vakillarining 5% ni yoshlar tashkil etadi. Qo'mitada faoliyat respublikada hayot faoliyatining ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va huquqiy sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Yoshlarda davlat ishlari va siyosatga qiziqish kuchli. Bilimi va kuch-g'ayrati katta, o'zining bo'lg'usi hayotini o'z qo'li bilan qurishga rag'bati kuchli bo'lgan yosh avlod – jamiyatdagi yangilanish jarayonlarida, iqtisodiy

⁴ O'sha yerda. 14, 15, 16-betlar.

islohotlarni amalga oshirishda, siyosiy qarorlar qabul qilishda, turli darajadagi qonun ijodkorligi faoliyatida muhim rol o'ynaydi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish asosida amalga oshirilgan O'zbekiston yoshlari siyosiy simpatiyalarining tahlili – yigitlar va qizlar siyosiy o'zligini anglash darajasini, Oliy Majlisga deputatlar saylovi arafasida yoshlarning muayyan liderlar, partiyalar va harakatlarga bo'lgan munosabatini, ularning hayotdagi asosiy qadriyatlarini, saylovda ishtirok etishga turtki beruvchi omillarni, yoshlarning chet eldagi asosiy siyosiy voqealar haqidagi fikr-muloqazalarini aniqlash imkonini berdi.

Olingan natijalar yoshlarning siyosiy pozitsiyasi faol ekanidan, ular davlatning muhim siyosiy vazifalarini hal qilishda o'z o'rnini va ahamiyatini teran anglashidan, nafaqat mamlakatimizda, balki chet elda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni qiziqish va katta e'tibor bilan kuzatib borishidan, jahon siyosiy liderlari faoliyatiga tanqidiy ko'z bilan qarashidan dalolat beradi.

Shu o'rinda chet elda sodir bo'layotgan asosiy siyosiy voqealarga yoshlarning munosabati alohida diqqatga sazovor. Bu yerda berilgan javoblarning aksariyati "yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi"ga, hayot faoliyatining barcha sohalariga (shu jumladan, O'zbekistondagi vaziyatga) uning ta'siriga e'tiborni qaratish, kelajak haqida qilingan prognozlar bilan bog'liq. Fikr-mulohazalar yoshlarning davriy nashrlar – matbuotdan, OAV va Internet orqali olgan axboroti bilan mustahkamlangan. Shu bilan bir vaqtda, yoshlar inqiroz tez orada tugashiga va O'zbekiston undan shikastsiz chiqishiga umid qiladi. So'rovda ishtirok etgan yigitlar va qizlarning 100% shunday xulosaga kelgan.

Yoshlar jahonda yuz berayotgan o'zgarishlarga befarq emas. Ularni jahonda sodir bo'layotgan voqealar va ularning O'zbekistondagi yashash sharoitlariga ta'siri tashvishga soladi. Bu boradagi mulohazalar yoshlarning jahondagi yangiliklarga bo'lgan qiziqishi kuchliligidan, ularning tahlil qilish va tegishli xulosalar chiqarish ko'nikmalaridan dalolat beradi.

Siyosiy madaniyatni o'zlashtirish yoshlarning siyosiy tushdagi birlashmalarga a'zo bo'lishga ijtimoiy-psixologik tayyorligiga ko'maklashadi va, u, shuningdek, yigitlar va qizlar o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun hozirgi vaqtda mavjud sharoitlarning xususiyatlari bilan bog'liq. Siyosiy madaniyatni shakllantirish yoshlarning qadriyatlarga munosabati bilan mos keladigan, obyektiv rivojlanadigan jarayon. O'z navbatida, ular yigitlar va qizlarning fuqarolik pozitsiyasi, izchil xulq-atvori shakllanishiga, o'zaro muloqot hamda shaxslararo o'zaro aloqalarning yangi shakllarini izlashga, ijtimoiy faollikni rag'batlantirishga ko'maklashadi.

Ammo, siyosiy o'zlikni anglash va faollik ko'rsatkichlarini oshirish uchun yoshlarning siyosiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish borasida izchil

va samarali ish olib borishni, yoshlarning siyosiy savodxonlik darajasini oshirish chora-tadbirlarini keng amalga oshirishni taqozo etadi. Faqat shu yo‘l bilan ularning g‘oyaviy qarashlarini mustahkamlash, mamlakatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni muhokama qilish, davlatning yoshlar siyosiy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va himoya qilish borasidagi siyosatini baholashga nisbatan immunitet qosil qilish mumkin.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar

Siyosiy madaniyat, siyosiy ong, shaxs faolligi, yoshlik davri, davriylik nazariyalari, siyosiy ijtimoiylashuv, o‘ziga xos madaniyat (submadaniyat), kasbdoshlar muhiti, anatom-fiziologik xususiyatlar, miya faoliyati.

Mavzuni takrorlash bo‘yicha savollar

1. Siyosiy madaniyat tushunchasi, uning elementlari.
2. Yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi.
3. Yoshlarning siyosiy faolligi va huquqiy asoslarga munosabati.
4. Yoshlarning o‘ziga xos madaniyati (submadaniyati)ga tavsif.

Mavzu bo‘yicha asosiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -T.: “O‘zbekiston”, 2008.
3. Karimov I.A. Bilimli va intellektual rivojlangan yoshlarni tayyorlash – mamlakatni mustahkam rivojlanishi va modernizatsiyalashning muhim sharti sifatida //Xalq so‘zi, 18-fevral 2012. 1-2-betlar.
4. Karimov I.A. Inson manfaatlarini, huquq va erkinliklarini ta’minlash hayotimizni yanada erkin va obod bo‘lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz // Xalq so‘zi, 8-dekabr 2012 . 1-3-betlar.
5. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. -С-Пб: Питер, 2001.
6. Султанова Э.С. Политическая культура. -Т.:УМЭД, 2005.
7. Усманова А.А. Психологические особенности политической активности молодежи и ее поведения как части электората. Жур. “Мир психологии” № 4, -М., 2009. –С.236-245.
8. Усманова А.А. Психологические основы политической активности молодежи Узбекистана. Матер. Междун. науч-прак. конфер. – Тольятти-Москва, 2012. -С. 13-18.

28 – MAVZU YOSHLARNING IJTIMOIIY FAOLLIGI

28.1. Yoshlarni shaxs sifatida kamol topishiga qaratilgan shart-sharoitlar.

28.2. Yoshlar tashabbuskorligining o‘ziga xosligi.

28.3. Yoshlar orzularining psixologik xususiyatlari.

28.1. Yoshlarni shaxs sifatida kamol topishiga qaratilgan shart-sharoitlar.

Hozirgi dunyoda yoshlarning faolligi ancha keng va tizimli tavsifga ega bo‘lgan, yosh insonning turli shakldagi ijtimoiy mehnat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ko‘nikmasi va xohish-istaklarini, yoshlar ijtimoiy hayotini tashkil etishning tegishli tizimi doirasida bir faoliyat turidan boshqa faoliyat turiga erkin o‘tish imkoniyatlarini nazarda tutuvchi muqobil harakatlar orqali amalga oshiriladi.

Turli muqobillar asosida shakllangan shaxsning ijtimoiy faolligi faqat fuqarolik jamiyati tarkibida shakllangan, ijtimoiy jarayonlarda insonning ongli ishtirokiga asoslangan mobil ijtimoiy tashkilot doirasida kutilgan samarani berishi mumkin.

Istiqlol yillarida O‘zbekistonda keng rivoj topgan shaxsning ijtimoiylashuvi noan’anaviy institutlari (masalan, turli nodavlat notijorat tashkilotlari) jamiyatni rivojlantirish, inson, uning manfaatlari va huquqlarini asosiy qadriyatlar sifatida e’tirof etuvchi erkin fuqarolik jamiyati va demokratik davlatni shakllantirishning zaruriy omillariga aylanadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlarning ijtimoiy harakati degan umumiy nom olgan har xil faoliyat turlarining jadal sur’atlarda rivojlanishi kuzatilmoqda. Bunday tashkilotlar jumlasiga “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, ijtimoiy xizmat кўрсатиш markazlari, Ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot markazlari, “Mehr nuri”, “Nuroniy”, “Ekosan”, “Sen yolg‘iz emassan”, “Sog‘lom avlod uchun”, “Mahalla”, “Hayot”, “Olima” xayriya jamg‘armalari kiradi. O‘tkazilayotgan “Navqiron O‘zbekiston” an’anaviy va zamonaviy san’at respublika festivali, “Asrlar sadosi” an’anaviy madaniyat festivali, zamonaviy xoreografiya va sport plastikasi xalqaro tanlovi singari ulkan loyihalarni amalga oshirish respublikamizning iste’dodli yoshlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Faoliyatning jamiyat tomonidan e’tirof etiladigani va ma’qullangani, turli sohalaridagi yoshlarining faolligi O‘zbekiston Respublikasining milliy normativ-qonunchilik bazasi, eng avvalo “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi

qonun, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatini qo‘llab-quvvatlash va uning faoliyati samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi Prezident qarori, “Barkamol avlod yili” davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi tashkiliy tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident Farmoyishi va boshqa ko‘p sonli huquqiy hujjatlar bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Bu borada davlat mamlakatda barkamol avlodni voyaga etkazish uchun zarur imkoniyatlar va sharoitlarni yaratish, yoshlarning ququqlari va manfaatlarini qimoya qilishga qaratilgan normativ-huquqiy bazani takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha izchil ish olib bormoqda. Ayni vaqtda, shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, yigitlar va qizlarning faolligini jamiyat tomonidan e‘tirof etiladigan va ma‘qullanadigan faoliyat orqali amalga oshirish bir tomondan, ijtimoiy munosabatlarga tortish uchun noyob vosita hisoblanadi, boshqa tomondan esa, faoliyat motivlari va maqsadlarini, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar me‘yorlarini o‘zlashtirish borasidagi faoliyatni rivojlantirishning yangi darajasini, uning o‘smirlik davri uchun sensitiv xususiyatga ega bo‘lgan muayyan bosqichini o‘zida ifodalaydi, zero, unda o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va namoyon etishga, turli-tuman ehtiyojlarini qondirishga harakat qilayotgan yigitlar va qizlarni rivojlantirish omillari, ayniqsa, bo‘rtib namoyon bo‘ladi. Bunda yoshlarning ertangi kunini belgilashga yordam beruvchi “yaqin rivojlanish mintaqasi” bo‘lib shu yoshda shaxsning asosiy ehtiyojlarini jamiyatga qarab mo‘ljallagan holda qondiruvchi ijtimoiy maqbul faoliyatning g‘oyaviy mazmuni xizmat qiladi.

28.2. Yoshlar tashabbuskorligining o‘ziga xosligi.

Jamiyat tomonidan e‘tirof etiladigan va ma‘qullanadigan faoliyat yoshlar o‘rtasida ma‘naviy hamkorlikka asoslangan muloqotning barcha shakllarini kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Bunda bosh omil sifatida muloqotning o‘zi emas, balki muloqotning turli-tuman shakllarini yo‘lga qo‘yishni ta‘minlovchi ijtimoiy faoliyat amal qiladi. Ammo, shuni tan olish lozimki, ijtimoiy faoliyat izchil shakllantirishni talab qiladi. Muayyan tarkib, tuzilma hamda mazmunga ega bo‘lgan mazkur faoliyatni maxsus tashkil etishgina yigitlar va qizlarning tegishli shaxsiy motivlar hamda ehtiyojlar sohasi shakllanishini ta‘minlaydi va mazkur faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj hayot faoliyati usuliga aylanishiga olib keladi.

Ayni vaqtda, jamiyat tomonidan keng belgilanadigan o‘quv faoliyatidan farqli o‘laroq, jamiyat tomonidan e‘tirof etiladigan va ma‘qullanadigan faoliyat vaziyatga qarab, turli hajmlarda va shakllarda tashkil etiladi. Shu bilan birga, o‘smirlik davrida rivojlanadigan o‘z qobiliyatlarini namoyon etish hamda o‘z

imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyoj mazkur faoliyatni tashkil etishni talab qiladi va yoshlar unga tayyor bo'lishlari, moslasha olishlari va faollik ko'rsatishlari lozim.

Bu turdagi faoliyatning psixologik mohiyati shu bilan belgilanadiki, u umumiy ishga ijodiy yondashuvchi yosh insonning o'z shaxsiyatini namoyon etish orqali jamiyatga foyda keltirishini nazarda tutadi. Bu yerda foyda keltirish deganda o'z atrofida g'amxo'rlik qilish, boshqa odamlarga yaxshilik qilishga ongli ravishda intilish tushuniladi. Ammo bu o'z maslagidan voz kechish emas, balki o'zining ijtimoiy mohiyatini amalda namoyon etish, ijtimoiy faollik ko'rsatish hisoblanadi.

Bu yerda gap ijtimoiy mohiyatni namoyon etish shakli sifatidagi shaxsiy mas'uliyatni shakllantirish, jamiyatga uning real a'zosi sifatida qo'shilishning birdan-bir yo'lini anglab yetish haqida boradi. Bu jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan va ma'qullanadigan faoliyat natijasining uni amalga oshirish ko'nikmasi bilan emas, balki jamiyat tomonidan berilgan baho bilan aloqasini talab qiladi. Bunda yoshlar ijtimoiy faoliyatini baholash mezoni sifatida mazkur faoliyat mahsuli emas, balki umumiy ishni bajarishga mas'uliyat bilan yondashuvning shakllanish darajasi amal qiladi.

Tadqiqotlarning natijalari yoshlar turli xil – musiqiy, sport, ekologik, siyosiy, tarixiy, ijtimoiy, huquqiy qiziqishlar bo'yicha guruhlariga faol birlashayotganliklarini ko'rsatadi. Bunday tashabbuslar “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, “O'zbekiston madaniyat va san'at forumi” jamg'armasi, “Kelajak ovozi” yoshlar tashabbuslari markazi, yoshlarning klublari, o'quv yurtining madaniy-ma'rifiy tadbirlari va hokazolar tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Ularning orasida barqarorlik darajasi va tashkil topish xususiyati har xil bo'lgan, chunonchi: tashkiliy tuzilmasi qayd etilgan va qayd etilmagan, mavhum va aniq belgilangan, doimiy faoliyat olib boruvchi va tez orada tarqatib yuboriluvchi birlashmalar farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy tusga ega bo'lgan, amaldagi siyosiy partiyalarning yoshlar qanoti doirasida faoliyat olib boradigan yoshlar guruhlarini keng tarqalgan.

Bu murakkab, sertarmoq va ko'p darajali hodisaning paydo bo'lishi yoshlar tashkilotlarini yigitlar va qizlarning qiziqishlari yo'nalishi, faoliyat xususiyati, motivlari, bir-biri hamda jamiyat bilan o'zaro munosabatlari xususiyatiga ko'ra toifalarga ajratish tendentsiyasini namoyon etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 18-19 yoshda kichik kurslarning talabalari ijtimoiy faoliyatning o'zlariga maqbul bo'lgan har xil turlarida o'z imkoniyatlarini sinab ko'rishga harakat qiladilar. 1-2-kurslarda yoshlar o'zlarini moddiy faoliyatning faol subyekt deb his etadilar. Bu yoshlarning o'qishga bo'lgan munosabatida ijobiy aks etish bilan bir qatorda, ularning yuqori kurslardagi hayot faoliyatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. 20-21 yoshda jamiyat

tomonidan e'tirof etiladigan faoliyat atrofida muloqot, o'z shaxsiyatini samarali namoyon etish maqsadida manfaatlarni qondirish muammolari birinchi o'ringa chiqadi⁵.

28.3. Yoshlar orzularining psixologik xususiyatlari.

Yoshlarning rivojlanishi bilan bog'liq hozirgi ijtimoiy vaziyat ular o'zini qurshagan muhit voqeligida tobora faol ishtirok etayotgani bilangina emas, balki ularning mazkur muhitga bo'lgan munosabati yanada subyektivlashib borayotgani bilan ham tavsiflanadi. Bunda yigitlar va qizlarning orzulari alohida ahamiyat kasb etadi. Ular xohish-istaklar obrazi sifatida amal qilib, yoshlarga o'z shaxsiyatini namoyon etish, mustaqil faoliyat olib borish, o'zini shaxs sifatida kamol toptirish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi.

Ilmiy izlanishlar, insholarni tadqiq etish natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbga bo'lgan o'z qiziqishini yoshlarning turli harakatlari va tashkilotlariga qo'shilish yo'li bilan ro'yobga chiqarishga intiluvchi yigit-qizlar orasida birinchi va ikkinchi kurslarning talabalari ko'pchilikni tashkil etadi – 83% dan 95% gacha; uchinchi kurs talabalari (20-21 yosh) bu haqda nisbatan kamroq gapirishadi – 62%;, 4-5-kurslarda bu ko'rsatkich 40-44% ni tashkil etadi.

“Siz ko'proq nima haqida orzu qilasz?”, degan savolga yoshlardan har xil javoblar olingan. Kimdir shaxsiy tUSDagi orzularni birinchi o'ringa qo'ygan (65%-70%). Kimdir keng ijtimoiy tUSDagi orzularga urg'u bergan. Ayni vaqtda, talabalar yoshlarning jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan turli harakatlarida ishtirok etish bilan bir qatorda, ijtimoiy-siyosiy mavzular (O'zbekiston va boshqa chet el mamlakatlari o'rtasidagi davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, xalqaro mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga hissa qo'shish, jahondagi inqirozli vaziyatlarni bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritish, mamlakatning siyosiy hayotini rivojlantirish va h.k.)ga urg'u beradilar. Bunday respondentlar soni turli yosh guruhlarida 30%-35% ni tashkil etadi, bu haqda o'smirlar ko'proq gapiradi. Umumiy fonda 5-kurs talabalari ajralib turadi: ular uchun keng ijtimoiy tUSDagi orzular davlat va jamiyat taqdiri bilan bog'liq.

Barcha yosh guruhlarida uchun shaxsiy tUSDagi orzular asosan bugungi kunning dolzarb muammolari bilan bog'liq. Ular qatoriga o'qishda, bo'lg'usi kasbda yutuqlarga erishish, o'zaro muloqot va yangi taassurotlar, safarlar va sayohatlar, mansab pillapoyalaridan ko'tarilish haqidagi orzularni kiritish mumkin. Keng ijtimoiy tUSDagi orzular esa ijtimoiy-siyosiy faollik, yoshlarning turli tashkilotlari faoliyatida, turli darajadagi saylov jarayonlarida ishtirok etish,

⁵ Усманова А.А. Динамика социально-политического развития молодежи (на примере анализа научных изысканий студентов) //Общественное мнение. Права человека, № 2. 2011. 110-113-бетлар.

modernizatsiya, yangilanish va demokratik islohotlar yo'lida jamiyatni rivojlantirishning konseptual asoslarini o'rganish va amalga oshirish bilan bog'liq.

Talabalar orzularining umumiy fonida yigitlar va qizlar faolligini belgilovchi omillardan biri hisoblangan o'zaro muloqotdan qoniqish darajasi ancha muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxsiy muloqotning muhimlik darajasi 1-2-kurs talablari uchun 55-60% ni, 3-4-kurs talabalar uchun 40% ni, 5-kurs talabalar uchun esa 30% ni tashkil etadi. Muloqot ko'rsatkichining pasayib borishini shu bilan izohlash mumkinki, o'quv yurtini bitirish muddati yaqinlashishiga qarab yigitlar va qizlar o'quv jarayonini yakunlash bilan bog'liq muammolarni yechishda ko'proq band bo'ladilar, bo'lg'usi mehnat faoliyati, mansab pillapoyalaridan ko'tarilish, jamiyatda yuksak mavqe va maqomga erishish, oila qurish va boshqa shunga o'xshash muammolar haqida ko'proq o'ylaydilar. Birinchi kurs talabalar orasida esa muloqotning ahamiyati juda katta. Uning vositasida 17-21 yoshdagi yigitlar va qizlar o'zaro aloqalarga kirishish va axborot makoniga faol qo'shilish imkoniyatiga ega bo'ladilar⁶.

Ijtimoiy faoliyat turlarida va ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etish orqali muloqot qilish va o'z bilimlarini oshirishga intilish 21 yoshda ayniqsa kuchayadi (bu ma'lumotlarni individual suhbatlar va kuzatishlarning natijalari ham tasdiqlaydi).

Mazkur blokda qiziqishlar soni oldingi natijalarni ortda qoldiradi. Bunda muloqotga bo'lgan qiziqishlar "O'zbekiston madaniyat va san'at forumi" jamg'armasi, "Kelajak ovozi" yoshlar tashabbuslari markazi tashkil etayotgan tadbirlarda ishtirok etish orqali yangi odamlar bilan tanishish, do'stlari bilan birga muzeylar, kinoteatrlar, ko'rgazmalarga borish, umumiy yotoqxonada, birgalikdagi sayrlarda o'z do'stlari bilan muloqot qilish, o'zi ko'rgan va ommaviy axborot vositalarida eshitgan voqealar haqida suhbatlashish bilan bog'liq.

Jamoat arbobi bo'lish istagi bilan bog'liq qiziqishlar to'plami o'tkazilgan test tadqiqoti jarayonida ikki marta aniqlandi. Kartochkalarni qayta saralash, bizningcha, bejiz amalga oshirilmagan. Bu qizning kelajakda jamiyat tomonidan e'tirof etilgan ixtisoslikni o'zlashtirish niyati jiddiy ekanidan dalolat beradi. Mazkur ma'lumotlar qizning kasbiy intilishlarini aniqlashga qaratilgan boshqa metodika ("qiziqishlar kartasi") bo'yicha tekshirish jarayonida ham o'z tasdig'ini topdi. Turli kasblarning taklif qilingan ro'yxatida qiz o'quv yurtining ijtimoiy foydali faoliyatida, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarida, talabalar yotoqxonasining ijtimoiy foydali faoliyatida ishtirok etishni tanlagan.

⁶ O'sha yerda. 111-112-betlar.

Talabalar ilmiy izlanishlarining tahlili muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondirish darajasi turli chet tillarini o'zlashtirishga, safarlar va sayohatlarni rejalashtirishga o'z ta'sirini ko'rsatishidan dalolat beradi. Talabalar turli chet tillarini o'rganishda jiddiy yutuqlarga erishganlar. Chet tillariga bo'lgan qiziqish talabalar shaxsiy rivojlanishining turli yosh guruhlarida 70% dan 93% gacha izchil o'sib boradi.

Shu bilan bir vaqtda, yoshlar uchun safarlar va sayohatlar haqidagi orzular ham muhim ahamiyatga ega: birinchi va ikkinchi kurslarda ularning ko'rsatkichi 63-67% darajasida; uchinchi kursda – 70% atrofida; to'rtinchi kursda – 63%; beshinchi kursda – 50%. O'smirlar orzularining umumiy fonida va qiyosiy tahlil natijalarini hisobga olganda, 23-24 yosh (5-kurs)da sayohat qilish, o'zning dunyo haqidagi tasavvurlari va muloqot doirasini kengaytirish orzusi ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi (yoshlarning o'zi individual suhbatlarda buni quyidagicha tushuntiradilar: “ko'ngilga sig'maydi”, “hal qilish talab etiladigan muhimroq va jiddiyroq muammolar bor”, “hammasining o'z vaqti bor”, “hozir bo'lg'usi ish masalasini hal qilish kerak” va sh.k.). 17-21 yosh (1-3-kurs)da esa, aksincha, talabalarning dunyo bo'ylab sayohat qilish, yangi odamlar bilan uchrashish orzu-istaklari ularning ijtimoiy dunyodagi qiziqishlari va o'zaro aloqalari doirasini asoslaydi va kengaytiradi⁷.

Shunday qilib, talabalarning ilmiy izlanishlari (insholari) va qiziqishlarini mazmun jihatidan tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqot natijalari yigitlar va qizlar shaxsini kamol toptirishda ular shug'ullanuvchi ijtimoiy faoliyat turlari hal qiluvchi omilga aylanishini ko'rsatadi. Ayni vaqtda, izchil kamol topish va ulg'ayish darajasiga qarab, yuqori kurs talabalari (22-24 yosh)da u kasbni o'zlashtirishga qaratilgan shaxsiy (pragmatik) qiziqishlarni boyitishga xizmat qiladi. Bunday faoliyatning ijtimoiy xususiyati shaxsiy ahamiyat kasb etadi va shaxs ulg'ayishiga qarab uning o'z ijtimoiy mavqeini oshirishga bo'lgan intilishi kuchayib boradi. O'zini qurshagan ijtimoiy muhit e'tiborini qozonishga bo'lgan intilish ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ammo 17-21 yoshda (quyi kurslarda) jamoat e'tiborini qozonish yoshlar uchun dolzarb va hayotiy muhim tus oladi. Ijtimoiy faoliyat bilan shug'ullanish orqali jamoat e'tiborini qozonish istagi o'rta kurs talabalari (21-22 yosh) orasida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Tadqiqot natijalari 22-24 yoshda talabalar (taxminan 35%) saylov kampaniyasida ishtirok etish, umumdavlat ahamiyatiga molik masalalarni davra suhbatida muhokama qilish, amaldagi siyosiy partiyalarning yoshlar qanoti ishida ishtirok etishga ko'proq qiziqishini ko'rsatadi.

⁷ O'sha erda. 112-114 betlar.

Yuqori kurs talabalarining rivojlanish jarayonida ijtimoiy vaziyat nisbatan siyosiylashgan bo‘ladi. Yoshlarning fikricha, u davlat sektoriga ishga joylashish, mansab pillapoyalari bilan ko‘tarilish, ijtimoiy-siyosiy faollik uchun yosh intellektual kuchning foydaliligi ish beruvchilar tomonidan e‘tirof etilishiga erishishga ko‘maklashadi. Ayni vaqtda, quyi kurslarning vakillari uchun saylovda ishtirok etish va o‘z fuqarolik burchini ado etish shaxsiy nuqtayi nazardan ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Mazkur hodisani har tomonlama baholash, hech shubhasiz, O‘zbekistonni rivojlantirishning hozirgi tarixiy sharoitlari, yoshlar hayot faoliyatini tashkil etish xususiyati bilan bog‘liq. Bu omillarni hisobga olish yoshlarga munosabatni shakllantirish, mazkur birlashmalarda ishtirok etayotgan yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Yoshlarning ijtimoiy faoliyat turlariga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish o‘smirlik davrida shaxsning ruhiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog‘liq. Bunda yoshlarning jamoat e‘tiborini qozonishga bo‘lgan faol intilishi ular ijtimoiy pozitsiyasining shakllanish jarayonida namoyon bo‘ladi. Bu yerda gap ontogenezing o‘smirlik davrida ijtimoiy yetilish jarayoniga xos bo‘lgan yoshlarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatlarini namoyon etishga intilishini belgilovchi psixologik omillar haqida boradi.

17-25 yashar shaxslarning ijtimoiy faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga bo‘lgan qiziqishlari, motivlari, qadriyatlarga munosabati tahlili shuni ko‘rsatadiki, 17-19 yoshda o‘z ijodiy “Meni”ni yoshlar tashkilotlariga, keng ijtimoiy munosabatlar davrasiga faol qo‘shilish yo‘li bilan yorqin ifoda etishga intilish namoyon bo‘ladi. O‘zini shaxs sifatida anglab yetish va o‘zining shaxsiy fazilatlarini baholash yoshlarda turli ijtimoiy harakatlarda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. 17-22 yashar shaxslarda jamoat e‘tiborini qozonish, unda o‘ziga nisbatan ishonch uyg‘otishga erishish hayotning bosh tamoyili(prinsipi)ga aylanadi. Shu tufayli ham yoshlar ijtimoiy foydali faoliyat turlarini izlashga faol kirishadilar va ijtimoiy aloqalarning turli darajalarida ijobiy baho oladilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 17-21 yashar yigitlar va qizlar (1-2-kurs talabalarida) ijtimoiy munosabatlar tizimida o‘zini shaxs sifatida anglash, ijtimoiy ahamiyatga molik subyekt sifatida idrok etish darajasi keng ijtimoiy tuzdagi orzular umumiy fonida bo‘rtib namoyon bo‘lishi bilan ajralib turadi (83-95%). 21-22 yoshda (3-kurs talabalarida) u 62% gacha pasayadi. Ijtimoiy faoliyat turlarida ishtirok etishga qiziqish 20-21 yoshda, ayniqsa, kuchayadi. Rivojlanishning bu bosqichida yoshlarda jamoat e‘tiborini qozonish, o‘z tengdoshlari, boshqa odamlar orasida ajralib turishga intilishning kuchayishi kuzatiladi. 22-24 yoshda o‘zining jamiyatga daxldorligini anglab yetish jamiyat tomonidan e‘tirof etiladigan va ma‘qullanadigan ishlardan asta-sekin

uzoqlashish va o'zining bo'lg'usi kasbiy faoliyatiga e'tiborni kuchaytirishga bo'lgan ehtiyojni paydo qiladi. Bunda kasbiy faoliyatga qarab mo'ljal yo'nalish olish ijtimoiy-siyosiy tus olib boradi.

Shunday qilib, jamiyat tomonidan e'tirof etiladigan va ma'qullanadigan faoliyatga yigitlar va qizlarning qo'shilishi xususiyatlarini hamda jamiyat rivojlanishining hozirgi sharoitida yoshlarning faollik darajasiga ularning ta'sirini o'rganish yosh insonni kamol toptirishni ta'minlovchi bir qator omillarni qayd etish imkonini beradi:

1) ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni rivojlantirish qonuniyatlarini shaxsning integral ehtiyoji – o'z "Meni"ni ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish omili sifatida tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. O'smirlik davrida bu birinchi o'rinda turadi;

2) ijodiy "Men"ni rivojlantirish izchil jarayon bo'lib, shaxs o'z ijtimoiy imkoniyatlarini anglab yetishi darajasidan ularni shakllantirish orqali ijtimoiy nuqtayi nazarni aniq ifodalash va unda sifat o'zgarishlari yasashga qarab boradi;

3) ijtimoiy munosabatlar me'yorlarini o'zlashtirish, o'zlikni anglab yetish, o'z shaxsiyatini amalda namoyon qilish ijtimoiy hodisalar va jarayonlar hamda ijtimoiy aloqalar mazmunini anglab etish uchun imkoniyat yaratadi, shaxs o'zining faol hayot pozitsiyasini belgilashiga ko'maklashadi;

4) o'smirlik davridagi qiziqishlar ushbu yosh guruhi vakillarining jamiyat, jamoa va ijtimoiy aloqalar tizimidagi o'rni ta'sirida birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy faoliyat turlariga ijodiy asos sifatida teng darajada ongli yondashish ma'rifiy qiziqishlarning kuchayishiga, ular keng, barqaror va ta'sirchan xususiyat kasb etishiga imkoniyat yaratadi;

5) o'smir voyaga yetishiga qarab uning o'z ijodiy imkoniyatlariga bo'lgan munosabati va bahosi real va haqqoniy ko'rinish kasb etib boradi. Ijtimoiy faoliyat turlarining yoshlarni shaxs sifatida kamol toptirishdagi ahamiyati ular hayot mo'ljallarini qay darajada to'g'ri belgilashlariga bog'liq bo'ladi.

Umuman olganda, hayot faoliyatining hozirgi sharoitlarida yoshlarning ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishga bo'lgan intilishi ularning shaxs sifatida kamol topishiga, dunyoqarashining shakllanishiga, bilimning turli sohalarida ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Prinsipiiallik shakllanadi, e'tiqodlar, mas'uliyat va burch hissi rivojlanadi. Xulq-atvorda ma'naviy tafakkurning o'rni va ahamiyatini kuchaytirish shaxsiy rivojlanishning muhim xususiyatiga aylanadi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar

Yoshlar, ijtimoiy faollik, shaxs kamoloti, yoshlar tashabbuskorligi, faoligi, yoshlar orzulari, ijtimoiy yo'nalganligi, ijtimoiy-psixologik omillar, ijtimoiy qiziqishlar, muloqotga bo'lgan ehtiyoj.

Mavzuni takrorlash bo'yicha savollar

1. Yoshlarni kamol inson bo'lib shakllanishiga qaratilgan shart-sharoitlar.
2. Yoshlarning ijtimoiy yo'nalganligi.
3. Yoshlarning qiziqishlari va ularning ro'yobga chiqish shart-sharoitlari.
4. Yoshlar orzularining psixologik xususiyatlari: shaxsiy va ijtimoiy yo'nalganligi.
5. Yoshlar tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash shart-sharoitlari.

Mavzu bo'yicha asosiy adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T., 1997
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: "O'zbekiston", 2008.
3. Karimov I.A. Bilimli va intellektual rivojlangan yoshlarni tayyorlash – mamlakatni mustahkam rivojlanishi va modernizatsiyalashning muhim sharti sifatida //Xalq so'zi, 18-fevral 2012. 1-2-betlar.
4. Karimov I.A. Inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta'minlash hayotimizni yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimiz // Xalq so'zi, 8-dekabr 2012 . 1-3-betlar.
5. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. -С-Пб: Питер, 2001.
6. Усманова А.А. Динамика социально-политического развития молодежи (на примере анализа научных изысканий студентов) //Общественное мнение. Права человека, №2. 2011. -С.108-116.
7. Усманова А.А. Формирование новой социальной ситуации развития молодежи в условиях культурно-исторических преобразований общества. Матер. научно-практической конференции на тему «Новейшая история Узбекистана: теоретико-методологические основы, опыт изучения, источники и методы». 2013. -С.190-195.

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

A.A. Usmanova

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

O'quv qo'llanma

Muharrir: *Z.Yu. Tashpulatova*

Maket: *S.N. Matsak*

Nashrga tayyorlangan materiallarning sifati, keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa materiallarning aniqligi, shuningdek, ochiq nashr etish uchun man etilgan materiallarni ommaviylashtirgani uchun qo'llanma muallifi javobgardir.

JIDU ruxsatisiz qayta chop etish man etiladi.

Formati 84x108. 1/32. Hajmi 19 b.t.
Nusxa adadi 50 ta. Kelishilgan narxda.

JIDUda chop etildi.
100077, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 54.